



28.08.2020  
KE-41

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BIOXILMA-XILLIK  
VA UNING MUHOFAZASI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**(Qayta nashr)**

**TOSHKENT – 2020**

UO'K: 574.1(075.8)

KBK 28.087ya7

K 71

**K71 Bioxilma-xillik va uning muhofazasi. –T.: «Инновацион  
ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 192 bet.**

**ISBN 978-9943-6600-5-2**

O'quv qo'llanma biologik xilma-xillikni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan bo'lib bakalavrlarni tayyorlash Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan.

Biologik xilma-xillikni asrash va muhofaza qilishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat siyosatining maqsadli vazifalari aniq misollar yordamida belgilab berilgan.

O'quv qo'llanmada har bir mavzuni talaba tomonidan yaxshi o'zlashtirishlari uchun nazorat savollari, atamalar ro'yxati, turli jadval va sxemalar, test savollari o'rin olgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtining ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va magistr'larga mo'ljallangan. Undan ekologiya sohasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va shu soha mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

UO'K: 574.1(075.8)

KBK 28.087ya7

***Mualliflar:***

**D.O. Azimova, D.Sh. Yodgorova, L.Sh. Egamberdiyeva, B.T. Jabborov**

***Mas'ul muharrir:***

**R.H. Allaberdiyev** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrası mudiri.

***Taqrizchilar:***

**T.U. Raximova** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, b.f.d.;

**G.S. Mirzayeva** – O'z FA Zoologiya instituti, Entomologiya laboratoriyasi mudiri, b.f.n.

**ISBN 978-9943-6600-5-2**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019;

© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.

*«...Kishilik tarixining butun davrida insonlar tabiat in'omlaridan foydalanib kelishgan.*

*Biz hamisha tabiatdan oldik, ammo evaziga hech narsa bermadik. Hozirgi vaqtda tabiatdan nooqilona foydalanish oqibatlari ochiq-oydin ko'zga tashlanib qoldi. Iqlimning o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, biologik xilma-xillikning tez sur'atlar bilan yo'qolib borishi bunga misol bo'la oladi...»*

***(BMT sobiq Bosh kotibi Pan Gi Munning  
xalqaro Yer kuni munosabati bilan jahon  
hamjamiyatiga qilgan murojaatidan)***

## **KIRISH SO'ZI**

1992-yilda BMTning Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan atrof muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiya imzolandi. 1993-yildagi kelib, 168 davlat uning ishtirokchisi bo'ldi. 1995-yilda O'zbekiston ham ushbu Konvensiyaga qo'shildi. Biologik xilma-xillik deganda, barcha tirik organizmlarning populatsiya, tur va ekotizim darajasidagi yig'indisi tushuniladi. Ekotizimlarning mahsuldorligi, ularning o'zini-o'zi boshqarishi va tiklay olishi, tabiiy va antropogen omillarning ta'siriga bardosh bera olishi bioxilma-xillikka bog'liq ekanligi ko'plab olimlar tomonidan aniq isbotlab berilgan. Hozirgi kunda Biologik xilma-xillik noyob qiymatga va umumjahon ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etilmoqda.

Biologik turlarni saqlashning ahamiyatini chuqur anglash, xalqaro hamjamiyatning xabardorligini oshirish maqsadida BMT tashabbusi bilan 22 may "Xalqaro biologik xilma-xillik kuni" deb e'lon qilingan.

Yer yuzasining biologik resusrlari odamzodning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun hayotiy zaruriyatdir. Sayyoramizning biologik xilma-xilligi asosini biologik turlar tashkil etadi. Ularning birortasi yo'q bo'lib ketsa o'rnini mutlaqo to'dirib bo'lmaydi. Biologik xilma-xillik muammolari bugunda klassik biologik chegaralaridan chiqib ketdi. Ularni hal etishda sistematika, ekologiya biogeografiya sohasidagi ma'lumotlardangina emas, balki landshaftshunoslik, tabiatdan foydalanishning turlari, sohalari, iqsodiyot, sotsbiologiya va

boshqa sohalarning ma'lumot va uslubiy apparatlaridan foydalanish talab etilmoqda. Shu bilan birgalikda yovvoyi flora va fauna na ma'muriy va na davlat chegaralarini bilmaydi. Shunga asosan Konvensiya ishtirokchilari biologik xilma-xillikni saqlash umuminsoniy muammolar ekanligini tasdiqlaydilar. 1998-yilda xalqaro tashkilotlarning (GEF, PROOH) moliyaviy ko'magi bilan O'zbekiston Respublikasining biologik xilma-xilligini saqlash bo'yicha Milliy strategiya va ishlar rejasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ma'qullangan (Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 139-sonli qarori) ushbu hujjat biologik xilma-xillikni saqlash sohasidagi asosiy yo'nalishlar va tadqiqotlar rejalari, amaliy faoliyat va ta'limning 1998-2007 va 2017-yilgacha bo'lgan istiqbolini belgilab berdi. Unda uchta asosiy masala qo'yilgan: maxsus qo'riqlanadigan hududlar tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish; biotxilma-xillikni saqlash sohasidagi ma'lumotlarni yetkazish va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish; biologik resurslardan foydalanishda ularga putur yetkazmaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy qilish.

Biologik xilma-xillik, oddiy hayotiy shakllarga nisbatan ancha keng qamrovli. U nafaqat amaliy tekshirishlarning yo'nalishlarini aniqlaydi, balki shunday maqomga egaki, agar biologik xilma-xillik mavjud bo'lsa, ekotizimning barqarorligi mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham uni doimiy ravishda himoya qilish maqsadga muvofiq va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida biologik xilma-xillikni asrash masalasiga alohida e'tibor beriladi

## **1-§. Bioxilma - xillik tushunchasi va uning atrof - muhit muhofazasidagi o'rni**

Bioxilmaxil-xillik yerdagi barcha hayotning xilma-xilligini hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar, ularning genlari va ekotizimlarini anglatadi. "Bioxilmaxil-xillik" terminida ma'lum bir organism to'g'risida biologik ma'lumot emas, balki biologik dunyoning barcha qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabat o'z aksini topadi. Ko'pincha Bioxilma-xillik uch bosqichda ko'rib chiqiladi: turlar xilma-xilligi, ya'ni barcha hayvonlar va o'simliklar xilma-xilligi, shu jumladan, qo'ziqorinlar va mikroorganizmlar; genetik materialning xilma-xilligi; ekotizimli xilma-xillik ekotizimlar xilma-xilligi (masalan, o'rmonlar, tog'lar, dasht yoki savanna, cho'llar va boshqalar). Birgalikda bu darajalar bioxilma-xillikning tarkibiy qismlarini shakllantiradi.

Bioxilma-xillik-jamyatning iqtisodiy, ekologik va madaniy-estetik ehtiyojlarini qondirishning dolzarb va salohiyatli resursi hisoblanadi. U bo'lmasa jamyatning barqaror rivojlanishi mumkin emas. Biroq, bu ham ilmiy doiralarda tan olingan, dunyo genofond, biologik turlar va shakllantiradigan ekotizimlar nuqtayi nazaridan tezlik bilan yanada bir xillashib boryapdi. Buning sababi inson ta'siri bo'lib, avvalambor butun dunyo bo'ylab ta'minot, ishlab chiqarish, savdo, qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanishi, uy-joy qurilishi, aholi o'sishining zamonaviy modellarning tez yoyilishi bois, biologik xilma-xillikka inson ta'siri yuksak darajada o'smoqda. Bioxilma-xillikning na iqtisodiy na ekotizim ahamyati hali keng ravishda ma'lum emas. Ayrim hollarda kishilar ekotizimi ichida biologik turlarning o'zaro bog'liqligi va qaysi bir turning yuqolishi boshqasiga ta'siri oqibatini yetarlicha hisavvur qila olmayaptilar. XXI asrga qadam qo'yilishi bilan bioxilma-xillikning kamayishini sekinlashtirish va borini saqlab qolish juda katta muammoga aylanib bormoqda.

**Bioxilma-xillikning muhimligi.** Biologik xilma-xillik ham jahon hamjamiyati uchun, ham har bir davlat uchun muhim hayotiy manba hisoblanadi. U iqtisodiy faoliyatning va yashash uchun manba topishning asosida yotibdi

Uni saqlash va samarali foydalanish esa inqirozsiz rivojlanish uchun mutloqo zarurdir. Uni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash

kelajak avlodlar ijtimoiy foniga hissa qo'shish bilan barobar, negaki hatto go'yo insonga mutlaqo foyda keltirmaydigan hayot shakllari ham hayot sharoitlarini o'zgartirishda muhim bo'lishi mumkin.

Bioxilma-xillikning shunday yovvoyi va xonaka yoki madaniylashgan biologik turlari tarkibi oziq-ovqatlarning va ko'pgina dori-darmonlarning shuningdek, sanoat mahsulotlarining almashlab bo'lmaydigan yagona manbai hisoblanadi. AQSH kabi industrial rivojlangan davlatlar Yalpi Milliy Mahsulotning (YaMM) 4,5% ga yaqini faqatgina yovvoyi turlardan foydalanishdan oladi. Kam rivojlangan davlatlar uchun bu raqam ancha yuqori bo'lishi mumkin. Madaniy o'simliklar turlari va xonakilashgan hayvonlarning zamonaviy tijorat ahamiyati ancha yuqori, masalan O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlari YaMMning 45%ni tashkil etadi. Ayniqsa, kam rivojlangan davlatlar uchun bu borada ko'p daromad olish iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilanmasada, ular xalqlar uchun hayot kechirish manbai hisoblanadi. Misol uchun Kanada aholining 4/3 qismi uchun yovvoyi tabiat iste'mol qilinadigan oqsilning asosiy manbayi hisoblanadi, rivojlanayotgan davlatlardagi deyarli 80% kishilar uchun yovvoyi hayvonlar va o'simliklardan olinadigan an'anaviy dori-darmonlar sog'liqni saqlashning asosiy birinchi chora-tadbirlari hisoblanadi. Hattoki zamonaviy farmokopiya dori-darmonlarning 1/4 qismi tarkibida o'simliklarning foydalaniladigan faol tarkibiy qismlari mavjud bo'lib undagi topilmagan imkoniyatlar foydali moddalarning kichik bir qismini tashkil etadi.

Biologik xilma-xillik biosferani shakllantiradi, un-da boshqa biologik turlar bilan birga inson ham istiqomat qiladi va yashovchanlik va muvaffaqiyat uning holatiga bog'liq O'tishmishda insoniyat faoliyati tabiat jarayonlari miqyosiga taqqoslanganda unchalik keng emas edi. Hozirgi vaziyat boshqacha bo'lib insoniyat XXI asrga yaqinlashgani sari yuz berayotgan iqlimiy o'zgarishlar, cho'llanish, yer deqratsiyasi va boshqa xavflar biz o'z kelajagimiz asosiga ham milliy darajada ham jahon miqyosida talofat yetkazayotganimizni ko'rsatmoqda Markaziy Osiyo mintaqasining noto'g'ri rivojlanishi oqibatida yuzaga kelgan Orol inqirozi bunday rivojlanish alohida mintaqalar ham umuman sayyoramiz uchun unchalik xavfli oqibatlarga olib kelishining yaqqol misolidir.

**Bioxilma-xillik haqida konvensiya.** Ilgari ko'p davlatlarda Bioxilma-xillikni saqlashga unchalik katta ahamiyat berilmas edi. Biroq dunyo oldida turgan muammoni anglash darajasi oshishi bilan bioxilmaxillikning zarurligini tushunish darajasi ham oshdi. Bugun biologik xilma-xillikni saqlash global ustuvor ahmiyat kasb etadi va shunday sifatda davlatlarning barqaror rivojlanish rejasiga kiradi.

1992-yilda BMTning Atrof-muhit va Rivojlanish bo'yicha konferensiyasida 156 ta davlat imzolagan Bioxilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya yo'nalishda hal qiluvchi qadam hisoblanadi (Rio-de-Janeyrodagi "Yer muammolari bo'yicha oliy darajadagi uchrashuv") 1993-yilda u xalqaro hujjat sifatida kuchga kirib 1995-yil oxirida 120 davlatda jumladan O'zbekistonda ham ratifikatsiya qilindi. Konvensiyaning asosiy maqsadlari:

- yerning biologik resurslari ham yerdagi, ham suvdagi jumladan o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar xilma-xilligini saqlash;

- mamlakatlarning o'z biologik resurslaridan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida va resurslarga, na bu tarmoqlarga zarar keltirmaydiga usullar bilan foydalanishini ta'minlash;

- genetik resurslardan foydalanish imkoniyatlari va shu asosda olinadigan foydalarni adolatli va teng taqsimlanishini rag'batlantirish.

Konvensiya hukumatlardan tabiat manbalarini boshqarish va ishlab chiqishda Bioxilma-xillikni saqlash va samarali foydalanishni ta'minlashni talab qiladi. U milliy iqtisodiy tuzilmalarini va siyosatni ularni saqlash va samarali foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish usullarini aniqlash uchun baholashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Konvensiyada alohida shart sifatida ta'kidlanadiki, uning Tomonlari (yoki qonun chiqaruvchi idoralari) ushbu bitim bilan o'zlarini bog'lashga majburiyat olgan davlatlar) ma'lum bir tadbirlarni amalga oshirishlari shart, jumladan:

- biologik resurslarni saqlash va betalofat foydalanish bo'yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish;

- jamiyatning xabardorligi va ta'limini rag'batlantirish ;

- tadqiqot va o'quv dasturlarini ta'sis etish ;

- "Atrof-muhitga ta'sirini baholash" maxsus jarayoni yordamida iqtisodiy rivojlanish bosqichida Bioxilma-xillik masalalarining zaruriy hisobini ta'minlash;

– tomonlar oʻrtasidagi ilmiy va texnik hamkorlikni ragʻbatlantirish.

**Biologik xilma-xillik boʻyicha milliy strategiya va harakat rejasi.** Oʻzbekiston oʻzining barqaror rivojlanishi uchun Bioxilma-xillik resurslarining muhimligini tan olga holda, 1995-yilda Bioxilma-xillik toʻgʻrisidagi xalqaro Konvensiyaga qoʻshildi. Hukumat olib borayotgan siyosatga muvofiq hamda Konvensiya doirasidagi ustuvor majburiyatlarni bajarish uchun Respublikada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish dasturi va Global ekologik jamgʻarmasi tomonidan faol qoʻllab-quvvatlangan “Bioxilma-xillikni saqlash boʻyicha milliy strategiya va harakat rejasi” loyihasini tayyorlashga kiritildi. Mazkur loyiha hukumatning ijrochi agenti sifatida harakat qiluvchi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qoʻmitasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Ushbu hujjat bir vaqtning oʻzida Oʻzbekistonning 1997-yil dekabr oyigacha Bioxilma-xillikni saqlash boʻyicha Milliy Strategiya va Harakat rejasi ishlab chiqish yuzasidan olgan majburiyatlarga muvofiq Tomonlar Xalqaro Konferensiyasining hisoboti hisoblandi.

**Maqsad va faoliyat sohasi.** Bioxilma-xillikni saqlash boʻyicha milliy strategyaning maqsadi mamlakat biologik resurslarni boshqarishning yagona bosh yoʻnalishi va rejalashtirish tuzulmasini shakllantirishni taʼminlashdan iborat. Shunday qilib, mazkur sohadagi istiqbol faoliyati strategyada koʻrsatilgan va mustahkamlangan qoidalarga muvofiq boʻlishi lozim. Strategyaning yaratilishi milliy daraja rejalashtirish uchun aniq yoʻnalish beradi, shuningdek, maqsadga qaratilgan va samarali dastur hamda loyihalarni ishlab chiqishni taʼminlaydigan mexanizmni yaratadi. Bundan tashqari, u yordam beruvchi donor tashkilotlari tomonidan ham foydalaniladi. Bioxilma-xillikni saqlash strategyasining harakat doirasi faqatgina mamlakat bioxilma-xilligini saqlash va undan foydalanish masalalari bilan chegaralanadi hamda boshqa sohalaridagi faoliyatga taalluqli boʻlmaydi. Baʼzi yoʻnalishlar, masalan, suv manbalarini boshqarish Bioxilma-xillikka jiddiy taʼsir koʻrsatsada, boshqa dastur va loyihalarga kiritilgan.

**Mazkur hujjatlarning tuzilmasi.** Hujjat uch qismdan va ilovadan iborat.

**Birinch**i qism. Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiyani ishlab chiqish shart-sharoitlari va asoslari o'z ichiga quyidagilarni oladi: xalqaro konteksti detallashtiruvchi kirish bo'limi; yerdan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari va xarakterini ifodalovchi bo'lim; O'zbekistonda Bioxilma-xillikning maqomi va bahosi qisqa tarzda ko'rsatilgan bo'lim; Bioxilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishning qonunchilik hamda institutsional kontekstini o'z ichiga olgan bo'lim.

**Ikkinchi qism.** Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya-mavjud axborotlarning qisqa tahlilidan, asosiy va joriy milliy maqsadlardan hamda ularni amalga oshirish yo'llari, shuningdek, strategiya matnidani iborat.

**Uchinchi qism.** Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy harakat rejasi-maqsadga erishishning aniq harakatlarini mas'ul tashkilotlar va tomonlarni, harakatlar rejasi va jadvalini belgilaydi hamda rivojlantiradi. Kelgusida amalga oshirish bosqichida harakat rejasida budget va moliyaviy manbalar belgilangan bo'ladi.

Milliy strategiya va harakat rejasini tayyorlash chog'ida ko'pgina tomonlar jalb etildi. Loyihaga o'rmon xo'jaligi, alohida muhofaza qilinadigan hududlar, suv va qishloq xo'jaligi, energetika majmui, ilmiy jamoatchilik, reja organlari va nohukumat tashkilotlarning jamoa va alohida vakillari ham qo'shildi. Mamlakatning turli hududlarida ko'pgina tomonlar ishtirokida seminarlar o'tkazish yo'li bilan (mahalliy hokimiyat-hokimliklar, davlat organlarining mahalliy vakillari, jamoa xo'jaliklari, yer qurilishi tashkilotlari va jamoa birlashmalari) loyihani ishlab chiqish jarayonini manfaatdor tomonlar keng jalb qilindi. "Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakat rejasini" ishlab chiqish jarayonida zarur maslahatlarni ta'minlash, o'qitish va texnik yordam ko'rsatish xalqaro maslahatchilar jalb etildi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi loyihani amalga oshiruvchi organ hisoblanib, u tegishli davlat tashkilotlari, shuningdek, Davlat O'rmon Qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi va nodavlat tashkilotlari vakillarini o'z ichiga olgan institutlararo ish tartibi qo'mitasini tashkil etdi.

Loyihani muvofiqlashtiruvchi, ish tartibi qo‘mitasining umumiy rahbarligi ostida yuqorida ko‘rsatilgan mutaxassislardan iborat ishlab chiquvchilarning intizomiy guruhi, shuningdek, biologik sohasiga tegishli boshqa tashkilotlar vakillari faoliyatini boshqarib turadi. Loyihani tayyorlashda bunday keng doiradagi vakillik Bioxilma-xillikni saqlash strategiyasining multi sektorial asosda ishlab chiqarilayotganiga kafolat beradi va hukumatning barqaror rivojlanishga yer ishi bo‘yicha qilayotgan sa‘y-harakatlarining bir qismiga aylanadi.

**Bioxilma-xillikni saqlash Strategiyasi va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan jarayonlar va tadbirlar o‘rtasidagi munosabat.** Mustaqillikka yer ishbandan so‘ng O‘zbekiston muhim iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar obyektiga aylandi. Respublika oldida turgan eng katta muammolardan biri o‘tmishda bu hududda barqaror rivojlanish siyosatining bo‘lmaganligi tufayli yuzaga kelgan inqirozli ekologik vaziyatlarni yengishdir. Shu munosabat bilan bir qancha milliy va hududiy tashabbuslar yuzaga keldiki, ularning barchasi turli darajada Bioxilma-xillikka tegishlidir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

**Tabiatni muhofaza qilish va O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ekologik ta‘minlash bo‘yicha Milliy harakatlar rejasi (TMQBRMHR).** Bioxilma-xillikni saqlash strategiyasi bu hujjatga asosiy tarkibiy qism sifatida qaradi. TMQBRMHR ekologik rejalashtirishni aniq yo‘naltirish, uning tarkibiy qisimlarini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro munosabatga kafolat beradi.

**Barqaror Rivojlanish bo‘yicha Milliy Komissiya (BRMK).** BRMK respublikaning kelgusidagi barqaror rivojlanishi uchun mas‘uldir. Uning vazifasiga qisman barqaror rivojlanishni ta‘minlaydigan tashabbuskorlik siyosati, strategiya va harakat rejasi kiradi, shuningdek, ularning samarali rivojlanishini nazorat qiladi. Bundan tashqari Rio de Janeyroda o‘tgan “Yer muammolari bo‘yicha Oliy darajadagi Uchrashuv”da ishlab chiqilgan va O‘zbekiston tomoni ham imzolagan bitimni samarali hamda to‘liq amalga oshirish uning asosiy mas‘ulyati hisoblanadi. Bunga erishishda TMQBRMHR uning Bioxilma-xillik bo‘yicha tarkibiy qisimlarini qo‘shganda asosiy vosita bo‘ladi.

**“Iqlim o‘zgarishi” va “Cho‘llanishga qarshi kurash” xalqaro konvensyalari.** Global Ekologik Jamg‘armasi (GEJ) BMTRD yordami bilan O‘zbekiston misolida iqlimning o‘zgarishi bo‘yicha hududiy

tadqiqotlar o'tkazmoqda. Ushbu ikki loyihaning mavzusi va Bioxilma-xillikni saqlash muammolari ko'p jihatdan bevosita bir-biri bilan bog'liqdir. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha qo'llaniladigan yagona chora tadbirlar Respublikadagi ekologik vaziyatning inqirozli muammolarini hal qilishda aniq natijalarga erishilishini ta'minlashi zarur. Bu yerda shuningdek, yalpi natijalarni e'tiborga olgan holda harakatlarni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

**Shimoliy Tyan-Shanning bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha transchegaraviy loyihasi.** Bu loyiha GEJ va boshqa tashkilotlar tomonidan moliyaviy ta'minlanib, 10 million AQSH dollariga tengdir. Loyiha quyidagi asosiy qismlarga ega: Qirg'iziston Respublikasi uchun Milliy strategiya va harakat rejasini ishlab chiqishni siyosat, qoidalar va institutsional shart-sharoitlarni mustahkamlash; G'arbiy Tyan-Shandagi mahalliy aholi tomonidan tabiat boyliklaridan barqaror foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi dasturni ishlab chiqish; alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlari joriy xarajatlarini qoplash uchun moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish; hududiy hamkorlik va ekologik mezonlarni uyg'unlashtirishni rag'batlantirish.

Loyihani ishlab chiqish 1998-yilda boshlanadi. Bu Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqishning rasmiy ravishda yakunlanishi va tasdiqlanishi hamda O'zbekistonda Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Harakat Rejasini amalga oshirishning boshlanishiga to'g'ri keladi. Shunday qilib, Transchegara loyihasi guruhi bilan qilingan maslahatlar natijalari bo'yicha u o'z ichiga qayerdagi zarur bo'lsa, mazkur loyihani amalga oshirish uchun zarur strategik va tarkibiy tuzilmani ta'minlaydi. O'z navbatida u strategiya va harakat rejasini ishlab chiqishda vujudga keladigan impulsni qo'llab-quvvatlash va amaliy natijalarga erishishni ta'minlashi zarur. Transchegara loyihasi strategiyani ishlab chiqishdan amaliy harakatlarga o'tishni ta'minlashda favqulodda foydali bo'ladi.

**Orol dengizi dasturi (Jahon banki/BMTRD/BMTED).** U mazkur mintqa uchun suv va yerdan foydalanishning uzoq muddatli muammolarini yechishga yo'naltirishi lozim bo'ladi. Qisqa va o'rta muddatlarda u eng maqbul hududlar aholisining bevosita ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashga jalb etilgandir. Mazkur dasturning, mintqa tabiiy resurslarini boshqarishni takomillashtirishdan iborat uzoq

muddatli maqsadlarga qo'shimcha sifatida, 3 ta dastur mavjud bo'lib, ular O'zbekiston bioxilma-xilligi uchun alohida ahamiyatga egadir. Bu quyidagi dasturlardir: -Amudaryo deltasining suvoldi hududlarini tiklash; -ekologik tadqiqotlar (shu jumladan Bioxilma-xillikni baholash); va yuqori suvayirgichlar hududlari yer va suv manbalarini mukammal usulda boshqarish.

**Sudochi ko'li atrofidagi hududlarni tiklash bo'yicha loyiha (GEJ/Jahon banki).** Bu loyiha Orol dengizi Dasturining tarkibiy qismi hisoblanadi. U Amudaryo deltasining chap qirg'og'i qismida joylashgan Sudochi ko'li atrofidagi hududlarni muhofaza qilish va tiklashga qaratilgan bo'lib, maxalliy Bioxilma-xillikni jiddiy tahdiddan saqlash, maxalliy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaxshilash va yirik zovurlar yordamida oqova suvlarni boshqarish maqsadlarini ko'zlaydi. Sudochi ko'li atrofidagi hudud uchib o'tuvchi qushlarni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

**O'zbekiston Milliy ekologik axborot tarmog'i (BMTDE/GRID-Arendal).** GRID-Arendal o'tish bosqichini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda atrof-muhit va tabiat manbalari bo'yicha axborot tizimining bir qismi sifatida Markaziy Osiyo davlatlariga milliy ekologik axborot tarmoqlarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatmoqda. O'zbekistonda allaqachon dastlabki baholash ishlari o'tkazilgan, texnik iqtisodiy asoslar va amaliy ishlanmalar ustida ish olib borilmoqda. Milliy harakatlarga yordam sifatida Orol havzasi uchun hududiy axborot tarmog'i Orol dasturi doirasida rivojlanmoqda. Hozirgi kunda samarali ekologik rejalashtirishdagi asosiy muammolardan biri, Bioxilma-xillikni ham qo'shganda, qaror qabul qiluvchi tashkilotlar va shaxslar uchun yagona aniq ma'lumotlarni yetishmasligidir. Nomlari tilga olingan loyihalar o'z navbatida kelajakda Bioxilma-xillikni saqlashni rejalashtirish va undan barqaror foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Qozog'iston va Qirg'izistonning Bioxilma-xillikni saqlash strategiyasi. Turkmaniston (2002 y) va Tojikiston (2003 y) Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va harakat rejasini ishlab chiqqan, keyinchalik Qozog'iston va Qirg'iziston (2014 y) ham shunday strategiyani ishlab chiqdi. Har bir davlat rejasini o'zaro uyg'unlashtirish va integratsiyalashni ta'minlash uchun barcha mavjud

sa'y-harakatlarni ishga solishning muhurligi shundoq ham ayonki, kelgusida bu holat Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha mintaqaviy strategiya va harakat rejasini yaratishga imkon berishi mumkin.

**Harakat rejasini bo'yicha O'zbekiston'da turizmni barqaror rivojlantirish bo'yicha loyihani** ishlab chiqish. 1995-yilda boshlangan mazkur loyihadan ko'zda tutilgan maqsad umumiy siyosat yo'nalishida turizmni, xalqaro marketing infrastrukturasini rivojlantirish va mutaxassislar tayyorlashni nazorat qilish bo'yicha rahbariy (harakat rejasini tayyorlash va hayotga tatbiq etish va doimiy axborot-normativ hujjatlar ishlab chiqish) hujjatlarni ishlab chiqishdir. Loyihaning muhim vazifasi tashkiliy tuzilmani va kadrlar salohiyatini yaxshilash hisoblanadi, shuningdek, xususiy bo'limini va uning mablag'larini turizmni rivojlantirishga jalb qilishni o'z ichiga oladi loyiha alohida muhofaza qilinadigan tabiat hududlarini boshqarish ishida va Bioxilma-xillikdan samarali foydalanishdan kelgan iqtisodiy samaralarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

### **Nazorat savollari**

1. Bioxilma-xillik nima?
2. Bioxilma-xillikning O'zbekiston va umuman jahon uchun muhurligi.
3. Bioxilma-xillik haqida Konvensiya.
4. BMTning bioxilma-xillik to'g'risidagi konvensiyaning maqsadi va vazifalari.
5. O'zbekiston Respublikasining Bioxilma-xillik bo'yicha Milliy strategiyasi va harakat rejasini nimalardan iborat?

### **2-§. O'zbekistonning geografik va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari**

O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo qit'asining markaziy qismida, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. O'zbekistonning hududi 44,74 mln. ga maydonni egallaydi. O'zbekiston shimoli-sharqda Qozog'iston, Sharq va janubi-sharqda Qirg'iziston va Tojikiston bilan, g'arbda - Turkmaniston, janubda Afg'oniston bilan chegaradoshdir.

O'zbekiston Respublikasining hududi shimoldan janubga 925 kilometr, g'arbdan sharqqa 1400 kilometr cho'zilgandir. Respublikaning janubiy va g'arbiy chegarasi Markaziy Osiyoning asosiy daryosi bo'lgan Amudaryo bo'ylab o'tadi. Respublikaning shimoli-g'arbiy qismida qadimgi Ustyurt platosi joylashgan. O'zbekiston hududining shimoliy va markaziy qismlarini jahonning eng yirik cho'llaridan biri bo'lgan Qizilqum cho'li egallaydi. Qizilqum cho'li va Ustyurt platosi o'rtasini Orol dengizi depressiyasi va maydoni 44 ming km<sup>2</sup> bo'lgan allyuvial tekislikdan iborat Amudaryoning keng deltasi egallaydi. Mamlakatning sharqi va shimoli-sharqida Tyanshan va Pomir-Oloyning ulug'vor tog' tizmalari joylashgan va mamlakatning eng baland cho'qqisi (dengiz sathidan 4 643 m) ham shu yerda joylashgan.

O'zbekistonning hududi umumiy maydonining to'rt dan uch qismiga teng bo'lgan katta tekislik-32 mln.ga va 9,6 mln.gektarga yaqin maydonni egallagan kichik tog'li ikki farqli qismlarga bo'linadi. Mamlakatning tabiiy landshaftlari ekotizimlarning beshta asosiy tiplari: cho'l, tekislik ekotizimlari, tog' oldi yarim cho'l va dashtlari, tog' ekotizimlari, asosiy daryolarning daryo va qirg'oq bo'yi ekotizimlari, ichki suv-botqoq ekotizimlariga bo'linadi (O'z R si biologik xilma-xilligini saqlash: Milliy strategiya va Harakatlar Rejasi, 1998). Geografik o'rnining qulayligi O'zbekiston hududining o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi bilan ajralib turishiga sabab bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston xaritasi.

O'zbekiston hududida 4500 ga yaqin yovvoyi yuksak o'simliklar va 2102 turdan ortiq qo'ziqorinlar, 2548 tur suv o'tlari, 500 turga yaqin lishayniklar, 822 tur sianobakteriyalar, 2000 turga yaqin bakteriyalar va 300 tur atrofida viruslar uchraydi.

O'zbekistonning zamonaviy faunasi 715 tur umurtqali hayvon turlarini, shu jumladan, baliqlarning 77 turi, amfibiyalarning 3 turi, reptiliyalarning 61 turi, qushlarning 467 turi va sutemizuvchilarning 107 turini o'z ichiga oladi. Umurtqasizlar 15 ming tur deb baholanadi. Baliqlardan deyarli 50 %, yer usti sutemizuvchilarining 9,5 %, sudralib yuruvchilarning 60 % ga yaqini endem turlar hisoblanadi. Qushlar orasida nisbatan kam foiz, ya'ni - 1,7 % endem turlardir.

O'zbekistonning biologik va landshaft xilma-xilligi milliy boyligimiz va bebaho moddiy resurslar manbai hisoblanadi. Ammo mintaqaning ekotizimlari yozma tarix yuzaga kelmasdan oldin, inson faoliyati ta'siriga uchragan. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida aholi sonining keskin ortishi, shuningdek, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi tufayli insonning tabiatga ta'siri darajasi ko'p marta kuchaydi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududining 18% ga yaqinini inson tomonidan o'zgartirilgan (haydaladigan yerlar, aholi punktlari, sanoat korxonalari, yo'llar) landshaftlar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida aholisi zichligining (1 kv.km ga 71,5 kishi (2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)) eng yuqori ko'rsatkichiga egadir. Hududning intensiv o'zlashtirilishi o'simlik va hayvonot dunyosining Kambag'allashuvi, noyob to'qay, cho'l va tog' ekotizimlarining yo'q qilinishi, atrof-muhitning ifloslanishi, cho'llanish, Orol dengizining ekologik falokati kabi salbiy oqibatlariga olib keldi. O'zbekiston flora va faunasining ko'plab turlarining soni va tarqalish maydoni keskin qisqardi, ularning ayrimlari butunlay yo'qolib ketdi. Ovlash obyektlari bo'lgan yirik sutemizuvchilar va qushlar hamda faqatgina ma'lum tor yashash joylariga bog'liq bo'lgan endemik va relik o'simliklar eng katta xavf ostida qolmoqda. Oxirgi 100 yil ichida O'zbekiston hududida turon yo'lbarsi, gepard, qulon, orol sulaymonbalig'i va 18 tur o'simlik yo'qoldi. Ilvirs (tog' qoploni), qoraquloq, qoplon kabi yirik yirtqichlar yo'qolish arafasidadir. Silovsin, oq tirnoqli ayiq, burama shoxli echki, buxoro qo'yi, Qizilqum arxari, sayg'oq va jayron juda kam uchraydigan

bo'lib qoldi. Amudaryo va Sirdaryo oqimining tartibga solinishi va Orol dengizining qurishi natijasida O'zbekistonning daryolarida amudaryo kichik va katta kurakburunlari, orol bakrasi, orol mo'ylovkori, cho'rtansifat oqqayroq deyarli uchramay qoldi. Vaholanki, har bir tur – bu Yerning hayot qobig'i bo'lgan biosferaning kerakli bo'g'ini hisoblanadi va ekotizimda alohida o'rniga ega bo'lgan tabiatning noyob va qaytarilmas hodisasidir. Har qanday turning yo'qolishi butun atrof-muhit uchun kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqaradi. U yoki bu turning yo'qolish arafasiga kelib qolishining asosiy sababi tabiiy ekotizimlarga antropogen ta'sir yoki ushbu turning nazoratsiz, vahshiylarcha ovlanishidir. Shu munosabat bilan oxirgi o'n yilliklarda biologik xilma-xillikni, xususan, kamyob o'simlik va hayvonlarni saqlash bo'yicha maxsus qonuniy hamda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati kunday ravshan bo'lib qoldi. Hozirgi kunda dunyoda kamyob o'simlik va hayvon turlarini saqlash amaliyoti Qizil kitoblarni yuritish – u yoki bu sabablarga ko'ra yo'qolish xavfi ostida bo'lgan hayvon va o'simlik turlarining ro'yxatlariga asoslanadi. Qaysidir turning Qizil kitobga kiritilishi uni ovlashni taqiqlaydi va tegishli davlat organlariga tur va uning yashash joylarini muhofaza qilish majburiyatini yuklaydi. Shunday qilib, Qizil kitob – kamyob turlarni qonuniy muhofazalashning asosi hisoblanadi. O'zbekistonning tirik tabiat resurslarini kompleks muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanishda umumiy maydoni 188335 ming.ga bo'lgan 8 ta qo'riqxonasi, 3 ta milliy tabiat bog'i (558209 ming.ga, 1ta «Do'rmon» milliy bog'i, 1ta landshaft majmuaviy qo'riqxonasi: Sudoche (628300 ming.ga 2016 y da tashkil etilgan), 10 davlat tabiat yodgorliklari (3,8264 ming. ga, 12 byurtmaxona (1525,754 ming.ga, Buxorodagi «Jayron» kamyob hayvonlarni maxsus ko'paytirish Respublika markazi, o'rmonchilik va ovchilik xo'jaliklarini o'z ichiga oladigan muhofaza etiladigan hududlar tizimi xizmat qiladi. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar maydoni (VI kategoriyasiz) 14 mln gektarga yaqin.

O'zbekistonning muhofaza etiladigan hududlari O'rta Osiyoning mintaqaviy biologik xilma-xilligini saqlashda beqiyos muhim rol o'ynaydi. Tabiatni muhofaza qilishning eng samarali shakli hududida har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlanadigan davlat qo'riqxonalari hisoblanadi. Qat'iy muhofaza tartibiga binoan qo'riqxonalarda butun

tabiat kompleksi, ayniqsa kamyob va yo'qolib borayotgan turlarning poplatsiyalari tabiiy holida saqlanadi. Mavjud 8 ta qo'riqxonalarining va Quyi-Amudaryo qo'riqxona hududlarining biosfera rezervatining umumiy maydoni mamlakatimiz hududining bor-yo'g'i 0,46% ni tashkil etadi. Hisor qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimida, Kitob qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga qarashli, Chotqol qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol milliy bog'i Toshkent viloyati hokimligi tasarrufidadir. Noyob ekotizimlar, o'ta kamyob va zaif o'simlik va hayvon turlarining mavjudligi muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni o'rganish va monitoringini olib borish qo'riqxonalar ilmiy tadqiqot faoliyatining asosiy vazifalariga kiradi. Qo'riqxonalarining tashkil qilinishi bizning flora va faunamizning ko'plab kamyob va yo'qolib borayotgan turlar poplatsiyalarini saqlab qolish va tiklash imkonini berdi. Ammo alohida qo'riqlash tartibiga qaramay, qo'riqlanadigan hududlar va milliy bog'lar hozirgacha ham salbiy antropogen ta'ziy q ta'siri ostidadir. Tabiatga iste'molchilik munosabatida bo'lishning zararli oqibatlarini tushunib yetmaslik oqibatida mahalliy qishloqlar aholisi, shuningdek, dam olishga keluvchilar va turistlar ko'pincha qo'riqxona tartibini buzadilar. Mol boqish, yong'inlar, daraxt va butalarni kesish, pichan o'rish, manzarali, ozuqa va dorivor o'simliklarni terish tabiiy ekotizimlarga eng katta ziyon yetkazadi. Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari asosan aholining tabiiy resurslarga, alohida kamyob turlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligi to'g'risida yetarli tushunchalarga ega emasligi bilan bog'liqdir. Hozirgacha respublikamizning o'simlik va hayvonot dunyosi to'g'risidagi ommabop adabiyotlarni nashr etilishi talab darajasida emas. Ammo kelgusi avlodlar uchun tirik tabiatni saqlab qolish faqatgina barcha fuqarolarning ongli ishtirokidagina amalga oshirilishi mumkindir.

### Nazorat savollari

1. O'zbekistonning geografik o'ri.
2. O'zbekiston flora va faunasi.

3. O'zbekiston Respublikasining geografik joylashgan o'rni va relyef sharoitlari.

4. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy fauna va florasida haqida nimalarni bilasiz?

5. O'zbekiston Respublikasi bioxilma-xilligini asrashda Qizil kitobning ahamiyati nimalardan iborat?

### 3-§. O'zbekiston ekotizimlari

#### Cho'l ekotizimlari.

O'zbekiston hududi tabiiy-geografik tuzilishi bo'yicha tog'lik va tekislik qismlarga bo'linadi. Ana shu ko'rsatkichlarga ko'ra flora va fauna tarkibi va ular ekologik sharoitlarning asosiy ko'rsatkichlari, muayyan farqlariga asosan ajralivchi beshta biogeografik zona aniqlangan.

1. Tekisliklarning cho'l ekotizimlari.
2. Tog'oldi yarim cho'l va dashtlar.
3. Asosiy daryolarning daryo va qirg'oqbo'yi ekotizimlari.
4. Namlangan hududlar va deltalar ekotizimlari.
5. Tog' ekotizimlari.

Har bir zona turli-tuman tabiiy birliklar majmuasiga ega va ular flora va faunaning maxsus uyushmalari faoliyati va rivojlanishini aniqlaydi.

#### Tekisliklarning cho'l ekotizimlari.

Cho'l ekotizimlari Turon pasttekisligini katta qismini egallagan bo'lib, u Qizilqumcho'li, Ustyurt platosi, Qarshi cho'li va respublika janubidagi hamda Farg'ona vodiysidagi ayrim yerlari egallagan.

Cho'l hududlari qumli sho'rxokli, soz tuproqli, toshloqli va gipsli (shag'alli) cho'llarga bo'linadi. Ularning barchasi dengiz sathidan 100 metrdan 300 metrgacha bo'lgan mutlaq balandlikda joylashgan bo'lib, bir-biriga yaqin, o'rtacha yillik harorat 11-18° C, yog'ingarchilik miqdori 100mm dan 150mm bo'lgan omillar bilan aniqlanuvchi nisbatan o'xshash iqlimiy sharoitlarga ega.

O'zbekiston cho'l ekotizimlariga boy, rang-barang flora va faunasi bilan ajralib turadi. Masalan, Qizilqumda o'simliklarning 937

turi, umurtqali hayvonlarning 500 dan ko'p turi va turdoshi, umurtqasizlarning 950 turi mavjud.

Cho'l ekotizimlarining bo'laklarini tashkil etuvchi Qizilqum qoldiq tepaliklari va Ustyurt chinki, landshaftining himoyalovchi majmuasini o'zida namoyon etadi. U yerda flora va fauna dunyosini eng boy dunyosi jamlangan. Bundan tashqari, cho'l ekotizimda ko'plab kichik suv to'planadigan havzalar borki, ularda migratsiya davrida suvda suzuvchi va botqoq qushlari uchraydi.

Cho'l ekotizimi hind asalxo'ri, dasht mushugi, jayron, marmarchurak, morxo'r, boltayutar, oqboshqumoy, lochin, yo'rg'a tuvaloq va oqqorinli bulduruq kabi noyob va yo'qolib borayotgan jonzorlar yashaydigan makon hisoblanadi. Noyob suduralib yuruvchilar orasida 5 ta turi cho'llarda yashaydi. Cho'l ekotizimidagi vaqtinchalik turlarga noyob qushlarning 15 turini kiritish mumkin. Farg'ona vodiysi cho'l maydonlaridagi to'ng'izlar, to'qay kapalaklari yo'qolib borayotgan turlarga kiritilgan.

**Qumli cho'llar.** Qumli cho'llar cho'lining qumli joylarida tarkib topadi. Qumli massivlar maydoni respublika tekislik maydoning 27% ni tashkil etadi. Eng yirik qumli massiv Qizilqumdir. Amudaryo va Qashqadaryo hududlari oralig'ida Sandikli qumligi va Surxondaryoning quyi oqimida Kattaqum qumligi joylashgandır.

Qumli cho'llar iqlimi qattiq quruq va keskin kontinentaligi bilan ajralib turadi. Qishining minimal temperaturasi  $-36^{\circ}$ ,  $-32^{\circ}$  C ga yetadi, yozda esa temperatura  $46^{\circ}$ ,  $47^{\circ}$  C ga ko'tariladi. Yog'ingarchilik miqdori juda kam, bor-yo'g'i 75-100 mm ga yetadi.

O'zbekistonning qumli cho'llarida gulli o'simliklarning 134 turi va 31 oilaga mansub 320 ga yaqin xillari mavjud. 171 turi haqiqiy psammofitlardir, ulardan 40 tasi gips cho'llari, 60 tasi tog'oldi va quyitog' mintaqasida o'sadi. 50% ga yaqin tur – endemik, qolganlari eron-turon, turon-kavkaz va turon-yevropa elementlaridan iborat.

Daraxt-buta o'simliklar psammofit o'simliklarining asosiy qismi sanallib, floraning 30% ni tashkil etadi. Ko'p yillik o'tsimon o'simliklar guruhlar efemeroidlar (10%) va yozgi mavsumiy o'tlar (20%) namoyish etilgan. Cho'l qumlarining turlarini 40% ga yaqin turini bir yillik efemer - o'tlar va yozgi ko'karuvchilar tashkil etadi. Qumli cho'l faunasi umurtqalilarning 200 ga yaqin turlari bilan tashkil etilib,

ulardan 16 turdagisi parrandalar, 150 tasi qo'nib o'tadigan va uya quruvchi qushlardan va 22 tasi sutemizuvchilardan iborat. Cho'l hayvonot dunyosi jonzoqlarning qumli oiladoshlari va xarakterli vakillaridan psammofil turdagilaridir: qizil quloq va to'garakboshkaltakesak hamda qo'shoyoqlilarning ba'zi turlari- junayoqli, taroqbarmoqli, lixstentshteyn va bobrin turlari ajralib turadi. Qum sichqon va yumronqoziq cho'l kemiruvchilari orasida tipik qumli formalari vakillaridir. Qushlarning 50 ga yaqin turi qumli cho'l sharoitida yashashga moslashgan. Saksavulzor va butazorlar uya qo'yish uchun qulay manzil bo'lib xizmat qiladi. Qumli cho'llar Sharqiy Yevropa va Shimoliy Osiyodan uchib o'tuvchi oqimlarning kesib o'tish rayonlari hisoblanadi va ularga qisqa muddatli qo'nalg'a vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, yumshoq kam qorli qish, qishlash uchun shimoliy hududlardan 30 ga yaqin turdagi qushlarni o'ziga jalb etadi.

Toshloq cho'li (shag'alli, gipsli).

Bu tur Ustyurt platosi, Qizilqum cho'li bir qismining asosiy landshafti hisoblanadi va respublika janubidagi tog' tizmalari etaklari bo'ylab ayrim bo'laklarni tashkil etadi.

Cho'lning bu xil iqlimi umuman boshqa cho'llarning iqlimiga o'xshashdir. O'rtacha yillik harorat 10-14° C ni minimumi 32° C, maksimumi 46° C atrofida bo'ladi. Yog'ingarchilik yuqori emas - shimolda 100 mm gacha, janubiy hududlarda esa 200 mm gacha bo'ladi.

Toshloq, qo'ng'ir- kulrang tuproq cho'l tuprog'ining o'ziga xos xususiyati, unda qo'ng'ir qatlamning mavjudligidir. Uning zichligi, maydatoshli va 1 metr chuqurlikkacha bo'lgan gips qatlamning ortib borishi bunga asos bo'lgan.

Qo'ng'ir qatlamli cho'llarning o'simliklarni chuqur ildiz otmaydigan, kam hosil, unumdor bo'lmagan qadimgi tog' tuproqlari va rango-rang qatlamlarda o'suvchi 400 ga yaqin o'simlik turlari tashkil etadi. 41 turdagi o'simliklarning suv-mineral oziqlanishi tuproqning gipsli qatlami bilan bog'liq.

Toshloq cho'l faunasida umurtqali hayvonlar 129 turi mavjud, ularning 11 turi sudiraluvchilar, 100 turi qushlar, 18 turi sutemizuvchilardir.

Qushlarning uya quruvchilarga taalluqli 30 turi bu yerda doimiy yashaydi, ularning eng xarakterlilari: suv bulduruq, qoraqorinli

bulduruq, yo'rg'a tuvaloq, yapaloqqush, qoradumli tentakqush, oltin tusli ko'rinkak va 4 turdagi to'rg'aylardir.

Mayda toshli cho'lda yashaydigan asosiy sutemizuvchilar - kemiruvchilardir, ular orasida: katta qumsichqon, Seversov qo'sho-yog'i va boshqalar bor. Cho'lining bu turi - sayog'oq va jayron kabi juft tuyoqlilarning yashash makonidir.

Sudiralib yuruvchilardan bu yerda taqir va to'garakboshlar, cho'l agamasi va chopqir kaltakesaklar yashaydi.

**Sho'rxok cho'l.** Bu tur cho'llar Ustyurt platosi sho'rlangan qismlari va yonbag'irlarida, Aydar-Aynasoy ko'llar tizimining Oyoqog'itma, Qoraxotin, Mingbuloq va boshqa oqimsiz botiqlarida va Amudaryoning hozirgi deltasida joylashgan.

O'zbekistonning sho'r bosgan yerlarida o'simliklarning 304 turi uchraydi. Ularning 1/3 qismi haqiqiy galofitlarga, 26% i Markaziy Osiyo endemiklariga, 4% O'zbekiston endemiklariga mansubdir.

Sho'rxorliklarning o'ziga xos xususiyati tuproq ustki qatlamining doimo namligi va yopiq suv havzalarinig vaqtinchalik mavjudligidir. Bu turning ekologik afzaligi faunaning o'ziga xos tartibini aniqlaydi, suvda va quruqda yashovchilar (cho'l qurbaqasi) va qirg'oqbo'yi qushlari bu yerga kelib turadi.

Sho'rxok cho'l faunasida hayvonot dunyosining 118 turi aniqlangan bo'lib, ularning 7 tasi sudiralib yuruvchilar, 100 tasi qushlar va 11 tasi sutemizuvchilar.

**Soz tuproqli cho'l.**

Bu xil cho'llar Qashqadaryo havzasi, Dalvarzin va Mirzacho'l cho'llarining tuproqli va soz tuproqli qatlamlarida joylashgan. Bu cho'llarning tuprog'i asosan och bo'z yerlarga taalluqli.

Soz tuproqli cho'llar ko'proq yer usti suvlarga boydir va ularning holati ko'proq iqlimni belgilaydi. O'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdoru 200-300 mm, o'rtacha yillik harorat 14-16° C, minimum harorat -28-30° C, maksimal harorat 44° C dan 49° C gacha o'zgarib turadi.

Soz tuproqli cho'l florasi mayda shag'alli (yuqoriga qaralsin) cho'l bilan bir jihatdan o'xshashlikka ega, bu yerlarda namgarchilikning yuqori bo'lganligi sababli bahor vaqtlarida qalin o'simlik qatlami tarkib topadi.

Soz tuproqli cho'l faunasi umumiy tarkibiga ko'ra mayda toshli cho'l faunasiga o'xshaydi. O'ziga xos jonivorlar vakillari: O'rta Osiyo toshbaqasi, chaqqon va har xil tusdagi kaltakesaklar, chipor ilonlar. Qushlardan ikki holli va cho'l to'rg'aylari hamda uchib o'tuvchilardan bulduruqlar, turnalar uchraydi.

Soz tuproqli cho'l yo'qolib ketayotganining asosiy sababi yerlarning o'zlashtirilishidir. Mirzacho'l deyarli madaniy landshaftga aylantirildi. Qarshi cho'li – muntazam o'zlashtirilmoqda. Yaqin kelajakda bu tabiat tarkibining yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda.

**Tog' dashtlari.** Tog' dashtlari dengiz sathidan 2000-2600 metr balandlikda joylashgan bo'ladi. Asosiy tuprog'i qora bo'z tuproq, yuqori qismlarida och kulrang va jigarrang tog' dasht tuproqlardir. O'rtacha-yillik harorat 11-14° C.

Bu joylarning floraviy tarkibida 48 turkum, 257 oilaga mansub 634 ta o'simlik turi mavjud. Ulardan 313 turi O'rta Osiyo endemiklari, 476 ta O'rta Osiyo, Old Osiyo va O'rta yer dengizi florasiga uchun umumiy bo'lgan o'simliklardir.

387 turlar (61%) yillik o'tlarga tegishli. Bir yillik o'simliklar 146 turni tashkil etadi, butazorlar-34, daraxtlar-15, yarim butasimonlar-52 turni tashkil etadi.

Sudraluvchilar turkum guruhi Turkiston agamasi, Osiyo yalang ko'zi, uzun oyoqli tsink, sariq ilon, kaltakesak, O'rta Osiyo kapchabosh ilonlaridan iborat. Qushlardan: dehqonchumchuq, cho'l miqqiyi, tentakqush, oltin tusli ko'rkinak, ko'k qarg'a va to'rg'aylar. Sutemizuvchilardan: cho'l sassiq ko'zani, dalasichqon, bo'rsiq, jayron uchraydi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekistonning cho'l ekotizimlari.
2. Qumli cho'l ekotizimlari.
3. Sho'rxokcho'l ekotizimlari.
4. Tog' dashtlari ekotizimlarining tuzilishi.
4. Cho'l sho'rhok cho'llar va qumli cho'llar haqida tushuncha.
5. O'zbekiston tog' dashtlarining ahamiyati nimalardan iborat?

### 3.1. Daryo va qirg'oqbo'yi ekotizimlari

Bu ekotizimlar asosan Amudaryo va Sirdaryo vodiylari tekislik qismlari, Zarafshon va Surxondaryo quyi qismlarini o'z ichiga oladi. Daryo ekotizimlari tarkibida to'qay va qayir o'rmonlari asosiy o'rin tutadi. Hayvonlar tarkibi unchalik boy bo'lmasada, lekin o'ziga xos xususiyatga ega.

Daryo ekotizimlari sharoitlari xilma-xilligi uchta asosiy tipdagi yashash joylarini ajratishga imkon beradi: qamishzorlar, ochiq sayozliklar va to'qaylar.

To'qaylar (galereya o'rmonlar).

Cho'l to'qaylarining yirik massivlari ensiz yo'l yoki orollar shaklida Amudaryo vodiysi va uning deltasida, Sirdaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Chirchiq daryo vodiylarining ayrim joylarida saqlanib qolgan. Ularning umumiy maydoni 1660 ming ga dan ortiq. To'qaylarning asosiy ko'rinishlarini Angren va Qashqadaryo quyi qismlarida uchratish mumkin.

To'qaylarning o'simlik tarkibi 35 oila va 105 turga mansub 285 xil tomirli o'simliklar bilan namoyish etilgan. Tipik to'qay o'simliklari asosan 40 xilga yaqin.

Namgarchilikning seroblighi amfibiyalarning to'qaylarga o'tishiga imkon beradi. Sudraluvchilardan yalang ko'z, sariq ilon va nisbatan quruq joylarda kaltakesaklar uchraydi. Bu joyda chipor ilon, suv iloni, qora ilon bo'lishi doimiy holdir. Qushlardan ayniqsa tustovuq bu yer uchun xususiyatlidir. Qora qarg'a, zag'izg'on, kichik chumchuqsimonlar ham yashaydi. Ko'k qo'ton, qoravoylar koloniyalar hosil qiladi. Kalxat, tosh qirg'iy va boshqalar in qurishadi. Yirtqich sutemizuvchilardan: to'qay mushugi, chiyabo'ri, tulki, bo'rsiq, kemiruchilardan qumsichqon, kalamush, kaspiy dala sichqoni, tuyoqlilardan: to'ng'iz va Buxoro bug'usi yashaydi.

Qamishli chakalakzorlar.

Bu joylar g'ozqanjir, qashqaldoq, mo'ylovli chittak, kakku, botqoq bo'ktargi, qora qarg'a kabi ko'plab qushlarning oziqlanishi va in qurishi uchun xizmat qiladi. Sayozliklarda chayka, baliqchilar, cho'l kakkulari in qo'yishadi. Yashil baqa, kaltakesak, suv iloni, cho'l yalang ko'z bu yerda yashaydi.

Daryolar va ochiq sayozliklar.

Daryo va sayozliklarda katta va soxta kurak burun, Orol bakra balig'i, Orol sazan balig'i, oqqayroq yashaydigan joy hisoblanadi. Bu joyning umurtqalilar bioxilma-xilligi unchalik katta emas, ammo to'qaylar va qirg'oq bo'yi o'rmonlari uni saqlashda jada katta ahamiyatga egadir.

Ushbu hududlarning ekotizimlari antropogen ta'sirdan qattiq shikastlangan, binobarin yo'qolib ketish xavfi ostida turlarning asosiy qismi mana shularga tegishlidir. Noyob, hayoti daryolar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hayvonlar ichida, soni bir necha yuztaga kamayib ketgan (qo'riqxonahududlarida mavjudlari bilan birga Buxoro bug'usi va O'rta Osiyo qunduzini ko'rsatish mumkin. O'rta osiyo uchun endemik hisoblangan tustovuqning 6 turdoshini saqlab qolishda to'qayli o'rmonlarning ahamiyatini alohida takidlash lozim. Daryo ekotizimining noyob qushlari birqozon, qoshiq burun, qoravoy va kichik qoravoylardir.

Daryo soz tuproqli jarlik qirg'og'i ixtisoslashgan yashash joylarini shakllantiradi. Ular asosan qoravoylar, dasht va oddiy miqqiylar uchun in qo'yadigan joy hisoblanadi.

### Nazorat savollari

1. Daryo ekotizimlari.
2. Qirg'oqbo'yi ekotizimlari.
3. Bioxilma-xillikni asrashda daryo va qirg'oqbo'yi ekotizimlarining ahamiyati?
4. O'zbekiston hududi tabiiy geografik tuzilishi bo'yicha qanday maydonlarga bo'linadi?

### 3.2. Ichki suv-botqoqlik ekotizimlari

**Ichki suv-botqoqliklari (namlangan hududlar)** O'zbekistonda namlangan va cho'l hududlarning birgalikda qo'shilishi bu ekotizimda mujassamdir. Ushbu namlangan hududlarni sun'iy va tabiiy hududlarga ajratish mumkin. Tabiiy hududlar juda kuchli o'zgarishlarga uchragan, bunday hududlarga Amudaryo deltasi kiradi. Botqoq va namlangan

hududlar ekotizimlari daryo va qirg'oq bo'yi ekotizimlariga o'xshashdir, ammo ulardan farqli o'laroq umumiy yuqori namlanish darajasi va keng suv sathi maydonlari bilan xarakterlanadi.

Amudaryo deltasi.

Amudaryoning hozirgi deltasi Nukus shahridan quyida joylashgan va u ko'p irmoqli, yassi qiyali tekisliklarni namoyon etadi. Delta ko'plab kichik daryo qirg'oqlaridan (Toldiq, Qozoqdaryo va boshqalar) tashkil topgan va qariyb 700 ming ga li maydonni tashkil etadi. 1960-yillar o'rtalaridan boshlab suv kamchil yillari Amudaryo suvi Orol dengiziga yetib bormayapti. Daryo suvining deltagda kamayishi natijasida va Orol dengizi qirg'oq chizig'ining chekinishi oqibatida 50 ga yaqin chuchuk suvli ko'l quridi, to'qayzorlar maydoni ikki martaga, qamishzorlar maydoni 6 martagacha qisqardi. Katta kanallardan sizot suvlarining oqizilishi natijasida esa Qo'ng'iroq, Sudoche, Daryo o'rtasi, Qorajar ko'l tizmalari va umumiy maydoni 99 mingni tashkil etuvchi Tog'uzto'ra, Devkampir, Qozoqdaryo, Dovutko'l, Devqora, Oqtepa ko'llari paydo bo'ldi.

Tuprog'i - o'tloqli, botqoqli, sho'rxok. Amudaryo deltasi iqlimi keskin kontenentaldir. Harorat iyulda 25-26° C, fevralda -10 -13° C va yong'irgarchilik juda kam bo'lib, yiliga 110-150 mm ni tashkil qiladi.

Deltada o'simliklarning ikki xili - to'qayli va ko'p miqdordagi qamishlar tarqalgan. O'tloqli va o'tloq cho'kmadan hosil bo'lgan tuproqlarida qo'g'a, qamish, qiyoy kabi gigrofitlat o'sadi. Qamishli o'simliklarning ko'p yillik changalzorlari bazi yerlarda to'qaylarni hosil qiladi.

Quyi Amudaryo qadimdan suv-botqoq qushlarining ham uya qo'yib yashash, ham mavsumiy migratsiya vaqtida ko'p to'planadigan joyi hisoblanadi. Bu yerda pushti va jigarrang birqozonlar, qoravoylar, yirik qoravoylar, har xil turdagi qo'tonlar mavjud. Oqqush-o'rdak, kulrang g'oz va sho'ng'uvchi o'rdaklar, qashqaldoq, qamish mushugi, baliqchi qushlar ham uya qo'yib yashaydi.

Ondatra, tong'iz, shoqol, bo'rsiq, tulki, dasht mushugi, taroqli qumsichqon kabi sutemizuvchilar xarakterlidir. Sudiraluvchilardan kaletakesak va suv iloni asosiy turlar hisoblanadi, kulrang chumchuq, cho'l yalang qushi, dasht agamasi va har xil rangdagi chipor ilonlar ko'p.

Fauna o'zgarishining belgisi bo'lib, mo'ynalilarning asosi bo'lgan ondatralar sonining keskin kamayib ketishi hisoblanadi.

Antropogen namlangan hudud.

Umuman, bu ekotizim asosan sun'iy suv havzalaridan iborat bo'lib, bir necha o'n yillarda qirg'oq bo'yi va suv qushlarini saqlab qolish va tabiiy suv havzalarida baliq zaxiralarini kamaytirishning o'rnini qopladi.

Eng yirik suv havzalariga birinchi navbatda Aydar-Aynasoy ko'llar tizimi, Dengizko'l, Qoraqir, Sho'rko'l va To'dako'l, Tallimarjon, Chimqo'rg'on kabi katta suv omborlari va boshqalar kiradi. Ular ikki xil kelib chiqishga ega: oqova suvlar tashlanadigan ko'llar (1) va daryolardagi chuchuk suv omborlari (2). Birinchisi nisbatan turg'un gidrologik rejim va qirg'oq bo'yi o'simliklari mavjudligi bilan xarakterlanadi, ikkinchisi, gidrologik omillarning daryoga bevosita bog'liq bo'lgan ko'llar va suv omborlari holati o'zgaruvchanligi, ularni ta'minlovchi daryolar rejimi, suv xo'jaligida foydalanishi va qirg'oq bo'yi o'simliklarning yo'qligi bilan ajralib turadi.

O'simlik dunyosi tabiiy suv havzalari uchun xususiyatli bo'lgan to'qay qamishlilardir.

### Nazorat savollari

1. Amudaryoning hozirgi deltasi?
2. Ichki suv-botqoqlik ekotizimlari.
3. Bioxilma-xillikni asrashda ichki suv va botqoqlik ekotizimlarining o'rni.
4. Transchegaraviy daryolarning ahamiyati.

### 3.3. Tog' ekotizimlari

Tog'-oldi va yarim cho'llari dengiz sathidan 800-1200 metr balandligacha bo'lgan tog'-oldi mintaqasini tashkil etadi. Tuprog'i ayrim joylarda gipsli va shag'alli och bo'z tuproq. O'rtacha yillik harorat G'arbiy Tiyan-Shanda  $12,6^{\circ}\text{C}$ , Hisor tog' tizmalarida  $15-17^{\circ}\text{C}$ . O'rtacha yillik yog'ingarchilik 250 dan 400 mm gacha. Tog'-oldi va yarim cho'llar mintaqasi 30-35 km kenglikka ega bo'lib, respublika

tog' hududining 2/3 qismini, 64000 kv.km atrofida tashkil etadi. Bu mintaqa o'simliklarida 14 turdagi shuvoq farmatsiyalari asosiy yarim butasimon o'simliklar kserofil turlarini tashkil etadi. 47 turi tog' etagi mintaqasidan tashqari chiqmaydi, 140 turi tog'larda o'sadi, 100 ga yaqin turi cho'l biotsenozi hisoblanadi.

Yarim butasimonlardan 44 turi qadimiy O'rta yer dengizi turi sanaladi. Ulardan 28 tasi O'rta Osiyo endemiklari, 6 tasi O'rta Osiyo, Yer on, Afg'onistonda uchraydi; qolgan turlari qadimiy O'rta yer dengizining turli rayonlarini egallagan. Ko'p yillik o'tlar 168 turni, bir yillik o'simliklar 188 turni tashkil etadi.

Tog'-oldi yarim cho'l hayvonot dunyosi vakillaridan sudraluvchilar: O'rta Osiyo toshbaqasi, Turkiston gekkoni, taqir yumaloboshi, sariq ilon, echkiemar, turli rangdagi va chopqir kaltakesaklar (janubda qorako'zli) rang-barang suviloni; qushlar: to'rg'aylar, dehqonchumchuq va boshqalar; sutemizuvchilar: sariq yumronqoziq, qizildumli va katta qumsichqon qo'shoyoq va boshqalar namoyonlangan.

**Tog' bargli o'rmonlari.** Unchalik katta bo'lmagan hududni 218.2 ming ga ni egallab, dengiz sathidan 800-100 metrdan 2500-2800 metrgacha balandlikka joylashgan. Relyefi murakkab xususiyatga ega bo'lib, unda dashtli va o'tloq maydonlarda yoki yalang qoyalar bilan almashib turuvchi daraxtsimon va butasimon o'simliklar asosiy ko'rinishni yaratadi. Tuprog'i asosan quruq yon bag'irlarda jigarrang yoki namlangan yon bag'irlarda esa tog'-o'rmonli bo'z tuproqlardir. O'rtacha yillik harorat 8 dan 10-12°C atrofida tebranadi. Yog'ingarchik yiliga 400-600 mm ni tashkil qiladi.

Tog' bargli o'rmonlarning yirik maydonlari G'arbiy Tiyon-Shon tog' tizmalarida: Ugam, Piskom, Chotqol, Toshkent, Qorjontog' tog' tizmalarida jamlangan. Ular dengiz sathidan 800-2000 metr balandlikda uchraydi.

O'rmon turkumidagilarning o'simliklar tarkibi 47 turdagi daraxtlar va 96 turdagi butlardan iborat.

O'zbekistonning tog' bargli o'rmonlari, ularni tarkib toptirgan jinslarda unib chiqish sharoitlari va tarkibiga ko'ra ikki xil toifaga farqlanadi: (1) yon bag'ir o'rmonlari; (2) vodi y o'rmonlari.

Qadimiy (relikt) o'rmonlar: yong'oqzor, chinorzor, oddiy xurmozorlar bilan qoplangan.

O'rmonlarda uchraydigan qushlardan: oqqanotli qizilishton, zag'izg'on, chug'urchuq, buxoro chittagi, qumri, katta qumri, govkaptar, jannat va kulrang uzun quyruq, mayqutlar, qoraqarg'a, zarg'aldoq, yaltirbosh: sava, vahimaqush; sutemizuvchilardan: bo'rsiq, to'ng'iz, o'rmon olmoxon, turkiston kalamushi; sudraluvchilardan: Turkiston va Himoloy agamasi, cho'l yalang ko'zi, O'rta Osiyo qora iloni va qalqontumshuq ilonlardan iboratdir,

### **Archali o'rmonlar.**

Archali o'rmonlar dengiz sathidan 1400-3000 metr balandlikda o'sadi. Bu yerning tuproqlari kulrang va qora kulrangdir. Archalar respublika tog' o'rmonlarining asosidir. 105 ming ga o'rmon bilan qoplangan maydonning 85,6 ming gektarini archazorlar egallagan. Ular Qorjontog', Ugam, Pskom, Ko'ksuv, G'arbiy Tiyon-Shonning Chotqol va qurama tizmalari va Pomir Oloyning Turkiston, Zarafshon, Hisor, Boysun tizmalarining yon bag'irlarida uchraydi, Ko'xitong va Bobotog'da kichik butazorlar o'sadi.

Pomir-Oloy tog' tizmasida tipchoq dashtlari bilan birgalikda o'simlik yaxshi namoyon bo'lgan dengiz sathidan 1900-2300 metr dan 2800 (3000) metrgacha balandlikda Shimoliy Turkiston qoyalarida archazorlar keng tarqalgan. Turkiston archasi qoplovchi shaklga ega, 60-70 sm dan baland bo'lmagan, tuzulishi jihatdan bahaybat yostiqni eslatadi va kriofil o'simligi bilan almashadi.

Archazorlar umurtqali hayvonlarning maxsus kompleksi, qushlarning ba'zi xillari yashaydiki, ular Xitoy yoki Himolay faunasi hisoblanadi. Ularga: Himolay vyurkasi, pushti chumchuq, archa chittagi, oqbo'yinli bulbulini kiritish mumkin, zag'izgon, katta qumri, moyqutlar ham kam emas, sutemizuvchilar: archa dalasichqoni, o'rmon sichqoni, quyon, tulki, bo'ri, toshsimon suvsar Tiyon-Shon qong'ir ayig'i, to'ng'iz. Sudralib yuruvchilardan: Himolay va Turkiston agamasi, qalqontumshuqli ilonlar uchraydi.

**Subalp va Alp yaylovlari.** Ular dengiz sathidan 2700-2800 metr dan 3600-3700 metrgacha balandlikda joylashgan atmosfera yog'ingarchiligining eng yuqori miqdori 800 mm gacha. O'rtacha yillik harorat 800 ° C, nisbatan-sovuq iqlim bilan xarakterlanadi. Respublikada zona maydoni 0.6 mln.ga ni tashkil qiladi. Tuprog'i: o'tloq dashtli qo'ng'ir, bazan subalp qora tuproqlidir.

Hasharotlardan qovoqari xususiyatlidir, amfibiyalardan yashil baqa, sudralib yuruvchilardan oloy yalangko'zi, himolay agaması, qalqontumshuq ilonlar ham uchraydi. Shoxli to'rg'ay, vyurkalar oddiy holdir : sutemizuvchilardan: ayiq, qorbarsi, oqsichqon, larcha, bo'ri, sibir tog' echkisi, tog' qo'yi, Menzbir sug'uri, uzundumli yumfonqoziq, dala sichqoni va qizildumli sichqonlar xususiyatlidir.

### **Baland tog'liklar.**

Ular dengiz sathidan 3500 metr balandlikni egallagan umumiy maydoni 9.6 ming kv kmni tashkil qiladi, yil davomida o'rta harorat 0 dan past. O'simligi past bo'yi gilamli o'tloqlar bilan namoyon bo'lib, baland tog'lar alp mintaqasi muzlanish ta'siriga uchragan relyefi uchun alohida xili uchun xususiyatlidir. Ular baland tog' cho'qqilari, muzliklar qatlimi, morenalar, tik qoyali tepaliklardir.

O'zbekistonning past boyli otloqli qismlarida alp turlari tipiga xos 110 tur o'simlik o'sadi. Ularning 40 turi O'rta Osiyoning quyidagilar formatsiyaning edifikator va sub edifikatorlari hisoblanadi. Qushlardan: boltayutar, alp zag'chasi va sub edifikatorlari hisoblanadilar.

O'zbekistonning bioxilma-xilligi 27000 ga yaqin turni tashkil qiladi. Shundan 15000 turdan ortig'ini hayvonlar tashkil etadi, o'simliklar, qoziqorinlar va suv o'tlari 11000 ga yaqin turga yetadi.

Turlarning asosiy miqdori hasharotlarga to'g'ri keladi. Ulardan 400-3000 dan bo'lgan turlar xilma-xilligining 7 ta asosiy turkumlari alohida ajralib turadi.

Umurtqali hayvonlar 664 turni jamlagan 5 ta sinf orqali namoyonlangan Markaziy Osiyodan kelib chiqqan endemik hayvonlar turlarining muhim yashash joyi O'zbekiston hisoblanadi.

Ayrim turlar Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida dastlab kelib chiqib va evalutsion rivojlanib, keyinchalik Markaziy Osiyoning boshqa joylariga tarqala boshlagan.

Hozirgi vaqtda umurtqali hayvonlarning O'zbekiston va Markaziy Osiyoning endemik majmualarini namoyon etuvchi 53ta turi va turdoshlari ma'lum. Baliqlar ortasidagi endemizm 52% ni tashkil qiladi,

O'zbekiston florsi 4800 dan kam bo'lmagan 650 ta turkum 115 ta oilaga mansub tomirli o'simliklar bilan namoyonlangan. Turlar endemikligi nisbatan yuqori, emas floraning ichidagi endemiklar (400 ga

yaqin tur) umumiy turlar sonining 8% foizini tashkil qiladi. Qadimiy endemiklar barcha endemiklarning 10-12 % ini tashkil etadi.

### **Nazorat savollari**

1. Tog'-oldi va yarim cho'llari.
2. Tog' bargli o'rmonlari.
3. Subalp va Alp yaylovlari.
4. O'zbekistonning tog' ekotizimlarini bioxilma-xillikni saqlashda tutgan o'rni.
5. Bioxilma-xillikni asrashda tog' o'rmonlarining ahamiyati nimalardan iborat?
6. Tog' yaylovlaridagi o'simliklarni ahamiyati.

### **4-§. Bioxilma - xillikka bo'lgan xavflar**

O'zbekistonda Bioxilma-xillikning asosiy xavfi, ular areallarining qisqarishi va ma'lum darajada o'zgarishidir. Tabiiy ekotizimlarga quyidagi uchta antropogen omil asosiy ta'sirini ko'rsatadi:

1. Suv manbalari qayta taqsimotini nazarda tutgan holda yerlarning o'zlashtirilishi
2. Yaylov chorvachiligi
3. Tog'-kon va energetika sanoatlari.

Umuman ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: cho'llanish jarayonining kuchayishi; yaylov xo'jaligini olib borishini jadallashtirish va chorva mollarini keragidan ortiq o'tlatish; yerlarni sug'orish va haydash natijasida ularning sho'rlanishi va xo'jaliklar hisobidan chiqarilishi; daryolar oqimini jilovlash; gidroenergetik obyektlar; suv yig'iluvchi maydonlarga qishloq xo'jalik faoliyati va suv muvozanatining buzilishi; qirg'oq bo'yi o'rmonlarning yo'q qilinishi; suv tubidagi qum va shag'allarning qazib olinishi; daryo suv sathining pasayishi va sho'rlanishi bilan suv rejimining beqarorligi; pestetsidlar, polidixlorfenillar va og'ir metallar bilan ifloslanishi; daraxtlarning kesilishi; o'simlik xomashyolarini tayyorlash; ruxsatsiz ov qilish.

Sug'orish dehqonchiligi tarmog'ining rivojlanishi mintaqada sug'oriladigan yerlarning 1955-yil 25850 kv.km. dan 1990-yil 42218

kv.km. gacha kengayishga va suvdan foydalanishning oshishiga olib-keldi, shu tufayli Orol dengiziga kelib tushadigan suv oqimi taxminan 1960 y. 68 kub.km. dan 1983 y. 6 kub.km. gacha kamydi.

Garchi sug'oriladigan yerlar barcha hududning faqat 10% ini tashkil etsada, O'zbekiston va unga chegaradosh respublikalarning atrof-muhit holatiga katta ta'sir ko'rsatib, ba'zi bir ekotizimlarning to'liq buzulishida va boshqalarining maydonlari keskin qisqarishiga olib keladi. Barcha ekotizimlarning to'liq buzulishida va boshqalarining maydonlarini keskin qisqarishi ro'y beradi. Barcha ekotizimlar amalda katta o'zgarishlarga duch keldi.

Sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi davlatimizning anchagina hududini tashkil qilgan cho'lli, yarim cho'lli va tog' ekotizimlariga kichik bo'lsada bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi, negaki ular o'zgarishlarga o'ta sezuvchandir. Orol dengizi tubining ochilishi va tabiiy o'simliklar qoplami maydonlarining keskin kamayishi, mahalliy iqlimining muhim o'zgarishlariga olib keldi, shu tufayli u o'ta quruq va kontinental iqlimga aylanadi. Shamol tezligi ortdi, cho'llanish jarayoni shiddati kuchaydi. Shamol tarqatadigan ifloslantiruvchi moddalar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chorvachilik, sug'orish dehqonchiligiga qaraganda, o'zgarishlarga ta'sirchanroq, chunki u kam markazlashgan va suv xo'jaligi sohalariga ehtiyoji kamroqdir. Xususiy mol egalari iqtisodiy foydani olish maqsadida, mol sonini tezda ko'paytirishga qodirlar, shuning bilan birga nozik va o'ta quruq ekotizimlarga ziyon yetkazadilar. Agar tartibga keltirish choralari qabul qilinmasa, unda ushbu omil cho'lli, dashtli va kam darajada tog'lar ekotizimlari uchun xavfning asosiy turi bo'lib qoladi.

Sanoatning rivojlanishi va maishiy ehtiyoj uchun manbalardan foydalanish, qishloq xo'jaligiga nisbatan kam miqdorda bo'lsa ham, ayniqsa suvlarning ifloslanishi orqali, shuningdek, suvli va yarim suvli tizimlarga keltirilgan zarar o'z hissasini qo'shgan. Bundan tashqari, mamlakatning ayrim qismlarida, ayniqsa cho'llar ekotizimiga qazilma boyliklarni qazib olish va metallurgiya sanoati tomonidan anchagina zarar yetkazilgan.

Biologik resurslarga berilayotgan katta ahamiyatni ustunligiga qaramasdan va ekologik turg'unlikni qo'llashda, yuqorida qayd etilgan omillar o'zining salbiy faoliyatini amalda o'zgartirmasdan ta'sir

ko'rsatib kelmoqda. Shunday qilib, agar biz kelajakning bashoratli kafolatini istasak, unda maxsus choralar ko'rishimiz lozim bo'ladi.

### *Alohida xavf ostida bo'lgan ekotizimlar va turlar.*

Tekislik hududlari, sug'orish uchun o'zlashtirilgan daryo qayirlari va qayir yuqorisida joylashgan yerlar, suvli va suv oldi ekotizimlari hamda Orol dengizi mintaqasi eng ko'p o'zgarishlarga duchor bo'lgan.

Hozirgi kunda respublika 80% soz tuproqli cho'llar, 95% daryo qayirlari, 20% - qumli cho'llar (Farg'ona vordiyisida – 90 %) va tog'li hududlarning 40% o'zlashtirilgan.

Daryo qayirlari va qayir yuqorisida joylashgan hududlarga tabiiy o'simliklarni keng ko'lamda o'zlashtirish va yerlarning sug'orishga olinganligi tufayli ziyon ko'rdilar. Yana juda katta yo'qotishlar va tanazzullar sho'rlanish, botqoqlanish va agro- va zaharli ximikatlar bilan ifloslanish, qishloq xo'jalik ishlarini olib borishda noto'g'ri amaliyot qo'llanilishi natijasida kelib chiqqan.

Suvli va yarim suvli ekotizimlar suvning sho'rligi ortishi va agroximikatlar bilan ifloslanishga juda sezgirdir. Bundan tashqari, irrigatsiya tizimining rivojlanishidan kelib chiqqan tabiiy-gidrologik davrlar o'zgarishining keng rivojlanishi, turlar kamayishi va areallarning qisqarishi yoki ularning butunlay yo'q bo'lishi bilan davom etishi, ekologik sharoitning jiddiy o'zgarishiga, shuningdek, ko'pgina ekzotik baliq turlarining iqlimlashishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi. Deyarli barcha Markaziy Osiyo hududi uchun gidrologik manba bo'lib xizmat qiluvchi Orol dengizi mintaqasi sug'orish dehqonchiligi rivojlantirilishi tufayli hammadan ham ko'p talofot ko'rdi. Suvlarning sug'orish maqsadlarida samarasiz foydalanilishi Orol dengiziga quyiladigan suv oqimining tez va yuqori darajada qisqarishiga va bu esa dengiz suv sathining keskin pasayishiga olib keldi. Asosiy natija bo'lib suv sho'rligining bir necha marotaba oshishi va buning oqibatida ko'pgina jonivorlarning nobud bo'lishiga olib keldi.

Turli ekotizimlarning o'simlik va hayvonot bioxilma-xilligi jiddiy farqlanadi hamda u yoki bu tabiiy mintaqaning darajasiga bog'liq bo'ladi. Bir qator umurtqali hayvonlarning yo'qolish jarayoni ular yashash joylarining tanazzuli va to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilinishi natijasida, ayniqsa yirik sutemizuvchilarda ko'rinadi. Hayvonlar

tarqalgan joylar va sonining qisqarishi eng avvalo tuyoqli va yirtqichlar vakillariga ta'sir qiladi yirtqichlarning yo'qolib ketgan turlariga turli yo'lbars yo'qolib ketishi yaqin bo'lgan turlarga esa yo'l-yo'l sirtlon, qoraquloq, Old-Osiyo qoploni kiradi.

### **Nazorat savollari**

1. Biologik xilma-xillikni saqlashga bo'lgan xavflar nimalardan iborat?

2. Alohida xavf ostida bo'lgan ekotizimlar va turlarga nimalar kiradi?

3. Suvdagi ekotizimlarning turli xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishiga ta'sirchanligi?

4. O'zbekiston biologik xilma-xilligiga Orol dengizining ta'siri nimalardan iborat?

### **5-§. Qizil kitob**

Respublikaning turli sinflarga mansub noyob va yo'q bo'lib ketish xavfi tug'ilgan hayvon turlarining 161 turi 1996-yil TMQHI nashr etilgan "Qizil kitobi" va SITES ro'yxatiga kiritilgan.

1948-yilda Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tuzildi. Bu tashkilot flora va faunani muhofaza qilishga qaratilgan hamma ishlarni birlashtiradi. Mazkur xalqaro uyushma 1973-yilda «qora ro'yxat»ni chop etdi, unda batamom yo'qolib ketgan hayvonot turlari ro'yxati ko'tirilgan.

Noyob va yo'qolib borayotgan turlarning muhofazasiga e'tiborni kuchaytirish uchun 1966-yili Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tomonidan xalqaro "Qizil kitob" tashkil qilingan. Deyarli 200 ga yaqin alohida davlatlar o'z Qizil kitobiga ega. Qizil kitob faqatgina xavf-xatar darakchisi bo'lmay, balki muhofaza harakatlarining dasturi hamdir. O'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish faqatgina turli davlatlar o'rtasidagi hamkorlik yo'li bilan muvaffaqiyatli olib borilishi mumkin. Ko'chib yuruvchi hayvonlar, Dunyo okeani hayvonot va o'simlik dunyosi, chegaralararo daryolarda yashovchi o'simlik va hayvonlar davlatlararo kelishuv yo'li bilan muhofaza qilinadi. 1992-yili

Rio-de-Janeyroda “Biologik xilma-xillikni saqlash” Xalqaro Konvensiyasining imzolanishi boshlangan va hozirda bu konvensiyaga dunyodagi 170 dan ortiq davlat, shu jumladan O‘zbekiston ham qo‘shilgan. O‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish alohida maxsus xalqaro va milliy darajadagi qonunlar bilan nazorat qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega. So‘nggi yillarda insonning xo‘jalik faoliyati natijasida flora va faunaga salbiy ta‘sir kuchaydi. O‘zbekistonda mavjud 4500 ga yaqin o‘simlik turlarining 10-12 foizi muhofazatalab.

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi ilk marotaba 1979-yilda ta‘sis etilgan. Shu paytdan boshlab kitobning nashri imkon qadar har besh yilda yangilanib boradi.

O‘zbekistonning birinchi “Oizil kitob”i 1983-yilda nashr qilingan bo‘lib, unga umurtgali hayvonlarning 63 turi kiritilgan edi.

“O‘zbekiston Qizil Kitobi”ning birinchi nashrida o‘simliklar turlarining umumiy soni 163 ta, ikkinchi nashrga tayyorlangan ro‘yxatda esa 301 tur deb ko‘rsatilagn.

O‘zbekistonning 2009-2010-yillarda nashr etilgan «Qizil kitobi»ga hayvonlarning 184 turi, o‘simliklarning 324 ta turi kiritilgan (2-rasm).



*2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi (2009-2010 yy.).*

2016-yilda “Qizil kitobi”ning o‘simliklarga oid chop etilgan jildida 48 oilaga mansub 313 tur o‘simlik joy oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2016-yil 14-iyulda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” to‘g‘risidagi Nizomda: “Qizil kitob 10 yilda kamida bir marta ilmiy-omnabop nashr sifatida chop etiladi”, deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"ida o'simlik va hayvonot turi, oilasi, avlodi, turkumi tartibida alfavit bo'yicha ro'yxatga olingan va har bir o'simlikning ko'rgazmali tarzda suratlari keltirilgan. Bu o'z navbatida noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot turlari to'g'risida keng omma tomonidan aniqlashga ega bo'lishlariga yordam beradi.

«Qizil kitob» muhofaza choralari kuchaytirish, qo'riqxonalar va buyurtma hududlarini kengaytirish, yovvoyi o'simliklar bilan savdosotiqni tartibga solishda litsenziyalar tizimini joriy qilish kabi bir talay muhim tadbirlarni kun tartibiga qo'yadi.

«Qizil kitob»ga kiritilgan o'simlik turlari Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMXI) tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan 4 toifaga ajratildi:

**1. Yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlar.** Bir necha-yillar davomida tabiatda uchramagan, lekin ayrim yig'ib olish qiyin bo'lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoliga ega bo'lgan o'simlik turlari.

**2. Yo'qolish arafasida turgan.** Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlanib qolishi uchun maxsus muhofaza talab etadigan turlar.

**3. Noyob turlar.** Ma'lum kichik maydonlarda o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

**4. Son jihatidan kamayib borayotgan turlar.** Ma'lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko'ra yoki insonlar ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda, bunday o'simliklar har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi (1- jadval).

Qizil kitob O'zbekiston Respublikasi hududida doimo yoki vaqtincha, quruqlikda, suvda, atmosferada yoki tuproqda tabiiy erkinlik holatida yashaydigan hayvonlar (umurtqali va umurtqasiz hayvonlar) hamda tabiiy muhitda o'sadigan o'simliklar (yuqori va tuban o'simliklar), shuningdek, qo'ziqorinlarning (bundan buyon matnda hayvonlar va o'simliklar deb yuritiladi) kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari (kenja turlari) ro'yxati, ularning holati va muhofaza qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui hisoblanadi.

**Yo'qolish xavfidagi turlar soni**  
Xalqaro «Qizil kitob» ma'lumoti bo'yicha.

1- jadval

| № | Taksonlar                | Turlar       | Kenja turlar | Jami | Umumiy turlar soniga nisbatan % hisobida |
|---|--------------------------|--------------|--------------|------|------------------------------------------|
|   | Sutemizuvchilar          |              |              |      |                                          |
|   | Qushlar                  |              |              |      |                                          |
|   | Sudralib yuruvchilar     |              |              |      |                                          |
|   | Amfibiyalar              |              |              |      |                                          |
|   | Chuchuk suvdagi baliqlar |              |              |      |                                          |
|   | Yuksak o'simliklar       | dan kam emas |              |      | dan kam emas                             |

Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar turlarining (kenja turlari) nobud bo'lishi, miqdori kamayib ketishi yoki ularning yashash muhiti buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Qizil kitob unga kiritilgan hayvon va o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarini (kenja turlarini) muhofaza qilish, saqlash, tiklash va takror etishtirishga qaratilgan dasturlar (harakat rejalari)ni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Qizil kitobni yuritish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish respublika davlat inspeksiyasining budjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hamda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish respublika jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Qizil kitob ikki tomдан iborat bo'ladi. Birinchi tom "O'simliklar va qo'ziqorinlar" deb nomlanib, ikki bo'limdan - tomirli o'simliklarga oid hamda qo'ziqorinlarga oid bo'limlardan iborat bo'ladi.

Ikkinchi tom "Hayvonlar" deb nomlanib, oltita bo'limdan — umurtqasizlar, baliqlar, quruqlik hamda suvda yashaydiganlar va sudralib yuruvchilar, qushlar hamda sutemizuvchilar bo'limlaridan iborat bo'ladi.

Bo'limlar Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar turlari (kenja turlari) soniga qarab, ularning sinflari, turkumlari, oilalari va zotlari bo'yicha kichik bo'limlarga bo'linishi mumkin.

Har bir bo'limda (kichik bo'limda) Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar turining (kenja turining) ta'rif hamda tavsifi ko'rsatilib, turlar bo'yicha alohida-alohida tizimli tartibda joylashtiriladi.

Bo'limda (kichik bo'limda) hayvonlar va o'simliklar turining (kenja turining):

nomi (lotin, o'zbek, ingliz va rus tillarida);

maqomi (yo'qolib ketish xavfi toifasi);

tasviri;

O'zbekiston Respublikasida va dunyoda tarqalganligi haqida ma'lumotlar;

yashash (o'sish) joyi va tarzi, asosiy limitlashtiruvchi omillari hamda arealining (yashash hududi) o'zgarishi sabablari;

soni va uning o'zgarishga moyilligi;

muhofaza qilinishiga doir qabul qilingan va zaruriy chora-tadbirlar;

sun'iy ko'paytirilishi imkoniyatlari haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Qizil kitobga uning mazmun-mohiyatini yorituvchi qo'shimcha materiallar uning ilovasi sifatida rasmiylashtirilish mumkin.

Qizil kitobni yuritish O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qizil kitob vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlar bazasi sifatida elektron shaklda yuritiladi va keyinchalik ilmiy-ommabop nashr sifatida chop etiladi.

Qizil kitobning elektron shakli O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Ilmiy-ommabop nashr sifatida chop etilgan Qizil kitobning ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'simliklarning maqomi turg'un emas, balki o'zgaruvchandir, ya'ni vaqt o'tishi bilan muayyan o'simlik butunlay yo'qolishi yoki ko'payib muhofaza qilish darajasidan chiqib ketishi mumkin. Qizil kitobda har bir turning o'zbekcha, ruscha, lotincha nomlari va ularning qaysi oila hamda turkumga mansubligi ko'rsatilgan bo'ladi.

«Qizil kitob» da alohida o'simlik bo'yicha quyidagi ma'lumotlar beriladi: 1.Kamyoblik darajasi (maqomi). 2.Tarqalishi. 3.O'sish sharoiti. 4.Soni. 5.Ko'payishi. 6.O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. 7.Madaniylashtirilishi. 8.Muhofaza choralari.

Qator sabablarga ko'ra, o'simlik o'z maqomini u yoki bu tomonga o'zgartirib turishi, ya'ni o'simlik butunlay yo'qolishi yoki muhofazaga ehtiyoj qolmasligi mumkin.

O'zbekiston hududida butun dunyoda global ahamiyatga egaligi tan olingan va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan ko'p turlar yashaydi, shulardan 73 turdagi hayvonlar (sutemizuvchilar-24, qushlar-31, reptiliyalar-3, baliqlar-11, umurtqasiz hayvonlar-4) Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Xalqaro Qizil ro'yxatiga kiritilgan.

### **Nazorat savollari**

- 1.O'zbekistonda bioxilma - xillikka bo'lgan xavflar.
- 2.Qizil kitob va uning ahamiyati.
3. Qizil kitob»ga kiritilgan o'simlik turlari nechta toifaga ajratildi?
- 4.O'z hududingizdagi O'zbekiston Qizil kitobiga kirgan o'simliklarni aniqlab ro'yxatini tuzing.

### **6-§.Agrobioxilma - xillik**

Ushbu tushuncha madaniy o'simliklar va uy hayvonlarining tabiiy sharoitda yashayotgan va tadrijiy rivojlanayotgan ularning ajdodlari va yovvoyi yaqin qarindoshlari bilan bir qatorda turuvchi turlarining genetik xilma-xilligiga tegishlidir.

**Ahamiyati va qimmati.** Qishloq xo'jaligi keng miqyosda jahonda mavjud bo'lgan biologik xilma-xillikning umumiy spektorida haddan ziyod kichik hissaga asoslanadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi maqsadlarida inson tomonidan yaratilgan va ishlatiladigan hayvon va o'simliklarning genetik xilma-xilligi kamayib ketdi. Bunga seleksiya belgilariga tayanch holda tarixda mavjud bo'lgan zudlik bilan talablarga eng yaxshi javob beruvchi urchitish va boshqalarni ulotqirib tashlash aybdor bo'ldi. Bu atrof-muhit sharoitlariga ta'minlab beruvchi ichki cheklangan turlar genofondining yo'qolishiga olib keldi (kasalliklarga va begona o'tlarga qurg'oqchilikka, sho'rlanishga, botqoqlanishga, og'ir iqlim sharoitiga va hokazolarga bardoshligi).

O'zbekiston bioxilma-xilligi bir qator xatarlarga duchor bo'lgan, buning ustiga agrobioxilma-xillik, ayniqsa zaiflashgandir. Birinchidan, jahonning ayrim joylarida yovvoyi ajdodlarning zich joylashuvchi va ularning ma'lum ekotizimlariga daxldorligi; ikkinchidan, ko'plab qishloq xo'jalik turlarining ichida genetik sohasida kamayishi. O'tmishda siyosatga va amaliy yondashuvda an'anaviy qishloq xo'jalik o'simliklari va hayvonlar naslining ahamiyatiga yetarlicha baho berilmaganligi tufayli, ularning keng iqlimlashgan manzarali turlarga almashishiga, ana'naviy turlarning qisqarishi va yo'q bo'lish xavfiga olib keldi.

**Daryolarning yuqori oqim qismi suv yig'ilish hududlari.** Mubolag'asiz aytish mumkinki, mamlakatimizning yashovchanligi sharqiy tog'li yerlarda hosil bo'layotgan cheklangan suv manbalarining kafolatligi va unga erishish mumkinligiga to'liq bog'liqdir. Demak, Amudaryo va Sirdaryo daryolarini shakllantiruvchi irmoqlar suv yig'ilish hududlarining ekologik barqarorligi respublika uchun juda muhim strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu joylarda yashash uchun mos ekotizimlarni va ularda Bioxilma-xillikni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, O'zbekiston o'z hududida Bioxilma-xillikni yetarli darajada muhofaza qilish kafolatini berishi va chegaradosh respublikalarda bu muammoning yechilishini ta'minlashi kerak.

Aniq turli usullar natijasida, tabiiy o'simliklar daryolarning yuqori qismi suv yig'ilish hududlarida hosil bo'luvchi suv hajmi va sifatini saqlashga ko'maklashadi, jumladan, yog'ingarchilikdan hosil bo'luvchi oqimlarni saqlab qolish va tartibga keltirish (va shu bilan oqimning

umumiy miqdor darajasi va xususiyatlarini qo'llab-quvvatlash), yerlarni yaxshilash mikro, mezoiklimiy ishlarni olib borish (yog'in-sochin va transpiratsiyani stabilashtirish), yer yemrilishi va loyqalarni kamaytirishni (suvning sifatini ta'minlash va quyi oqimga cho'kish muammolariga qarshi kurashishni yengillshtirish) o'z ichiga oladi.

***Daryolarning o'rta va quyi oqimlari daryo havzalari va suv yig'ish maydonlari.*** Daryolarning o'rta va quyi oqimlaridagi daryo havzalari hamda suv yig'ish maydonlarining sug'orish dehqonchiligida, kommunal xizmat va sanoat foydalanuvchilari tomonidan yuqori darajada iste'mol qilinishi O'zbekiston uchun xarakterlidir. Ekotizimlarning bu joylarda yashovchanlik qobiliyatini quyidagi muhim sabablar belgilaydi:

– birinchidan, suv va qirg'oq bo'yi daryo ekotizimlari yashovchanligi o'ziga xos mexanizmni ifodalaydiki, bu tizimga kirib kelayotgan ifloslanishlardan, ayniqsa organik materiallardan, tozalanishni ta'minlaydi, shu bilan birga, daryo quyi qismi foydalanuvchilari tomonidan olinadigan suvning sifatini ta'minlashda o'z hissasini qo'shadi;

– ikkinchidan, sug'oriladigan yerlar tabiiy o'simliklari yer osti suvlari sathini barqarorlashtirishda yordam beradi va shu bilan birga sho'rlanish va botqoqlanish jarayonlari rivojlanishini oldini oladi;

– uchunchidan, tabiiy o'simliklar qishloq xo'jalik hududlari mahalliy iqlimini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sharoitlari, shuningdek, mahalliy aholi sog'lig'i va yashash sifatini yaxshilab, melioratsiya qiladi.

### ***Tuproq yemirilishini jarayonini nazorat qilish.***

Tabiiy o'simliklarning mavjudligi tuproqning barcha shakllardagi yemirilishini oldini oladi yoki susaytiradi. Bu ayniqsa, katta talofat yetkazuvchi, tog'li hududlardagi sellarning oldini olish uchun muhimdir. Tekislik hududlarda tabiiy o'simliklar yerga yaqin esadigan shamolning tezligini pasaytirishda, sug'oriladigan dalalarda va boshqa maydonlarda shamol emirilishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

### ***Cho'llanish***

Tabiiy o'rmonlar va o'simliklarning qisqarishi, Orol dengizining qurishi, sho'rli cho'llar, katta maydonlarning paydo bo'lishiga olib keldi, chorvaning bir yerda keragidan yuqori darajada o'tlatilishi, gidrologiyaning o'zgarishi va shunga o'xshash omillar barcha Markaziy

Osiyo respublikalarida cho'llanish jarayonini harakatga keltiradi. Ayniqsa ular O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonda juda kuchli namoyon bo'ladi. Ham tabiiy va ham sun'iy o'simliklar bilan qoplanagan hududlar cho'llanish darajasining pasayishida muhim rol o'ynashlari mumkin. Bundan tashqari, kelajakda bu muammoni ta'minlash uchun yashashga imkon bo'lgan joylarda maydonlarni qo'llash va tanazzulga uchragan hududlarni barqarorlashtirishda kelajakda imkoni boricha tiklash choralarini qabul qilish zarur.

### Nazorat savollari

1. O'zbekistonning agrobioxilma-xilligi nimalardan iborat?
2. Tuproqning yemirilish jarayonlari.
3. O'zbekiston tuproqlarini cho'llanishi.
4. Cho'llanishni oldini olishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
5. O'zbekiston agrobioxilma-xilligining hozirgi holati?

### 7-§. Bioxilma - xillikdan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish

Avval qayd qilinganidek, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi uning asosiy tabiiy omillari barqarorligi va sifatiga, ya'ni o'zaro chambarchas bog'langan iqlim, suv, biologik, qishloq xo'jalik va boshqa resurslarga bog'liqdir. Uzoq muddatli quvvatlash va barqarorlikni ta'minlab beruvchi eng muhim mexanizm, masalan, suv manbalari uchun muhim ekotizimlarning harakatini kafolatlashga imkon beruvchi Bioxilma-xillik darajasini saqlab qolish hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun Bioxilma-xillikni saqlash muhimligidan tashqari bir qator to'g'ri iqtisodiy foyda (moliyaviy va moliyasiz) mavjud yoki olinishi mumkin.

Masalan:

- ishga yaroqli bo'lgan yog'och, o'tin va o'rmonlarning yog'ochli bo'lmagan mahsulotlari (dorivor moddalar, yong'oqlar, tabiiy to'qimachilik bo'yoqlari va hokazo);
- ov, hayvonlarni tutish, hayvonotchilik (ya'ni go'sht, teri va boshqa yovvoyi hayvonlar mahsulotlarini olish);
- baliqchilik (ham sanoat, ham havaskor);

– aholining dam olishi va turizm.

### **O'rmon xo'jaligi mahsulotlari**

O'zbekistonda iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan juda ko'p o'rmon mahsulotlari mavjud, ularga o'tin, sinib tushgan daraxtlar, tutiladigan mahsulotlar, dorivor o'simliklar, yong'oqlar va boshqalar kiradi. Quyida joylashtirilgan jadvalda o'simliklarning qo'llanilishi bo'yicha guruhlariga bo'linishi haqida ma'lumotlar berilgan (2-jadval).

2-jadval

| <b>O'simliklarning qo'llanilishi bo'yicha guruhlariga bo'linishi</b> | <b>Oilalar</b>                                                                                    | <b>Turlar soni</b> |
|----------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------|
| Oziq-ovqat                                                           | Rosaceae, Amaryllidaceae, Juglandaceae, Rhamnaceae, Apiaceae, Polygonaceae                        | 350 dan ortiq      |
| Yem-xashak                                                           | Poaceae, Fabaceae, Amaranthaceae, Asteraceae                                                      | 1700               |
| Dorivor                                                              | Ranunculaceae, Lamiaceae, Rosaceae, Boraginaceae, Apiaceae, Asteraceae, Nitrariaceae va h.z.      | 1157               |
| Efirmoyli                                                            | Asteraceae, Acoraceae, Lamiaceae, Apiaceae, Rosaceae, Cupressaceae, Geraniaceae, Iridaceae        | 650                |
| Alkaloid saqlovchi                                                   | Amaranthaceae, Solanaceae, Ephedraceae, Ranunculaceae, Berberidaceae, Papaveraceae, Euphorbiaceae | 200 dan ortiq      |
| Bo'yoq beruvchi                                                      | Malvaceae, Papaveraceae, Asteraceae                                                               | 150                |
| Manzarali                                                            | Liliaceae, Asphodelaceae, Iridaceae, Amaryllidaceae, Rosaceae, Asteraceae                         | 270                |
| Ziravor                                                              | Lamiaceae, Apiaceae, Berberidaceae, Cupressaceae, Asteraceae                                      | 200                |
| Saponin saqlovchi                                                    | Fabaceae, Caryophyllaceae, Solanaceae, Asteraceae, Liliaceae                                      | 100                |
| Tola beruvchi                                                        | Urticaceae, Cannabaceae, Malvaceae                                                                | 6                  |

**Ov.** O'zbekistonda ov qilishining asosan to'rtta turi mavjud bo'lib, ular: havaskorlik va sport, oziq-ovqat mahsulotlari, mo'yna terisi uchun va ilmiy maqsadda ovlashdir. Ularning barcha turlari boshqarilmoqda va qonun nazorati ostidadir.

Respublikada 50 ga yaqin ovchilik-baliqchilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularda har bir jonivor e'zozlanadi (hayvonlar oziqlantiriladi va qo'riqlanadi). Ularning ko'pchilik qismi suv oldi hududlarida joylashgan, bu yerda asosiy ovchilikning turi suvda suzuvchi qushlar hisoblanadi.

Oxirgi besh yil mobaynida, aslaha-anjomlarning, o'q-dorilar narxining oshishi va boshqa iqtisodiy omillar natijasida, havaskorlik ovchiligi birmuncha qisqaradi. Bundan tashqari, Orol dengizi atrofida va Amudaryo deltasida iqtisodiy faoliyatning eng asosiy turi bo'lgan hayvonlarni ovlash deyarli to'xtatilganining sababi, areallarning deyarli buzilishi natijasida ular ommalashuvining keskin qisqarishidir.

### **Baliqchilik**

Tutilgan baliqlarning hajmi va narxlari nuqtayi nazardan 2018-yilning sanoat baliqchiligi ma'lumotlari mavjud. Shuningdek, 2019-20-yil uchun reja va imkoniy daromad haqida ma'lumotlar ham mavjud.

### **Aholining dam olishi va turizm**

O'zbekistonda turizm sifatida diqqatga sazovvor bo'lgan madaniy tarixiy obidalar atrofida - Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda deyarli to'liq tashkil etilgan, mamlakatimiz diqqatga sazovor tabiiy maskanlari va ekoturizmga esa kamroq e'tibor berilmoqda. Lekin O'zbekistonni jozibali tabiat manzarasi qamrab olgan, cho'llar, suvoldi hududlari va ulkan tog' tizimlariga ega bo'lib, ekoturizmni rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga ega. Shundan kelib chiqib, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari" ni ishlab chiqdi.

Ekologik turizmni rivojlantirish uchun respublikamizda juda katta imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston 38 mln. gektardan ortiq bo'lgan ovchilik - baliqchilik yer maydonlariga ega, ulardan 1,0 mln. gektarini suv fondi ko'llari, daryolar, suv omborlari tashkil etadi. Undan tashqari o'zbekistonlik va chet ellik sayyohlarda O'zbekiston bioxilma-xilligi katta qiziqish uyg'otmoqda. Masalan: lola gullarini ko'rish, qushlarni

kuzatish, cho'l mintaqalaridagi hayotni o'z ko'zi bilan ko'rish, Orol dengizining qurigan, fojeali joylarini ko'rish, relikt daraxtzorlarda sayr qilish bilan birga maroqli dam olishga talab katta. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ekologik turizmning turli shakllarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud. Ularning asosiy yo'nalishlari mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra tuzilgan 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

| Ekoturizm shakllari                                                  | Rivojlanish uchun sharoitlar va infratuzilma mavjudligi |      |                            |
|----------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|------|----------------------------|
|                                                                      | Bor                                                     | Yo'q | Javob berishga qiynaldilar |
| Ornitologiya                                                         | 56                                                      | 24   | 20                         |
| Xlorofill yoki yashil turizm                                         | 49                                                      | 10   | 41                         |
| Paleontologiya                                                       | 34                                                      | 20   | 46                         |
| Baliqchilik va ovchilik                                              | 78                                                      | 12   | 10                         |
| Bog'dorchilik va dorivor g'iyohlar terish                            | 82                                                      | 4    | 12                         |
| Landschaft turizmi                                                   | 57                                                      | 34   | 9                          |
| Daryolar va ko'llar bo'ylab qayiqlar, sollarda sayohat               | 79                                                      | 4    | 17                         |
| Tog'lar, cho'l, o'rmonlar bo'ylab yuk hayvonlarida va piyoda sayrlar | 90                                                      | 6    | 4                          |
| Vol'yerlar va yovvoyi tabiatdagi hayvonlar hayotini kuzatish         | 60                                                      | 10   | 30                         |
| Boshqacha shakllar                                                   | 49                                                      | 31   | 20                         |

Ekologik turizmning rivojlanishi xalqaro turizmni tashkil etish yo'i sifatida respublika imkoniyatini anchagina ko'tarishi va qo'shimcha manbalarni jalb etilishining muhim omili bo'lishi hamda unga yaqin bo'lgan yangi tashkil etiladigan alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va rayonlar iqtisodiy faolligini kuchaytirish mumkin.

**Alohida muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlarda turizm**


O'zbekistonda dam olish va sayyohlik faoliyatini olib borish mumkin bo'lgan to'rtta hudud Ugam-Chotqol milliy bog'i, Jizzax viloyatidagi Zomin milliy bog'i, Zarafshon milliy bog'i hamda Toshkent viloyatida joylashgan yana bir milliy Do'rmon bog'idir.

Hisobotlarga ko'ra Ugam-Chotqol milliy bog'i 2016-yilda ro'yxatga olingan 50000 dan 60000 gacha kelib-ketuvchilarni qabul qilgan va taxminan yana shunchasi ro'yxatga olinmagan. Daromadlar haqidagi ma'lumotlar mavjud emas.

Zomin milliy bog'ini har yili 15000 ga yaqin tashkil etilgan va 30000 ro'yxatga olinmagan sayyohlar kelib ko'rib ketadilar. Turizmdan tushadigan daromad va chet el sayyohlarning soni haqidagi ma'lumotlar yo'q.

Zarafshon milliy bog'i hamda Do'rmon milliy bog'lari yangi tashkil etilgani uchun hozircha ma'lumot yo'q.

O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda yuqori (3-rasm).



**3-rasm. O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish indeklari (2000-2016 yy.).**

Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va boshqa tabiat mintaqalarida turizmni (ekoturizmni, chet el turizmini va ta'tilchilar turizmini) tegishli darajada rivojlanishi, ularning tiklanishi uchun

muhim omil bo'lar edi. Ammo Bioxilma-xillikka bo'ladigan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan va mahalliy aholi va bu hudud xizmatchilariga maksimal foyda keltirishning o'ziga xos yondoshuvi talab qilinadi. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun niho-yatda tajriba kam: afsuski, "O'zbekturizm" bunday tajribaga ega emas.

Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda turizmning rivojlanishi ular umumiy faoliyatining integral qismi bo'lishi kerak. Demak, turizmning rivojlanishi birinchi navbatda ushbu hududlar boshqaruv apparati qo'lida bo'lishi lozim. Ammo bu sohada keng tajribaga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlar bilan hamjihatlikda ishlash ham, xalqaro bozorni rivojlantirish ham, doimiy ishni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan ham yaxshi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mahalliy tashkilotlar va aholi bilan hamjihatlikda ishlash ham to'g'ri-ridan-to'g'ri turg'un foyda olishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Bioxilma - xillikning iqtisodiy masalalari.
2. Aholining dam olishi va turizm.
3. Turli ekotizimlardan foydalanishda insonlarni tutgan o'rni qanday?
4. Bioxilma-xillikni saqlashda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning ahamiyati?
5. O'zbekistonda ekoturizmni tashkil etilish holati?
6. Ekoturizm obyektiga nimalar kiradi?

### **8-§. Bioxilma - xillikni saqlash va barqaror foydalanishning mavjud shart-sharoitlari**

O'zbekistonda biologik resurlarni boshqarish va ularni himoya qilishning rasmiy harakatlari birinchi marotaba XIX asrning oxirida boshlangan, qaysiki mintaqamiz chor Rossiyasi tarkibiga kirgandan keyin "O'rmonlarni himoya qilish haqida farmon" (1897) qabul qilingan. Bundan so'ng 1918-yilda "Turkistondagi o'rmon va yerlarni davlat mulkiga musodara qilish haqidagi qonun qabul qilindi, unda davlat o'rmon jamg'armasi tuzilishi ko'zda tutilgan edi.

1924-yildan boshlab tabiatni muhofaza qilish muammolariga katta e'tibor bera boshlandi. Qo'riqlanadigan hududlarni himoya qilish, yog'ochlardan iqtisodiy foydalanishni tashkil qilish, daraxtzorlarni o'tqazish bo'yicha tadbirlarni pul bilan ta'minlash boshlandi. Rossiyada himoya qilinadigan hududlar haqidagi konsepsiyasi ularning uzoq tarixiy rivojlanishiga ega. XX asrning boshlarida Rossiyada keyinchalik sobiq sovet Ittifoqida jahonda eng rivojlangan va samarali muhofaza qilinadigan hududlar tizimi yaratildi. O'zbekistonda 1926-yilda Guralash qo'riqxonsi va 1947-yilda Chotqol davlat qo'riqxonalari yaratilishida u o'z aksini topgan. O'zbekistonda alohida-alohida tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining yaratilish sanalari quyida sanab berilgan:

1940-Vazirlar Mahkamasi qoshidagi davlat ovchilik nazorati;

1947-Chotqol qo'riqxonasi;

1962-Vazirlar Mahkamasi baliqlar zaxirasini muhofaza qilish boshqarmasi;

1963-Baliqlar zaxirasidan foydalanishni tartibga keltirish va muhofaza qilish O'zbek havzalararo boshqarmasi O'zbeksuvbaliq;

1982-Davlat O'rmon qo'mitasi qo'riqxonalari va ovchi xo'jaliklari bosh boshqarmasi;

1988-O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tarkibidagi qo'riqxonalar, hayvonot va o'simliklar olamini muhofaza qilish davlat nazorati mavjud (Davlatbionazorati).

1.Qonunchilik asoslari.

O'rmon Kodeksi 1978-yilning 26-iyulida qabul qilingan. O'rmon resurslarini ishlatish qayta tiklash hamda yuridik va jismoniy shaxslarning o'rmon resurslaridan foydalanish javobgarligi belgilab berilgan.

"Hayvonot olamidani foydalanish va muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun 1982-yilda qabul qilingan. Hayvonot olamining qayta ishlab chiqarish, oqilona foydalanish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan huquqiy munosabatlarini aniqlaydi.

"Yer to'g'risida" qonun 1990-yilning 20-iyunida qabul qilingan va 1991-yilning 20-noyabrdagi 1993-yil 7-maydagi 1994-yi 6-may va 23-sentabirdagi barcha xo'jalik shakllarini keng huquqli rivojlanishi uchun, tabiiy muhitni saqlash va yaxshilash hosildorlik yerlarini qayta ishlab chiqish, yerlarni qo'riqlash va ulardan oqilona foydalanish uchun sharoitlar

yaratish maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishni yo‘naltirish kabi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘ri-sida“ gi qonun 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan. Unda huquqiy, iqtisodiy va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish asoslarini tashkil etish, tabiiy manbalardan oqilona foydalanish, ekologik tizimni, alohida obyektlarni va tabiat majmualarini muhofaza qilish muqobil atrof-muhut uchun fuqarolar huquqi kafolati belgilab berilgan.

“Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonun 1993-yilning 7-mayida qabul qilingan bo‘lib, unda huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarni yaratish va alohida muhofaza qilinadigan hududlarni boshqarilishi belgilab berilgan.

1993-yil 6-maydagi O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish haqida “gi qonunida, suvga bo‘lgan munosabatni, xalq xo‘jaligida va aholini ehtiyoji uchun suvdan oqilona foydalanishning tartiblari ta’kidlangan. Qonunda suvni ifloslanish, bulg‘anish va qisqarishdan muhofaza qilish, suvga bo‘lgan zararli ta’sirlarni ogohlantirish va tugatish, holatini yaxshilash, shuningdek, fuqaro, dehqonchilik xo‘jaliklari tashkilot va muassasalarning suv sohasidagi munosabatlari huquqlarini himoya qilinishi belgilab berilgan.

1994-yil 22-sentabrda “Qazilmalar to‘g‘risida” gi qonun qabul qilgani va yer qazilmalaridan to‘g‘ri foydalanish va uni muhofaza qilish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solinishi belgilangan.

1996-yil dekabr oyida “Atmosfera havosini muhofaza qilish haqida” gi qonun qabul qilingan.

Respublika noyob yo‘qolib ketayotgan hayvon va o‘simliklar turini muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, ularda foydalanish tartibini amalga oshirilishi ko‘rsatilgan qonun va qonunga oid aktlardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda “Yo‘qolib ketayotgan hayvon va o‘simlik turlarini muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 15-dekabrda 600-sonli “Yovvoyi hayvon va o‘simliklarni muhofazasini kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996-yil 11-fevralda 76-f sonli

“O‘zbekiston Respublikasida yirtqich qushlarni olib kelinishi va chetga chiqarilishini tartibga solish to‘g‘risida”gi farmoishi bilan tartibga solinishi belgilangan.

O‘zbekistonda baliqchilik va ovchilikni olib borilish tartibini aks ettiruvchi qonunlar: Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1991-yil 10-apreldagi “Respublika hududida ovchilik va baliqchilik xo‘jaligini olib borish va ov qilish haqida” gi nizomi tasdiqlangan, shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 21-iyulda qabul qilingan **“Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi hujjatda O‘zbekiston Respublikasi hududida ov va baliqchilik qoidalari hamda tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan buyruqlar asosida amalga oshiriladi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning huquqiy asoslarini tartibga solish masalalari “O‘zbekiston Respublikasi mulkchilik to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi korxonalar to‘g‘risida”, “Ijara to‘g‘risida” gi qonunlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi “Tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy mulk egasini himoya qilishni ta‘minlash, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish choralari to‘g‘risida”gi va 1994-yil 24-noyabrda “Yerlardan foydalanish samarasini oshirish to‘g‘risida”gi Farmonlarida yerga bo‘lgan munosabatni huquqiy asoslari me‘yoriy hujjatlarda aks ettirilgan.

Tabiat boyliklarini ayrim turlarini muhofazasi va foydalanilishi O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari bilan chegaralangan bular qatoriga Vazirlar Mahkamasi 1993-yil 3-avgustdagi 385-sonli “Suvdan foydalanishni cheklash haqidagi”1995-yil 27-iyuldagi 293-sonli “O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar olamiga yetkazilgan zarar uchun belgilangan miqdorda undiriladigan to‘lovni tasdiqlash to‘g‘risida” 1992-yil 27-maydagi 248-sonli “O‘zbekiston Respublikasida mintaqaviy suv omborlarida va boshqa hovuzlarda daryo va bosh kanallarni hamda ichimlik manbalarini va maishiy suv taminotini davolash va madaniy sog‘lomlashtirish”ga qaratilgan qarorlarini tasdiqlagan.

Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzganligi uchun quydagi javobgarlikka tortish turlari belgilandi: Ma‘muriy, jinoiy, fuqorolik-

huquqiy, intizomli, iqtisodiy. 1994-yil 22-sentabrda “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida” shuningdek, jinoiy kodekslar qabul qilingan, unda ekologik qonun buzarlilik uchun tegishli jinoiy va ma’muriy javobgarlik choralari belgilangan.

Hozirgi kunda hayvonot va o‘simliklar olamida foydalanish va uni muhofaza qilish bo‘yicha yangi qonunlar yaratilmoqda va ko‘rib chiqish bosqichida turibdi.

### **Xalqaro huquq.**

Tabiatni muhofaza qilish masalalari jahonda eng ustuvor masaladir. Tabiatni muhofaza qilish faoliyati xalqaro shartnoma va bitimlar bilan tartibga solinadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi BMT ning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha (1993-yil may) xalqaro bitimiga, ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Vena bitimiga va ozon qatlamini yemiruvchi moddalar yuzasidan Monreal bayonnomasiga (1993-yil may), xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo‘q qilishni nazorati bo‘yicha ba’zi bitimlarga (1995-yil avgust) qo‘shildi. O‘zbekiston Respublikasida biologik resurslarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan xalqaro shartnomalariga katta qiziqish uyg‘onmoqda. 1995-yilning oktabrida O‘zbekiston Biologik xilma-xillik bo‘yicha konvensiya qabul qilindi. Uzun burun, ingichka tumshuqni muhofaza qilish choralari bo‘yicha Bonn doirasidagi bitimlari, Sibir turnasini saqlab qolish bo‘yicha memorandum, Afrika va Yevropa, Osiyoga ko‘chib o‘tadigan suvda suzuvchilar yuzasidan shartnomalar imzolangan edi. O‘zbekiston 1997-yilda qabul qilgan “Yo‘q bo‘lib ketish xavfi bo‘lgan hayvon va o‘simlik turlarini sotish yuzasidan konvensiya”ga hamda “Sohil bo‘yidagi yerlarni va suvli botqoqliklarni muhofaza qilish bo‘yicha Ramsar bitim” lariga qo‘shildi va tasdiqladi.

### **Bioxilma-xillikning saqlanishini boshqaruvchi institutlar.**

*O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi.*

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha asosiy va maxsus vakolatli muassasalar ustida turuvchi tashkilot hisoblanadi.

Uning asosiy vazifalari:

– atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy manbalaridan oqilona foydalanish va takror ishab chiqarish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– tabiatni muhofaza qilish faoliyatining tarmoqlararo birgalikda boshqaruvini amalga oshirish;

– tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejashning yagona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– atrof-mihut ekologik holatining maqbul holatini ta'minlash va ekologik sharoitni sog'lomlashtirish;

– qo'riqxonalar faoliyatini boshqarish alohida muhofazalana-digan tabiiy hududlarning tartibini ta'minlash.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga quyidagi boshqarmalar kiradi:

1) Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha.

2) Yer va suv manbalaridan foydalanish va muhofaza qilish ustidan nazorat bo'yicha.

3) Ilmiy texnik taraqqiyot va targ'ibot.

4) Tabiatdan foydalanishning iqtisodiyoti va uni tashkil etish.

5) Bosh davlat ekspertizasi.

6) Ekologik axborot va oldindan aytish.

7) Xalqaro hamkorlik va dasturlar.

8) Ekologik huquq.

9) Yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish hamda chiqindilar bilan muomala qilish.

10) Ekologik me'yorlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish.

11) Buxgalteriya hisobi, hisobotlar va iqtisod.

Bundan tashqari, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida 2ta maxsus Respublika nazorati mavjud:

– qo'riqxonalar o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish davlat inspeksiyasi (davlat bionazorati)-o'simliklar hayvonot olami va qo'riqxonalarni muhofaza qilishga yordam beradi;

– maxsus analitik nazorat davlat inspeksiyasi.

O'simliklar va hayvonot olamini qo'riqlashda boshqa vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlari ma'lum rolni bajaradi, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Davlat o'rmon qo'mitasi", "O'zbek baliq"

birlashmasi, ovchilar va baliqchilar ittifoqi, ular tizimida biologik resurslarni muhofazalovchi idoraviy nazorat mavjud.

### ***O'zbekiston Respublikasi davlat o'rmon Qo'mitasi***

– o'rmonlarni himoya va muhofaza qilish, takror ishlab chiqarish, foydalanish sohasi bo'yicha davlat boshqaruvi;

– o'rmon boyliklaridan to'g'ri foydalanish va kengaytirishga yo'naltirish, ularni qayta ishlab chiqish, meliorativ va ekologik ahamiyatini ko'tarish maqsadida o'rmon zaxiralari ahvolini yaxshilash, aholini va xalq xo'jaligi iste'molchilarini o'rmon mahsulotlari bilan to'liq qoniqtirish masalalarida yagona siyosatni amalga oshirish;

– o'rmon fondi, flora va faunani o'rganish va hisobini olib borish;

– qo'riqxonalar faoliyatini, davlat ovchilik xo'jaligini, ov muddatlarini, me'yor, qoidalariga amal qilish yuzasidan nazorati va tasarrufidagi boshqaruv, ov xo'jaligini olib borish tartibi va boshqa talablar hayvonot olamidan foydalanish va muhofazalash, hayvonlarning yashash muhiti, ko'chish yo'llari va ko'payish sharoitlari bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, o'rmonchilik fondi hududida ovchilik, sanoat ovchiligi kadastirini olib borish;

– dorivor va oziq-ovqat o'simliklarini ishlab chiqarish va tayyorlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

– o'rmonchilik qonunlariga amal qilish, ov va o'rmonchilik xo'jaliklarini olib boorish bo'yicha me'yoriy-texnik hujjatlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish (4-jadval).

– O'rmonchilik davlat qo'mitasiga zaharli ilonlarni va boshqa qimmatbaho hayvonlarni (shu jumladan baliqlarni) ko'paytirish va saqlash bo'yicha pitomniklar, ilonxonalar tashkil etish, mo'yna-teri mahsulotlarini qayta ishlab chiqish bo'yicha bo'limlar va chorvachilik fermalarini ochish, shuningdek, baliqchilik va ov mahsulotlarini sotish, chet el ovchilik turizimi bo'yicha qo'shma korxonalarni ochishga ruxsat berilgan.

O'rmonchilik davlat qo'mitasi tizimida biologik va o'rmonchilik manbalaridan foydalanishni tartibga keltiruvchi quydagi boshqarmalar mavjud:

– o'rmonchilik xo'jaligini boshqarish, o'rmonlarni muhofaza va himoya qilish;

– o'rmonchilik davlat inspeksiyasi;

– ov xo'jaligi qo'riqxonalar va milliy bog'lar bosh boshqarmasi.

## Davlat O'rmon qo'mitasi tizimida o'rmon maydonlarini barpo etish ko'rsatkichlari

4-jadval

| Yil  | Barpo etilgan oʻrmonlarning umumiy maydoni ming, ga. |             |                 |                                   |                                  | Koʻchatlar yetishtirish uchun urugʻlarni tayyorlash tonna | Koʻchatlarni yetkazib berish mln. dona |
|------|------------------------------------------------------|-------------|-----------------|-----------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------|
|      | Jumladan                                             |             |                 |                                   |                                  |                                                           |                                        |
|      | Jami                                                 | Urugʻ ekish | Koʻ- chat ekish | Tabiiy tiklanish ga koʻmaklashish | Shu jumladan Orol dengizi tubida |                                                           |                                        |
| 2014 | 44                                                   | 6,4         | 20              | 17,6                              | 16,8                             | 136,0                                                     | 52,1                                   |
| 2015 | 44                                                   | 7,4         | 18,3            | 17,8                              | 18,0                             | 138,3                                                     | 48,6                                   |
| 2016 | 44                                                   | 2,3         | 19              | 15,2                              | 18,2                             | 176,3                                                     | 49,1                                   |
| 2017 | 45                                                   | 17,9        | 18,7            | 7,98                              | 18,8                             | 181,8                                                     | 49,2                                   |
| 2018 | 47                                                   | 20,8        | 19,75           | 6,25                              | 19,04                            | 288,9                                                     | 52,9                                   |

O'rmon fondini muhofaza qilish davlat o'rmon qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. 1996-yilning ma'lumotlariga ko'ra, ular tarkibiga 1500 dan ko'p nazoratchilar bo'lib, ular qatoriga o'rmonchilik davlat qo'mitasi boshqaruvining xodimlari, viloyat boshqarmalari, o'rmon xo'jaliklari, davlat qo'riqxonalari xodimlari kiradi.

Bundan tashqari tegishli vazirliklar, muassasalar, idoralarda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha bo'limlari ishlaydi ular asosan o'ziga xos torma'noli masalalarni yechishadi (yo'l qo'yilgan konsentratsiya, suvlarni oqizish va atmosferaga tashlashning yo'l qo'yilgan miqdori, havo va suv manbalarining holati monitoringi)

### *O'zbekistonda ovchilik va baliqchilik*

Baliqchi va ovchilarning sport jamiyatlari ittifoqi. Respublika jamoat tashkiloti bo'lib idoraviy qo'riqchilar xizmati bilan muhofaza qilinuvchi birlashtirilgan ovchilik va baliqchilik yerlariga ega.

### Nazorat savollari

1. Bioxilma - xillikni saqlash,
2. O'zbekistonda barqaror foydalanishning mavjud shart-sharoitlari.

- 3.O'zbekistonda bioxilma-xillikni muhofaza qilish choralari?
- 4.O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish shartlari?
- 5.Respublikada noyob va yo'qolib borayotgan turlarni saqlash.
- 6.Bioxilma-xillikni saqlashda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining roli?
- 7.O'zbekiston Respublikasida o'rmonchilikni tutgan o'rni?

## 9-§.Davlat qo'riqxonalari

Qo'riqxona – Yer sharining ma'lum bir qismining tabiat komponentlarini tabiiy holicha saqlab qolish uchun ajratilgan joydir. Qo'riqxonalar tashkil etish yo'li bilan ma'lum tabiat uchastkalari va u yerdagi barcha tabiat komponentlari (ajoyib relyef shakllari, tog' jinslarining yer yuzasiga chiqib, ochilib qolgan joylari, ochilib qolgan minerallar, ajoyib g'or, buloq, geyzer va ko'llar, o'simlik va hayvonot dunyosi) tabiiy holda saqlab qolinadi.

Islom dinida qo'riqlanadigan hududlarni tashkil qilishga e'tibor qaratilgan va «xayma» deb ataladigan odat qadimdan ma'lum. Bunda hech kimga qarashli bo'lmagan hududlar muhofaza qilinadi va u yerlarni o'zlashtirish man qilinadi. Payg'ambarimiz S.A.V. zamonlarida Makka va Madina shaharlari ichidagi va yon atrofidagi daraxtlar, qushlar, o't-o'lanlar muhofazaga olingan. Bu qonunni buzgan kishining quroli tortib olinib, qattiq tanbeh berilgan.

Inson tomonidan buzilmagan hududlar «haram» deb nomlangan va bunday yerlar faqatgina alohida ruxsat bilan o'zlashtirilgan. «Xayma» va «haram» tamoyillari tabiatni muhofaza qilishda yuqori salohiyatga ega. Ushbu hududlar quyidagi sabablarga ko'ra qiymatga ega:

- buzilgan yerlarni tiklash imkoniyatini beradi;
- biologik xilma-xillikni saqlaydi;
- suv ayirigichlar va daryo havzalarini asraydi;
- sayyohlar uchun ahamiyatga ega.

Biror geografik zona uchun xos bo'lgan joylar yoki tabiat komponentlari ilmiy jihatdan, iqtisodiy hamda madaniy tomondan qimmatli bo'lgan, tabiiy holati yaxshi saqlangan joylari qo'riqxonalar uchun ajratiladi. Bu joylarning tabiati xalq boyligi sifatida abadiy saqlanadi. Natijada, kelajak avlod o'sha qo'riqxonalar orqali cho'l va

dasht yoki tayga o'rmonlari va tog' landshaftlari tabiiy holda qanday bo'lganligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.

2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, qo'riqxonada: tabiat majmuini tabiiy holatda asrash; ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ekologik ta'limni targ'ib qilish; davlat ekologik ekspertizasining etaloni sifatida ulardan foydalanish.

***Qo'riqxonalarda har qanday xo'jalik va boshqa turdagi inson faoliyati taqiqlanadi.***

O'zbekiston Respublikasida qo'riqxonalar davlat mulki va uning muhofazasidir. Shuning uchun ham ular «Davlat qo'riqxonasi» deb nomlanadilar. Ularning umumiy maydoni 2164 km<sup>2</sup> yoki alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud yerlarining 10 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Davlat qo'riqxonasida o'simlik va hayvonot dunyosini ko'paytirish yoki joylashtirishga ruxsat etilmaydi. Unda faqatgina yong'inga qarshi kurash tadbirlarini o'tkazishga ruxsat beriladi.

**Qo'riqxona rejimi (holati) – qo'riqlanadigan hudud va akvatoriyalardagi faoliyat tartibi.** Mutlaq qo'riqlanuvchi (insonning har qanday faoliyatini man qiluvchi) va nisbatan qo'riqlanuvchi (masalan, hayvonlarning o't yeyish faoliyatiga taqlid qilib, vaqti-vaqti bilan pichan o'rilishi) tartiblar mavjud. O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza yetiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunining 19-moddasida Davlat qo'riqxonalarining rejimi belgilangan. Unga ko'ra, davlat qo'riqxonalarining hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo'riqxonalarida yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi. Davlat qo'riqxonalari hududida hamda ularning qo'riqlanma zonalarida tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish taqiqlanadi. Davlat qo'riqxonalarining yoki ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo'riqxonalari hududida bo'lishiga ularda ana shu organlar yoki davlat qo'riqxonasi ma'muriyati bergan ruxsatnoma bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Qo'riqxonalar biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Qo'riqxonada ma'lum bir o'lka yoki geografik zona tabiatining namunasi (nushasi) kelajak avlod uchun saqlanib qoladi. Bunda qo'riqxona hududida tabiatning xarakterli va qiziqarli landshafti va tabiat elementlarining ba'zilar o'z tabiiy holicha saqlanadi. Masalan, cho'l yoki to'qay landshaftining xarakterli joyi, g'orlar, nurash tufayli vujudga kelgan relyef shakllari yoki turli kamayib ketgan va kamayib ketayotgan o'simliklar ( lotos, nilufar, tis, shamshod, baxmal daraxt, archa va b.) va hayvonlar (tuvaloq, qizil g'oz, qirg'ovul, sulton tovug'i, bug'u, maral, sayg'oq, jayron, qulon, dengiz mushugi va b.) qo'riqxonalarda saqlanib, ko'paytirilib, tabiiy holicha kelajak avlodga yetkaziladi. Kelajak avlod o'sha qo'riqxonalar orqali vatanimizning o'tmish tabiatini ko'z oldiga keltiradilar.

2. Qo'riqxonalar, turi va soni kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlarni qo'riqlash hamda ko'paytirishda juda katta vazifani bajaradi. Bu esa qo'riqxonalarining g'oyat katta xalq xo'jalik ahamiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Qo'riqxonalar respublikamizda noyob bo'lgan yovvoyi o'simlik va hayvon turlarini katta xalq fondiga, boyligiga aylantiradi. Qo'riqxonalar tufayli ba'zi noyob yovvoyi hayvonlarning soni yil sayin ortib bormoqda.

3. Qo'riqxonalar yaxshi saqlangan va hatto qo'l tegmagan tabiat elementlarining hayotini hamda organizm bilan muhit o'rtasidagi mavjud qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq qilishga doir ishlar olib boriladigan tabiiy laboratoriya vazifasini ham bajaradi.

O'zbekistonda qo'riqxonalarda ilmiy tadqiqotlar va tabiat ustidan doimiy ravishda har tomonlama kuzatish ishlari olib boriladi, tabiatni chuqur o'rganib, tabiiy resurslarni idora qilish yo'llari ishlab chiqiladi; tabiatni boshqarish orqali esa barcha tabiiy resurslar hisobga olinadi, avaylab saqlanadi. Qo'riqxonalarda muhofaza qilinayotgan tabiatni yoki uning biror elementini fan nuqtayi nazaridan o'rganish uchun juda qulay imkoniyatlar mavjud.

4. Qo'riqxonalarining madaniy-ma'rifiy va estetik jihatdan ham ahamiyati katta. Qo'riqxonalar orqali tabiatning ajoyib obyektlari keng omma orasida namoyish etiladi va tabiatni muhofaza qilish zarurligi targ'ibot qilinadi. Qo'riqxona uchun ajratilgan joylar tabiiy manzarasining ko'rkamligi bilan kishilarning hordiq chiqarib madaniy dam oladigan joyi, ularga estetik zavq beradigan obyekt sifatida ham ahamiyatlidir.

Qo'riqxonalarning go'zal tabiati olimlarga, ijod ahliga ilhom bag'ishlaydi, ularda tabiatga nisbatan muhabbat va zavq uyg'otadi.

Qo'riqxonalarning go'zal tabiiy manzaralari ayniqsa hozirda urf bo'layotgan ekoturizm ishqibozlarini o'ziga maftun etadi. Qo'riqxonalardan ekoturizm maqsadida foydalanishdan asosiy maqsad kishilarda tabiatga nisbatan muhabbat hislarini uyg'otish, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini yanada takomillashtirishdan iboratdir.

O'zbekistonda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning to'rtta toifasi mavjud: davlat qo'riqxonalari, davlat milliy bog'lari, davlat buyurtmaxonalari va davlat tabiat yodgorliklari.

**Davlat qo'riqxonalari** – qadimiy va eng qattiq qo'riqlanadigan maydonlarning turi bo'lib, doimiy harakatda bo'lgan muhofaza qilinadigan mintaqalarni namoyon etadi, ayrim hayvonlar va o'simliklar turini yoki ekotizimlarni himoya qilish uchun tuzulgan. Ularda har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlangan (nazorat qilinadigan ilmiy tadqiqot ishlaridan tashqari). Ular tabiatni saqlash xalqaro ittifoqi tomonidan muhofaza qilinadigan mintaqalarni tafsifnomasiga binoan I-toifaga kiradilar.

Qo'riqxonalarning umumiy maydoni 2164kmkv yoki muhofaza qilinadigan davlat yerlarining 10% umumiy hudud tizimini tashkil etadi. Davlat qo'riqxonalari maydoni asosan uncha katta emas (maksimum 814 km<sup>2</sup>, minimum 24 km<sup>2</sup>, o'rtacha 236 km<sup>2</sup>. Ularning barchasi, Hisor, Kitob, Chotqol geologiklaridan tashqari, o'rmon bo'yicha davlat qo'mitasini qaramog'ida turadi.

**Davlat buyurtmaxonalari.** Bular doimiy bo'lmasdan, ayrim paytlarda mavsumli va qo'riqlash tartibi bo'shroq bo'lgan mintaqalarni namoyon etadi. Ko'pincha ular, boshqa yer egalarining jamoa yoki o'rmon xo'jaliklariga o'xshash boshqa yerdan foydalanuvchilarning hududlari qismi bo'lib, aniq bir qisqa muddatga 5-10 yilga tashkil etiladi. Bu mintaqalar uchun umumiy javobgarlik tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga yuklatilganligiga qaramasdan, mahalliy hokimiyat yerdan bevosita foydalanganligi tufayli mas'ul hisoblanib, amaliy nazoratni tashkil etadilar va qo'riqxona maqomidagi faoliyatni to'xtatish huquqiga egadir. Buyurtmaxonalar-hududlarni qo'riqlash tizimining eng bo'sh bo'g'ini bo'lib boshqarish samarasi va ular oldiga qo'yilgan vazifalarni keng ko'lamda yechish imkoniyatlari o'zgarib

turadi. Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiy vaziyatning keskinligi natijasida va Respublikada yer foydalanuvchilari tomonidan tazyiqni his qilganlari tufayli bu hududlar borgan sari qaltis bo'lmoqda.

Alohida himoya qilinadigan hududlar tizimining qariyb yarmidan ko'prog'ini (11576 km<sup>2</sup> yoki 56%) davlat buyurtmaxonalari tashkil etadi. Bu hududlarning o'lchovi 25 dan 10 000 km<sup>2</sup> gacha siljib turadi, ammo ularning o'rtacha o'lchovi nisbatan kattaroq 1147 km<sup>2</sup>.

**Davlat tabiat yodgorliklari.** Ular juda oz bo'lib o'rtacha 35 km<sup>2</sup> muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni barcha maydonining 0,1% ini tashkil etib, tabiatni muhofaza qilish, o'rmon bo'yicha davlat qo'mitalari va boshqalarga bo'ysunadi.

**Davlat biosfera rezervatlari.** Hududlarni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida davlat biosfera rezervatlari - biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarmog'iga qo'shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin.

Davlat biosfera rezervatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Davlat biosfera rezervatlarining hududlari davlat biosfera rezervatlariga foydalanishga beriladigan yer uchastkalarida, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning davlat biosfera chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Davlat biosfera rezervatlari hududida quyidagilar ajratib qo'yiladi:

– tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlab qolish uchun mo'ljallangan, davlat qo'riqxonalarida uchun nazarda tutilgan rejimli qo'riqxonaga aylantirilgan zona;

– tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan, qo'riqxonaga aylantirilgan zonaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat taqiqlanadigan oraliq zona;

– davlat biosfera rezervatlarining tabiiy obyektlari va majmualariga zarar yetkazmaydigan xo'jalik maqsadidagi va boshqa tarzidagi faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan zona.

Davlat biosfera rezervatlarining rejimi bunday rezervatlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar bilan belgilanadi.

### **9.1. Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi**

Chotqol biosfera qo'riqxonasi 1947-yilda tashkil qilingan. Ugom-Chotqol tabiat milliy bog'i tarkibiga kirib, Toshkentdan sharqda va Angrendan shimolda joylashgan. Qo'riqxona ekologik koridorlar va uchastkalardan iborat bo'lib, umumiy maydoni 24 706 gektardan tashkil topgan, shundan o'rmonlar 65-86 ga, dalalar 70-47 ga, hovuzlar 81 ga ni tashkil qiladi. Qo'riqxona Toshkent viloyati hududida Chotqol tizmasining g'arbiy qismida joylashgan. Qo'riqxonaning maqsadi G'arbiy Tyanshanning tog'li ekotizimlarini saqlash va atrof-muhit holatining ekologik monitoringidan iborat.

Qo'riqxona maydoni Toshkent shahridan 70 km olisda bo'lib, ikkita hududdan iborat: Boshqizilsoy 11 103 ga va Maydontol 24 150 ga.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagi 657-son qaroriga 4-ilova tarzida Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi to'g'risida nizom qabul qilindi. Unda: Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi o'ziga xos ekologik tizimlar, o'simliklar va hayvonlarning genetik fondini asrash hamda o'rganish uchun mo'ljallangan tabiiy obyektlar va komplekslarni muhofaza qilishning qat'iy rejimiga ega bo'lgan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hudud hisoblanadi; qo'riqxonaning maqsadi o'ziga xos ekologik tizimlarni o'z hududidagi tabiiy jarayonlar, o'simliklar, hayvonlarning genetik fondi, boshqa tabiiy obyektlar va komplekslarning davlat etaloni sifatida tabiiy jarayonlarning tabiiy kechishiga aralashmasdan daxlsiz holatda asrab-avaylashdan iborat; Asosiy vazifalari:

-asosiy zonada muhofaza ostiga olingan butun tabiiy kompleksni tabiiy holatda saqlash, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimida ekologik tarmoqda biologik va landshaft xilma-xilligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlashda ishtirok etish;

– o'z hududida barcha tabiiy obyektlar va komplekslar, tabiiy jarayonlar va hodisalarni tabiiy sharoitda o'rganish;

-qo'riqxonaning etalon ekotizimlaridagi bioxilma-xillik va tabiiy jarayonlarning kechishi monitoringini olib borish kabilar belgilab berilgan.

Qo'riqxonani boshqarish O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi hamda Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i tomonidan amalga oshiriladi.

Chotqol qo'riqxonasi florasi 1168 turga ega bo'lib, mintaqa uchun xosdir. Bu yerda qo'riqxona uchun endem bo'lgan 6 tur o'sadi. Qo'riqxona o'simliklarining 28 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Bu yerda 44 turdagi sutemizuvchi, 230 dan ortiq turdagi qush, 16 turdagi sudralib yuruvchi va 2 turdagi suvda va quruqlikda yashovchi 3 mingdan ortiq turdagi umurtqasizlar yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 1 turdagi ilon, 10 turdagi qush va 3 turdagi sutemizuvchi kirgan.

TMXR Qizil kitobiga yo'qolib ketish xavfi ostida ilviris, ko'k-sug'ur, o'rmon soniyasi, korshapalaklar, kichik va katta takaburunlar va uch rangli tunshapalak, qushlardan: tasqara, kuyka, qora kaptar, oqqanot qizilishton kiritilgan.

Qo'riqxona hududida har qanday xo'jalik, rekreatsion va boshqa faoliyat turlari taqiqlanadi, ilmiy tadqiqotlar olib borish, bioxilma-xillik va tabiiy jarayonlarning tabiiy kechishi va monitoringini yuritish bundan mustasno.

Qo'riqxona hududida faqat uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bino va inshootlarni qurish va ulardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Qo'riqxonaning boshqarish rejasi hamda yillik ish rejasiga muvofiq qo'riqxonada yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Qo'riqxonaning qo'riqlanma zonasida quyidagilar taqiqlanadi:

– o'simliklar va hayvonlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish;

– o'simliklar va landshaft qoplamini o'zgartirish;

– gidrologik rejimni o'zgartirish;

– tabiiy obyektlar, komplekslar va jarayonlarga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan boshqa harakatlar.

Havo kemalarining qo'riqxona hududi ustidan faqat qo'riqxona ma'muriyati va O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat

qo'mitasining kelishuviga ko'ra, 2000 metrdan pastda uchib o'tishi mumkin.

Qo'riqxonaning va qo'riqxona xodimlarining ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga qo'riqxonaning qo'riqlanma zonasida yer uchastkalari ajratiladi.

Qo'riqxona hududiy-ma'muriy organ-Toshkent viloyati hokimligiga bo'ysunadi.

Hozirgi vaqtda dunyoning 82 davlatida 320 dan oshiq biosfera maqomini olgan qo'riqxonalari mavjud bo'lib, shundan AQSH da 47 ta, Bolgariya da 17 ta, Buyuk Britaniya va Ispaniya da 13 tadan, Germaniya da 12 tasi joylashgan. Eng ulkan biosferali qo'riqxona Daniya da, G'arbiy Islandiya shimoli-sharqida (maydoni 70 mln.ga., —Atlantik o'rmon qo'riqxona si 29.5 mln. ga va — Braziliya sharqiy qirg'og'ida joylashgan.

YUNESKO MAB Dasturi Xalqaro Muvofiqlashtiruv kengashining 9-quriltoyida unga biosfera maqomi berildi. 1993-yilda belgilangan tartibda xalqaro biosfera rezyervatlari tarmog'iga kiritilgan, lekin uning talablariga javob bermaydi. Maqomni takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

53-yil davomida qo'riqxona muhofaza etiladigan hudud maqomida tabiiy mihutning bir qismi, keng tarqalgan yoki noyob landshaft shakillari yoki o'simlik va hayvonlar genetik resurslarini saqlash joylari sifatida tabiatni muhofaza qilish, ilim-fan va ekologik ta'lim uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy komplekslar yer , yer osti boyliklari, suv, flora va faunani muhofaza qilishga xizmat qilib kelmoqda.

Bu yerdagi qo'riqlash xodimlari tegishli huquq, vazifa va imtiyozlar berilgan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat inspektorlariga tenglashtirildi. Hududga begona kishilar, transport vositalari kirishi, noqonuniy ov qilish harakatlari cheklangan. Ma'lumki, YUNESKOning 2016-yil iyul oyida bo'lib o'tgan navbatdagi 40-sessiyasida Butunjahon tabiiy boyliklar ro'yxatiga G'arbiy Tyan-Shan ham kiritildi. E'tiborlisi, G'arbiy Tyan-Shanning bir qismi O'zbekistonda joylashgan. Uning tarkibiga yangi yaratilgan biosfera rezervatining ma'lum qismi ham kiradi. Shunday ekan, ushbu maskanni asl holatida saqlash, uning bor go'zalligi va tarovatini, tabiiy sohasidalarini asrab-avaylash bugungi kunning

muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Olib borilayotgan barcha xayrli amallar ana shu ulug' maqsadga xizmat qiladi.

Qo'riqxonaning ilmiy tadqiqot faoliyati tabiiy obyektlar va komplekslar, etalon ekotizimlardagi tabiiy jarayonlar bo'yicha ko'p yillik tadqiqotlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot faoliyati O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqot faoliyati hamda bioxilma-xillik va tabiiy jarayonlarning kechishi monitoringi qo'riqxona ilmiy xodimlari, shuningdek, shartnoma asosida jalb qilinadigan ilmiy tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa mutaxassislar, jumladan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda "Ugom-Chotqol qo'riqxonasi" unitar korxonasi "O'zbekiston temir yo'llari" aktsiyadorlik jamiyati tasarrufida.

## 9.2.Hisor davlat qo'riqxonasi

Hisor davlat qo'riqxonasi Qashqadaryo viloyatida Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'rida dengiz sathidan 1750 metrdan 4349 mertgacha balandlikda joylashgan. 1983-yilda ikki davlat qo'riqxonasi-Qizilsuy va Miroqi qo'riqxonalarining birlashishi natijasida tashkil qilingan. Hozirgi paytda bu O'zbekistondagi eng katta qo'riqxonadir. Umumiy maydoni 80-986 gani tashkil qiladi. Qo'riqxonada o'rmon, dala ekotizimlari ajralgan. O'rmon bilan qoplangan maydoni 566-78,1 ga, yaylovlar mavjud, daryo va ko'llarga 171 ga to'g'ri keladi, botqoqliklar 511 ga, qiyalar va tog' yonbag'irdagi to'qilmalar 31819 ga ni tashkil etadi, yo'llar, shudgor va qamishzor dalalar mavjud.

Qo'riqxonaning asosiy o'rmon hosil qiluvchi o'simliklari Zarafshon va yarim shar shaklidagi archalar hisoblanadi. Umuman olganda muhofaza etiladigan hududdagi o'simliklar O'rta Osiyo tog'lari uchun odatiy bo'lib, uning katta qismi tor endem o'simliklardir. Ba'zi hisoblarga qaraganda tomirli o'simlik turlarining umumiy miqdori 800-900 kam emas. Murakkab guldoshlar, dukkaklilar, butguldoshlar,

soyabonlilar, labguldoshlar ko'plab uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob turlardan qo'riqxonada hududida 32 turdan kam bo'lmagan tomirli o'simlik turi o'sadi. Qo'riqxonaning hayvonot olami boy, turli-tuman va tog'li o'rmonlarga xos bo'lgan deyarli barcha turlarni qamrab oladi. Qo'riqxonada 2 turdagi baliq, 19 turdagi amfibiya va reptiliya, 103 turdagi uyali qushlar, 28 turdagi sutemizuvchi yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga oqtilmoq, ayiq, ilviris, turkiston silovsini, eron quduzi, qushlardan: burgut, begayutar, itolg'i, qumoy, kichik burgut kiritilgan. Qizilsuv uchastkasidagi osmontalash cho'qqisi eng yuqori nuqtasida sibir qo'zisi, ilviris, ular va qizil sug'ur yashaydi. Sudralib yuruvchilardan suvilon, chiporilon, ko'lvorilon, turkiston agamasi, osiyo ilonquyrug'i va boshqalar uchraydi. Tojikiston bilan chegarada qo'riqxonaning eng yirik daryolaridan biri Oqsuv havzasida eng yuqori cho'qqili Gilon uchastkasi joylashgan. Uning balandligi dengiz sathidan 2500 dan 4300 m gacha oraliqda. Bu uchastkada O'zbekistondagi eng yirik Seversov muzligi mavjud.

Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimiga kiradi va Davbionazorat tomonidan boshqariladi.

### **9.3. Zomin davlat qo'riqxonasi**

Zomin davlat qo'riqxonasi 1960-yilda tashkil etilgan Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlarida 26840 ga maydonda joylashgan, shundan 11322ga o'rmon bilan qoplangan.

Dengiz sathidan 1760-3500 metr balandlikdagi tog'-archa eko tizimlari muhofaza qilinadi. 700dan ortiq turdagi o'simlik mavjud. Shundan, Zarafshon, yarimsharsimon va Turkiston archalari o'rmon hosil qiladi.

Qo'riqxonada hududini qora archa, o'rikarcha va saurarcha ko'rinishdagi uch turdagi archalar qoplagan. Tog'larning yuqori yon bag'irlarida saur archa turiga mansub bo'lgan archalar, o'rik archalari bilan tabiiy holda, tog'ning quyi qismida zarafshon archasi saur archa ko'rinishdagi archalar bilan aralash o'sadi. Archazor chekkalari Turkiston do'lanasi, Fedchenko namatagi, Korolkov uchqati, qoraqat va irg'ay

butalari bilan qoplangan. Zomin qo'riqxonasidagi 700 turdagi o'simliklardan 20 turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan, 48 turi g'arbiy Turkiston tog' tizmasining endemiklari hisoblanadi.

Dorivor o'simliklarning 20 dan ortiq turlari qo'riqxonada mavjud, ular: parpi, oqsavrinjon, qumloq bo'znochi, valyer iana, yalpiz, bo'znoh va boshqalar. Manzarali o'simliklarning 15 turlari ma'lum. Qo'riqxonada 216 turdagi qo'ziqorinlar borligi aniqlanib, ularning 173 turi va 16 xili O'zbekiston uchun avvaldan aniqlangan hisoblanadi, 90 turi Markaziy Osiyo, 53 turi Osiyo va 12 turi sobiq SSSR uchun yangi va 2 ta turi fan uchun yangilik, 12 ta turi endemik hisoblanadi. Qo'riqxonaning hayvonot dunyosi xilma-xil bolib, u sharqiy Buxoro zoogeografik hududiga moyil. Yalang toshloqlarda Turkiston agamasi, qumloq va tuproq yerlarda chipor ilon, sariq ilon, cho'l kaltakesagi va boshqalar uchraydi.

Archazorlar ayniqsa qushlarga boy. Bu yerda dehqon chumchuqlar, qorabuloq qorayaloq, archa boltatumshug'i, Turkiston ukkisi, kulrang pung qushi, kaklik va Turkiston maynasi uchrab turishi oddiy holat. Daralardagi sharsharalarda binafsha qorayalog'i va oddiy vahima qushlar, toshloq joylarda esa suvchumchuqlar oilasi va jibiajibonlar oilasi yashaydi. Baland tog' qoyalari yirik yirtqich qushlar - qumoy, tasqara va boltayutarlar in qo'yib hayot kechiradilar. Chortangi darasining odam chiqolmaydigan qoyalari orasiga har yili uchib keladigan bir juft qora laylak in qo'yadi.

Qo'riqxona hududida hayvonlar 152 turni tashkil etadi, shundan 16 turi xalqaro qizil kitob va O'zbekiston Respublikasida Qizil kitobiga kiritilgan.

Zomin davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda Qo'riqxonalar, Milliy-tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari Boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

#### **9.4. Nurota davlat qo'riqxonasi**

Nurota davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi janubi-g'arbida Jizzax viloyati Forish tumanidagi Nurota tizmasining markaziy qismida joylashgan. 1975-yilda tashkil qilingan. Qo'riqxona

maydoni 17752 ga, shundan 2529 ga o'rmon bilan qoplangan. Yong'ochning qadrlı turlarini saqlab qolish va Seversov qo'yining noyob poplatsiyasini himoyalash qo'riqxonani asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pomir-Oloy tog' tizimi va Qizilqum cho'lining oralig'ida joylashgan qo'riqxonada tog'li cho'lli va boreal turlar, shuningdek, ko'p miqdorda endemiklarni o'z ichiga olgan o'ziga xos flora shakllangan. Asosiy muhofaza qilish obyektlari endemiklar, relik va noyob o'simliklar va o'simliklar hamjamiyatlari hisoblanadi. Umuman olganda qo'riqxona florası 600 dan ortiq (27 endemik) turnı qamrab olgan. Avvallari Nurota tizmasi archa o'rmonlari bilan qoplangandi, lekin ular o'tgan asrdayoq kesib tashlangan. Qo'riqxonada atiga 30 ga yaqin archa qolgan. Qo'riqxona faunası 183 turdan iborat, shundan 13 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

Qo'riqxonaning ma'muriy binosi qo'riqxona hududidan 40 km uzoqlikda Forish tumanining markazi Yangiqishloq aholi punktida joylashgan. Qo'riqxona davlat tabiatni muhofaza qilish va ilmiy tadqiqot muassasasi bo'lib, uning asosiy maqsadi tabiiy hududda jarayonlarning harakatini, Nurota tog' tizmasining o'ziga xos ekotizimini, flora va faunasini, ayniqsa Qizilqum quyi va yong'och-meva o'simliklarini muhofaza qilish va o'rganishdan iborat. Nurota qo'riqxonasi ilmiy ishlarining asosiy yo'nalishlari bu "Tabiat solnomasi"ni yuritish, o'simlik va hayvonot olamining turini hisoblash, ekologiyasi, biologiyasini va noyob hayvonlar (Seversov qo'yi, yovvoyi qushlar) poplatsiyasini o'rganish, Seversov qo'yini yarim tutqin sharoitda boqish va ko'paytirish usullarini ishlab chiqish, o'simliklarni xaritalash va monitoringini, yong'och-meva o'simliklarining zamonaviy holatini aniqlash va boshqalardir, Nurota davlat qo'riqxonasi dengiz sathidan 500 va 2169 m balandliklar o'rtasida joylashgan va Nurota tog' tizmasining barcha mintaqalarini, tog' yonbag'irlari, pastki tog' yonbag'irlari va o'rta tog' yonbag'irlarini o'z ichiga oladi (4-rasm).

Qo'riqxona hududi murakkab, alohida bo'lingan relyefga ega. Nurota tog' tizmasi tog' tarmoqlari va Markaziy Osiyo saholari oralig'ida joylashgan. Shuning uchun ham Nurota qo'riqxonasining manzaralari, o'simlik va hayvonot dunyosi juda boy va o'ziga xosdir. Nurota qo'riqxonasining hududida 78 oila 814 xil eng yuqori turg'un o'simliklar, shu jumladan 24 endemik va O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan 29 tur borligi aniqlangan.



*4-rasm. Qo'riqxonada direktori o'rinbosari N.Yu. Beshko hayvonlarga gel'mintlarga qarshi dori vositasini teri ostiga yuborish paytida.*

Qo'riqxonaning umurtqasiz hayvonot dunyosi juda oddiydir. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan 8 ta turi istiqomat qiladi. Umurtqali hayvonlar sirasidan joy olgan 1 turdagi baliq, 1 turdagi amfibiya, 21 turdagi reptiliya, 196 turdagi qushlar (shu jumladan 103 tur in quradigan) va 34 turdagi sutemizuvchilar bilan namoyon bo'ladi. Ulardan 3 turi reptiliyalar, 10 turi in quradigan, 8 turi uchib o'tuvchi qushlar, 4 turi sutemizuvchilar O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan.

### **9.5. Surxon davlat qo'riqxonasi**

Surxon davlat qo'riqxonasi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, ikkita mustaqil hudud: Orol-Payg'ambar va Qo'hitang tog' tizmasi sharqiy yonbag'ridan tashkil topgan. Umumiy maydoni 3092 ga bo'lgan Orol-Payg'ambar hududi Xalqaro Qizil kitob va O'zbekiston Qizil kitobiga kirgan Buxoro bug'usi va yaylov-to'qay ekotizimlarini saqlab qolish maqsadida 1971-yildayoq qo'riqxonada sifatida tashkil topgandi.

1987-yilda Qo'xitang davlat qo'riqxonasi Orol-Payg'ambar qo'riqxonasi bilan birlashtirildi va umumiy maydoni 24554 ga bo'lgan Surxon davlat qo'riqxonasida qayta tashkil qilindi. Qo'riqxonaning Qo'hitang hududi tog'- o'rmon ekotizimi sifatida tavsiflandi. Uning hududi Pomir-Oloy tog' tizimi Hisor tizmasining janubi-g'arbiy

tarmoqlarida dengiz sathidan 1500 dan 3157 m gacha balandlikda joylashgan.

Qo'riqxonada hududi ko'p sonly mayda soylardan tarkib topgan yaxshi rivojlangan gidrografik tizimni ta'minlaydigan doimiy va muvaqqat oqadigan ko'plab suv oqimlariga ega.

Hozirgi paytda Qo'hitangda 269 tur va 55 oilaga mansub 578 tomirli o'simliklar ro'yxatga olingan, shundan 23 turdagi tomirli o'simlik turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Yer usti (o'rmon, dala, adir) o'simliklari bilan band maydon 16620 ga (67, 7%), toshli yonbag'ir, to'kilma, qiyaliklar bilan band maydon 7839 ga (31,9%). O'rmonlar 9288 ga yoki hududning 37,8% ni tashkil qiladi. Asosiy o'rmon hosil qiladigan o'simlik Zarafshon archasi hisoblanadi.

Qo'riqxonada umurtqasizlar ko'p miqdorda va xilma-xil turlarda taqdim qilingan, lekin mutaxassislar yo'qligi tufayli haligacha o'rganilmagan. Hozirgi paytda Qo'hitangda bir turdagi baliq, ikki turdagi amfibiya, 26 turdagi reptiliya, 74 turdagi qush va 23 turdagi sutemizuvchi aniqlangan.

Qo'riqxonada yo'qolib ketish arafasida turgan morxo'r va buxoro qo'yini saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan. 2004-yilgi hisobot natijalariga ko'ra qo'riqxonada hududida 160 bosh morxo'r va 24 bosh buxoro qo'yi borligi aniqlangan. Qo'riqxonada 578 xil o'simlik turlari o'sadi, ulardan 22 xili O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan. Shundan 17 turi efir moyli, 13 turi oziq-ovqat bob, 11 tasi manzarali, asalsaqlovchilar va boshqalardir. Hayvonot olami xilma-xil: 60 turdagi sutemizuvchilar, 290 turdagi qushlar Surxon davlat qo'riqxonasida istiqomat qiladi. Bulardan buxoro qo'yi, morxo'r, jayron, turkiston silovsini, echkiemar, kapcha ilon, turkiston oq laylagi, qora laylak, burgut, boltayutar, oq boshli qumoy, tasqara, ilonburgut va mallabosh lochinlar xalqaro va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgandir.

Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda qo'riqxonalar, milliy-tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

## 9.6. Qizilqum davlat qo'riqxonasi

Qizilqum davlat qo'riqxonasi 1971-yilda tashkil topgan, Buxoro viloyatida joylashgan. Qo'riqxona maydoni 10311 ga ni tashkil qiladi, shundan 5144 ga o'rmon bilan qoplangan, 6964ga qumli zonada va 3177 ga Amudaryo bo'yida joylashgan.

Qorqxona hududida 250 turdagi hayvon mavjud, shundan 10dan ortiq turi TMXP qizil kitobi va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirgan; 160 turdagi o'simlik uchraydi, shundan ikki turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

Buxoro-bug'usi alohida e'tiborga molik, uning son I 1991-yildan buyon 200 boshgacha ko'paydi.

Qo'riqxona Amudaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab shimoliy - sharqdan, janubiy - sharq tomonga 30 km, sharqdan g'arbga qarab 3 km ga cho'zilgan bir-biriga zid to'qayli va cho'lli bo'limlardan iborat. Havo harorati quruq va tez o'zgaruvchan, eng issiq davr may-avgust oyigacha davom etib, harorat +41 - +44 darajagacha ko'tariladi, qishda havo harorati -20 - -21 darajagacha tushadi. Yog'ingarchilikning asosiy qismi, ya'ni 85-87% qish va bahor oylariga to'g'ri kelib, qor qoplami qisqa fursat ichida erib ketadi. Hudud o'rmon o'simliklari bilan qoplanishiga qarab Osiyo cho'lli zonasi tarkibiga kiradi. Amudaryo qo'riqxona hududini katta va kichik bo'lgan orollarga bo'lib tashlangan.

Qo'riqxona hududida 160 dan ortiq o'simlik turlari o'sadi, ulardan 2 turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob" iga kiritilgan. Bular O'zbekistonda kamyob endemigi hisoblangan Sug'd lolasi va Korolkov shirachidir. O'rmonzorlar tabiiy o'sadigan daraxt va butalardan iborat. Bu yerda turang'il, qora tol, qora, oq saksovul, butali yulg'un, qandim va chingillarni uchratish mumkin,

Qo'riqxonaning katta qismini tabiiy o'tlar bilan qoplangan maydonlar tashkil etadi. Yerning suv va tuz tarkibi o'zgarishiga qarab mazkur o'simliklar hududi bir-birini alamashtiradi. To'qayzorlardagi o'simliklar sho'rlanishi yuqoriligi va qurg'oqchilikka qarab moslashgandir. Uncha katta bo'lmagan hududda 11 tur manzarali, 29 tur shifobaxsh, 2 tur oshlovchi, 25 tur asal beruvchi, 39 tur yemxashakbop, 4 tur oziq-ovqatbop, 3 tur texnik va 4 turdagi zaharli o'simliklar o'sadi. Qo'riqxona hayvonot olamiga juda boy, qiziqarli va

xilma-xildir. So'ng hisob-kitoblarga ko'ra, qo'riqxonada 358 turdagi umurtqalilar oilasiga kiruvchi hayvonot olami mavjud bo'lib, shulardan 27 turdagi baliqlar, 29 turdagi amfibiyalar va sudralib yuruvchilar, 267 turdagi qushlar, 35<sup>4</sup> turdagi sutemizuvchilar borligi aniqlangan, Amudaryo bo'yida joylashganligi, tabiiy oziq-ovqat va yem-xashakning molligi buning asosiy sababidir. Qo'riqxonada ikki turdagi Amudaryo va Xiva qirg'ovullari istiqomat qiladi. Bu yerda Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob" ga kiritilgan sutemizuvchilardan Buxoro bug'usi va jayron, qushlardan - pelikan, kichik karavayka, marmar churрак, yo'rg'a tuvaloq, uzundumli suv burguti, baliqlardan - kichik amudaryo kurakburuni, katta amudaryo kurakburuni uchraydi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kirgan kichik ko'k qarqara, qoshiq burun, oq va qora laylaklarni ham uchratish mumkin.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda qo'riqxonalar, Milliy-tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

### **9.7. Zarafshon davlat qo'riqxonasi**

Zarafshon davlat qo'riqxonasi 1975-yilda tashkil etilgan. Samarqand viloyatida joylashgan. Uning hududi Cho'ponota cho'qqilaridan boshlanadi va tor tizma bo'lib Zarafshon daryosining o'ng sohili bo'ylab 47 km ga cho'zilgan. O'rmon yerining kengligi 300 dan 1500 m gacha. Qo'riqxonada maydoni 2 352 ga, shundan 680 ga o'rmon bilan qoplangan. Qo'riqxonani tashkil qilishdan maqsad yo'qolib borayotgan chiroyli Zarafshon qirg'ovulini, qimmatli dorivor butasi-chakanda oblepixa to'qay changalzorini tiklash va saqlash, ilmiy tadqiqotlar olib borishdan iborat.

Qo'riqxonaning nisbatan kichik hududida qariyb 300 turdagi o'simlik o'sadi. Qo'riqxonada 59 turdagi dorivor va 23 turdagi texnik o'simlik aniqlangan.

Qo'riqxonaning faunasi 359 tur bilan taqdim qilingan. Shundan amfibiyalar-2, sudralib yuruvchilar-8, qushlar-206, sutemizuvchilar-24 turni tashkil qiladi. Noyob va yo'qolib ketayotgan turlar 32 ta.

1995-yildan buyon Zarafshon davlat qo'riqxonasida Xongulni ko'paytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 1996-yilda Zarafshon davlat qo'riqxonasiga "Baday-to'qay" qo'riqxonasida 6 bosh Buxoro bug'usi keltirilgan. Hozirgi paytda qo'riqxona hududida 27 bosh Xongul yashaydi.



**KITOB DAVLAT  
GEOLOGIK  
QO'RIQXONASI**

Zarafshon qo'riqxonasi hududi to'lig'icha vodiy tipidagi landshaftlarga kiradi. Yuqorida ko'rsatilganidek, bu yerda o'simliklar va hayvonot dunyosi uchun yashash sharoiti atrofdagi cho'l hududlari yashash sharoitidan keskin farq qiladi. Suvning mo'lligi, yer osti suvlarining yaqinligi va sho'rlanmagan allyuvial tuproqlar to'qay va o'tloq ekotizimlarining shakllanishiga sharoit yaratdi. Ularning hayoti to'lig'icha daryoga bog'liq, u esa o'z oqimi bilan ko'pincha qirg'oqlarni yuvib yangi ekotizimlar hosil qiladi. Shu sababli daryo vodiysida sodir bo'layotgan jarayonlar ayniqsa qo'riqxonaning yuqori qismida juda o'zgaruvchidir. Qo'riqxonaning quyi qismi to'qayzorlarning kattagina qismi joylashgan. Funksional nuqtayi nazardan bu hudud juda ahamiyatli hisoblanadi. Daraxtchil, buta va o'tloq ekinlarining turli-tumanligi suv ekotizimlari bilan qo'shilib bu yerda yashaydigan fauna uchun to'liq reproduktiv davrni o'tashni ta'minlaydi va shuning uchun ham juda qattiq muhofazaga muhtojdir.

Zarafshon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda Qo'riqxonalar, Milliy – tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari Boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

## **9.8. Kitob davlat geologik qo'riqxonasi**

O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu respublikamiz hududida mavjud bo'lgan barcha Xalqaro geologik meros yodgorliklarini aniqlash va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdir. Ushbu yodgorliklar qatoriga haqli ravishda o'zining ahamiyati jihatidan

Dunyo geologik merosi hisoblangan Kitob davlat geologik qo'riqxonasi ham qo'shiladi.

Kitob davlat geologik qo'riqxonasi 1979-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Zaminimizning geologik tarihi tabiiy-ilmiy yodgorliklarini namoyon etadigan paleontologiya - stratigrafiya majmualarini qo'riqlash va rejali o'rganish, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish joylarini targ'ib qilish, aholining ekologik bilimini oshirish maqsadida 3 938 ga maydonda tashkil qilingan.

Qo'riqxona Qashqadaryo viloyatida Zarafshon tizmasining janubiy-g'arbiy tarmoqlarida joylashgan, balandligi 1300 dan 2650 metrgacah oraliqda.

Qo'riqxona hududi paleozoy erasining o'rta ordovik davridan karbon davrigacha bo'lgan dengiz cho'kindi yotqiziqlaridan iborat bo'lib, ayrim joylarda neogen va to'rtlamchi davr jinslari bilan qoplangan. Paleozoy erasi yotqiziqlarining qalinligi 4130 m va ular taxminan 93 % karbonatli jinslardan (undan 36 % - dolomit, 57 % - ohaktosh), 4 % terrigen - karbonatli, 2 % - terrigen va 1 % suv osti vulqon mahsulotlaridan iborat. Ushbu yotqiziqlar 370-470 mln yil oldin hosil bo'lgan va o'zida dengiz havzasida yashagan qadimgi dengiz jonivorlarining noyob qoldiqlarini juda yaxshi saqlab qolgan.

Qo'riqxonaning paleontologik muzeyida ordovik, silur, devon va quyi karbon davrining dengiz cho'kindi jinslarida saqlanib qolgan 18 ta guruh tosh qotgan hayvon qoldiqlaridan: 75 tur gidroid poliplar, 110 tur marjon marjon poliplar, 67 tur to'rt nurli poliplar, 53 tur bo'g'imoyoqlilar, 60 tur ignatanlilar, 12 tur boshoyoqlilar, 10 tur mshankalar, 19 tur tentakulitlar (qirilib ketgan dengiz mollyuskalari), 68 tur konodontlar (yo'q bo'lib ketgan xordalilar) va boshqalar mavjud.

Qo'riqxona hududida 168 turdagi hayvonlar mavjud (qushlar-128, sutemizuvchilar-21, sudralib yuruvchilar-14, baliqlar-3 turdan iborat) bilan taqdim qilingan, shundan 10 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirgan, 800 turdagi o'simlik o'sadi, shundan 23 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. O'simliklardan 19 turi endemiklar sirasiga kiradi. 300 xil asal beruvchi yovvoyi o'simliklar, 100 ya yaqin efir-moyli o'simliklar, 200 dan ortiq manzarali o'simliklar mavjud.

Kitob davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga bo'ysunadi, Kitob geologiya ekspeditsiyasi tomonidan boshqariladi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'riqxonalarini bioxilma-xillikni saqlashdagi ahamiyati?
2. Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Qo'riqxonalaridagi o'simlik va hayvon turlari.
4. O'zbekiston qo'riqxonalarining betakror iqlimiy shart-sharoitlari?
5. Kitob davlat geologik qo'riqxonasining o'ziga xos jihatlari?

### **10-§. Quyi Amudaryo biorezervati**

Ko'pchilikda "Biosfera rezervati" o'zi nima? degan savol tug'ilishi, tabiiy.

Biosfera rezervatlari tabiat resurslarini saqlab qolish va ulardan barqaror foydalanish uchun barpo etiladi. Dunyodagi 120 mamlakatda 669 ta biosfera reyervatlari tashkil etilgan va ular samarali faoliyat yuritmoqda. Biosfera rezervati muhofazalanadigan, qo'riqlanadigan tabiiy hudud hisoblanib, u uchta maydonda yaratiladi. Dastlabki qismi markazda, tabiatga hech qanday ta'sir o'tkazilmaydigan joyda tashkil etiladi. Chunki bu hudud asosiy maydon hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Ikkinchi hudud bufer maydon bo'lib, bu yerda flora va faunaning "Qizil kitob"ga kiritilgan namunalarini ko'paytirishga mo'ljallangan pitomniklar yaratiladi. Navbatdagi maydon o'tish bo'limi hisoblanadi, ushbu hududda mahalliy aholi yashaydi va atrof-muhit muhofazasiga o'z hissasini qo'shadi. Bunday maskanni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad tabiat ekotizimi va genofondini saqlab qolish, shuningdek, atrofdagi tabiiy manbalarni ilmiy o'rganish va monitoring qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi va BMT ning Taraqqiyot dasturi - GEJ (global ekologik jamg'arma qo'llab-quvvatlashi bilan tashkil etilgan Quyi Amudaryo davlat biosfera

rezervati (QADBR) O'zbekistonda bunday toifadagi dastlabki muhofaza qilinadigan hududdir.

Biosfera rezervatining asosiy vazifasi – tabiatni muhofaza qilish hamda ayni vaqtda tabiiy resurslardan barqaror foydalanishdir. Uning ko'p zonalaridan tashkil topishi bir vaqtning o'zida odam oyog'i tegmagan tabiatning qimmatli joylarini daxlsiz hamda barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining umumiy maydoni 68717,8 ga.ni tashkil qilgani holda hudud 3 ta zonaga ajraladi: qo'riqlanadigan hudud, yon hudud va o'tish hududi. Qo'riqlanadigan hududning umumiy maydoni 11568,3 ga.teng va asosan noyob, zonada biologik xilma-xillikni saqlash xavf ostida bo'lgan, yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan eski o'rmonlarni saqlab qolishga mo'ljallangan hamda tabiiy tiklanuvchi o'rmonlardan tashkil topgan. Mazkur hududda ixtiyoriy xo'jalik faoliyati taqiqlanadi va faqatgina ilmiy tadqiqotlar va monitoring o'tkazishga ruxsat beriladi.

Yon hududning umumiy maydoni - 6731,4 ga bo'lib, ushbu hudud qo'riqlanadigan hududni o'rab turadi. Mazkur hudud qo'riqlanadigan hudud bilan resurslardan intensiv foydalaniladigan hudud o'rtasida bufer vazifasini bajaradi, qo'riqlanadigan hududning uchastkalari o'rtasida muhim ekologik yo'lak, koridor, vazifasini bajaradi hamda o'rmon massivlarini saqlash va ularni qayta tiklashga imkon beradi.

O'tish hududining umumiy maydoni 50418,1 ga teng bo'lib, asosiy hududlarga (qo'riqlanadigan va yon hududlar) tutashadi hamda tabiatdan barqaror foydalanishni rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu hududda qishloq aholisi mavjud bo'lib, yirik aholi punktlari va zararli va xavfli iqtisodiy ishlab chiqarish obyektlari yo'q.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati umurtqali hayvonlarning 356 xil turi ro'yxatga olingan:

- 43 turdagi baliqlar;
- 2 turdagi amfibiyalar;
- 29 turdagi sudralib yuruvchilar;
- 246 turdagi qushlar;
- 36 turdagi sutemizuvchilar.

Rezervatda mavjud 43 ta turdagi baliqlarning 12 ta turi O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan.

Shuningdek, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida mavjud 246 ta turdagi qushlarning 23 ta turi, jumladan, Binafsharang birqozon, Olachipor jingalak birqozon, kichik boqlon, kichik loyxo‘rak va boshqa ko‘pgina qushlar O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida mavjud 36 ta turdagi sutemizuvchilarning 1 ta turi, ya’ni Buxoro kiyigi yo‘qolib borayotgan, mahalliy tarqalgan tur sifatida O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining o‘simlik dunyosi 419 turdagi o‘simliklardan iborat bo‘lib, ularning 245 tasi turlarga va 70 tasi oilalarga tegishlidir. Mutaxassislar tomonidan: 320 ta ozuqaviy, 68 ta dorivor, 73 ta alkaloid, 47 ta yog‘ochbop, 20 ta bo‘yoqbop, 56 ta zaharli, 11 ta tolabop, 40 ta asalaribop, 25 ta efirmoylari mavjud daraxt, gul va boshqa turdagi o‘simliklar borligi aniqlangan.

O‘rmon hosil qiluvchi to‘qaybardoshlar turlarining, to‘rang‘ining asosan ikkita turi farqlanadi:

- turli bargli tol;
- barglari zich tol.

Shuningdek, lohning ham 2 ta turi mavjud: ingichkabargli loh va sharq lohi.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida har yili Buxoro kiyigi va Xiva qirg‘ovulining ham soni, ko‘payish dinamikasi hisobga olingan. Jahon yovvoyi tabiat jamg‘armasining grant mablag‘larini jalb etgan holda Buxoro kiyigi yashashining tabiiy arealini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratildi hamda to‘qay o‘rmonlariga mavjud yuklamalarni bevosita va bilvosita pasaytirish strategiyasi ishlab chiqildi.

Chorvachilikni barqaror rivojlantirish uchun loyiha asosida shart-sharoitlar yaratilmoqda va energiya ning muqobil manbalari taklif qilinmoqda. Boshqacha aytganda, biosfera rezervati bundan keyin faqat loyiha taklif etgan tashabbuslarni rivojlantirishi mumkin.

To‘qaylar va botqoqli qamishzorlar avvallari Amudaryo deltasiga bir bo‘lib, juda katta maydonlarni egallagan.

Hozirgi vaqtda Quyi Amudaryodagi to‘qaylarda to‘qay o‘simliklarining 61 turi hisobga olingan. Ulardan keng tarqalganlari so‘ralar va qurama gullilar oilalari hisoblanadi. Yog‘och edificatorlarining hammasi tollar (5 tur), jiydalar (1 tur) oilalariga mansub bo‘lib, to‘qay

florasining 11 foizini tashkil qiladi. Butalar bilan ko'p yillik o'tlar keng tarqalgan bo'lib, ular to'qaylardagi o't qatlamini tashkil qiladi. Odatda, bir yillik va ikki yillik o'tlar guruhda kam uchraydi va ko'p o'smaydi.

Amudaryo deltasidagi to'qaylarning faunasida 27 turdagi sutemizuvchilar bo'lib, ular jami Qoraqalpog'istondagi sutemizuvchilarning turlarini 40 foizini tashkil qiladi. Butazorlarda bo'rsiq, kam bo'lsada, mushuk bilan tulki yashaydi. Bundan tashqari, to'qaylarda quloqli tipratikon bilan jayra ham uchraydi. Kemiruvchilardan yovvoyi to'qay quyon, uy sichqoni juda ko'p bo'lib, odatda plastinka tishli alaman, qum sichqoni va boshqalar uchraydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida "Baday-to'qay" tekislik-to'qayzor davlat qo'riqxonasi mavjud to'qayzorlarni saqlab qolish, Buxoro bug'usi va Xiva qirg'ovulini tabiiy holatda ko'paytirish maqsadida 1971-yilda Beruniy tumani hududida qo'riqxona tashkil etilgan. Qo'riqxonaning umumiy maydoni 6462 gektar bo'lib, uning 60 foizi to'qayzorlardir. Qo'riqxona florasida 167 xildagi o'simliklardan iborat. Bu yerda o'sadigan lolaning ikki xili O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan. Qo'riqxona faunasida 26 xildagi baliq, 2 xil suvda va quruqlikda yashovchi jonivor, 13 xil sudralib yuruvchi, 90 xildan ortiq qush, 15 xildagi sutemizuvchi bor. Qo'riqxona hududida O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga va Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan kichik va katta Amudaryo kurakburuni, Orol va Turkiston mo'ylovkori, parrak qorabuzov, kichik oqqo'ton va Buxoro bug'usi yashaydi.

To'qaylarning hamma joyida tuyoqli hayvonlardan to'ng'iz va Buxoro bug'usi yashaydi. To'ng'izlar faqatgina to'qaylarda yashab, suvda o'suvchi ekan (jekan) va hamish tomirlari bilan, kuzda esa jiyda bilan oziqlanadi.

Baday-to'qay qo'riqxonasi hududiy va jahon biologik xilma-xillik uchun ahamiyatli bo'lgan, Buxoro bug'usining dunyodagi eng yirik populyatsiyasi (2010-yilgi hisobga olish bo'yicha - 582 bosh) saqlanadigan joy sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu qo'riqxona ekoturizm uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, undagi Buxoro bug'ulari xalqaro va mahalliy turistlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida mavjud sutemizuvchilar faunasi 50 xildan ortiqdir. Ulardan yupqa panjali yumronqoziq, mitti

qo'shoyoq, Seversov qo'shoyog'i, Buxoro bug'usi va boshqalar mintaqaviy endemiklar hisoblanadi. Orol bakrisi, Orol qorako'zi, sazanbaliq, shimbaliq, parrak, Orol tikanagi, uzun ignali tipratikon, qorauloq, sayg'oq, jayron, Ustyurt qo'yi, hind asalxo'ri noyob tur sifatida Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan. Yaqin o'tmishda ushbu hududda gepard, Turon yo'lbarisi va qulon mavjud bo'lgan.

Bundan tashqari, rezervat hududida Jampiqqal'a, Gaurqal'a, Chilpiq qo'rg'oni, Shayx Jalil bobo kabi tarixiy yodgorliklar bilan birga Sulton Uvays tog'i, Amudaryo sohilida ko'pgina tabiiy ekoturistik obyektlar ham mavjud.

### Nazorat savollari

1. Quyi Amudaryo biorezervatining maqsad va vazifalari.
2. Quyi Amudaryo biorezervatidagi o'simlik va hayvon turlari.
3. Rezervatda ekoturizmni rivojlantirish masalalari?
4. Qoraqalpog'istonda mavjud tabiat yodgorliklarini sanab o'ting.

### 11-§. Milliy bog'lar

Alohida ekologik, ilmiy, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan, o'simliklarning noyob va qimmatli, shu jumladan manzarali turlarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda oqilona foydalanishga mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar **milliy bog'lardir**. Milliy bog'lar yer uchastkalarida o'simlik dunyosini qayta tiklash va takror ko'paytirish, shu jumladan kompleks agrotexnik tadbirlar o'tkazish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Milliy bog' hududida yashaydigan hayvonot dunyosi mazkur hudud ekologik tizimining tarkibiy qismidir.

1872-yilda AQSH prezidenti Uilss Grant qaroriga asosan Sneyk daryosining shimoli-sharqiy qismidagi 893,3 ming gektarli yer dunyodagi birinchi milliy bog'ga aylanadi va unga Yelloustoun nomi beriladi. Milliy bog'larning qo'riqxonalaridan farqi shundaki, ularning hududiga sayyohlar kirishiga ruxsat etiladi va xo'jalik ishlari bilan cheklangan miqdorda shug'ullanishga ruxsat beriladi.

Hozirgi kunda dunyoda 7000 ga yaqin milliy bog'lar mavjud. Ularning har biriga sayr qilish, yovvoyi tabiat olamiga nazar solish, kamyob o'simliklar bilan tanishish va hayvonlar, qushlar hayotini yaqindan kuzatishga imkon beradi.

Milliy tabiat bog'i – alohida qo'riqlanadigan, inson faoliyatini ta'siriga uchramagan va tabiiy manzaralari saqlangan, o'simliklar va hayvonot olami va ularning yashash muhiti ilmiy va o'quv-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan katta tabiiy hudud. Milliy bog'larda landshaftlarni tiklash, noyob va yo'qolib borayotgan hayvonlar va o'simliklar turlarini saqlash ishlari amalga oshiriladi, bir qismi dam oluvchilar va qat'iy tartibda turistlar uchun ochiqligi bilan qo'riqxonalaridan farq qiladi.

Milliy bog'lar chet ellarda hududlarni muhofaza qilishning asosiy shaklidir. «Milliy» so'zi joyning ayrim kishiga emas, balki davlatga qarashli ekanligini bildiradi.

Milliy bog' atamasi XIX asrning ikkinchi yarmida (1872 y) alohida muhofaza qilinadigan hududlar vujudga kelgan vaqtda paydo bo'ldi. Milliy bog'lar tabiatni diqqatga sazovor va landshaftlari xilmaxil, kam o'zlashtirilgan xushmanzara tumanlarda tashkil qilinadi. Milliy bog'larning asosiy vazifasi – xushmanzara landshaftlar aholining dam olish imkoniyatini ta'minlash bo'lib, bunga tabiatni muhofaza qilish asosidagina erishish mumkin. Milliy bog'larga dam oluvchilarning borishi to'g'ri tashkil qilinganda ular katta maydonlardagi tabiiy komplekslarni saqlash va tiklashni ta'minlaydi, bu jihatdan milliy bog'lar qo'riqxonalarga o'xshab ketadi. Milliy bog'lar atrofidagi ommaviy dam olish uchun mo'ljallangan istirohat zonalaridan farq qilib, ularga guruh bo'lib yoki individual borish reglament bo'yicha ruxsat etiladi. Milliy bog' hududi foydalanish va muhofaza qilish rejimi turlicha bo'lgan joylarga va zonalarga bo'lib qo'yiladi.

Hududlarni qo'riqlashning bu turi deyarli yaqin orada 1976-yil Zomin va 1990-yil Ugom-Chotqol milliy bog'larining tuzilishi tufayli joriy etilgan. Milliy bog'lar muhofaza qilinadigan hududlar tizimining 30% umumiy maydoni va qat'iy uzoq muddatli muhofaza qilinadigan maydonlarning 74% tashkil etadi. Ularning asosiy maqsadi – Bioxilmaxillikni saqlashni ta'minlashda tabiatdan oqilona foydalanish (turizim, o'rmon mahsulotlarini tayyorlash, qishloq xo'jaligi) va qattiq nazorat

qilish. Bu hududlar tabiatni saqlash xalqaro ittifoqi tomonidan muhofaza qilinadigan mintaqalar tafsifnomasiga binoan 2-toifaga kiradilar.

Ugom-Chotqol milliy bog' tuzilmasi tog' cho'qqisining Chotqol tizmasida joylashgan. Uning hududi  $5476 \text{ km}^2$  ga yaqin maydonni tashkil etib Qozog'iston va Qirg'iziston bilan chegaradosh hamda Chotqol biosfera qo'riqxonasini shuningdek, suv xo'jaligi, shahar qurulishi, qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan mintaqalarni o'z ichiga oladilar.

Zomin milliy bog'i Jizzax viloyatining Turkiston tog' tizmasi tarmoqlarida joylashgan bo'lib  $315 \text{ km}^2$  ga yaqin maydonga egadir. U Zomin davlat qo'riqxonasi bilan chegaradosh.  $156 \text{ km}^2$  ikkala bog' ham o'rmonchilik bo'yicha davlat qaramog'ida turadi.

### 11.1. Ugom-Chotqol davlat tabiiy milliy bog'i

Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i 1990-yilda Toshkent viloyatida G'arbiy Tyan-Shanning tog'li tarmoqlarida 574, 6 ming ga maydonda tashkil etilgan. Bog' tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Tabiat bog'i alohida ekologik, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan tabiat obyektlari va komplekslarini saqlash va ulardan foydalanish maqsadida tashkil etiladi.

Quyidagilar tabiat bog'ining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimidagi ekologik tarmoqda O'zbekiston Respublikasi hududidagi biologik va landshaft xilma-xilligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlashda ishtirok etish;

- rekreatsion, ilmiy va madaniy maqsadlarda tabiiy obyektlar va komplekslardan oqilona va barqaror foydalanishni ta'minlash;

- atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish.

Bog'ning ulkan maydoni dengiz sathidan 900 dan 4000 m gacha oraliqdagi balandlikda joylashgan, turli yer toifalarini o'z ichiga oladi. Bu yerga Chotqol biosfera qo'riqxonasining 2 uchastkasi kiradi, bu yerda to'liq osoyishtalik hukmron. Ohangaron va Burchmulla o'rmon xo'jaliklari yerlarida o'rmonni tiklash faoliyati olib borilmoqda, chorva

mollarini boqish cheklangan, yoz faslining uch oyidagina katta balandlikdagi yaylovlarda boqiladi.

Bog' o'simlik olamiga boy, olimlar mingglab turdagi o'simliklarni aniqlashgan, ulardan o'nlab turlari qizil kitobga kiritilgan, bir necha turi esa shunchalik kichik arealga egaki, bog'dan boshqa dunyoning hech bir yerida uchramaydi. Bog'ning hududida o'sadigan qator o'simlik turlari dorivorlar sirasiga kiradi.

Hayvonot olami ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Qizil kitobga kirganlaridan ayiq, ilvirs, ko'ksug'ur uchraydi, Bu yerda 200 turdagi qushni uchratish mumkin. Bog' hududuy-ma'muriy organ-Toshkent viloyati hokimligiga bo'ysunadi.

Hozirda Ugam-Chotqol milliy bog'ining faunasi 230 hayvonot turidan tashkil topgan bo'lib, shundan 38 turi - O'zbekiston va xalqaro qizil kitobiga kiritilgan. Shuningdek bog'da 1,8 ming turdagi o'simlik dunyosi mavjud bo'lib, shundan 74 turi Qizil kitobga kiritilgan.

Mazkur bioxilma-xillik hamda bog'ning go'zal tabiiy peyzajlari nafaqat mamlakat, balki ko'plab xorijiy sayyohlarni hamda yovvoyi tabiat shinavandalarini befarq qoldirmay, o'ziga jalb etib kelmoqda. Ushbu yilda G'arbiy Tyan-Shan hududi YUNESKO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. O'zbekiston tomonidan milliy bog'ning hududiga kiruvchi Chotqol biosfera qo'riqxonasi bilan ko'rsatilgan.

Tabiat bog'ining hududi tabiat bog'iga foydalanishga beriladigan yer uchastkalarida, shuningdek, uning chegarasi doirasidagi boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli yer uchastkalarida joylashgan.

Tabiat bog'i tashkil etilayotganda uning hududi quyidagi zonalarga bo'linadi.

Tabiat bog'ining hududi:

—qo'riqxona zonasi;

—rekreatsiya zonasi;

—xo'jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalariga bo'linadi.

Aholini sog'lomlashtirish uchun sharoit bo'lgan taqdirda, tabiat bog'ida kurort tabiiy hududlar uchun nazarda tutilgan rejimli kurort zonalari ajratiladi.

Tabiat bog'i hududida undagi tabiiy obyektlar va komplekslar holati, ularning rekreatsion, madaniy va estetik qiymati inobatga

olingan holda, zonalarga bo'linishga muvofiq tabaqalashtirilgan qo'riqlash rejimi o'rnatiladi.

Tabiat bog'ining qo'riqlanma zonasida davlat qo'riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejim o'rnatiladi. Ushbu zonada har qanday rekreatsion, xo'jalik va boshqa faoliyat turlari taqiqlanadi, bioxilma-xillik va tabiiy jarayonlarning tabiiy kechishi monitoringini yuritish, tabiiy obyektlar va komplekslarni muhofaza qilish hamda takror ko'paytirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish bundan mustasno.

Tabiat bog'ining rekreatsion va ilmiy faoliyati tabiat bog'ining va boshqa tashkilotlarning xodimlari hamda ayrim mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiat bog'i hududida olib boriladigan barcha ilmiy tadqiqotlarning dastlabki materiallari (yoki ularning nusxalari) hamda mazkur tadqiqot natijalari ushbu tadqiqotlarni amalga oshirgan subyekt toifasidan qat'i nazar, tabiat bog'ining ilmiy fondlariga taqdim etilishi shart. Tabiat bog'i ushbu materiallardan beg'araz asosda, qonunchilikka muvofiq intellektual mulklariga rioya etgan holda foydalanadi.

### ***Joylashuv o'rni va chegaralari***

Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bogi Toshkent vilyatidan 574 ming gektar yerga ega bo'lib, amalda G'arbiy Tyanshanning janubi-g'arbidagi: Ko'ksuv, Ugom, Maydontol, Pskom va Chotqol tog' tizmalarini o'z ichiga oladi. Balandlik diapazoni o'rta tog'li, o'rmonli va baland togli mintaqalardan iborat bo'lib, bog'ning ulkan maydoni dengiz sathidan 900 dan 4000 m gacha balandlikda joylashgan.

Chortoq davlat biosfera qo'riqxonasi 1947-yilda tashkil topgan bo'lib, 1990-yildan yana yangi barpo etilgan bog' tarkibiga kirdi. U bog'ning yadrosi hisoblanib, alohida tabiat hududi sifatida qo'riqlanadi.

Bog' hududida yangidan-yangi yirik zonalar joylashgan bo'lib, ular yil mobaynida mashhurdirlar. Ulardan ayniqsa, o'zining tabiiy belgilari bilan boshqalardan ajralib turuvchi Bildirsoy va Chimyon tog'laridir. Shuningdek, ekvator perimetri bo'lgan Chorvoq suv omboridir.

### ***Fizik-geografik sharoiti. Iqlimi***

Bog' hududidan uch yirik daryo oqib o'tadi: bular G'arbiy Tyanshanning Ko'ksuv, Pskom va Chotqol bo'lib, ularning suvi Chotqol suv omboriga quyiladi. Shuni qayd etish kerakki, Pskom

daryosi to'raligicha O'zbekiston hududida joylashgan. U ikki baland tog'lar qo'ynidagi buloqlar birikmasidan hosil bo'lgan tog' daryolari Oygaing va Maydontol oqimlaridan paydo bo'lgan, Birikkan suvlar yirik G'arbiy-Tyanshan tog'ining muzliklaridan hosil bo'lib, Maydontol tog' tizmalariga quyiladi.

Bu hududda uncha yuqori bo'lmagan haroratni va yog'ingarchilikning katta miqdorini ko'rsatadi. Qish kunlarida havoning o'rtacha darajasi 6-9 gradusni, yoz oylarida esa +12- +22 gradusni tashkil etadi. Yillik namlik miqdori 680-980 mm, o'rtacha 780 mm ni tashkil qiladi.

### **Flora**

Bog'ning o'simliklar olami mingdan ortiq turlari mavjud bo'lib, ularning orasida faqat bog' hududida o'sadigan endem o'simliklar uchraydi. Noyob turlar sirasiga lolalarning har xil turlari, karrak piyozi, astragallar, cho'l pionguli, yetmak, doim yashil rangdagi Kaufman bereskleti, norshirachlar kiradi.

Bog'da uchraydigan o'simliklarning aksriyati dorivor hisoblanadi: na'matak, dalachoy, bo'znoch, rodiola, tog'rayhon, tuyatovon, bargizub, bo'zboshlar shular jumlasidandir.

### **Fauna**

Yer usti umurtqali hayvonlarning 4 sinfiga 275 turdagi, yana 2 turdagi amfibiya, 18 turdagi reptiliyalar, 207 turdagi qushlar, 48 turdagi sutemizuvchilar kiradi. Endem umurtqali hayvonlarning 15% O'zbekistonning umumiy faunasi hisobida: reptiliyalar 1.3%, qushlar 12.5%, sutemizuvchilar 2.0% iga baho berilgan.

### **Biologik tadqiqot tarixi**

Bog' hududida zoologiya instituti va O'zR FA sining "Botanika" IIChM tomonidan doimiy tadqiqotlar o'tkazilib, 2000-2006-yillardan Butunjahon Banki, Global ekologik fond va TACIS Xalqaro fondlarining "G'arbiy Tyanshan bioxilma-xilligini saqlashning transchegaraviy loyihasi" doirasida ishlar olib borildi. Qor qoplonini saqlash borasida amalga oshirilgan mazkur yirtqichni o'rganish ishlariga ketgan barcha moliyaviy xarajatlarini qoplagan Xalqaro fond bu ishga katta e'tibor qaratdi.

Umumiy holatda 200 dan ziyon ilmiy ishlar nashr etildi. O'zbekiston qo'riqxonolari mehnatlari flora va faunani targ'ib qilayotgan barcha nashrlarda berib borilmoqda. Qor qoplani va

Menzbir sug'uri to'g'risidagi bibliografik maqolalar ham berib borilmoqda (5-jadval).

**Ugom-Chotqol davlat tabiiy milliy bog'ida uchraydigan qushlar  
va sutemizuvchilar TMXI va O'zbekiston Respublikasi Qizil  
kitobiga kiritilgan noyob turlar:**

5-jadval

| Tur (lotin)                            | Tur (o'zbek)                                  | O'zbekiston<br>Qizil<br>kitobi | TMXI<br>ning<br>Qizil<br>kitobi |
|----------------------------------------|-----------------------------------------------|--------------------------------|---------------------------------|
| AVES                                   | QUSHLAR                                       |                                |                                 |
| CICONIIFORMES                          | LAYLAKSIMONLAR                                |                                |                                 |
| Ciconiidae                             | Laylak turi                                   |                                |                                 |
| Ciconia nigra<br>(Linnaeus, 1758)      | Qora laylak                                   | +                              |                                 |
| UzRDB CITES II                         |                                               |                                |                                 |
| Qora laylak                            | +                                             |                                |                                 |
| FALCONIFORMS                           | LOCHINSIMONLAR                                |                                |                                 |
| Accipitridae                           | Qirg'iyimonlar                                |                                |                                 |
| Circateus gallicus<br>(Gmelin, 1788)   | Ilonxo'r                                      | +                              |                                 |
| Hieraaetus pennatus<br>(Gmelin, 1788)  | Mitti burgut                                  | +                              |                                 |
| Aquila chrysaetos,<br>(Linnaeus, 1758) | Burgut                                        | +                              |                                 |
| Gypateus barbatus<br>(Linnaeus, 1758)  | Boltayutar                                    | +                              |                                 |
| Aegypius monachus<br>(Linnaeus, 1766)  | Qora kalxat                                   | +                              | +                               |
| Gyps fulvus (Hablizl,<br>1783)         | Oqbosh qumoy                                  | +                              |                                 |
| Gyps himalayensis<br>Hume, 1869        | Himolay yoki qorli<br>kalxat, qumoy           | +                              |                                 |
| Falconidae                             | Lochin turi                                   |                                |                                 |
| Falco cherrug I.E. Gray,<br>1834       | Jig'oltoy                                     | +                              |                                 |
| Falco pelegrinoides<br>Temminck, 1829  | Sariq boshli lochin<br>(shaxin) sahro lochini | +                              |                                 |

|                                                    |                                        |   |   |
|----------------------------------------------------|----------------------------------------|---|---|
| Falco naumanni<br>Fleischer, 1818                  | Cho'l miqqiyi                          | + | + |
| MAMMALIA                                           | Sutemizuvchilar                        |   |   |
| CHIROPTERA                                         | Qo'lqanotlilar                         |   |   |
| Rhinolophidae                                      | Takaburunlar                           |   |   |
| Rhinolophus<br>ferrumequinum<br>(Schreber, 1774)   | Keng quloqli<br>skladchatogub...       | + |   |
|                                                    | Katta takaburun                        |   |   |
|                                                    |                                        | + | + |
| Rhinolophus<br>hipposideros -<br>(Bechstein, 1800) | KEMIRUVCHILAR                          |   |   |
| Tadarida teniotis<br>(Rafinesque, 1814)            | Kichik takaburun                       | + |   |
| Vespertilionidae                                   | Keng quloqli<br>skladchatogub...       | + |   |
|                                                    | Oddiy (gladkonosie)<br>ko'rshapalaklar |   |   |
| Myotis emarginatus<br>(E. Geoffroy, 1806)          | Uch rangli nochnitsa...                |   | + |
| RODENTIA                                           | KEMIRUVCHILAR                          |   |   |
| Sciuridae                                          | Olmaxonlilar                           |   |   |
| Marmota caudate<br>(Geoffrey, 1844)                | Qizil sug'ur                           |   | + |
| Marmota menzbierri<br>(Kaschkarov, 1925)           | Yirtqich                               |   |   |
|                                                    | Menzbir sug'uri                        | + | + |
| Myoxidae                                           | Uyquchisimonlar                        |   |   |
| Dryomys nitedula<br>(Pallas, 1778)                 | O'rmon sonyasi                         |   | + |
| Cricetidae                                         | Og'maxonlar                            |   |   |
| Cricetulus migratorius<br>(Pallas, 1773)           | Kulrang og'maxon                       |   | + |
| CARNIVORA                                          | Yirtqich                               |   |   |
| Canidae                                            | Itsimonlar                             |   |   |
| Cuon alpinus (Pallas,<br>1811)                     | Qizil bo'ri                            |   | + |
| Ursidae                                            | Ayiq turi                              |   |   |
| Ursus arctos ssp.                                  |                                        |   |   |
| Isabellinus Horsfieldi,<br>1824                    | Tyanshan malla ayig'i                  | + | + |
| Felidae                                            | Mushuksimonlar                         |   |   |
| Unica unica (Schreber,<br>1776)                    | Qor'qoploni                            | + | + |

Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'ini boshqarish O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi hamda Toshkent viloyati hokimligi tomonidan amalga oshiriladi.

## 11.2. Zomin milliy tabiat bog'i

**Yaratilish tarixi.** Bog' hududi tashkil topganiga qadar Zomin o'rmon xo'jaligi tarkibiga kiradi.

Respublikamizdagi mavjud o'rmon xo'jaliklarida amalga oshiriladigan o'rmon xo'jaligi faoliyati singari bu yerda ham quyidagi vazifalar amalga oshirilgan:

O'rmon xo'jaligi ishlari;

Madaniy o'rmon yumushlari;

Gidromeliorativ;

O'rmon muhofazasi;

Yong'inga qarshi kurash ishlari.

Zomin milliy bog'ining maqsadi – regionda texnik va noyob majmualarni, biologik xilma-xillikni tatbiq qilish, hayvonot va o'simlik dunyosi genetik fondini saqlab qolish hamda tabiiy rekreatsiya jarayonlar monitoringini yuritish, rekreatsiya, mahalliy va xorijiy turizmni rivojlantirish, tabiat muhofazasi ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Zomin milliy bog'ining vazifalari: – ekologik muvozanatini yo'qotgan tabiiy majmualarni ilgarigi holatiga qaytarish; – tabiat va arxitektura yodgorliklarini saqlab qolish; – tabiat obyektlar va jarayonlar andozasi sifatida muxofaza ostiga olingan majmualarni tabiiy holatda saqlashni ta'minlash; – muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat muhofazasini amalga oshirish; – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bilan bog'liq davlat ekologik ekspertizasida qatnashish; – regionda biologik zaxiralardan barqaror va oqilona foydalanish usullarini ishlab chiqish; – o'simlik va hayvonot dunyosining davlat hisobini yuritish; – tabiat muhofazasi va undan oqilona foydalanish muammolarini o'rganish va ekologik bilimlarini targ'ib qilish; – ishlab chiqarish moliya rejasida belgilangan o'rmon xo'jaligi, o'rmon barpo qilish, uni himoya qilish, yong'inga qarshi biotexnik tadbirlar va boshqa turdagi ishlarni amalga oshirish; – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa ilmiy tashkilotlar bilan

birga noyob va yo'qolish xavfi ostidagi o'simlik va hayvonot dunyosini tadqiq qiladi va hisobini yuritadi.

Zomin milliy bog'i amaldagi qonunlarga asosan quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: – rekreatsiya, mahalliy va xorijiy turizmni tashkil etishga qulay sharoit yaratish va uni rivojlantirish; – tabiatni saqlash, ayniqsa, alohida qimmatga ega archazorlar, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish; – ekoturizmni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur ilmiy-texnik baza yaratish; – zomin milliy bog'iga tashrif buyuruvchilarni milliy bog'ning diqqatga sazovar, alohida qimmatga ega noyob obyektlari bilan atroflicha tanishtirish; – hududda yangi turistik yo'nalishlarni tashkil qilish.

Bog'ning barcha hududlarida foydali va dorivor mahsulotlar tayyorlash uchun xomashyolar olingan-dalachoy, namatak, zira, zirk, tog'rayhon va yong'oq shular jumlasidandir.

Yog'och tayyorlash cheklangan, sababi sanitar-gigiyenik tadbirlar ekish ishlariga va yong'in xavfsizligiga qaratilgan.

Zomin milliy bog'i 1976-yil sentabrida tashkil qilingan.

Zomin tog'li-o'rmon rayonida qishki sport va sport sog'lomlashtirish kompleksini qurish tog'risidagi Respublika O'rmon xo'jaligi vazirligining 1978-yil 29-iyundagi qarori qabul qilingan.

Zomin milliy tabiat bog'i hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'XBB ga qarashli qo'riqxonalar, milliy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tizimiga kiradi va qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'lari va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqarilgan.

O'sha vaqtda mazkur bog' butun O'rta Osiyo va O'zbekistondagi birinchi milliy bog' sanalgan (5-rasm).

**Joylashuv o'rni va chegaralari.** Zomin milliy tabiat bog'i Jizzax viloyatining Zomin tumani va uning janubi-sharqiy qismidagi umumiy maydoni 24110 ga, 16828 ga o'rmon bilan qoplangan maydonga ega Turkiston tog' tizmalari bilan tutashgan. Bog'ning sharqiy qismi Tojikiston viloyati bilan chegaradosh.

Muhofaza zonasi mavjud, ammo O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanmagan.

Bog' idorasi Zomin markazidan 2,5 km va viloyat markazi bo'lgan Jizzax shahridan 55 km. uzoqlikda joylashgan. Dengiz sathidan 1760-3500 m balandlikdagi tog' archa ekotizimlari muhofaza qilinadi. Bog'da 700 dan ortiq turdagi o'simliklar mavjud bo'lib, shundan Zarafshon, yarimsharsimon va Turkiston archalari asosiy o'rmonni hosil qiladi.

Bog'da shtat jadvali asosida 34 kishi: ma'muriy boshqarma apparatida 4 kishi, ilmiy-texnik xodimlardan 3 kishi, o'rmon muhofazasida 15 kishi, yordamchi xizmatchilardan 12 kishi faoliyat ko'rsatadi.



*5-rasm. Zomin milliy bog'ining xaritadagi o'rni.*

### ***Fizik - jug'rofiy sharoiti. Iqlimi.***

Milliy bog'ning tabiiy iqlim sharoiti rang-barang. Milliy bog'ning mikroiklimiga janubdan va janubi-sharqdan bog' hududiga keng ochilgan Turkiston tog' tizmalarining ulkan tog'li to'siqlari katta ta'sir ko'rsatadi. Turkiston tog' tizmalarining kuchli tog'li to'siqlari bog'ning mikro iqlimiga ta'sir qiladi.

Iqlimning xarakterli jihati shundaki, u keskin kontinental. Havo darajasining kecha va kunduz tebranishi juda ahamiyatli. Havo namligi nisbiy, yog'ingarchilik asosan qish oylarida bo'lib, uncha ko'p bo'lmaydi.

Relyefning rang - barangligi tog' yonbag'irlarning tikligi, quyosh energiyasi va atmosfera namligi tengsizlikni yuzaga keltiradi.

Yog'ingarchilik yil mobaynida 450 dan 560 mm bu quyi tog'oldi, o'rta tog'oldi, yuqori tog'oldi subalpiysk va archning yuqori qismidagi

chegaragacha yog'adi. Havoning darajasi va boshqa ko'rsatkichlar bog' hududida vertikal zonalashgan.

Yillik havo darajasi 7.7 dan 3 gradusgacha, maksimum 39 dan 23 gacha, minimum 19 dan 34 gacha, vegetatsion davomiyligi 214 dan 96 kungacha, qorsiz davr 164 dan 64 kungacha, oxirgi muzlamalar bahorda 15 aprelgacha, yuqori chegaralarda 14 sentabrgacha, qor qatlami 4 dekabrgacha, yuqori chegarasi 17 oktabrgacha davom etadi. Qor uyumlari qatlami 10 dan 50 sm. va undan ko'prog'ini tashkil etadi.

Shamol tartibi bog' rayonida mahalliy orografik qurilishga bog'liq. Ko'pincha shamollar janubga qarab va tunda shamol tog'dan vodiya qarab, kunduzi esa balandlikka qarab esadi. Tog' yonbag'irlarida yilning sovuq kunlarida tog'dan esadigan quruq va iliq shamollar kuzatiladi.

### ***Relyefi.***

Geomorfologik formatsiya va bog'ning hududi relyefi tabiiy sharoitlaridan keskin farqlanadi.

Milliy bog' asosan shimolda Turkiston tog' tizmalari ohaktoshli tepaliklarida 1000 dan 4030 m dengiz sathidan balandlikda joylashgan. Bosh o'qi bo'ylab Turkiston tog'i tizmalari burmalari hamda Shahrison dovonidan G'uralashgacha yo'naltirilgan. Bog' hududining eng baland nuqtasi – 4030m Sharkartav tog'i, Koburgen tog'i – 3925 m, Iskandar – 3945 m, Aktashda – 3410 m, Chandir – 3220 m, janubi – g'arbda Bishkent dengiz sathidan 3247 m balandlikda joylashgan.

Qulsuv va Qashqasuv posyolkalari quyi kengaytirilgan stvorida Turkiston tog' tizmalarining kuchli bo'laklangan qiyaliklari joylashgan va g'arbiy qismda o'zaro tog' havzasining tashqi ko'rinishini, markaziy qismda to'liqinsimon plato (yassi tog'), sharqiy qismida esa yassi tog'lar manzaralarini chizib beradi. Shimoldan tog'li pasttekisliklar kompleksi bo'laklangan o'rta tog' chiziqlari Molguzar tog' tizmalari tektonik yoriqlaridan keskin chegaralangan.

Bog' hududining geologik qurilishi geomorfologik shakllanishi va o'rmon landshaftlariga katta ta'sir o'tkazib, unga o'ziga xos kolorit bag'ishlaydi.

Alohida kuchli bo'laklangan baland tog'lar ko'pligi ayniqsa, dengiz sathidan 3700-4030 m balandlikda;

Tik qoyalar kuchli va chuqur bo'laklangan yer ozion denudatsiyali baland tog'lar relyefning yer ozionli formasi ko'pligi 3700 m dengiz sathidan balandlikda;

Poleogen denudatsiyagacha bo'lgan baland tog'larning poleozoy ohaktoshlari ko'pligi 3000-3500 m dengiz sathidan balandlikda.

Geomorfologik landshaftlar chizgilari aniq mintaqaviy rang-baranglikning tabiiy sharoitlarida differensiyalashuvi ularning asosi hisoblanadi.

Bog' hududining past - baland kesishganlik va o'nqir - cho'nqir tuzilishiga qaramasdan uning uchastkalari turli yoshdagi sayyohlar yura olishi uchun mo'ljallangan.

Bog' yo'nalishida Zomin - Baxmal transport qatnovi yo'lga qo'yilgan, so'qmoqlar orqali bog'ning barcha mintaqalariga yetib borish esa piyodalar va otiqlar uchun qulay.

### ***Geologiyasi.***

Bog'ning geologik qurilishi rang barang paleozoy davri (slanetslar, qumtoshga oid, ohakka oid) kembriys devongacha, qisman mezokaynazoy davrigacha ajralib turadi. Paleozoy qatlamlari litologik tarkib singari xuddi yoshiga qarab xilma - xildir.

Paleozoy qatlamlari yoshiga qarab ajraladi: kembriy, ordovik, silur, devon, karbon va paleozoy yuqori ajralishlar. Kembriyning eng qadimgi qatlamlaridan qumtoshga oid, argilitga oid va margelist ohaktoshlarga oid. Qoldiqlar o'rta oqimda Qulsoy, Chandirsoy, Qizilmozor va Qashqasuv soylaridan o'tadi.

Quyi silurli slanetslar va qumtoshlar Qizilmozor, Qulsuv va Obiko'llarning katta maydoniga qo'shiladi.

Devon ohaktoshlari silurlarlarda kam uchraydi va Qizilmozor etaklariga alohida turda chiqadi.

Tosh ko'mirli ohaktoshlar Qizilmozor va Qashqasuv soylari tepa qismlarida uchraydi. Mezozoy davrining qodiqlari Angorli dovonida unchalik ko'zga tashlanmaydi.

Neogen qoldiqlariga ularga nisbatan keng rivojlangan.

Paleogen qoldiqlari oq-kulrang ohaktoshlar va yashil gillar bilan ifodalanadi. Neogen qoldiqlari uchga bo'linadi: g'ishtli - qizil rangli qumlar; qo'ng'ir - qizil rangli mayda donali konglomeratlar va kulrang chaqiq konglomeratlar.

Baland tog'larning geologik qurilishida slanetslar, qumtoshtar va ohaktoshlarning o'rni katta.

O'rta tog'larda, xususan bir necha massivlardan iborat Qashqasuv va Qizilmozor posyolkalarida bir - biridan ajralgan juda chuqur kanonlar - ulkan yer oidli kesimlar eni 500 m dan chuqurligi 450 m gacha bo'lgan Chortan tog' darasi joylashgan.

Yettikechuv va O'rikli soylarining quyi oqimida allyuvial shag'allardan iborat qoldiqlar mavjud.

Jilg'alarining boshi flyuvioglyatsion qoldiqlardan tashkil topgan.

Mashhur Suffa va noyob tog' darasi bo'lgan Chortan shuningdek, mavjud bo'lgandan buyon paleozoy ohaktoshlari qoldiqlariga ega.

Ulkan qoyalar qurshovidagi to'lqinsimon soylar vodiysi taroqsimon tog' tizmalarida sayyohlar va alpinistlar uchun barcha sharoitlarni tashkillashtirishga mo'ljallangan.

### *Tuproq'i.*

Fizik-jug'rofiy omillar majmui geomorfologik qurilishlar, joyning iqlimi va relyefi, balandlik orografiyasi, dengiz sathidan balandlik, o'simliklar, tuproq hosil qiluvchi turlar bilan farqlanishida quyidagi keng bioiklim zonasining baland zonali landshaftlari bilan xarakterlanadi.

Arid zona (quruq cho'l har xil o'simliklari). To'q qoramtir tuproqlar.

Subarid zona. Och qo'ng'ir (to'q kulrang. tuproq.

Arid - gumidli zona. Tog' archalari va archali o'rmonlar hamda kam o'rmonli tuproqlar.

Yuqori tog'li subnivel zona. Yuqori tog'li cho'l tuprog'i.

Qoyalar qanchalik baland, kuchli va uzun bo'lsa, tuproqlar yuzasining suv bilan yuvilib ketishi namlik zaxirasi, tuproqning zaxirasi, tuproqning to'yinishi kamayib, o'simliklar kam o'sadi.

Dengiz sathidan balandligi, joy relyefi, ekspozitsiyalari, tik qoyalar, o'simliklar dunyosi eroziya darajasi va tuproq profili ulkanligiga qaramasdan tuproqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Quyi tog'lar: to'q rangdagi ko'kimtir tuproqlar mintaqasi. Bu tuproqlar o'rta va og'ir qumòq tuproqli mexanik tarkibga egaligi bilan xarakterlanadi.

– Oʻrta togʻlar: togʻli och qoʻngʻir tuproqlar, ularning joylashuv ariali dengiz sathidan 1700-2800 balandlikda tarqalgan.

– Archali oʻrmonzorlarning tuproqli tarkibida kvartsi koʻk toshlar, paleozoy qumlari, ohaktoshlar va 4 lamchi davr qoldiqlari bor.

– Bioiqlim zonasiga moslashgan va chekka joylarda dengiz sathidan 3000 dan 4030 m gacha balandlikda tarqalgan tuproqlar.

Oʻtloqzorlar, botqoqli oʻtloqlar, torfli tuproqlar esa togʻ daryolari jilgʻalari, yer osti suvlari, qorga yaqin joylarda, muzliklarda tarqalgan.

Bu tuproqlarning xarakterli jihati shundaki, ser doʻng yuzasi, serajriq gorizonti, shagʻal qatlami, togʻ qoyalari va boshqalardan tarkib topgan.

### ***Gidrologiya.***

Bogʻ hududidan zominsuv soyi suv havzalariga qoʻshiladigan Kul-suv, Oqtoshlar, Obikoʻl, Qizilmozor, Qashqasuv, Yettikechuv Shar-qiroq, Oʻrikli va Usmonli soylaridir. Soylar togʻning yuqori qismidagi mayda jilgʻalardan oqib tushib, yuqori qatlamda filtratsiya vazifasini oʻtaydi. Suv sathining ortishi aprel oyidan boshlanib may oyining oxirigacha davom etadi, keyinchalik oqim pasayadi.

Mart- iyul oylari sel kelishi xavfi boʻlgan davrdir. Ayniqsa, qor erishi va yogʻingarchilik bunga sabab boʻladi.

### ***Flora.***

Milliy tabiat bogʻi hududida 70 oila, 700 turdagi yuksak oʻsimliklar oʻsadi. Shulardan 13 turi Oʻzbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan: 48 turdagi endemlar gʻarbiy qismdagi Turkiston togʻ tizmalarida uchraydi. 216 turdagi qoʻziqorinlarning turlari qayd etilib, ulardan 173 turi va 16 har xil turi Oʻzbekiston Respublikasi uchun yangilik boʻldi. 90 turi Oʻrta Osiyo uchun, 53 turi Osiyo uchun, 12 turi va 2 har xil turi SSSR bibliografiyasi uchun, 2 turdagisi fan yangiliklari uchun, 12 turdagi qoʻziqorin endemiklari, 6 turdagi odatiy qoʻziqorinlar boʻlib, Oʻrta Osiyo sharoitida madaniy xomashyo sifatida oʻrganildi. Qoʻziqorinning bir turi sinash uchun tavsiya qilingan. Oʻzbekiston Oʻrmonlari uchun xarakterli boʻlgan archalarning barcha turi oʻsadi.

Dorivor oʻsimliklardan 20 turdan ortiq, manzaralilardan 15 turi respublika oʻsimligining qadrlil qanofondi hisoblanadi.

### *Fauna.*

Bog'ning hayvonot olami rang-barang va boy. Boy yembop o'simliklari serob bog'da yashirinish va in qurish, bioxilma- xillikning barcha komplektlarini ta'minlaydi.

Baliqlar -6 turdagi qayd etilgan

Suvda va quruqlikda yashovchilar- 2 turda

Qushlar-101 turda

Sutemizuvchilar - 30 turda

1991-1992-yillarda milliy bog' hududida 9 turdagi hayvonlar uchun ozuqa hisoblangan o'simliklar aniqlangan.

1.Archali o'rmonzorlar – chor-atrofdagi archalarning ko'pligi, qalinligi 0,2 va undan ortiq. Bu yerda bargli turlar 20% dan ortig'ini tashkil etadi, o'rmondagi butalar kam.

2.Archali siyrak o'rmonzor – daraxtli butazorlarda archalarning ko'pligi va qalinligi 0,1-0,2 ni tashkil etib, qatlami qalin, ular o'sadigan yerlar toshloq va shag'allardan iborat.

3.Tog'li – butazorlar butalar eni 0,3 qalinlikda joylashgan.Bu yerda irg'ay, na'matak, shilvi, zirklar, zogoza, pufakchali o'simliklar, speriya va boshqalar o'sadi. Bu o'simliklar quyidagi hayvonlar uchun himoya vositasi hisoblanadi: oqitirnoqli ayiq, to'ng'iz, bo'rsiq.

4.Yong'oqli o'rmonlar – bog' maydonining 20% egallagan. Grek yong'og'i, olma, do'lana, buxoro bodomi, o'rik, olxo'ri, tog' pistasi, yovvoyi sarimsoq va boshqalar o'sadi.

5.Baland tog'li dasht – o'tloqzorlar xarakteridagi yerlarda archali o'rmonlar mintaqasi mavjud. 0,1 qalinlikda joylashgan maskanda 20% o'tlar o'sadi: kovul, tipchoq, qiyoy o't, qo'noq o't, bug'doyiq, lolalar, astragal, yantoq, shirach, ravochlar, dalachoy va piyozlarning ko'p turlari o'sadi.

6.Qoyalilar – odamlar o'tishi qiyin bo'lgan hududda hayvonlar himoyalangan holda umr kechiradilar. Relyefi kesimalar va yoriqlardan iborat.

Qoyalilar hayvonlarga yashirinish uchun qulay, bu yerda tog' echkisi, qor qoploni, jayra bo'rsiq, tulki, bo'ri, kaklik, qora laylak va boshqalar, shuningdek, yirtqich qushlarni uchratish mumkin.

7. Tik qoyalar – bu yer turli ekpozitsiyalar majmui bo‘lib , uning tikligi 30 darajada va undan yuqori bo‘lishi mumkin. Bu yerda tulkining inlari bor.

8. Suvlar – daryo va soylar jilg‘alari, oqimlar, zovurlar, ko‘llar, sun‘iy suv inshootlari bu yerda umr kechiradigan barcha hayvonlarning suv ichadigan joyi hisoblanadi.

9. Yo‘llar, aholi yashash punkti , kardonlar, dam olish yerlari va boshqa yerlar.

### ***Sutemizuvchilar***

Bog‘ hududidagi inventarizatsiya bo‘yicha 30 turdagi sutemizuvchilar qayd etilgan bo‘lib, ulardan 1 turi zaharli hasharotlilar, 3 turdagi qo‘lqanotlilar, 1 turdagi quyonsimonlar, 11 turdagi kemiruvchilar, 11 turdagi yirtqichlar va 3 turdagi juftoyoqlilar.

Sutemizuvchilardan qor qoplani, 15 boshligi ilgari aniqlangan oqirnoqli ayiqlarni tongda uchratish mumkin. Ular bolalari bilan suv ichishga chiqadilar.

Qor qoplonini uchratish mahol, uning ozuqasi baland o‘rta tog‘ yaylovlarida hayot kechiradigan tog‘ echkilari hisoblanadi.

Ko‘zni qamashtiradigan kanyonlar, sharilloq sharsharasi go‘zalligi bilan tanishish serpantin yo‘l orqali suffa yassi tog‘larga olib boradi. Bu yer dengiz sathidan 2482 m balandlikda va eng yuqori tarmog‘ida joylashgan. Turkiston tog‘ tizmalarining cho‘qqisi sanalgan Shavkartov milliy bog‘ining markazi hisoblanadi.

Sayyohlar uchun rang - barang qiziqarli 9 ta marshrutlar ishlab chiqilgan.

Barcha marshrutlar Zomin - Baxmal magistralidan boshlanadi: avtomarshrut “Zomin-Baxmal”.

1. Kunlik, borish va qaytishga mo‘ljallangan avtomarshrut -, „Zomin - Baxmal”.

Yo‘l-yo‘lakay mashhur „Qirqqiz” qizil toshlarni ko‘rish mumkin. Bu yerlarda qushlardan qora laylak in quradi.

Tabiat qo‘ynida dam olish va gulxanda tushlik pishirish dam oluvchilar uchun belgilangan.

2. Doimiy: avtotransport- otlar, O‘riklar soyidan Mirzaulen dovonigacha yo‘llarda to‘ng‘izlarni, burgutlarni uchratish mumkin.

3.Sharilloq soyiga bir kunlik sayohat. Avto-transpot keyin otda boriladi.

4.Taqalichuki soyiga bir kunlik marshrut.

5. Uch kunlik sayohat: Qashqasuv, posyolkasi va Oqtosh tog'iga avtotransport va otda boriladi.

6.2 kunlik marshrut: 20 km.li Usmoni soyiga sayohat.

7.Ikki kunlik 5,5 km. Kaburgen dovoniga otda boriladi. Subal'p o'simliklarni uchratish mumkin.

8.Uch kunlik sayohat- dengiz sathidan 4000 m balandlikda joylashgan 12,8 km. Qumvel dovonni suv ayirgichlariga.

Milliy bog'da muhofaza qilinayotgan va TMXI hamda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvon va o'simlik turlari:

### **Flora**

Och yashil shirach.

Oqgulli shirach

Sarg'ish lola

Turkiston lolasi

Urug'dosh lola

Kesselrning savrinjoni

Talas parpisi

Zarafshon parpisi

Seversov binafshasi

Sunbul kovrak

Jizzax kavragi

Qushlar:

Jig'itoy

Qora kalxat (TMXI)

Burgut

Miqqiy

Oqbosh qumoy

Sapsan- lochin

Qora laylak

Karlik burguti

**Sutemizuvchilar:**

Tyanshan qo'ng'ir ayig'i

Turkiston ilvirsi

### **Ruxsat etiladi:**

Kelishilgan tomonlar bilan shartnoma asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish.

Zomin milliy bog'i yuridik shaxs hisoblanib, banklarda o'z hisob, maxsus va valuta raqamlariga, mustaqil buxgalterlik balansiga, O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri tushirilgan yumaloq muhrga va o'z nomi yozilgan bankiga egadir. Milliy bog'ning davlat tilidagi to'liq nomi «Zomin milliy tabiat bog'i», («Заминский национальный природный парк») deb yuritiladi. Zomin milliy bog'i hududi regionning tabiiy majmualari va jarayonlarining davlat andozasi hisoblanib, ushbu hudud tabiiy obyektlarda kechayotgan jarayonlar asosini mukammal tadqiq va tahlil qilish va tabiatdan oqilona foydalanish usullarini ishlab chiqish hamda tadqiqotlar natijalari bo'yicha tavsiyalar beradi. «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan Zomin milliy bog'i hududidagi yerlar, suv havzalari, yer osti zaxiralari, o'simlik va hayvonot dunyosi unga doimiy foydalanish uchun berilgan. Zomin milliy bog'i o'z yerlariga doimiy egalik qilish va foydalanish huquqini beruvchi belgilangan nushadagi davlat dalolatnomasiga egadir. Zomin milliy bog'i yerlarini qaytarib olish O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amaldagi qonunlar asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Milliy bog'lar ahamiyati nimalardan iborat?
2. Bioxilma-xillikni asrashda Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'ining roli nimalardan iborat?
3. «Zomin» Milliy Tabiat bog'ining o'ziga xos xususiyatlari?
4. Ugom-Chotqol davlat tabiiy milliy bog'ida Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar.
5. Zomin milliy tabiat bog'ini geografik o'rni.
6. Zomin milliy tabiat bog'ini flora va faunasi.

## 12-§. Davlat buyurtmaxonalari

Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar buyurtma qo'riqxonalar hisoblanadi.

Buyurtma qo'riqxonalar quyidagi turlarga bo'linadi:

– o'simliklar va hayvonlarning qimmatli, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarini, tirik organizmlarning ko'chib o'tish yo'llarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan biologik (botanik, zoologik) buyurtma qo'riqxonalar;

– ayrim qazilma obyektlar va ularning majmualarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan paleontologik buyurtma qo'riqxonalar;

– qimmatli suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan gidrologik (botqoq, ko'l, daryo) buyurtma qo'riqxonalar;

– nodir geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan geologik va mineralogik buyurtma qo'riqxonalar.

Buyurtma qo'riqxonalar umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik bo'lishi mumkin.

Ba'zi bir tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar buyurtma qo'riqxonalar, tabiiy pitomniklar va baliq xo'jaligi zonolari tariqasida tashkil etiladi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik buyurtma qo'riqxonalar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek, yuridik yoki jismoniy shahslarning iltimosnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatga molik buyurtma qo'riqxonalar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek, yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Buyurtma qo'riqxonalar faoliyat muddatlari ko'rsatilmagan holda (muddatsiz) yoki kamida o'n yil muddatga tashkil etiladi.

Buyurtma qo'riqxonalar davlatga qarashli yoki xususiy bo'lishi, yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo'lishi mumkin.

Xususiy buyurtma qo'riqxonalarini va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat buyurtma qo'riqxonalarini tashkil etish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tartibda beriladi.

Buyurtma qo'riqxonalarning hududida, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini istisno etganda, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat doimiy ravishda yoki vaqtincha cheklanadi yoki tugatiladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi davlat buyurtma qo'riqxonalarini joylashgan hududlar yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning, shuningdek, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining xo'jalik maqsadidagi foydalanishidan olib qo'yilmaydi. Mazkur buyurtma qo'riqxonalar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida va (yoki) akvatoriya uchastkalarida tashkil etilgan bo'lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar buyurtma qo'riqxonalarning belgilangan rejimiga rioya etishlari shart.

Har bir buyurtma qo'riqxona rejimining xususiyatlari, mazkur buyurtma qo'riqxona qaysi davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi qonunga muvofiq Davlat buyurtmaxonalari (TMXP 4-toifasi) va tabiat yodgorliklari (TMXP 5-toifasi) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sarasiga kiritilgan.

Avvallari, ya'ni 1988-yilda O'zbekistonda 6 ta buyurtmaxona faoliyat yuritardi:

**Arnasoy** – Jizzax viloyati;

**Dengizko'l** – Buxoro viloyati;

**Kohitang** – Surxondaryo viloyati;

**Sangardak** – Surxondaryo viloyati;

**"Efa"** – Surxondaryo viloyati;

**Gurlan** – Xorazm viloyati.

Bugungi kunda O'zbekiston hududida 12 ta faoliyat yuritayotgan buyurtmaxona mavjud (6-jadval).

"Dengizko'l" Davlat ornetologik buyurtmaxonasi O'z SSR Vazirlar Kengashining 1973-yildagi 530-sonli qarori bilan tashkil qilingan, faoliyati muddati Buxoro viloyati ijroqo'mining 26.06.90-

yildagi 157-11-sonli qarori bilan muddatsizga uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad-uchib o'tadigan suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish va qayta tiklash, qishlash yerlarini, yashash muhitini saqlab qolishdir. Buyurtmaxonani muhofaza qilish Davlat tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Muhofaza doimiy emas, operativ feydlar orqali yuritiladi.

6-jadval

| №           | Rasmiy nomlanishi va tashkil topgan yili | Joylashgan joyi                 | Maydoni ming. Ga | XTMQI toifasi | Qaysi tashkilot tasarrufida |
|-------------|------------------------------------------|---------------------------------|------------------|---------------|-----------------------------|
| 1           | Arnasoy 1983 y.                          | Jizzax vil.                     | 63,3             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 2           | Dengizko'l 1973 y.                       | Buxoro vil.                     | 50,0             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 3           | Qoraqir 1992 y.                          | Buxoro vil.                     | 30,0             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 4           | Saygachiy 1991 y.                        | Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 1000,0           | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 5           | Sudoche 1991 y.                          | Qoraqalpog'iston Respublikasi   | 50,0             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 6           | Muborak 1998 y.                          | Qashqadaryo vil.                | 219,534          | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 7           | Oqtou 1997 y.                            | Navoiy vil.                     | 15,42            | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 8           | Qarnobcho'l 1998 y.                      | Samarqand vil.                  | 25,0             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 9           | Qo'shrabot 1998 y.                       | Samarqand vil.                  | 16,3             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 10          | Nurobod 1992 y.                          | Samarqand vil.                  | 40,0             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 11          | Qumsulton 2011 y.                        | Buxoro vil. Jondor tumani       | 4,9              | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 12          | Xadicha 2011 y.                          | Buxoro vil. Qorovulbozor tumani | 11,3             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| <b>Jami</b> |                                          | <b>1 525, 754</b>               |                  |               |                             |

“Qoraqir” Davlat buyurtmaxonasi Buxoro viloyati ijroqo‘mining 25.01.92-yildagi 15-1-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxonaning muddati cheklanmagan. Maydoni 30 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad-uchib o‘tadigan qushlar va boshqa hayvonlarni, ular yashash va ko‘payish yerlarini muhofaza qilishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ixtiyorida. Buyurtmaxona hududini muhofaza qilish Davlat tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Buyurtmaxona o‘z soqchilariga ega emas.

Arnasoy Ornetologik buyurtmaxonasi Jizzax viloyati Forish tumanidagi Tuzkon ko‘lida O‘z SSR Vazirlar Kengashining 9.09.83-yildagi 521-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxona maydoni 63, 3 ming. ga. Buyurtmaxona muddati cheklanmagan. Tashkil qilishdan maqsad-uchib o‘tadigan va uya quradigan qushlarni muhofaza qilishdir. Buyurtmaxonani O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi-Jizzax viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va Davbionazoratning Arnasoy inspeksiyalari muhofaza qiladi.

“Saygachi” davlat buyurtmaxonasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91-yildagi 311/42-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001-yildagi 33/1-sonli qarori bilan buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2010-yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 1 mln ga. Buyurtmaxona sayg‘oqlar va ular yashash joylari migratsiya yo‘llari, qishlash va ko‘payish yerlari, shuningdek, boshqa, birinchi navbatda, qizil kitobga kiritilgan hayvonlar-tuvaloq, yo‘rg‘a-tuvaloq kabilarni muhofaza qilish maqsadida tashkil qilingan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga bo‘ysunadi.

“Sudochi” davlat ornitologik buyurtmaxonasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91-yildagi 311/42-sonli qaroriga muvofiq tashkil qilingan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001-yildagi 33/1-sonli qaroriga muvofiq

buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2010-yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming. ga. Ornitologik buyurtmaxonasining tashkil qilishdan maqsad-Amudaryo sohili bo'yidagi suvbotqoqlik joylari biologik kompleksini saqlab qoolish, uchib o'tadiga qushlarni, ular ko'payishi va dam olishi joylarini muhofaza qilishdan iborat. Har yili ko'lda 100 minglab suvda suzuvchi va suv yaqinida yashaydigan qushlar dam oladi va ko'payadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga bo'ysunadi.

"Muborak" davlat buyurtmaxonasi Qashqadaryo viloyati hokimiyatining 5.12.98-yildagi H-344/12-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni o'zgartirilgan-219534 ga. Tashkil qilishdan maqsad – yo'rg'a-tuvaloq, uning yashash joylari va boshqa yovvoyi hayvonlar yashash joylarini saqlab qolishdan iborat. Qashqadaryo viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

"Oqtog'" davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimiyatining 21.04.97-yildagi K-113-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Oqtog' tizmasida joylashgan. Buyurtmaxona maydoni 15420 ga. Tashkil qilishdan maqsad – "Oqtog'" tog'li mavzesi tabiiy kompleksini saqlab qolish. Navoiy viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

"Qarnabcho'l" davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimiyatining 9.07.98-yildagi F-90-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 25 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – birinchi navbatda, yo'rg'a-tuvaloq va uning yashash joylari, shuningdek, butun Qarnabcho'l biologik kompleksini saqlab qolish. Buyurtmaxona yo'rg'a-tuvaloq ko'plab uchib o'tadigan yo'lda joylashgan. Navoiy viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

"Qo'shrabot" davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqo'mining 8.07.92-yildagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 16 ming. ga. Tashkil qilishdan maqsad – Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar-yirtqich qushlar, Nurota qo'riqxonasidan buyurtmaxonaga kiradigan Sevyer stov qo'yini

muhofaza qilishdir. Samarqand viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

“Nurobod” davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqo'mining 8.07.92-yildagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 40 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – yovvoyi hayvonlar, jumladan yo'rg'a-tuvaloq va uning yashash joylari, butun tabiiy cho'l kompleksini muhofaza qilishdir. O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi-Samarqand viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida.

#### **Tabiiy pitomniklar (parvarishxona).**

O'simliklar va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharoit yaratish yo'li bilan ularni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiiy pitomniklar hisoblanadi.

Tabiiy pitomniklar yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimos-nomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

**7-jadval**

| № | Rasmiy nomlanishi va tashkil topganyili                                                                 | Joylashgan joyi                  | Maydoni ming ga | XTMQI toifasi | Qaysi tashkilot tasarrufida |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|-----------------|---------------|-----------------------------|
| 1 | Respublika kamyob hayvonlarni maxsus ko'paytirish «Jayron» ekomarkazi 1976 .                            | Buxoro vil. Qorovul-bozor tumani | 16,47           | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 2 | MChJ yo'rg'a-tuvaloq parvarishlash pitomnigi «Emirates Bird Breeding Centyer for Consyervation» 2007 y. | Buxoro vil. Peshku tumani        | 0,1             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |
| 3 | MChJ yo'rg'a-tuvaloq parvarishlash pitomnigi «Emirates Centr for Consyervation of Houbara» 2008 y.      | Navoiy vil. Karmana tumani       | 0,1             | IV            | Ekologiya qo'mitasi         |

Tabiiy pitomniklar davlatga qarashli yoki xususiy, yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo'lishi mumkin.

Xususiy tabiiy pitomniklarni va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat tabiiy pitomniklarini tashkil qilish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tartibda beriladi.

Tabiiy pitomnik qaysi o'simliklar va hayvonlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, shu pitomnikning hududida shu o'simliklar va hayvonlarning saqlab qolinishi, takror ko'paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi (7-jadval).

### **Tabiat yodgorliklari**

Noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat **tabiat yodgorliklari** hisoblanadi. Davlat tabiat yodgorliklari quyidagi turlarga bo'linadi:

- tabiiy suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan gidrologik (botqoq, ko'l, daryo va boshqa) yodgorliklar;

- ayrim o'simliklarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan botanik yodgorliklar;

- tabiat yaratgan relyef shakllarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan geomorfologik yodgorliklar;

- qazilma obyektlarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan paleontologik yodgorliklar;

- geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan geologik va mineralogik yodgorliklar.

Tabiiy obyektlarni davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilish. Tabiiy obyektlar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek, yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinadi.

Tabiiy obyektlarni ular joylashgan yer uchastkalarini olib qo'y-magan holda davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilishga yo'l qo'yiladi.

Davlat tabiat yodgorliklarining rejimi. Davlat tabiat yodgorliklari hududida ularning asralishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Davlat tabiat yodgorliklari qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo'lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga bunday yodgorliklarning rejimini ta'minlash majburiyatlari yuklatiladi.

Diniy maqsadlarda foydalaniladigan davlat tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlashtirish va asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin.

Davlat tabiiy yodgorliklari (O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi Qonuni 26-moddasiga muvofiq Davlat tabiiy yodgorliklari III toifadagi METH ga kiradi), shulardan ba'zilar to'g'risida ma'lumot:

– **Vardanzi** Navoiy viloyati hokimligining 21.04.97-yildagi K-113-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan (SSSR davrida qo'riqxonaga maqomiga ega bo'lgan), maydoni 320 ga ni tashkil qiladi. Noyob saksovul o'rmonlari, undagi hayvon va o'simliklarni saqlash maqsadida tashkil etilgan. Asosiy vazifa VIII-XVIII asrlar tarixiy yodgorligi – qum bosib qolgan Vardanzi shahrini saqlashdir.

– **"Mingbuloq"** tabiat yodgorligi Namangan viloyat hokimligining 28.12.91-yildagi 164/14-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.

– **"Chust"** tabiat yodgorligi O'rta Osiyo o'simliklarni himoyalash ITI tashabbusi bilan Namangan viloyat hokimligining 19.08.90-yildagi 65/5-sonli qaroriga muvofiq (shuningdek, Namangan viloyati Chust tumani Xalq deputatlari kengashining 1990-yili 30-avgustdagi II-5/12-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.

– **"Yozyovon"** tabiat yodgorligi Farg'ona viloyati hokimligining 23.05.94-yildagi 164-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1842 ga ni tashkil qiladi.

– **"Yangibozor"** tabiat yodgorligi Xorazm viloyati Yangibozor tumani hokimligining (10.05.03-yildagi 738-sonli, 4.02.04-yildagi 819-sonli, 7.08.04-yildagi 853-sonli, 17.04.04-yildagi 1155-sonli) qarorlariga muvofiq tuzilgan. Maydoni o'zgarib turgan va tegishli ravishda

136, 113,2 ga, 120 ga, 121 gani tashkil qilgan, hozirgi paytda 490,3 ga (8-jadval).

8-jadval

| № | Rasmiy nomlanishi va tashkil topgan yili | Joylashgan joyi                | Maydoni ming. Ga | XTMQI toifasi | Qaysi tashkilot tasarrufida |
|---|------------------------------------------|--------------------------------|------------------|---------------|-----------------------------|
| 1 | Vardanzi 1997 y.                         | Buxoro vil.                    | 0,32             | III           | Shofirkon o'rmon xo'jaligi  |
| 2 | Mingbuloq 1991 y.                        | Namangan vil.                  | 1,0              | III           | Viloyat hokimligi           |
| 3 | Chust 1990 y.                            | Namangan vil.                  | 0,096            | III           | Viloyat hokimligi           |
| 4 | Yozyovon 1994 y.                         | Farg'ona vil.                  | 1,883            | III           | Viloyat hokimligi           |
| 5 | Yangibozor 2003 y.                       | Xorazm vil.                    | 0,49             | III           | Viloyat hokimligi           |
| 6 | Poykent 2010                             | Buxoro vil.<br>Qorako'l tumani | 0,03             | III           | Viloyat hokimligi           |
| 7 | Varaxsha 2010                            | Buxoro vil.<br>Jondor tumani   | 0,007            | III           | Viloyat hokimligi           |
|   | Jami                                     |                                | 3,8264           |               |                             |

“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar” bo‘limi tomonidan “O‘simlik olamini muhofaza qilish” bo‘limi bilan birgalikda 100 yosh va undan katta daraxtlarni hisobga olish va ularga “Davlat tabiat yodgorligi” maqomini berish uchun viloyat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalaridan kelgan axborotni jamlash va umumlashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Mazkur ma’lumotlar asosida umumlashtirilgan jadval tuzildi va barcha daraxtlar hisobga olindi.

O‘zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa hovuzlar, daryolar va magistral kanallar, shuningdek, iste’mol va maishiy suv ta’minoti, dorivor va madaniy-sog‘lomlashtirish suv manbalari haqidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.0492-yildagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari bilan "Chirchiq, Ohangaron, Surxondaryo, Chimyon-Ovval yer osti chuchuk suvlari manbalarining shakllanish zonalariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish to'g'risida"gi, "Zarafshon daryosi zamonaviy vodiysi, Osh-Aravon, Norin, Kitob, Shahrisabz yer osti chuchuk suvlari manbalarining shakllanish zonalariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish to'g'risida"gi, shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo; Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi Chirchiq; Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo; Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatidagi Zarafshon; Andijon va Namangan viloyatidagi Qoradaryo; Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Amudaryo; Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlaridagi Sirdaryo daryolari suvini muhofaza qilish zonalar va sohil bo'yi polosasini belgilash haqidagi nizomlar tasdiqlandi.

### Nazorat savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Buyurtmaxonalarning vazifasi nimalardan iborat?
2. "Sudochi" davlat ornitologik buyurtmaxonasining ahamiyati?
3. Tabiiy pitomniklar qanday maqsadlarda tashkil etiladi?
4. O'zbekistonda qanday tabiat yodgorliklarini bilasiz?
5. Davlat tabiat yodgorliklari qanday turlarga bo'linadi?

### 13-§. «Jayron» ekomarkazi



XX asrnig 60-yillariga kelib ushbu antilopasimonlar turkumiga mansub jayronning yashab kelgan arealida yani O'rta Osiyo davlatlaridan Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon kabi davlatlar hududiga to'g'ri kelib, jayronlar tarqalgan hududlarda kichik shohli mollarning ko'plab boqilishi va insonlar

tomonidan tartibsiz, yoppasiga ovlanishi natijasida ushbu tur keskin kamayib ketib tegishli choralar ko‘rilmasa hatto yo‘qolib ketish havfi ostida qolgan. 1970-yillarda Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro tashkilotlari tomonidan jayronni ko‘paytirish tabiatdagi sonini qayta tiklash maqsadida yuqorida qayd etilgan jayron yashab kelgan davlatlar hududida 13 ta pitomniklar tashkil etilishi rejalashtirilgan va natijada 1980-yilga qadar 7 ta pitomnik tashkil qilishga yer ishlangan. Shulardan biri O‘zbekistonda 1977-yilda tashkil etilgan va boshqa pitomniklardan farqli o‘laroq hozirgi kungacha faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirib kelayotgan “Jayron” ekologik markazidir.

«Jayron» ekomarkazi noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvon turlarini saqlab qolish va ko‘paytirishga ixtisoslashgan jahon miqyosida o‘ziga xos bo‘lgan obyekt hisoblanadi. 1977-yilda tashkil etilganida ekomarkaz «Buxoro jayronlarni ko‘paytirishga ixtisoslashgan pitomnik» deb nomlanardi va unda 42 ta jayron, 4 ta qulon va sayg‘oqlar boqilardi. Keyinchalik unda Xalqaro va Milliy Qizil kitoblarga kiritilgan xongul (buxoro bug‘usi), gepard, yo‘rg‘a-tuvaloq ham boqildi. Pitomnikning oldiga jayronlarni ko‘paytirish, ular biologiyasini o‘rganish va populatsiyasi resurslaridan oqilona foydalanish vazifasi qo‘yildi. Keyinchalik ijobiy natijalar olinganidan keyin pitomnik boshqa noyob turlar-qulon, Prjevalskiy oti, yo‘rg‘a-tuvaloqni ko‘paytirish bilan shug‘ullandi, bu yer da sayg‘oqlar podasi ham bor edi. Faoliyatini kengaytirish va hayvonlarni ko‘paytirish sohasidagi muvaffaqiyatlari tufayli 26.12.98-yilda Vazirlar Kengashining farmoyishi bilan pitomnik «Jayron» ekomarkaziga aylantirildi (6-rasm).



**6-rasm. «Jayron» ekomarkazining xaritadagi o‘rni.**

**«Jayron» ekologik markazining vazifasi:**

- noyob va yo‘qolib borayotgan hayvon turlarini tabiatdagi; sonini qayta tiklash uchun ko‘paytirish va biologiyasini o‘rganish
- janubiy-G‘arbiy Qizilqum cho‘lining o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish;
- tabiat resurslaridan oqilona foydalanish;
- ekologik ma’rifat;
- ekologik turizm.

Ekologik markazning hozirgi kunda umumiy yer maydoni 16522 gektar bo‘lib, shartli 2 ta hududga ajratiladi. 1-hududi yer maydoni 5145 gektar bo‘lib, atrofi balandligi ikki metrni tashkil qiladigan sim to‘r bilan o‘rab olingan. Ushbu hududda ko‘paytirilayotgan noyob tur hayvonlarning asosiy qismi saqlanib, ko‘payish soni ma’lum miqdorga yetganidan so‘ng ushbu hayvonlarning bir qismini Ekomarkazning yer maydoni 11377 gektarni tashkil qiladigan atrofi o‘rab olinmagan 2-hududiga qo‘yib yuboriladi.



*7-rasm. Jayron.*

Pitomnikda tutqunlik sharoitida hayvonlarni o‘rganish va zarurat tug‘ilganida hayvonlar bolalarini qo‘lda ovqatlantirish imkonini beradigan volerlar tizimi qurilgan. Hozirgi paytda 2017-yil 30-sentabr va 1-oktabrdagi hisobga ko‘ra jayronlar miqdori 985 bosh, Prjevalskiy otlari 23 boshgacha, O‘zbekiston tabiatida yo‘qolib ketgan qulonlar 125

boshgacha yetgan. Jayronni volyerda ko'paytirish sohasidagi ishlar eng muvaffaqiyatli ketmoqda. Ekomarkaz faoliyat yuritgan vaqt davomida tutqunlikda ko'paytirilgan hayvonlarning 30 ta avlodini olishga muvaffaq bo'lindi. Bunda hayvonot bog'lari va xususiy kolleksiyalarga 200 dan ortiq jayron, 5 ta Prjevalskiy oti sotilgan, 822 bosh jayron tarqatilgan, ovchilik mahsuloti (jayron) 128 boshni tashkil qildi (7-rasm).

Ekomarkazda bajarilayotgan tadqiqotlar natijalari ilmiy va davriy matbuotda, shuningdek, ko'p sonli respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan, majlis va kongresslarda ma'ruza tariqasida taqdim qilingan. Ekomarkaz bo'yicha ilmiy bibliografiya maqolalari 200 taga yetib qoldi. Ekomarkaz xodimlari bilan birga Rossiya, Fransiya, AQSH va boshqa mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan noyob ilmiy ishlar o'tkazildi. Ekomarkazning ilmiy hisobotlari Fanlar Akademiyasida taqrizdan o'tadi va Davbionazoratda saqlanadi. Har yili Prjevalskiy oti populatsiyasining holati haqidagi axborot Xalqaro otlar nasli kitobini yuritish uchun Xalqaro Prjevalskiy oti fondiga jo'natiladi. Buxorodagi Prjevalskiy oti populatsiyasi soni va ko'paytirish salohiyati bo'yicha jahondagi beshlikka kiradi. Ekomarkazda hayvonlar bosh suyaklarining noyob to'plami mavjud. 2007-yilda unda 937 nusxa, shundan jayronlar bosh suyagi 918 nusxa mavjud edi. Kolleksiya materialining qadrililigi shubhasiz, to'plam O'zbekiston ilmiy va madaniy fondlar milliy ro'yxatiga kiritilgan. Hozirgi paytda Ekomarkaz - jayron, qulon, Prjevalskiy oti, Buxoro tog'li qo'yini ko'paytirish bilan shug'ullanmoqda. 2007-yilda keltirilgan bir juft Buxoro qo'yidan 2 ta qo'zichoq tug'ildi. So'ngra yana 2 ta Buxoro qo'yi qo'zichog'i va 1 ta morxo'r uloqchasi keltirildi. Joriy paytdagi umumiy soni 6 bosh Buxoro qo'yi va 1 ta morxo'rdan iborat. Maqomi bo'yicha «Jayron» ekomarkazi ilmiy ishlab chiqarish tashkiloti hisoblanadi. Shtati 33 kishi, 12 kishidan iborat ilmiy bo'limi bor. Ilmiy bo'lim kuchi bilan jayron, qulon, Prjevalskiy oti bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, alohida mavzular bo'yicha qo'shma ishlanmalar, boshqa tashkilotlarning yakka tartibdagi tadqiqotlari ham mavjud.

Hisor davlat qo'riqxonasi va «Jayron» ekomarkazi taraqqiyotini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan Davbionazorati va mazkur muhofaza

etiladigan tabiiy hududlar xodimlari bilan birgalikda «2006-2010-yillarga Hisor davlat qo'riqxonasini rivojlantirish rejasi» va «2006-2010-yillarda «Jayron» ekomarkazini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot va tashkiliy-texnik ishlar dasturi» ishlab chiqildi. Davbio-nazorati xodimlari tomonidan BMTTD loyihasi va Hisor davlat qo'riq-xonasi xodimlari bilan birgalikda «Hisor davlat qo'riqxonasini bosh-qarish rejasi» loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha qayta ishlash jarayonida.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. «Jayron» ekomarkazida 1988-yildan boshlab «Jayronlarni muhofaza qilish, tiklash va xo'jalikda qo'llash shakllarini ishlab chiqish» mavzusida ilmiy ish olib borila boshlandi.

Ekomarkazga Prjevalskiy otlari keltirilganida "Prjevalskiy otlarini O'rta Osiyoning quruq iqlim sharoitiga moslashtirish" mavzusida ilmiy tadqiqotlar boshlandi. Jayron bo'yicha ishlar davom ettirildi. "Jayronlarning pitomnik sharoitida ko'payish davrida sotsial o'zini tutushi", "sahro ekotizmlarida qushlarning qo'nishi tuzulmasi va mavsumiy dinamikasi" mavzusida ilmiy ishlar olib borildi.

«Jayron» Ekologik markazi – ekoturistik maskan bo'lib ham hisoblanadi. Ekomarkazga tashrif buyurgan sayohatchilar Qizilqum cho'lining tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan bevosita tani-shishadi. Masalan: «Jayron» Ekologik markazi hududida o'simlik-larning 250 dan ortiq turi yil davomida hayotiy shakli va yil mavsumiga bog'liq holda o'sadi. Bu yerda hayvonlardan sutemizuvchilarning 32 turi, qushlarning yil davomida 250 dan ortiq turi, sudralib yuruvchilarning 18 turi, suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 2 turi, baliqlarning 8 turi hamda umurtqasizlarning 700 dan ortiq turi uchrashi o'rganilgan.

#### Nazorat savollari:

1. Ekomarkazning tashkil etilish sabablari?
2. «Jayron» Ekologik markazida qanday hayvonlarni ko'paytirish yo'lga qo'yilgan?
3. Ekomarkazning ilmiy tadqiqotlar olib borishdagi ahamiyati?
4. «Jayron» Ekologik markazining boshqa alohida muhofaza etiladigan hududlardan farqi?
5. «Jayron» Ekologik markazi – ekoturistik maskan bo'la oladimi?

#### 14-§. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati

Bugungi kunda jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri muammolari tobora katta ahamiyatga ega bo'lmoqda va hozirgi, shuningdek, kelgusi avlodlarning faravonligi, umuman jahon sivilizatsiyasining taqdiri ekologik muammolarning ijobiy hal etilishiga ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ilmiy-texnika rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida keskin o'zgarib borayotgan atrof-muhit, ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda, inson uni hayotiga, turmush-tarziga hamda tirik organizmlar fondi va irsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa hozir yer yuzida yashab turganlarnigina emas, balki kelgusi avlodlar salomatligiga, ayniqsa yer, suv, atmosfera havosi, yer osti boyliklari, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiat va tarixiy yodgorliklarning tabiiy holatiga ham salbiy ta'sir qilmoqda. Mazkur masalaga, O'zbekiston Respublikasi dastlab mustaqillikka erishgan paytidan boshlab e'tibor berdi va birinchilar qatorida 1993-yil 7- mayda O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunini qabul qildi. Mazkur qonun hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda ekologik, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, sanitariya-sog'lomlashtirish, estetik nuqtayi nazardan milliy boylik va umumxalq mulki bo'lmish qimmatli tabiiy majmualarni muhofaza etishning umumiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida o'simliklar va hayvonot dunyosini hamda davlat milliy tabiat bog'lari, davlat tabiat va tarixiy yodgorliklarini saqlab qolish ularni sonini ko'paytirish inson hayotini ekologik normal saqlashga katta yordam beradi. Hozirgi paytda respublikamizda qo'riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq, alohida qo'riqlanadigan 11 tabiiy hududiy obyekt, jumladan 8 qo'riqxonaga, 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari mavjud. Demak, ana shuncha o'xshash alohida muhofaza etiladigan va boshqa tabiiy hududlar huquqiy muhofaza qilinmog'i lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamizdagi barcha alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qonun bilan muhofaza qilishmog'i va huquqiy tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar ushbu qonundan, shuningdek, yer, suv, o'rmon to'g'risidagi qonunlar, yer osti boyliklaridan foydalanish to'g'risidagi, atmosfera havosini muhofaza etish to'g'risidagi hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlardan iborat alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan ham tartibga solib turiladi.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining vazifalari noyob tabiiy majmualarni, tabiat yodgorliklarini, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdan, tabiiy jarayonlarni o'rganishdan hamda tabiiy muhitni kuzatish va tadqiq etish majmuidan, aholini ekologiya bobida tarbiyalashdan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik hududlardan xo'jalik maqsadida foydalanishni cheklashdan iboratdir. "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar"ning ta'rifi va ularni huquqiy maqomi yuqorida nomi tilga olingan qonunning 3-moddasida quyidagicha ko'rsatilgan.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – bu yerlar va suv kengliklari (akvatoriyalar)ning ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, sanitariya sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik qismlaridir.

Tabiat rang-barangligini saqlab qolish, ekologik muvozanatni va biosfera monitoringini saqlab turishga, shuningdek, shikast yetgan tabiiy majmuilarni tiklashga mo'ljallangan yagona tizimni tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni xo'jalik maqsadida foydalanishdan to'liq yoki qisman, bir umrga yoki vaqtincha tortib olinishi mumkin. Tabiiy zaxiralardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir rejalar va

dasturlar, yer tuzilishi va joylarni tekislash kesmalari hamda boshqa rejalarni ishlab chiqishda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisobga olinadi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga qonunda belgilab qo'yilgan tartibda davlat qo'riqxonalari (shu jumladan biosfera qo'riqxonalari), davlat milliy bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari; davlat buyurtma qo'riqxonalari maqomi beriladi.

Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari), kurort va rekreatsiya tegralari, yer usti va yer osti suvlari hosil bo'ladigan tegralar (daryo uvalari, oqiziqli adirlar, tog' yonbag'irlarining etaklari), nodir va qimmatbaho mineral konlari, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo'riqlanma (oraliq) tegralari, baliq xo'jaligi tegralari, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, tarixiy-tabiiy va yodgoriy bog'lar, botanika va hayvonot bog'lari, dendrariylar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro shartnomalar bilan belgilab quyiladigan tartib asosidagi boshqa hududlar ham alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kiradi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarning qarorlari bilan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning boshqa toifalari ham nazarda tutilishi mumkin. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida ushbu toifa yerlariga qanday yerlar kirishi ham aniq bayon etilgan.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari tabiatni muhofaza etish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar jumlasiga kiradi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlarida ularning maqsad-muddaosiga zid faoliyat taqiqlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning tartibi va shartlari ushbu qonun va Yer kodeksidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilab qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalari, davlat milliy bog'lari yer uchun haq to'lashdan ozod etiladilar. Alohida muhofaza etiladigan boshqa tabiiy hududlar ham O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qo'yilgan tartibda yer uchun haq to'lashdan ozod etilishlari mumkin. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanilgan hollarda ijara haqi va yer solig'i undirib olinadi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari tortib olinishiga favqulodda hollarda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi 5-moddada. Shuningdek alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish ham katta ahamiyatga ega bo'lib qonun asosida, amaldagi huquqiy normalarga mos bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu masala "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida quyidagicha ifodalangan.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va joylashtirishning bosh kesmasi yoki tabiatni muhofaza qilishning hududiy majmui kesmasiga muvofiq barpo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va joylashtirishning bosh kesmasini yoki davlat hokimiyati mahalliy idoralari tabiatni muhofaza qilishning idoralari tabiatni muhofaza qilishning hududiy majmui kesmasini tasdiqlashi bilan ayni bir vaqtda muhofaza etishga tavsiya etilayotgan yer maydonini zaxiralash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Alohida muhofaza etiladigan hudud tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar mazkur hududda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning xo'jalik faoliyati cheklanadi yoki to'xtatiladi. Bunday hollarda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar xo'jalik faoliyatining cheklanishi yoki to'xtatilishi tufayli qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishida ko'rilgan yo'qotish va talafotlar uchun tovon olish huquqiga egadirlar hamda yer solig'i bo'yicha imtiyozlardan foydalanadilar.

Ta'kidlash joizki, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastri ham katta ahamiyatga ega. Ushbu muammo mazkur qonunda yetarlicha o'z aksini topgan. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastri bu hududlarning huquqiy maqomi, ularning jug'rofiy mavqei, miqdor va sifat ko'rsatkichlari,

ekologik, ilmiy, ma'rifiy va boshqa xil ahamiyati to'g'risidagi, yer egalari va yerni qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastri mazkur hududlar tarinog'ini rejalashtirish, ularni muhofaza etishni ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tegishli qoidaga rioya etilishi ustidan davlat nazorati darajasini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni rejalashtirish chog'ida bu hududlar o'zni va ahamiyatini hisobga olish maqsadida yuritiladi.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastri respublika budjeti hisobidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan yagona tizim asosida yuritiladi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastrini yuritishni O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining idoralari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda amalga oshiradilar.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1) U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qo'ygan talabiga mosligi, konstitutsiyaviy ustuvorlikka ega ekanligi hamda davlat tomonidan muhofaza etilishi;

2) Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini o'rganish va u to'g'risidagi qonun davlat qo'riqxonalari, davlat milliy tabiat bog'lari, davlat buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlar va boshqa masalalarni hamda u bilan bog'liq barcha munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishi bilan;

3) U yangi ijtimoiy tuzum, bozor munosabatlarini mustahkamlash va ekologik siyosatni barqarorlashtirish uchun yangi huquqiy ekologik zamin bo'lib, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish hamda ularni huquqiy tartibga solishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi bilan;

4) Mazkur sohani huquqiy tartibga solish bozor iqtisodiyotida qabul qilingan ekologik qonunlarni qo'llash va ular bilan birgalikda ekologik muhitni yaxshilashga, tabiat obyektlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga, ayniqsa, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlashga;

5) Ushbu soha fuqarolarimizdan shu kungi hayot talabi asosida ekologik huquqiy ma'naviyat va madaniyatli bo'lishni hamda ushbu yo'nalishda doim yuksalish bo'lishini taqozo qilishi va boshqa xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

**Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari.** O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolish, sonini ko'paytirishda qo'riqxonalar, zakaznik va xalq xiyobonlarining ahamiyati kattadir. "Jayron" ekologik markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq.

Ta'kidlash joizki, davlat qo'riqxonalari ta'rifi va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida aniq ko'rsatib berildi. Mazkur qonunning 10-moddasiga asosan: Davlat qo'riqxonalari o'z oldiga oddiy, odatiy va noyob tabiiy majmuilar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondlarini saqlab qolish va o'rganish, tabiiy jarayonlar va hodisalar o'zgarishi ustidan monitoring o'tkazish maqsadini qo'ygan tabiatni muhofaza etuvchi ilmiy tadqiqot muassasalari hisoblanadi.

Davlat qo'riqxonalari hududidagi yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi xo'jalik foydalanishidan to'liq va bir umrga tortib olinadi hamda doimiy foydalanish uchun qo'riqxonalarga bepul beriladi. Davlat qo'riqxonalari yerlarini ijaraga berish taqiqlanadi. Hududi tabiiy landshaftlarning xos bo'laklaridan iborat bo'lgan va belgilangan tartibda biosfera qo'riqxonalari xalqaro shoxobchasiga kiritilgan davlat qo'riqxonalari biosfera davlat qo'riqxonalari maqomiga egadir.

Davlat qo'riqxonalari zimmasiga:

- muhofaza ostiga olingan butun tabiiy majmuani tabiiy holatda asrash;

- ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

- ro'yobga chiqarilganda qo'riqxonalalar va muhofaza etilayotgan tegrallarning tabiiy majmuiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xo'jalik obyektlari va boshqa obyektlarning loyihalari hamda ularni joylashtirish kesmalarining davlat ekologik ekspertizasida qatnashish;

- tabiatni muhofaza qilish sohasida ilmiy xodimlar va mutaxassislar tayyorlashga hamkorlik qilish;

– ekologik bilimlarni targʻib etish vazifalari yuklanadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, davlat qoʻriqxonalari tashkil etish toʻgʻrisidagi qarorni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi. Davlat qoʻriqxonalari boshqarish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir qoʻriqxona qaysi idoraning tasarrufida boʻlsa, shu idora Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi bilan kelishib turib tasdiqlaydigan Nizom asosida faoliyat koʻrsatadi. Amaliyotda davlat qoʻriqxonalariining maqomi va mablagʻlari masalasi katta ahamiyatga egadir. Yuqorida nomi zikr etilgan qonun ushbu masalaga quyidagicha eʼtibor beradi. Davlat qoʻriqxonalari yuridik shaxs boʻlib, respublika budgetidan taʼminlanadi, mustaqil balansda turadi, ularning bank muassasalarida oʻz hisob raqamlari, oʻz nomida va Oʻzbekiston Respublikasi davlat gerbi tushirilgan muhri boʻladi.

Davlat qoʻriqxonalariining mablagʻlari, shu jumladan chet el valutasidan iborat mablagʻlari:

– Oʻzbekiston Respublikasi budjeti ajratmalaridan;

– ilmiy, tabiatni muhofaza qilish, reklama-noshirlik va maʼrifiy faoliyatdan keladigan daromadlardan;

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyati natijasida davlat qoʻriqxonasiga yetkazilgan zararining oʻrnini qoplash tushumlaridan;

– maʼmuriy va sud yoʻli bilan undirib olinadigan jarima pullaridan;

– ovchilik va baliqchilikning musodara etilgan asboblari, noqonuniy oʻlja qilingan mahsulotlarni sotishdan olingan pullardan;

– korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, shuningdek, fuqarolardan begʻaraz yordam tarzida keladigan tushumlardan hosil etiladi.

Davlat qoʻriqxonalari oʻz mablagʻlarini aniq maqsadga qaratgan holda mustaqil tarzda, ushbu qonunning 11-moddasida belgilangan tartibga muvofiq tasarruf etadilar 12-modda.

Davlat qoʻriqxonalariining ish tartibi amaldagi qonun bilan tartibga solinib alohida xususiyatga ega.

Ushbu qonunning 13-moddasiga asosan: davlat qo'riqxonalarining hududida qo'riqxonalar maqsadlariga zid bo'lgan tabiiy jara-yonlarning rivojlanishiga putur yetkazadigan yoki tabiiy majmui va obyektlar holatiga tahdid soladigan har qanaqa xo'jalik, rekreatsiya va boshqa yo'sindagi faoliyat taqiqlanadi.

Qo'riqxonalarning hududlarida va ularning qo'riqlanma tegralarida iqlimlashtirish maqsadida o'simliklar va jonivorlar turlarini va xillarini joylashtirish taqiqlanadi.

Davlat qo'riqxonalarida ular to'g'risidagi tasdiqlangan nizomga muvofiq yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

Qo'riqxonalarning yoki ularda mutasaddilik qiluvchi idoralarning xodimi bo'lmagan fuqarolarning qo'riqxonalar hududida bo'lishiga ularda ana shu idoralar yoki qo'riqxona ma'muriyati bergan ruxsatnoma bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Davlat qo'riqxonalarining faoliyati ham mazkur qonun bilan tartibga solinadi. Jumladan qonunning 14-moddasi davlat qo'riqxonalarida ilmiy tadqiqot faoliyati olib borishdagi masalasiga bag'ishlangan va quyidagi holatlari ko'rsatilgan. Ilmiy tadqiqotlarni yo'lga qo'yish va o'tkazish uchun davlat qo'riqxonalari o'z ilmiy xodimlar shtati bilan ta'minlanadi. Ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, chet ilmiy tashkilotlarni va ayrim mutaxassislarni jalb etish yo'li bilan ham o'tkazilishi mumkin. Davlat qo'riqxonalarida olimlar kengashi (ilmiy kengash) tuziladi.

"Tabiat solnomasi" ni yuritish barcha davlat qo'riqxonalari uchun majburiydir. Davlat qo'riqxonalarining ilmiy jamg'armalarini saqlash muddati chegaralanmaydi. Davlat qo'riqxonalariga ilmiy asarlarni nashr etish huquqi beriladi.

Davlat qo'riqxonalarining ilmiy tadqiqotlarini O'zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasi muvofiqlashtirib boradi.

Davlat milliy tabiat bog'lari. Davlat milliy tabiat bog'lari bilan bog'liq bo'lgan barcha ekologik-huquqiy muammolar O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Qonunning III bo'lim, 15-18-moddalari bevosita mazkur masalaga bag'ishlangan. Ushbu qonunda davlat milliy tabiat bog'larining ta'rifi va aniq vazifalari ko'rsatib berilgan.

Davlat milliy tabiat bog'lari hududi davlat milliy bog'lariga egalik qilish yoki ulardan foydalanish uchun beriladigan yerlarda, shuningdek, boshqa yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yerlarida joylashadi.

Davlat milliy tabiat bog'larida:

– rekreatsiya, ma'rifiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun tabiiy majmuilar va tarixiy-madaniy meroslarni asrab qolishni ta'minlaydigan ish tartibiga rioya etish;

– shikast yetgan tabiiy majmuilarni tiklash;

– tarix, madaniyat, me'morchilik obidalarini saqlab qolish;

– turizm, ekskursiya va dam olish uchun sharoit yaratish;

– ekologiya bilimlarini targ'ib qilish;

– zaxiralarni tejaydigan, ekologik jihatdan sof texnologiyalarni qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi va boshqa faoliyatda ishlatishga joriy etishga ko'maklashish;

– tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy kadrlar va mutaxassislar tayyorlashga hamkorlik qilish vazifalari yuklatiladi.

Ana shu vazifalarni bajarish bevosita davlat milliy tabiat bog'larining tashkil etish va ularni boshqarish jarayonlari bilan ham bog'liq.

Davlat milliy tabiat bog'larini tashkil etish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi manfaatdor idoralarning O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishib turib kiritgan taqdimiga ko'ra qabul qiladi.

Davlat milliy tabiat bog'larini boshqarish ular faoliyati tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq qaysi vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tasarrufida bo'lsa, shu vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir milliy bog' qaysi idora tasarrufida bo'lsa, shu idora tasdiqlab beradigan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat milliy tabiat bog'larining maqomi va mablag'lari ham hayotiy, ekologik ahamiyatga ega bo'lib qonunchilikda quyidagicha ta'riflangan.

"Davlat milliy tabiat bog'lari yuridik shaxs bo'lib, davlat budjetini ta'minlanadi, mustaqil balansda turadi, ularning bank muassasalarida

o'z hisob raqamlari, o'z nomida va O'zbekiston Respublikasi gerbi tushirilgan muhri bo'ladi.

Davlat milliy tabiat bog'larining mablag'lari, shu jumladan chet el valutasidagi mablag'lari:

- O'zbekiston Respublikasi budjeti ajratmalaridan;
- rekreatsiya, turizm-ekskursiya, reklama-noshirlik va ushbu qonun hamda Milliy bog'lar to'g'risidagi nizomda ruxsat etilgan boshqa faoliyatdan keladigan daromadlardan; davlat va jamoat korxonalari, muassasalari, tashkilotlaridan, qo'shma korxonalar, ajnabiy va xalqaro tashkilotlar hamda xususiy shaxslardan keladigan pul mablag'lari va moddiy boyliklardan;

- davlat milliy tabiat bog'ini muhofaza etish qoidasini buzuvchilardan belgilangan tartibda undirib olinadigan jarima pullardan iborat tushumlardan;

- korxona, muassasa, tashkilot va fuqarolarning faoliyati natijasida davlat milliy tabiat bog'iga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash hisobidan keladigan tushumlardan hosil etiladi.

Davlat milliy tabiat bog'larining hududlarida tabiiy majmui va obyektlar holatini, ularning rekreatsiya, madaniy va estetik qimmatini inobatga olgan holda muhofaza etish va ulardan foydalanishning tabaqalashtirilgan tartibi belgilab qo'yiladi.

Davlat milliy tabiat bog'larining tegrasida davlat qo'riqxonalari hududlari uchun nazarda tutilgan tartibdagi qo'riq tegralari, rekreatsiya, xo'jalik va o'zga yo'sindagi foydalanish tegralari, tarixiy-madaniy obyektlarining muhofaza tegralari ajratiladiki, ularda davlat milliy tabiat bog'lari vazifalariga zid bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullaniladi.

Davlat milliy tabiat bog'larining hududida:

- daraxt kesishga (sanitariya maqsadidagi va parvarishlash yo'sinidagi kesish bundan mustasno);

- ekologik jihatdan xavf-xatar tug'diruvchi sanoat korxonalari faoliyat olib borishiga;

- gidrologik va gidrogeologik tartibni o'zgartirib yuboruvchi harakatlarga;

- tuproq eroziyasini, shuningdek, o'simlik va hayvonot dunyosining tanazzulini keltirib chiqaruvchi harakatlarga;

– davlat milliy tabiat bog‘larining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘l va muhandislik-kommunikatsiya ishlari olib borishga;

– kimyo va radioaktiv moddalarning chiqindilarini ko‘rishga;

– iqlimlashtirish maqsadida tiriq organizmlarni ko‘chirib keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat milliy tabiat bog‘larida ular hududining tabiiy, ilmiy, estetik va madaniy qimmati pasayishiga olib keluvchi boshqa faoliyat turlari taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin.

Bog‘ning rasamadi bilan faoliyat ko‘rsatishi uchun yo‘llar, boshqa kommunikatsiya va inshootlar qurish zarur bo‘lib qolgan muhofaza qilish tadbirlari majmuini o‘tkazish majburiyiligi nazarda tutiladi (18-modda).

Ta’kidlash joizki, “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunida, davlat qo‘riqxonalari va davlat milliy tabiat bog‘larini muhofaza qilishga ham katta e’tibor berilgan. Jumladan ushbu qonunning 33-moddasiga asosan: davlat qo‘riqxonalari va davlat milliy tabiat bog‘larini muhofaza qilishni maxsus tabiat hududlarini muhofaza qilish inspeksiyasi amalga oshiradi va bu ish davlat qo‘riqxonasi to‘g‘risidagi yoki davlat milliy tabiat bog‘i haqidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Muhofaza qilish xodimlari davlat qo‘riqxonalari va davlat milliy tabiat bog‘lari shtatida turadilar hamda O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat inspektorlariga xos barcha huquqlar va imtiyozlardan foydalanadilar, - deb ko‘rsatilgan.

Davlat buyurtma qo‘riqxonalari. Qo‘riqxonalardan tashqari kamayib ketayotgan o‘simlik va hayvon turlarini saqlab qolish va tiklash maqsadida davlat buyurtmaxonalari barpo etilgan. Masalan, Toshkent viloyatidagi Oqbuloq buyurtmaxonasi Chotqol tizmasi tarmoqlarida Oqbuloq soyi havzasida joylashgan bo‘lib, maydoni 12,5 ming gektardan ortiq, uning hududida oq tirnoqli ayiq, to‘ng‘iz, O‘rta Osiyo echkisi, bo‘rsiq va tosh savsari muhofaza qilinadi. Buxoro viloyatidagi tashlama suvlardan hosil bo‘lgan ko‘l asosida tashkil etilgan To‘dako‘l buyurtmaxonasida (maydoni 30 ming gektar) qishlovga uchib keluvchi yirik qushlardan – o‘rdak, g‘oz, birqozon, oqqush qo‘riqlanadi. Dengizko‘l buyurtmaxonasida ham (8620 gektar)

suv qushlaridan oʻrdak, gʻoz, qoravoy, flamingo (qizilgʻoz) kabilar himoyaga olingan.

Xorazm buyurtmaxonasida (maydoni 11 ming gektar) koʻl qushlari hamda sutemizuvchi hayvonlardan toʻngʻiz, shoqol, tulki, boʻrsiq qoʻriqlanadi. Eng janubiy – Koʻhitang buyurtmaxonasida esa (maydoni 43 ming gektar) morxoʻr, Buxoro togʻ qoʻyi, burgut kabi hayvonlar bilan birga dunyo ahamiyatiga molik ajoyib arxeologik yodgorlik – Zarautkamar qoya yozuvlari himoya qilinadi.

1977-yil respublikada birinchi xalq xiyoboni – Oʻzbekiston xalq xiyoboni tashkil etildi. U Jizzax viloyatining Zomin tumani hududida, Turkiston tizmasining shimoliy yon bagʻrida, dengiz sathidan 1000-4030 metr balandda joylashgan. Maydoni 47,47 gektar. Xiyobonning ajoyib iqlimli sermanzara landshaftlari aholining dam olib, hordiq chiqarish, sport turizmi mashgʻulotlari bilan shugʻullanishi uchun juda qulaydir. Unda bargli siyrak togʻ oʻrmonlari, butazorlar, archazorlar, subalp oʻtloqlari tabiiy majmualari muhofaza qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi qonunining 19-moddasida davlat buyurtma qoʻriqxonasi tushunchasi va bunday qoʻriqxonalarni tashkil etish masalasi aniq koʻrsatilgan. Unga koʻra, davlat buyurtma qoʻriqxonalari tabiiy majmuilarni yoki ularning ayrim boʻlaklarini asrash, koʻpaytirish va tiklash maqsadida buyurtma qoʻriqxona oldiga qoʻyilgan vazifalarni bajarish uchun zarur muddatga ajratib beriladigan hududlar (akvatoriya)dir.

Davlat buyurtma qoʻriqxonalari respublika va mahalliy ahamiyatga molik boʻlishi mumkin. Buyurtma qoʻriqxonalar vazifasiga koʻra:

alohida qimmatga ega boʻlgan tabiiy landshaftlar va majmuilarni asrash va tiklash uchun moʻljallangan landshaft (yaxlit) buyurtma qoʻriqxonalarga;

qimmatli, nodir va yoʻqolib borayotgan oʻsimliklar va jonivorlar turlarini asrab qolish va tiklash uchun moʻljallangan zoologik buyurtma qoʻriqxonalarga;

ayrim qazilma boyliklar va ularning majmuini asrab qolish uchun moʻljallangan paleontologik buyurtma qoʻriqxonalarga;

jonsiz tabiatning qimmatli obyektlari va majmuilarini asrab qolish uchun mo'ljallangan gidrologik (botqoq, ko'l, daryo) buyurtma qo'riqxonalarga;

tabiat yaratgan nodir va noyob relyef shakllarini asrab qolish uchun mo'ljallangan geomorfologik buyurtma qo'riqxonalarga;

nodir geologik va mineralogik hosilalar va tuzilmalarni asrab qolish uchun mo'ljallangan geologik va mineralogik buyurtma qo'riqxonalarga bo'linadi.

Noyob mineral va o'zga xil geologik tuzilmalarga ega bo'lgan hamda fundamental ilmiy ahamiyatga molik buyurtma qo'riqxonalarga davlat qo'riqxonasi maqomi berilishi mumkin.

Buyurtma qo'riqxonalar faoliyat muddatlari ko'rsatilmay (muddatsiz), 5 yildan ortiq muddatga (uzoq muddatli) yoki 5 yildan kam muddatga (qisqa muddatli) qilib tashkil etiladi.

Respublika ahamiyatiga molik davlat buyurtma qo'riqxonalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tashkil etadi.

Mahalliy ahamiyatga molik davlat buyurtma qo'riqxonalari tabiatni muhofaza etish idoralarining taqdimiga ko'ra viloyat hokimlarining qarori bilan tashkil etiladi. Shuningdek, davlat buyurtma qo'riqxonalarining ish tartibi ham qonunda o'z aksini topgan bo'lib, quyidagicha ifodalangan.

Davlat buyurtma qo'riqxonalari deb e'lon qilingan hududlar ularni xo'jalik maqsadlarida istifoda etayotgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan tortib olinmaydi.

Yerida davlat buyurtma qo'riqxonalari tashkil etilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar davlat buyurtma qo'riqxonasi belgilaydigan tartibga rioya etishlari shart.

Har bir davlat buyurtma qo'riqxonasining aniq vazifalari va ish tartibining xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining idoralari, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bilan kelishib turib ishlab chiqiladigan hamda davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etish to'g'risida qaror chiqargan idora tasdiqlaydigan nizomda belgilab qo'yiladi (20-modda).

Davlat tabiat yodgorliklari. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi respublika hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorligini hisobga olgan. Bulardan atigi 80 ga yaqini jonsiz

tabiat yodgorliklaridir. Jonsiz tabiat yodgorliklari orasida xilma-xil karst relyefi (yer osti suvlari hosil qilgan bo'shliqlar) shakllari, shu jumladan, arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan g'orlar va ungurlar, shuningdek, nodir buloqlar, sharsharalar, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan qoyalar va geologik ochilmalarni muhofaza qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa yer osti landshaftlari, ularning be-takror, sehrli va maftunkor manzaralari jiddiy muhofazaga muhtojdir.

Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida V-bo'lim, 21-modda aynan ana shu masala, ya'ni davlat tabiat yodgorliklarining huquqiy-ekologik ahamiyati va ularni muhofaza qilish masalasiga bag'ishlangan.

Zero, respublikamiz hududidagi tabiat, tarixiy va arxeologik yodgorliklar hozirgi paytda aynan muhofaza qilinishga, tiklanish - restavratsiyaga juda muhtoj.

Ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmay, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy bo'lgan obyektlar davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinadi.

Tabiat obyektlarini davlat hokimiyatining mahalliy idoralari tabiatni muhofaza etish bo'yicha davlat idoralari taqdimiga binoan davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qiladilar.

Yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan ular egallab turgan yer uchastkalarini tortib olmay turib ham obyekt davlat tabiat yodgorligi deb e'lon qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Davlat tabiat yodgorliklari joylashgan hududda ularni asrab qolishga tahdid etuvchi har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Tabiat yodgorliklarini muhofaza etish tartibini ta'minlashga oid majburiyatlar bu yodgorliklar qaysi korxona, muassasa va tashkilot hududida bo'lsa, shu korxona, muassasa va tashkilot zimmasiga yuklanadi.

Tabiiy obyektни davlat tabiat yodgorligi deb e'lon qilish to'g'risida qaror chiqargan idora obyektни muhofaza ostiga o'tkazish va muhofaza etish majburiyatini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshiradi.

Aholi diniy maqsadlarda foydalanib turgan davlat tabiat yodgorliklari ularni muhofaza etish va obodonlashtirish ishlari o'tkazish

maqsadida davlat tabiat yodgorligini asrab qolish sharti bilan diniy tashkilotlarga yoki alohida shaxslarga foydalanish uchun yoxud ijaraga berilishi mumkin.

E'tiborli tomoni shundakim, "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunda, davlat buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish masalasini ham o'zida aks ettirgan.

Jumladan, ushbu qonunning 34-moddasida shunday deyilgan: davlat buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklarini muhofaza qilishni davlat buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklari qaysi korxona, muassasa va tashkilotning yer maydonida joylashgan bo'lsa, ana shu korxona, muassasa va tashkilot amalga oshiradi.

Basharti davlat buyurtma qo'riqxonasi yoki davlat tabiat yodgorligi tasarruf etish yoxud foydalanish uchun berilmagan yer maydonida joylashgan bo'lsa, u holda bunday qo'riqxona yoki tabiat yodgorligini muhofaza qilishni u qaysi idoraning qaramog'ida bo'lsa, ana shu idora ta'minlaydi.

Korxona, muassasa va tashkilotlar davlat buyurtma qo'riqxonalari hamda davlat tabiat yodgorliklari muhofaza qilinishini ta'minlamaydigan hollarda davlat buyurtma qo'riqxonasi va davlat tabiat yodgorligi egallab turgan yer maydoni hamda muhofaza qilinishini ta'minlash uchun zarur unga tutash hudud yer egalaridan va yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilishi mumkin.

Agar davlat tabiat yodgorligi muayyan yerdan foydalanuvchi, yer egasi yoki suvdan foydalanuvchiga birkiritib qo'yilmagan yer maydonida yoki suv obyektida joylashgan bo'lsa, ularning muhofaza qilinishi davlat hokimiyati va boshqaruvchi mahalliy idoralari tomonidan ta'minlanadi. Davlat buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklarini muhofaza qilishni davlat buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklari qaysi korxona, muassasa va tashkilotning yer maydonida joylashgan bo'lsa, ana shu korxona, muassasa va tashkilot amalga oshiradi.

Basharti davlat buyurtma qo'riqxonasi yoki davlat tabiat yodgorligi tasarruf etish yoxud foydalanish uchun berilmagan yer maydonida joylashgan bo'lsa, u holda bunday qo'riqxona yoki tabiat

yodgorligini muhofaza qilishni u qaysi idoraning qaramog'ida bo'lsa, ana shu idora ta'minlaydi.

Korxona, muassasa va tashkilotlar davlat buyurtma qo'riqxonalari hamda davlat tabiat yodgorliklari muhofaza qilinishini ta'minlamaydigan hollarda davlat tabiat yodgorligi egalab turgan yer maydoni hamda muhofaza qilinishini ta'minlash uchun zarur unga tutash hudud yer egalaridan va yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilishi mumkin.

Agar davlat tabiat yodgorligi muayyan yerdan foydalanuvchi, yer egasi yoki suvdan foydalanuvchiga birkilib qo'yilmagan yer maydonida yoki suv obyektida joylashgan bo'lsa, ularning muhofaza qilinishi davlat hokimiyati va boshqaruvchi idoralari tomonidan ta'minlanadi.

Alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlar. O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor berilib, qonunning V-bo'lim, 22-32-moddalari aynan shu muammolarni o'z ichiga olgan.

Jumladan, qonunning 22-moddasida "Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari) va ularni tashkil etish"ga alohida e'tibor berilgan. Unga ko'ra, daryolarning, ko'llarning, suv omborlarining, kanallarning, kollektorlarning hamda boshqa suv obyektlarining o'zanlariga tutash hudud suvni muhofaza qilish tegrasi deb e'tirof etiladi va bu hudud uchun ifloslanish, bulg'anish, sayozlanishning hamda to'lib qolishning oldini olish maqsadida, shuningdek, eng maqbul suv maromini saqlab turish uchun maxsus tartib-qoida belgilab qo'yiladi.

Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari)ning ish tartibi yer usti va yer osti suvlari hosil bo'ladigan tegrallar (daryo suvlari, oqiziqli adirlar, tog' yonbag'rilarining etaklari)ga ham taalluqlidir.

Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tartibga muvofiq tabiatni muhofaza qilish va suv xo'jaligi idoralarining taqdimiga binoan belgilanadi.

Davlatlararo daryolardagi suvni muhofaza qilish tegralari manfaatdor davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga binoan belgilanadi. Aholi punktlari hududida xo'jaliklararo yer tuzish va yer tekislash chog'ida suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari) barpo etishga doir masalalar tabiatni muhofaza qilish va suv xo'jaligi idoralari bilan

kelishib olinishi lozim. Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari)ning ish tartibini huquqiy holati ham katta ahamiyatga ega.

Suvni muhofaza qilish tegrasi doirasida suv obyektlarini yoqalab xo'jalik faoliyati yuritish qat'iy cheklangan hududdan iborat qirg'oq bo'yi mintaqalari ajratiladi.

Suvni muhofaza qilish tegrasi doirasida aholi punktlaridagi aholining ichishi va ro'zg'orda foydalanishi uchun suv to'plash maqsadida suv obyektlarini yoqalab sanitariya muhofazasi mintaqasi belgilanib, unda har qanday xo'jalik faoliyat yuritishi man etiladi.

Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari) doirasida cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga yo'l qo'yiladi. Suvni muhofaza qilish tegrasida:

buta-daraxtlarni kesish (sanitariya maqsadidagi va parvarish yo'sinidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalar qo'llanish, zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar omborlari qurish hamda bunday modda va o'g'itlarni saqlash;

kanalizatsiya-tozalash inshootlari va oqava suvlar to'planadigan turli xil inshootlar qurish;

chorvachilik komplekslarini, axlat, ishlab chiqarish chiqindilari tashlanadigan, ko'miladigan joylarni joylashtirish, shuningdek, sug'orishda "sharbat"-suyuq go'ng ishlatish;

avtomobil transportini qo'yib turish, ularga yonilg'i quyish, ularni yuvish va ta'mir qilish joylarini tashkil etish;

neft mahsulotlari saqlanadigan omborxonalarni joylashtirish;

zig'ir, kanop va teri yuviladigan joylar tashkil etish man qilinadi.

Daryo o'zanlarini o'zgartirish, foydali qazilmalar kavlab olish va suv zaxiralari holatiga ta'sir qiladigan boshqa ishlar bajarishga faqat suv xo'jaligi, suvni muhofaza qilish va geologiya idoralarining ruxsati bilangina yo'l qo'yiladi.

Suvni muhofaza qilish tegralaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibi hamda shartlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Bundan tashqari alohida muhofaza etiladigan boshqa tabiat obyektlariga kurort tabiiy hududlar kiradi. Mazkur hududlarni huquqiy holati, ya'ni ularni tashkil etish tartibi "Alohida muhofaza etiladigan

tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida quyidagicha ifodalangan:

"Davolash va salomatlikni tiklash xususiyatlariga, mineral manbalarga, davolovchi balchiq qatlamlariga, qulay iqlim sharoitlari va boshqa shart-sharoitlarga ega bo'lib, tabiiy hududlar kurort tabiiy hududlarga e'tirof etiladi.

Kurortlar mahalliy va respublika ahamiyatiga molik bo'lishi mumkin.

Respublika ahamiyatiga molik kurortlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining qo'shma taqdimnomasiga binoan tashkil etadi.

Mahalliy ahamiyatga molik kurortlar davlat hokimiyati mahalliy idoralarining O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining qo'shma taqdimnomasiga binoan qabul qilgan qarorlari bilan tashkil etiladi".

Kurort tabiiy hududlarning ish tartibi esa quyidagicha ifodalangan.

Kurort tabiiy hudud uch tegraga bo'linadi. Davolash xususiyatiga ega manbalar, davolovchi balchiq qatlamlari bor hudud faoliyati bilan shug'ullanish man etiladi, davolash xususiyatiga ega manbalar va balchiq bilan davolash shifoxonalari tevarak-atrofini obodonlashtirish uchun zarur inshootlar qurish bundan mustasno.

Sanatoriylar, pansionatlar, dam olish uylarining dam oluvchilar hordiq chiqaradigan manzillari, ular davolanishi va yashashi uchun qurilgan binolar joylashgan hudud ikkinchi tegraga kiradi. Bu tegrada xo'jalik faoliyati yuritish man etiladi, davolash va dam olishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan faoliyat bundan mustasno, shuningdek, bu hududda vaqtincha istiqomat qiladigan tibbiyot xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari tashqari boshqa aholining yashashi man etiladi.

Sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylariga tutash hudud uchinchi tegraga kiradi. Bu tegrada davolash manbalariga ziyon yetkazmaydigan hamda atrof-muhitga zararli jismoniy ta'sir etish va ifloslantirish yo'li bilan dam olish hamda davolanish uchun yaratilgan sharoitlarni yomonlashtirmaydigan cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga ruxsat beriladi. Bunday kurort tabiiy hududlar doirasida:

foydali qazilmalarni kavlab chiqarish;  
daraxt kesish (sanitariya maqsadidagi va parvarishlash yo'sinidagi kesish bundan mustasno);

zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar omborlari qurish;  
zaharli kimyoviy moddalar qo'llanish;

axlat to'kiladigan, kimyoviy va radioaktiv moddalarning chiqitlari ko'miladigan joylarni joylashtirish, kimyo, selluloza-qog'oz, metallurgiya sanoati korxonalarining ish olib borishi;

joyning gidrologiya maromini o'zgartiruvchi ishlar bajarish qat'iy an man etiladi (35-modda).

Rekreatsiya tegrallari ham alohida muhofaza etiladigan boshqa tabiat hududlariga kiradi va uni huquqiy maqomi qonunda quyidagicha ifodalangan.

Turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay jug'rofiy va iqlim sharoitlariga ega hududlar rekreatsiya tegrallari deb e'tirof etiladi.

Rekreatsiya tegrallari davlat hokimiyati mahalliy idoralarining O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining taqdimnomasiga binoan qabul qilgan qarori bilan tashkil etiladi.

Rekreatsiya tegrallarida ommaviy dam olish va turizm manfaatlariga zid kelmaydigan cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga ruxsat beriladi.

Rekreatsiya tegrallarida kimyo, metallurgiya, mikrobiologiya korxonalari va tashkilotlarining faoliyat ko'rsatishi, pestitsidlarni qo'llanish, harom o'lgan cho'rva ko'miladigan, kimyoviy va radioaktiv moddalar, ro'zg'or va ishlab chiqarish chiqindilari tashlanadigan va ko'miladigan joylarni joylashtirish, daraxt kesish (sanitariya maqsadidagi va parvarishlash yo'sinidagi kesish bundan mustasno), joyning gidrologik maromini buzadigan ishlar bajarish man etiladi (26-modda).

"Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" jumlasiga botanika bog'lari ham kiradi va uning ekologik ahamiyati benihoya kattadir.

Botanika bog'lari botanika termalari tuzish, to'ldirish va asrash, ilmiy, o'quv va ta'lim ishlari mahalliy miqyosdagi va jahon miqyosidagi o'simliklar majmualarining nodir va muayyan turkumiga

xos turlarini maxsus yaratilgan sharoitda asrash, o'rganish, iqlimlash-tirish, ko'paytirish hamda ulardan samarali, oqilona foydalanish maqsadida tashkil etiladi.

Umumdavlat ahamiyatga molik botanika bog'lari tabiatni muhofaza qilish borasida ilmiy tadqiqot muassasalari hisoblanadi.

Mahalliy ahamiyatga molik botanika bog'lariga belgilangan tartibda ilmiy tadqiqot muassasasi maqomi berilishi mumkin.

Yerlar va suv kengliklarining uchastkalari barcha tabiiy zaxiralari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qo'yiladigan tartibda xo'jalik maqsadlarida foydalanishdan tortib olinib, botanika bog'lariga beriladi.

Botanika bog'larining hududida ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga aloqasi bo'lmagan hamda o'simliklar majmui termalarini asrashga tahdid qiluvchi faoliyat bilan shug'ullanish man etiladi.

Dendrologiya bog'larining huquqiy-ekologik holati katta ahamiyatga ega bo'lib, mazkur qonunda ham o'z aksini topgan va alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlar jumlasiga kiradi.

U qonunda o'z ifodasini quyidagicha topgan.

Dendrologiya bog'lari ilmiy, madaniy, rekreatsiya va boshqa yo'sinda g'oyat samarali foydalanish uchun daraxtlar va butalarning har xil turlarini hamda ulardan tarkib topgan daraxtzorlar-butazorlarni maxsus yaratilgan sharoitda asrash va o'rganish maqsadida tashkil etiladi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik dendrologiya bog'lari tabiatni muhofaza etish borasida ilmiy tadqiqot muassasalari hisoblanadi.

Mahalliy ahamiyatga molik dendrologiya bog'lariga belgilangan tartibda ilmiy tadqiqot muassasi maqomi berilishi mumkin.

Yer maydonlari barcha tabiiy zaxiralari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qo'yiladigan tartibda xo'jalik maqsadlarida foydalanishdan tortib olinib, dendrologiya bog'lariga beriladi.

Dendrologiya bog'larining hududida ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga aloqasi bo'lmagan hamda dendrologiya termalarini asrashga tahdid qiluvchi faoliyat bilan shug'ullanish man etiladi.

Dendrologiya bog'larining hududida botanika bog'lari uchun belgilangan talablarga muvofiq tegralash ishlari o'tkazilishi mumkin (28-modda).

Mazkur qonunda, alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlar toifasiga kiradigan qo'riqlanma\* (oraliq) tegralarini ham huquqiy-ekologik holati katta ahamiyatga ega. Ushbu qonunning 29-moddasiga ko'ra:

Qo'riqlanma (oraliq) tegralar davlat qo'riqxonalariga, davlat milliy tabiat bog'lariga, davlat buyurtma qo'riqxonalariga, davlat tabiat yodgorliklariga va alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlarga bo'ladigan salbiy ta'sirning oldini olish maqsadida cheklangan xo'jalik faoliyati yuritiluvchi hududni qamrab oladi.

Qo'riqlanma (oraliq) tegrada xo'jalik faoliyati va tabiatdan foydalanishning alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sir keltirib chiqaruvchi turlari bilan shug'ullanish man etiladi.

Qo'riqlanma (oraliq) tegralarning katta-kichikligi va ularning ish tartibi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda belgilab qo'yiladi.

Inson hayotida har tomonlama ekologik, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan yana bir alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlar jumlasiga hayvonot bog'lari ham kiradi.

Hayvonot bog'lari ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish, hayvonlarning nodir ekzotik va mahalliy turlari ekspozitsiyalarini yaratish, ularning irsiy fondini saqlab qolish, yovvoyi hayvonlarni o'rnatish hamda ularni tutqunlikda ko'paytirishning ilmiy asoslarini baholab chiqish maqsadida barpo etiladi.

Umumdavlat ahamiyatiga molik hayvonot bog'lari madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi tabiatni muhofaza qilish muassasalari hisoblanadi.

Yer maydonlari barcha tabiiy zaxiralari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qo'yiladigan tartibda xo'jalik maqsadlarida foydalanishda tortib olinib hayvonot bog'lariga beriladi.

Hayvonot bog'larining hududida ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga aloqasi bo'lmagan hamda bu bog'lardagi hayvonlarning hayoti uchun qulay sharoitni saqlab qolishga tahdid qiluvchi faoliyat bilan shug'ullanish man etiladi.

Hayvonot bog'larining hududida ular oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishni ta'minlash maqsadida:

- hayvonlarini bir joyda asrash va ulardan madaniy hamda bilimni oshirish maqsadlarida foydalanish uchun ekspozitsiya tegrasi;

- sarhadida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladigan ilmiy tegrallar (bunday tegraga kirishga ruxsatnoma hayvonot bog'ining ma'muriyati belgilab qo'yadigan tartibda beriladi);

- hayvonot bog'i tomoshabinlarining dam olishi va ularga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish uchun rekreatsiya tegrasi;

- yordamchi xo'jalik obyektlarini joylashtirish uchun xo'jalik tegrasi ajratib beriladi.

Hayvonot bog'lari jonivorlarning ko'chma ekspozitsiyalarini tashkil etishlari, jonivorlarni ozuqa bilan ta'min etish maqsadida barpo etiladigan yordamchi xo'jaliklarga ega bo'lishlari mumkin (31-modda).

Zero, baliq xo'jaligi tegralari ham alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlar toifasiga kirib, uni ekologik huquqiy tartibga solish va muhofaza qilish ham juda zarur. Ushbu masala mazkur qonunning 32-moddasida quyidagicha ko'rsatilgan.

Nodir, yo'qolib borayotgan baliq turlari va boshqa suv jonzorlarini muhofaza etish va ko'paytirish maqsadida, shuningdek, baliq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv obyektlari yoki ularning bir qismi baliq xo'jaligi tegralari deb e'lon qilinishi mumkin.

Suv obyektlarining baliq xo'jaligi tegralaridagi ish tartibi tabiatni muhofaza qilish va suv xo'jaligi idoralari taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi.

Baliq xo'jaligi tegralarida baliqlar va boshqa suv jonzorlarini muhofaza qilish hamda ularni ko'paytirish bilan bog'liq sharoitlarga zarar yetkazuvchi har qanday xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish man etiladi.

Kurort tabiiy hududlarni va rekreatsiya tegralarini muhofaza qilish davlat hokimiyati va boshqaruvchi mahalliy idoralari tomonidan, tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan ta'minlanadi.

Botanika bog'larini, dendrologiya bog'larini va hayvonot bog'larini muhofaza qilishni ularning ma'muriyatlari ta'minlaydilar.

Qo'riqlanma (oraliq) tegralarni muhofaza qilishni hududida qo'riqlanma (oraliq) tegralar joylashgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilar ta'minlaydilar. Qo'riqlanma (oraliq) tegralarning hududi korxonalarga,

muassasalarga, tashkilotlarga berilmagan hollarda bu tegralarni muhofaza qilish tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan ta'minlanadi.

O'rmonlarning taqiqlangan mintaqalarini muhofaza qilishni o'rmonni muhofaza qilish idoralari ta'minlaydilar.

Baliq xo'jalik tegralarini muhofaza qilishni mazkur suv obyektida baliqchilik bilan shug'ullanuvchi korxonalar hamda tabiatni muhofaza qilish idoralari ta'minlaydilar (35-modda).

**Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.** Mazkur masala "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilib, aniq holat va ekologik huquqbuzarliklar turi ko'rsatilgan. Ushbu qonunning 37-moddasiga asosan, quyidagi hollarda:

- tabiat-qo'riqxonalar fondi hududlari va obyektlaridan o'z o'rinida foydalanmaslikda, alohida muhofaza etiladigan hududlarni barpo etish va ular ishini yo'lga qo'yish loyihalarining talablarini buzganlikda;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularning muhofaza etiladigan tegralari doirasida man etilgan xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanlikda;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning obyektlari va muhofaza etiladigan tegralarida oldindan ekologik ekspertiza o'tkazmay turib yoki bunday ekspertiza xulosalarini buzgan holda xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'ygandikda;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda falokatlarning ekologik oqibatlari va boshqa zararli ta'sirlarning oldini olish va ularni burtaraf etish choralarini ko'rmaganlikda;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barpo etish to'g'risidagi iltimosnomalarni qarab chiqish muddatlari va tartibini buzganlikda;

- alohida muhofaza etiladigan hududlardan foydalanish talablarini buzganlikda;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanishda kimyoviy, fizik, biologik va o'zga xil ta'sirlar yo'l qo'yiladigan me'yordan oshib ketganlikda, bunday hududlarini istifoda etish uchun berilgan ruxsatnomalarning talablarini buzganlikda;

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy obyektlarning tabiiy majmualari hamda ularning tarkibiga kiritishni mo'ljallab asrab qo'yilgan

joylarni buzganlikda, ularga shikast yetkazganlikda yoki ularni yo'q qilganlikda;

– alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning chegarasini o'zboshimchalik bilan o'zgartirganlikda, bunday hududlarni o'z bilgicha boshqa ehtiyojlar uchun ajratib berganlikda aybdor bo'lgan shaxslar ma'muriy, jinoiy va o'zga xil javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunlarni o'zgacha tarzda buzganlik uchun ham javobgarlik belgilanishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, o'zga yuridik va jismoniy shaxslar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibini buzish orqali yetkazgan zararlarning o'rni qonunlarda belgilangan hajmda va tartibda qoplashga majburlirlar.

Umuman olganda, "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablarni buzganlik uchun intizomiy, mulkiy (fuqarolik), ma'muriy va jinoiy javobgarliklar qo'llaniladi.

Intizomiy javobgarlik – deyarli ko'proq holatda mehnat intizomini buzish oqibatida "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablar buzilgan paytda qo'llanishi mumkin.

Shuning uchun ham u asosan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 181-moddasiga binoan:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining qirq foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4 bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqlanadi.

Mulkiy (fuqarolik) javobgarlik esa "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablarni buzganlik uchun qo'llaniladi.

Uning asosiy xususiyati ham shundaki u asosan, yetkazilgan zararni qoplash, tiklash va qaytarish bilan ko'proq bog'liqdir.

Ya'ni yuqorida nomi zikr etilgan qonunning 38-moddasiga asosan: Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga zararli ta'sir o'tkazayotgan korxonalar, tashkilotlar, sexlar, qurilmalarning faoliyati zararli ta'sir ko'rsatayotgan manbalar, shu jumladan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda ularning muhofaza qo'riqlanma tegralari tashqarisidagi manbalar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turiladi yoki cheklab qo'yiladi.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilayotgan zararni bartaraf etishning imkoni bo'lmasa, korxona, tashkilot, tsex va qurilmalarning faoliyati to'xtatiladi hamda ularning faoliyat yo'nalishi o'zgartirilganidan va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zararli ta'siri albatta bartaraf qilinganidan keyingina faoliyatlari amaldagi qonunlarga muvofiq qayta tiklanishi mumkin.

**Ma'muriy javobgarlik.** Ushbu javobgarlik turi O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning 82-moddasiga ko'ra alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tartibini buzganlik uchun qo'llaniladi.

Davlat milliy tabiat bog'lari, buyurtma qo'riqxonalari, tabiat yodgorliklari, suvni muhofaza qilish tegralari, kurort tabiiy hududlari, botanika bog'lari, dendrologiya va hayvonot bog'lari, qo'riqlanma (oraliq) tegralar, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, baliq xo'jaligi tegralari va alohida muhofaza etiladigan o'zga hududlar tartibini buzish – fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan 133eti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Jinoiy javobgarlik.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ushbu javobgarlik turini qo'llanilishi xususiyati shundan iboratki, u boshqa javobgarlik turlaridan ko'ra xavfli va og'irroq holatda sodir etilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 204-moddasiga asosan: malohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh-yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki obyektlarni qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir munosabatlar bilan bog'liq mulkiy nizolar qonunlarda belgilangan tartibda sud yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ta'rif bering.
2. O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunini qachon qabul qilingan?
3. Rekreatsion zonalar deganda nimalar tushuniladi?
4. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatining qanday xususiyatlari mavjud?
5. Davlat buyurtma qo'riqxonalarida yerdan foydalanishning huquqiy holati?
6. "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun va talablarni buzganlik uchun qanday javobgarliklar qo'llaniladi?

### **15-§. Iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillik masalalari**

Yerdagi hayotning ko'pqirrali formasiga bir tushuncha chambarchas bog'liq, ya'ni biologik xilma-xillik, bu doim iqlim o'zgarishiga moslashishga to'g'ri keladi.

Bir tushunchaga birlashgan sayyoramizning barcha hayot turlari – biologik xilma-xillik, doimo iqlim o'zgarishlariga moslashib kelishar edi. Yangi haroratlar rejimi va yog'in-sochinlarga doimo moslashish zaruriyati evolutsiya o'zgarishlarni o'rnatgan, ular esa zamonaviy o'simliklar va hayvonlarni paydo bo'lishini keltirgan. Biz bilamizki, kelajak yuz yilda o'rta global harorat sayyoramizni tarihining boshqa davrlariga nisbatan eng kamida 10 000 yilga nisbatan tezkorlik bilan oshadi. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi sayyoramizning bioxilma-xilligiga katta xavf tug'dirmoqda. Iqlim o'zgarishning prognozlariga binoan biologik xilma-xillikni saqlash muammosi doim o'sadi.

Bugungi kunda o'simlik va hayvonlarni global isishga qiyinroq moslashishini bir nechta sabablari mavjud.

Ko'p turlar yangi sharoitlarga tez moslasha olmaydilar yoki ular yashash uchun qulay boshqa hududlarga ko'chib o'tolmaydilar. Yana shuni ta'kidlash kerakki, insonlar tomonidan landshaftlar va suv havzalarini kuchli o'zgartirilgani turlarni tirik qolish imkoniyatlari yo'q bo'lmoqda va mavjud yukka yana iqlim o'zgarishi bosim ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, boshqa antropogen omillar ham mavjud. Azot kabi ozuqa moddalar bilan ifloslanishi, yangi sharoitda tez moslashadigan begona turlardir. Yovvoyi hayvonlarni me'yordan ortqcha ov qilish yoki baliqlarni ortiqcha ovlash ekotizimning qayta tiklanish xususiyatini pasayishiga olib keladi va shu sababli iqlim o'zgarishiga tabiiy holda moslashishi pasayadi.

**Iqlim o'zgarishi.** Bu holat nafaqat Sayyoramizning bioxilma-xilligini jiddiy oqibatlarga olib keladi, balki insonlar hayotiga ham ta'sir qiladi. Masalan, qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan tuproqni shakllanishi, dorivor o'simliklar mavjudligi, chuchuk suv bilan ta'minlanishi va ekoturizm orqali foyda olish tirik tizimlar va turlarni, mayda jonzodlardan tortib to yirik yirtqichlarni o'zaro harakati orqali ta'minlanadi. Tabiiy biologik boyliklarni kamayishi yoki yo'q bo'lishi o'rmon, daryo, tog'larda yashab kelayotgan aholi uchun kuchli zarba bo'ladi. Chunki tabiat in'omlari orqali hayot kechirayotgan insonlar uchun boshqa yashash imkoniyatlari yo'q.

Iqlim o'zgarishining biologik xilma-xillikka ta'siri biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya (BHK) a'zolarini jiddiy tashvishlantir-

moqda. Ular iqlim o'zgarish oqibatlarini pasaytirishga va ularga moslashish imkoniyatlari mavjudligini, shu bilan birgalikda biologik xilma-xillikni saqlab qolishni mumkinligini tan olishmoqda.

Tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berib va barqaror rivojlanishda biologik xilma-xillik resurslarini saqlanishi muhimligini ko'zda tutib O'zbekiston Respublikasi 1995-yili Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Xalqaro Konvensiyaga qo'shildi (Rio de Janeyro).

Iqlim o'zgarishi biologik xilma-xillikka ta'sir etishi haqida aniq isbotlar mavjud hamda bunday ta'sirlar davom etadi.

Iqlim o'zgarishi biologik xilma-xillikning tur tarkibiga quyidagicha ta'sir qiladi:

- tarqalishni o'zgarishi;
- yo'q bo'lib ketish tempini tezlashishi;
- hayvonlarni ko'payish qonuniyatini va o'simliklarda vegetatsion davr davomiyligini o'zgarishi (9-jadval).

### **Turli ekotizimlarda biologik xilma-xillik va iqlimning o'zgarishi: tahdid va imkoniyatlar**

9-jadval

| <b>Ekotizim nomi</b>                                                                                                           | <b>Iqlim o'zgarishining zaifligi</b>                                                                                                                                                                                                                | <b>Kuzatilgan va bashorat qilingan oqibatlar</b>                                                                                                                          | <b>Moslashish variantlari</b>                                                                                                                                                                  |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1</b>                                                                                                                       | <b>2</b>                                                                                                                                                                                                                                            | <b>3</b>                                                                                                                                                                  | <b>4</b>                                                                                                                                                                                       |
| <b><i>Qishloq xo'jalik ekotizimlari</i></b><br><br>Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun dunyoda 1/3 qism yerlardan | Aholi sonining jadval suratlarda o'sishi qishloq xo'jaligini ekstensiv rivojlantirishdan biologik rivojlantirishga o'tishini taqozo etadi. Odamlarni qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanayotganiga taxminan 12 ming yil bo'ldi. Bu davrda oziq-ovqat | Iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligi zarakunandalari va kasalliklarini o'zi bilan olib kelishi, o'simliklarning rivojlanishi va hosildorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. | Kelajakda aholining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun ekin turlari va uy hayvonlari genetik resurslarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekotizimlarda |

9-jadvalning davomi

|                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>foydalaniladi. Agrar sohaning turli-tumanligi iqlim o'zgarishi-ning ta'siri ham joyiga qarab turlicha namoyon etadi.</p> | <p>mahsulotlarini yetishtirish uchun 7000 yaqin o'simliklar madaniyatlashtirildi. Bugungi kunda 15 tur o'simlik va 8 xil uy hayvonlari bizning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarimizning 90% ini qoplaydi. Ko'pgina dehqonchilik va chorvachilikga tegishli zamonaviy turlar yovvoyi qarindoshlaridan madaniyatlashtirilganligi uchun ham ular qishloq xo'jalik kushandalari, kasalliklar va og'ir sharoitlarga barqaror. Yovvoyi turlar kelajakda madaniylashtirilgan ekinlarning "sug'urta polyusi" bo'lib hisoblanadi, chunki ulardan o'zgaruvchan iqlim sharoitiga moslashgan yangi navlarni seleksiyalash mumkin. Afsuski, ushbu</p> | <p>Kutilayotgan boshqa salbiy oqibatlariga quyidagilar kiradi: issiqlik stressi ta'sirining kuchayishi; yog'ingarchilik yog'ish rejimining o'zgarishi; kuchli yomg'irlar natijasida tuproqdan oziqlantiruvchi moddalar yuvilishining jadallashuvi; o'rmon yong'inlari sonining oshishi va shamollarning kuchayishi natijasida deflatsiyaning kuchayishi</p> | <p>qishloq xo'jaligi ekinlarining biologik xilmaxilligini saqlash uchun fermerlar tomonidan ekiladigan ekinlarning turli-tumanligini saqlash bu o'z navbatida qishloq xo'jalik ekinlarini o'zgaruvchan atrof-muhitga moslashish va rivojlanishga imkon beradi. Zarakunandalar bilan kurashishning tabiiy usullarini qo'llash, changlatish va urug'larni undirish orqali agrotekizimlarni saqlab qolish kerak. Chunki dunyoda etishtirilayotgan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining 35%i ko'rshapalk, qushlar va asalarilar tomonidan changlatiladi</p> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | yovvoyi turlar<br>xilma-xilligi ka-<br>mayib bormoqda.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Qurg'oq yerlar ekotizimlari</b></p> <p>Qurg'oq yerlar ekotizimlari, jumladan arid va yari-marid, yaylov va o'tloq rayonlari, savanna, O'rta yer dengizi landshaftlari hududlarida 2 mlrd. aholi (yer shari aholisining 35% i) yashaydi. Bu yerlar muhim biologik ahamiyatga ega hududlar bo'lib, unda Yer kurrasi oziq-ovqat maxsulotlari va uy hayvonlarining aksariyati uchraydi.</p> | <p>Qurg'oq yerlar iqlim o'zgarishiga juda ta'sirchan, chunki: Haroratni qisman ko'tarilishi yoki yog'in-garchilik yog'ish rejimini o'zgarishi mazkur hududlardagi biologik xilma-xillikka talofatlar keltirishi mumkin; Qurg'oq yerlar iqlim o'zgarishisiz ham stress holatida, chunki yerlarni qishloq ho'jaligi maqsadlarida o'zlashtirish, begona o'simlik va hayvon turlarini tatbiq etish va ularni rayonlashtirish, yong'inlar rejimini o'zgarib turishi va atrof-muhitni ifloslantirish odatiy hol hisoblanadi. O'rmonlar iqlim o'zgarishiga juda ta'sir-</p> | <p>Cho'l sharoiti, bashoratlarga ko'ra, bundan keyin issiqroq va quruqroq bo'lishi kutilmoqda. Havo haroratining ko'tarilishi "issiqlikka bardoshlik chegarasi"da turgan organizmlar uchun xavfli bo'lishi mumkin. Masalan, iqlim o'zgarishi, cho'l sukkulentlariga salbiy ta'sir etadi. Yog'ingarchilikni yog'ish rejimining o'zgarishi qurg'oq yerlarda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.</p> | <p>Qurg'oq yerlarda suv - cheklovchi omil bo'lib hisoblanadi. Suv ta'minotining o'zgarishi biologik xilma-xillikka katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham organizmlarning chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojini muvozanatlashtirish, iqlim o'zgarishida qurg'oq yerlar moslashuvining muhim jihatlari-dandir. Bunday muvozanatlashtirishni suv resurslaridan barqaror va samarali boshqarish orqali amalga oshirish lozim. Yana bir moslashuv strategiyasi - bu degradatsiyalashgan yerlarni qayta tiklashdir.</p> |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>O'rmon ekotizimlari.</b></p> <p>O'rmonlar yer yuzini uchdan bir qismini qoplagan. Baholash natijalariga ko'ra yerda yashovchi turlarning taxminan uchdan ikki qismi unda yashaydi. Shu bilan birga, o'rmonlar keng ko'lamdagi mahsulotlarni yetkazib beradi va aholini ish bilan ta'minlaydi. Keyingi 8 ming yil mobaynida Yer yuzidagi o'rmonlari-ning 45%i boshqa yer toifalariga o'tkazilgan.</p> | <p>chan, chunki: haroratni qis- man ko'tarilishi yoki yog'ingarchilikni yog'ish rejimini o'zgarishi o'rmonlarning o'sishi- ga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, havo haroratining 10<sup>0</sup> C ko'tarilishi o'rmon tarkibi va funksiyasini o'zgartirishi mumkin; ko'pgina o'rmonlarda yashovchi hayvonlarning deyarli yarmi yirik primatlar va daraxtlarning 9% ga yaqini u yoki bu darajada yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi; qadimgi turlar iqlim sharoit- larning o'zgarishi natijasida qutblarga to- mon harakatlari yo'naltirilgan.</p> | <p>Bir turdagi o'rmonlarda CO<sub>2</sub> konsentratsiyasining oshuvi, avvalambor daraxtlarning o'sishini tezlashtirishi mumkin. Lekin iqlim o'zgarishi turlarni ko'chishiga majbur qilishi yoki o'zlarini yashash areallarini tabiiy qobiliyatlariga qaraganda tez ko'chirishlari va muayyan turlar esa yo'qolib ketishi ham mumkin. Masalan, Kanada archalari popu- latsiyasini mig- ratsiyasi iqlim o'zgarish sur'at- lariga to'g'ri kel- masligi mumkin. Bundan tashqari, o'rmonlarga zararkunanda va yong'inlar ko'proq tahdid solmoqda, ularni begona ko'rinishlar oldida zaif qilib qo'yadi.</p> | <p>Bugungi kunda o'rmonlarga xavf solayotgan ta'sirchanlikning kamayishi iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshilikni shakllantrishiga yordam berishi mumkin. Iqlimni o'zgarish oqibatlariga qarshilikni oshirish quyidagi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>yashash joylarini fragmentatsiyalashni, ya'ni kichik-kichik areallarga bo'linib ketishini oldini olish;</li> <li>o'rmon xo'jaligini intensivlashtirishni susaytirish;</li> </ul> |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b><i>Ichki suvlar ekotizimlari.</i></b></p> <p>Qit'a va orollarning ichki suvlari chuchuk yoki sho'r bo'lishi hamda boy ekotizimligi bilan ajralib turadi.</p> <p>Masalan, chuchuk suv umumjaxon suv zaxirasining 0,01% ini tashkil qiladi, suv omborlarining hajmi esa yer yuzasining 0,8% ga teng bo'lsada, lekin ulardagi chuchuk suv kamida 100 000 turlarning hayotini ta'minlaydi.</p> | <p>Iqlim o'zgarishi, ko'rinish turibdiki, ichki suvlar ekotizimlariga salbiy ta'sir o'tkazadi, chunki:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• oxirgi o'n yillikda dunyoda chuchuk suvlarda yashovchi baliq turlarining 20% i yo'qolib ketmoqda, yo'qolib ketish xavfi ostida yoki kamyobdir. Masalan, chuchuk suvlarda yashovchi biologik xilma-xillik yerdagi ekotizimlarga qaraganda ancha tezroq qisqarmoqda;</li> <li>• yog'ingarchilikni yog'ish rejimini o'zgarishi va qor-muzliklarning erishi ko'pgina daryo va ko'llarni oqimini o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ko'pgina turlarning oziqlanishi va tuxum qo'yishiga ta'sir etadi;</li> <li>• Insonlarning iqlim o'zgarishiga qarshi</li> </ul> | <p>Iqlimni o'zgarishi natijasida ko'l va soylarda quyidagi holatlar sodir bo'ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• daryolarda suv harorati ko'tariladi;</li> <li>• muz qoplamlari qisqaradi;</li> <li>• suvlarni kichik va katta aylanish jarayoni o'zgaradi;</li> <li>• oqimlar rejimi va ekstremal tabiiy holatlar ko'payadi, jumladan, suv toshqinlari va qurg'oqchilik.</li> </ul> <p>Bunday holatlar natijasi quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ko'l va irmoqlardagi biologik xilma-xillikni reproduktiv</li> </ul> | <p>Suv-botqoq yerlar Yerdagi uglevodni ushlab turuvchi asosiy mexanizmi bo'lib, ular ayniqsa shimoliy mintaq va tropiklardagi torfli botqoq va o'rmonlarida uchraydi. Torfli yerlarni qurib ketishi CO<sub>2</sub> va metanni atmosferaga ko'proq chiqarilishiga sabab bo'ladi.</p> <p>Natijada atmosferani quyidagi qatlamlarda issiqxona gazlari ko'payishiga olib keladi. Shuning uchun suv-botqoq yerlar deg-radatsiyasi va issiqxona gazlarini ko'p chiqishini oldini olish choralari bunday oqibatlarni yumshatishning foydali varianti hisoblanadi</p> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

## 9-jadvalning davomi

|  |                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                          |  |
|--|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
|  | kurash chora-tadbirlari suv-botqoq joylari ekotizimlariga nisbatan salbiy ta'sirini ko'rsatishi ham mumkin. | ko'payishi va tarqalishining o'zgarishi;<br>• iqlim isishi natijasida ba'zi bir organizmlarni qutblarga tomon siljishi;<br>• Ko'l va botqoqliklarga bog'liq bo'lgan ko'chib yuruvchi qushlarning reproduktiv o'zgarishi. |  |
|--|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|

Ilgari ekotizimlar muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga evolyutsion tarzda moslasha olgan, lekin bugungi kundagi o'zgarishlar tarixiy davrlarda aks etmagan darajada sodir bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishlari qanchalik jadallashib ketsa, shunchalik insoniyat va ekotizimlarga kuchli ta'sir qiladi. Issiqxona gazlarini kamaytirish, ekotizimlarni atrof-muhit o'zgarishiga moslashish imkoniyatini berish kerak. Biologik xilma-xillik va iqlim o'zgarishining o'zaro bog'liqligi ikki tomonlama xarakterga ega: iqlim o'zgarishi biologik xilma-xillikka xavf soladi, biologik xilma-xillik esa iqlim o'zgarish oqibatlarini kamaytiradi. Iqlim o'zgarishi yetarlicha o'rganilmagan bo'lsada, uni oqibatlar ko'lam, xavflilik darajasi va moslashish imkoniyatlari haqida yetarlicha bilimlar to'plangan. Bu esa mavjud atrof-muhit holatini yaxshilash uchun kechikmasdan ishga kirishishga imkon beradi.

### Nazorat savollari

1. Biologik xilma-xillik deganda nimalarni tushunasiz?

2. Iqlim o'zgarishi natijasida Yerdagi biologik xilma-xillikka qanday xavf soya solmoqda?

3. O'zgarayotgan iqlim sharoitida o'simliklar va hayvonlar hayotiga ta'sir qilishiga qanday dalillaringiz bor?

4. Inson hayotida qaysi turdagi hayvonlar va o'simliklarning o'zgarishi ta'siri aks etishi mumkin?

## **16-§. Biologik xilma-xillikning tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. Barqaror rivojlanish**

Yer kurrasining biosfera qobig'ida yashovchi o'simlik va hayvonot dunyosining turli shakllari, ko'rinishlari va turlari ekotizimlarda rang-barangligidan ko'ra, xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Chunki ekologik tizimda organizmlar nafaqat rang-barangligi, balki kattayu-kichikligi, ma'lum bir ishlarni, funksiyalarni bajara olishi, muayyan tabiiy jarayonlarda qatnashishi bilan ham ishtirok etadi. Ularning har biri, rangidan qat'i nazar, biosferada ma'lum bir ekologik funktsiya bajaradi. Hech qachon tuproqda azotli birikmalarni (nitratlarni) parchalovchi mikroorganizm – bakteriyalarning funksiyasini boshqa tuproqda yashovchi mikroorganizmlar bajara olmaydi. Shu singari o'txo'r hayvonlarning ozuqa-zanjirdagi o'rini yirtqich hayvonlar bosa olmaydilar.

Yer kurrasida 500 mingga yaqin o'simlik turlari mavjud bo'lib, insonlar kundalik hayotiy faoliyatlarida ularning 6000 turidan foydalanadilar xolos. O'simliklarning 1500 turi dorivor o'simliklar turkumiga kiradi. O'zbekistonda 4148 o'simlik dunyosi turidan 577 tasi dorivor, 103 ta bo'yoqdor va 560 tasi efir moylidir. O'rmonlar respublikamiz umumiy maydonining 5,1 foizini tashkil etadi, lekin ularning yer yuzini qoplaganlik darajasi 0,3- 0,4 foizga tengdir.

Yer kurrasida hayvonot dunyosining 1,5 milliondan oshiq turi mavjud bo'lib, ularning har birini ekotizimlarda o'z o'rni va foydali ekologik xususiyatlari bor. Yer yuzida yashovchi va o'suvchi noyob va yo'qolib ketayotgan tirik organizmlarning kuniga bir turi mamlakatlar yoki dunyo Qizil kitoblariga kiritilmoqda. Shuning uchun ham insonlar ularning xilma-xilligini saqlab qolishlari zarur.

Garchi, atrof-muhitga bo'lgan xavotirlik tarixan mavjud bo'lsada, faqatgina o'tgan yuz yillikning 60-yillaridan boshlab ekologik

degradatsiya va turlarning hamda ekotizimlarning yo'qolib ketishiga aloqador xavotirlik xalqaro kuchli birlashuviga olib keldi. Atrof-muhitni muhofaza qilishga tegishli xalqaro huquqiy hujjatlar qatorida asosiy o'ringa ega bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleya (BMT BA) rezolutsiyasi masoblanadi. 1962-yilning 18-dekabrida BMT BA tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha (YUNESKO) maqullangan tashabbus va tavsiyanomalari "Iqtisodiy rivojlanish va tabiatni qo'riqlash" bo'yicha rezolyutsiya qabul qildi.

Bu rezolutsiya birinchi bor atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlanishga aloqador uchta asosiy nizomni ajratib berdi:

1) atrof-muhit majmuini, flora va faunaning tabiiy resurslarini yaxlit muhokama qilish;

2) "tabiatni muhofaza qilish" terminini bundan ham kengroq, ya'ni "atrof-muhitni muhofaza qilish" terminiga integratsiya qilish;

3) tabiatni muhofaza qilish va iqtisodiy rivojlanish manfaatlarini 143 biologik mujassamlashtirish konsepsiyasi. Keyinroq, 1968-yilning 3-dekabrida BMT BA qabul qilgan rezolutsiyasida atrof-muhitning qulay sharoiti asosiy inson huquqlarini himoya qilish va iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish uchun muhim rol o'ynashi qayd etib o'tiladi.

Insoniyatni o'rab turgan atrof-muhit bo'yicha Stokgolmda 5-16.06.1972 y. da bo'lib o'tgan BMT konferensiyasida atrof-muhit degradatsiya muammolarini yechish uchun tezkor choralar qabul qilish zarurligi bildirildi.

Aynan shu tabiatni saqlashning umumiy muammolariga dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb qilishga nufuzli qadam bo'ldi. Yaponiya va Senegal delegatsiyalari taklifiga ko'ra **5-iyun – Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni** deb ta'sis etish haqidagi tashabbusni konferensiya qabul qildi, bu ham o'z navbatida BMT BA rezolutsiyasi tomonidan 15.12.1972 y. da ta'sis etilgan edi. Stokgolmdagi konferensiya hamma davlatlar tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanishga yo'naltirilgan o'z faoliyatlarida amal qilishi shart bo'lgan 26 prinsipni o'z ichiga olgan deklaratsiyani ("Stokgolm deklaratsiyasi") ni qabul qildi. Ushbu deklaratsiyada ilk bora atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'lomlashtirish hozirgi va kelajak avlod uchun insoniyatning eng ahamiyatli masalalaridan

ekanligi e'lon qilingan. Asosan har bir davlat o'z tabiiy boyliklariga ishlov berishi huquqi, ushbu faoliyat boshqa mamlakat va rayonlarning atrof-muhitiga zarar yetkazmasligini ta'minlashdagi mas'uliyatni his etishi alohida ta'kidlab o'tildi. Stokgolm konferensiyasidagi yana bir muhim voqea BMT ning atrof-muhit bo'yicha (YuNEP) dasturlarini tashkil topishi bo'ldi. Yetmishinchi yillarning oxirlarida YuNEP "buzmasdan rivojlanish" ga o'tish kerakligiga chaqirdi.

1980-yil sentabr oyida BMT BA "Yerning tabiatini hozirgi va kelajak avlodga saqlab qolish uchun davlatlarning tarixiy mas'uliyati to'g'risida" gi rezolutsiyani qabul qiladi. Bu rezolutsiya butun mamlakat va xalqlar tomonidan qurollarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishdagi tadbirlarni tashkillashtirish bo'yicha muayyan choralar ko'rilishiga chaqiradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro-huquqiy prinsip biologik tizimlashtirish va tabiatdan foydalanishni tartibga solish bo'yicha 1982-yil 28 oktabrdagi BMT BA rezolutsiyasida ma'qullangan Butunjahon tabiat xartiyasi tomon qadam bo'ldi va Stokgolm deklaratsiyasidan farqli o'laroq, ovoz berish orqali tantanali ravishda e'lon qilindi.

1987-yilda BMT ning atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlantirish Xalqaro komissiyasi (yoki "Brundtland komissiyasi", shu komissiya raisi Gru Harlem Brundtland xonim nomiga atalgan) "Bizning umumiy kelajagimiz" dokladi asosiy e'tiborni "bugungi kun muammolari kelajak avlod manfaatlariga ziyon yetkazmasdan hal qilinayotgan barqaror rivojlanish" zaruriyatiga qaratildi. Gap bu yerda shu haqda boradiki, "hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirish kelajak avlodning o'z ehtiyojini qondirishdagi xususiyatiga putur yetkazmaydi". Amaliy ma'noda "barqaror rivojlanish – o'tkazilayotgan tadbirlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishni to'g'ri taqsimlashi lozim". Shu nuqtayi nazardan, "barqaror rivojlanish" tushunchasi Brundtland komissiyasi tomonidan belgilab berilgan "barqaror boshqarish" tushunchasiga yetarli darajada yaqindir, ya'ni "tabiiy resurslarni boshqarishda hozir yashayotgan foydalanuvchilar kelajak avlod potensialiga zarar yetkazmagan holda foyda ko'rish".

Atrof-muhitga ta'sirni baholashning ikkinchi tahriri "Yer haqida o'ylash – barqaror borliq strategiyasi" degan nom oldi va 1991-yilning oktabrida chop etilgan. Bu tahrir o'zi bilan birga harakatlar rejasini kasb

etadi. Ushbu holat bir paytning o'zida siyosat sohasida ham umumiy, ham amaliy boshqaruvdir. "Yer haqida o'ylash" uch qismdan iborat. 1-qismda "barqoror jamiyatning" tuzilishi bo'yicha 9 ta prinsip belgilangan va shunday tuzilishga erishadigan 59 harakat bo'yicha tavsiyanomalar berilgan. 2- qismda 1- qismda ko'rsatilgan prinsiplarni qo'llashdagi 62 ta qo'shimcha o'ta muhim tabiatdan foydalanish va siyosat sohalarida harakatlar keltirilgan. 3- qismda esa, gap mana shu rejalarini muvofiq tadbirlar orqali hayotga tatbiq etish haqida boradi. Strategiyada shuningdek, rivojlanishdagi "barqarorlik" bilan bog'liq asosiy tushunchalarga ta'riflar berilgan. Aslida "barqaror rivojlanish" tushunchasi ostida "ekotizimlarning potensial imkoniyatlarini oshirmagan holda inson hayoti sifatini yaxshilash" tushuniladi.

"Barqaror foydalanish" termini faqatgina yangilangan resurslardan foydalanishga ishlatiladi. "Barqaror iqtisodiyot" barqaror rivojlanishning natijasi hisoblanadi. Bunday iqtisodiyot "asosiy tabiiy resurslarga zarar yetkazmaydi, atrof-muhitga moslashgan holda rivojlanadi, yangi ilmiy tadqiqotlar va texnik takomillashtirishlardan foydalanadi". "Barqaror jamiyat" rivojlanish sohasida va atrof-muhitdagi barqarorlik prinsiplari asosida yashaydi.

Konferensiya biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya (YUNEP, Nayrobi 22.05.1992 y.) ni muvofiqlashtirilgan tekstini qabul qilishga binoan "barqaror foydalanish" tushunchasini 145 biologik resurslarga ko'ra shunday belgilab berdi: "145 biologik xilma-xillik komponentlaridan uzoq muddatli istiqbolda 145 biologik xilma-xillikning kamayib ketishiga olib kelmaydigan tarzda va shunday sur'atlarda, shu bilan birga hozirgi va kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish xususiyatni saqlagan holda foydalanish va ularning orzu unidlariga javob berish".

Barqaror rivojlanish dunyoviy jarayonining katta hissasi. Bujunjahon yuqori darajadagi ("Yer sammiti") uchrashuvida BMT ning atrof-muhit va rivojlanishga bag'ishlangan konferensiyasi (Rio-de-Janeyro, 3-14.06.1992 y) da qabul qilingan qarorlari bo'ldi. Bu konferensiya atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqaror rivojlanish uchun katta ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Rio-de-Janeyroda BMT ning atrof-muhit va rivojlanish deklaratsiyasi ("Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi") rivojlanish va atrof-

muhit sohasida umumiy xarakterga ega bo'lgan 27 prinsipni ilgari surdi. 1992-yil Rio-de-Janeyro (Braziliyada 156 mamlakat rahbarlari tomonidan imzolangan "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shilgan O'zbekiston Respublikasida (1995-yil Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilingan. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 1-apreldagi 139-sonli qarori bilan "Biologik rang-baranglikni saqlanishning milliy strategiyasi va harakatlar rejasini" ishlab chiqilgan.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi xalqaro Konvensiyaning maqsadi sifatida quyidagilar belgilandi: Yer kurrasida biologik resurslarning xilma-xilligini saqlash; xalq xo'jaligi sohalari (qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi) da biologik resurslardan foydalanishda davlatlar resurslarga va xalq xo'jaligi sohasiga zarar yetkazmaydigan usullarni qo'llash; biologik resurslarni ishlatish va ulardan foyda olishda adolatli va teng huquqli usullarning qo'llanilishini rag'batlantirish.

Shuning bilan birga Yer sammiti BMT boshchiligidagi Rio-de-Janeyroda qabul qilingan "XXI asr kun tartibi" harakat dasturi mamlakatlarni barqaror rivojlanish yo'lini tezlatishni aniqlaydi. Yer sammitida tarixiy kelishuvlar hujjatlarida ikkita bajarilishi lozim bo'lgan bitim qabul qilingan: iqlimni o'zgarishi to'g'risida BMT doiraviy konvensiyasi va BMT ning atrof-muhit dasturi bo'yicha tayyorlangan biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya. Yer sammitiga kiritilgan uchinchi xalqaro bitim BMT – cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasi.

Planetamizdagi tiriklikning asosiy xususiyatlaridan biri xilma-xillik hisoblanadi. Bu esa evolutsiya jarayonida tirik organizmlarning adaptogenezi natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda olimlarimiz tomonidan hayvonlarning 1,5 milliondan ortiq turi, 500 mingga yaqin o'simlik turi, 100 mingdan ortiq zamburug' turi qayd qilingan. Bu sonlar doimiy emas, chunki har yili yangi turlar kashf etiladi.

Xilma-xillik nafaqat tirik mavjudotlarda, balki ekotizimlar va biomlarda ham uchraydi. Shunday qilib, biologik xilma-xillik deganda nafaqat tirik organizmlarning xilma-xilligi, shuningdek, ekotizimlar va ular mavjud bo'lgan bo'g'inlar ham tushuniladi.

Biologik xilma-xillikni bir necha jihatlar bo'yicha tasvirlash mumkin:

- 1) genetik xilma-xillik,
- 2) turlar xilma-xilligi,
- 3) ekotizimlar xilma-xilligi.

Genetik xilma-xillik bitta tur organizmlari o'rtasidagi genotiplarning turli-tumanligini nazarda tutadi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan har bir tur yiqilgan biologik axborotni o'zida mujassamlaydi, bu esa turning atrof-muhit o'zgarishlariga va tabiatda o'z o'rnini topishi uchun takomillashishi va moslashishiga yordam beradi.

Yerda yashovchi hamma turlardagi genotiplar xilma-xilligi genofondan iborat bo'ladi. Genofond planetamizdagi mavjudlikni zaruriy shartlar bilan kelgusiga saqlab berishni amalga oshiradi.

Populatsiyaning mavjud bo'lishi uchun uning to'g'ridan-to'g'ri atrof-muhitga moslanishi zarur bo'ladi. Ushbu sharoitlarda uning mavjudligi genotip va fenotiplarga ega bo'lishi bilan ta'minlanadi. Populatsiya kelajakda mavjud bo'lishi uchun muhitga o'zining moslanishini saqlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak (L.Mettlyer, T.Gregg, 1972). Bu populatsiyada o'zgaruvchan sharoitlarga moslanuvchi yangi genotip va fenotiplarning paydo bo'lishi va takror ishlab chiqarilishi, demakdir. Populatsiyaga biologik siljishni amalga oshirishga imkoniyat beruvchi biologik mutanosiblik turli organizmlarda turli yo'llar bilan erishiladi. Mikroorganizmlarda uning ko'psonli populatsiyasining katta tezlikda ko'payishi bilan har bir yaqin birligida to'liq yetarli yangi mutantlarning soniga erishiladi, shu bilan birga ular orasida odatda yangi sharoitlarga moslanuvchanlari topiladi; bu mutantlarning tez ko'payishi populatsiyani saqlashni ta'minlaydi. Populatsiya miqdori (o'lchami) va ko'payish tezligi ko'p hujayrali ayrim jinsli organizmlarda odatda ancha kichik. Bu organizmlarda biologik mutanosiblik yashirin biologik o'zgaruvchanlik hisobiga ta'minlanadi.

Tur xilma-xilligi – bu qandaydir organizmlar jamoasi, ekotizimlar, regionlar ichidagi har xil turlar sonidir. Agar ekotizimda qanchalik tur xilma-xilligi yuqori bo'lsa, har xil noqulay sharoitlarga uning barqarorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Ekotizimlar xilma-xilligi (landshaftlar xilma-xilligi) yashash joy xilma-xilligi, biosferadagi biotik jamoalar va ekologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlar nafaqat umumiy kelib chiqish jihatdan bog'langan, balki bir zum ham to'xtamaydigan o'zaro qo'llab-quvvatlash bilan tiriklikni saqlab qolishda ishtirok etishadi. Har bir tur o'zining maxsus funksiyasini bajaradi va boshqasining o'rnida bo'la olmaydi. Turli-tuman turlarning barcha majmui Yer yuzasida tiriklikni ta'minlab turish uchun xizmat qiladi.

Biologik xilma-xillik muammolari ancha keng va murakkab. Biologik xilma-xillikni o'rganishning asosiy maqsadi bu genofondni saqlab qolishdir. Masalan, funksional jihatdan o'simlik genofondini o'rganish va saqlash bo'yicha 3 ta asosiy qarash mavjud:

1) tur chegarasida biologik xilma-xillikni, ya'ni polimorf turlarni, qaysiki turning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi geografik va ekologik areallarning kengayishini baholash orqali o'rganish; polimorf turlar past ixtisoslashgan, ularning funksiyasi beqaror, ular ancha kengroq ekologik diapazonda rivojlanishga moslanishgan, shuningdek, seleksiya uchun donor sifatida istiqbolidir.

2) Genom xilma-xilligini, allel chegarasidagi xilma-xillikni, ularning mutatsiyalarini aniqlab beradigan xromosoma apparatini o'rganish. Xususan, genofondni evolutsionistlar aniqlashicha, bu populatsiyadagi genlar xilma-xilligidir (Seversev, 1987). Poliploid turlar shakl va tur hosil bo'lishi uchun potensial sanaladi.

3) Tabiiy va antropogen sharoitlar o'zgarishiga turlarning xulqiy javobini bashorat qiluvchi biologik reaksiyalarni o'rganish.

Ma'lumki, Yer planetasida hayot 3,5 milliard yildan ortiq vaqt ichida paydo bo'lgan; bu vaqt ichida to'xtovsiz evolutsiya jarayonida biologik formalar g'aroyib xilma-xillikka erishgan. Naturalist va sistematiklar tomonidan XIX va XX asrlardan hayvonlarning milliondan ortiq formalari va chorak milliondan ortiq o'simlik turlari mavjudligi aniqlangan. Taxminlarga ko'ra, Yer yuzida biologik turlarining doimo mavjud bo'lib turishi bo'yicha ularning umumiy soni milliarddan oshadi. Ulardan 415 milliondan kam bo'lmagan turi hozirgi vaqtda Yerdahayot kechiradi. Har bir tur o'z populatsiyasiga ega. Genetik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, populatsiya – bu bir tur organizmlari o'rtasida chatishuvchi makon va zamon birligidagi guruhdir. Populatsiya soni organizmlarning populatsiyaga migratsiyasi, shuningdek, tug'ilish va o'lim o'zgarishi natijasida o'sishi yoki kamayishi mumkin. Populatsiya

boshqa populatsiyalar bilan qo'shilishi mumkin yoki uning barcha a'zolari emigratsiya yoki ommaviy halokat natijasida yo'qolishi mumkin. Erkin chatishuvchi organizmlar guruhi o'rtasida taqsimlangan butun biologik informatsiyaning jamini asosiy fond tashkil etadi.

Biologik xilma-xillik – bu jamiyat ehtiyojini iqtisodiy, ekologik va madaniy-estetik jihatdan qondirishning zaruriy potensial zaxirasidir. Hozirgi kunda biologik resurslarga inson ta'siri o'smoqda. Bunga asosiy sabab, aholining o'sishi, qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanishi, savdo, ishlab chiqarish, dunyo bo'yicha ehtiyojlarning turli-tumanligidir.

Inson faoliyatining rivojlanishi natijasida o'rmonlarni kesish, cho'llarni haydash, botqoqlarni quritish, sahroga suv chiqarish kabi tabiiy ekotizimlarning buzilishi ro'y bermoqda. O'simlik, hayvon yoki biron bir bakterianing yo'qotilishi oziq zanjirning uzilishiga olib keladi. Bu holatni esa yuqori rivojlangan texnologiya ham to'xtata olmaydi.

Biologik hayot boyligi mavjud bo'lgani uchun biosfera tashqi ta'sirlarga dosh beradi. Bu tashqi ta'sirlar (ya'ni kutilmagan zarbalar, salbiy to'qnashuvlar) tabiiy (quyosh faolligining farqi kabi) va sun'iy (inson tomonidan o'rmonlarning kesilishi, qurilishlar natijasida tabiiy borliqning buzilishi va b. kabi) ta'sirlarga bo'linadi.

Yer yuzida hayot xilma-xilligi qanchalik ozaysa, biosfera tashqi ta'sirlarga shunchalik mo'rt va ta'sirchan bo'lib qoladi. Bioxilma-xillikning ozligi sayyoramizning uzoq umr kechirishi imkoniyatlarini ozaytiradi.

Bioxilma-xillik mamlakatimiz xalqining iqtisodiy, estetik, sog'liqni saqlash va madaniy farovonligimiz omili hisoblanadi.

Lekin hozir butun dunyoda, shuningdek, mamlakatimizda ham bioxilma-xillikning kamayib borishi – qimmatli genlar, turlar, butun ekotizimlarning yo'qolib borishi xavfi mavjud. Dinozavrlar davridan beri, ya'ni 65 million yildan beri yo'qolmagan tabiiy turlar odamlar yaratgan sharoitda yo'qolib bormoqda.

Bioxilma-xillikning yo'qolib borishi shu suratda davom etar ekan, taxminan 100 yildan so'ng yer yuzasidagi turlarning yarmi insonlar ta'siridagi tabiiy yashash joylarining buzilishi, ifloslanish, iqlim o'zgarishi kabi muammolardan yo'qolib ketishi mumkin.

Bioxilma-xillikka odamlar tomonidan ta'sir etuvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch – biologik resurslardan foydalanishning ortishi, ishlab chiqarish faoliyati, qishloq xo'jaligi va turar joylarimizning kengayishi hisoblanadi. Bu degani, biz o'sish jarayonini, iste'mol, savdo va boshqa sohalarni umuman to'xtatishimiz kerak deganimikan? Albatta, yo'q. Biroq, barcha odamlar hayoti davomida va yashashi uchun mahsulotlar ishlab chiqarishi davomida bioxilma-xillikka zarar yetmasligini va uning kelajak avlodga saqlanib qolishini ta'minlab berishlari kerak.

Bioxilma-xillikning yovvoyi va madaniy qismlaridan biz oziqlanamiz, kiyinamiz; yog'ochdan ovqat pishirishda, uy qurishda va uy jihozi tayyorlashda foydalanamiz; boshqa qismlaridan esa tibbiyotda, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanamiz.

Bioxilma-xillikdan olinadigan foydani ikki qismga bo'lish mumkin:

#### A. Biologik xizmatlar:

O'zbekiston qishloq xo'jaligiga asoslangan davlat. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilishi tabiatning sifatiga bog'liqdir.

Bioxilma-xillik mahsulotning sifatida o'z aksini topadi. Biologik turlarning xilma-xilligi qay darajada kam bo'lsa, xizmat ko'rsatish doirasi tor bo'ladi va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga kerakli tabiiy resurslar sifati hamda qishloq aholisi turmushi past bo'ladi.

#### C. Mahsulotlaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish:

Bizning davlatimizda bioxilma-xillik mahsulotlaridan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- yog'ochdan o'tin sifatida;
- o'simliklardan giyoh va ozuqa sifatida;
- hayvonlarni ovlash orqali va h.zo.

Ko'p hollarda bioxilma-xillik mahsulotlaridan foydalanish tartibsiz amalga oshiriladi, ya'ni tabiat qayta tiklaydigandan ko'ra ko'proq mahsulot ishlatiladi.

O'zbekistonda bioxilma-xillik yo'qolishining asosiy sababi qishloq xo'jaligi yerlarining kengayishi oqibatida 150 biologik turlar yashash joylarining buzilishi hamda bioxilma-xillik mahsulotlari va

xizmatlaridan, nooqilona foydalanishdir. Natijada tabiat resurslari miqdori ozayadi va degradatsiyaga uchraydi.

Buzilgan ekotizimlarni hamda bioxilma-xillik xizmatlari va funksiyalarini tiklash va rivojlantirish vazifa, maqsadi mavjud bo'lgan hududlarni tiklash va yaxshilash bo'lgan loyihalarga ko'maklashishga qaratilgan bo'lib, bioxilma-xillik obyektlaridan oqilona foydalanish va ularni saqlash mumkin bo'lgan hududlarda amalga oshirilishi mumkin. Bu vazifa hududlarin va biologik majmualarni nafaqat jismoniy jihatdan tiklashni, balki ularni boshqarishni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, mazkur vazifaga ekotizimning sog'lom saqlanishiga ijobiy ta'sir qiladigan, lekin hozirda buzilgan xizmatlar va funksiyalarni tiklash ham kiradi.

Avval boshdagi paragraflarda ta'kidlanganidek: Bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasida (1998) maqsadli masala aniqlangan: O'zbekiston va Markaziy Osiyo bioxilma-xilligini namoyon etuvchi noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni saqlash va ko'paytirish, ularni tabiiy sharoitlarga reintroduksiya qilish, ilmiy izlanishlar uchun ularni saqlash yo'llari va kelajakda ulardan barqaror foydalanish. Bu quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi: Maxsus markazlar va ko'paytirish bo'yicha qo'riqlanayotgan hududlar maydonini rivojlantirish va bor tajribaga tayangan holda mamlakatda tabiatni muhofaza qilishda bosh maqsadlarga erishish uchun mavjudligi muhim deb tan olinayotgan jiddiy tahlika ostida turgan turlarni saqlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish. Turlarni aniqlash, yashab qolishini ta'minlash va bu turlarni ko'paytirishni amaliy imkoniyati mavjudligini baholash uchun alohida kuch talab qilinadi. Turlarini ko'paytirish bo'yicha O'zbekiston imkoniyati va tajribasini ko'rib chiqish, xalqaro texnik va moliyaviy yordam potensial manbalarini aniqlash. Turlarini ko'paytirish bo'yicha markazlarni tashkil qilish uchun ma'lum joylar va ko'paytirilayotgan turlar reintroduksiyasi amalga oshiriladigan hududlarni aniqlash. Biologik xilma-xillikni saqlash va bu masalani targ'ibot qilishda hayvonot bog'lari, botanika bog'lari faoliyati va zamonoviy vazifalarini baholash. Turlarni sohasida xalqaro tajriba bahosi xalqaro texnik va moliyaviy potensial manbalarni baholash.

Hayvonot bog'lari hamda botanika bog'larini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha dasturni ishlab chiqish, bu dasturda asosiy diqqat bioxilma-xillikni saqlab qolish, ilmiy izlanishlar, targ'ibot va ta'lim qismida O'zbekiston uchun zarurligiga qaratiladi.

O'zbekistonda Madaniyat va sport vazirligi ixtiyoridagi ikkita hayvonot bog'i (Toshkentda va Termizda, shuningdek, O'zR FA "Botanika" IIM ga qarashli Katta botanika bog'i. Toshkentda bor Toshkent hayvonot bog'ining (1924 y.dan beri faoliyat yuritadi) asosiy yo'nalishi – noyob va yo'qolib ketayotgan hayvon turlarining tirik kolleksiyalarini yaratish, ularni sun'iy ko'paytirish, respublika hayvonot olamini muhofaza qilishni targ'ibot qilish. Hozirgi paytda Toshkent hayvonot bog'ining kolleksiyasi 124 hayvon turidan tashkil topgan. Botanika bog'i (1922-yildan beri) ilmiy tekshirish biologik huquqlari ostida 5 ta laboratoriyani o'z ichiga olgan holda faoliyat yuritadi: ajnabiy dendroflora introduksiyalari, mahalliy flora reintroduksiyalari, noyob va yo'qolib ketayotgan o'simliklarni muhofaza qilish, gulli-dekorativ assortiment introduksiyasi, tibbiyot va sanoat botanikasi.

Tirik o'simliklar kolleksiyasida mo'tadil zonadan kelgan 6000 dan ortiq turi va shakllari mavjud. Dendroflora kolleksiyasi 2500 turni, shu bilan birga 170 ignabargli va 2200 o'tsimon o'simliklar turlarini o'z ichiga oladi. Botanika bog'ida yo'qolib ketishi xavfiga uchragan o'simlik turlari (lolalar, piyozlar, eremuruslar va b.) yetishtiriladi, shu yo'l bilan ularning genofondining saqlanishi ta'minlanadi. Respublika tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi "Jayron" Ekomarkazida regional va global yo'qolib ketishi xavfiga uchragan hayvonlar (jayron, qulon, Prjevalskiy oti) turlarini saqlash va ularni sun'iy ko'paytirish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Buxoro bug'usini (xongul) ko'paytirish Zarafshon qo'riqxonasi va quyi Amudaryo biosfera rezervatining vol'yer majmualarida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda 1991-yildan buyon ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Bionazorat bo'limida noyob turlarni ko'paytirish bo'yicha maxsus pitomnik "TIN" bazasida 100 ortiq itolg'i ko'paytirilgan. Faqat 1997-1998-yillarda 50 ga yaqin yosh itolg'ilar olingan.

Toshkent va Termiz hayvonot bog'larida, Toshkent botanika bog'ida va "Jayron" Ekomarkazida ekskursiya xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan jamoatchilik orasida maorif va ta'limni rivojlantirish

bo'yicha maxsus ish dasturi ishlab chiqilgan. Har yili hayvonot bog'lariga 200 000 kishi tomoshaga keladi, bog' huzurida shahar yosh naturalistlar klubi faoliyat ko'rsatadi. Botanika bog'iga har yili 22000 yaqin kishi tashrif buyuradi. Bu tashkilotlar keng xalqaro ilmiy texnik hamkorlikda ishlab, texnik hamda xalqaro va chet el tashkilotlari jamg'armalari mablag'laridan foydalanmoqda.

"Jayron" Ekomarkazida yarim tutqinlik sharoitida ko'paytirish jarayonida o'stirilgan 600 dan ziyod jayronlar tabiiy yashash joylariga introduksiya qilingan. Zarafshon qo'riqxonasi va Quyi Amudaryo biosfera rezervati vol'yerlar kompleksida o'stirilgan Buxoro bug'isi (xongul) tabiiy sharoitlarda yo'qolib ketgan populatsiyalarini tiklash maqsadida reintroduksiya ishlari olib borilmoqda. Jayron va Buxoro bug'isining reintroduksiya qilish bo'yicha ishlar uzluksiz asosda olib borilmoqda. Maxsus pitomnikda tutqinlik sharoitida ko'paytirilgan itolg'ilar 1999-2001-yillarda tabiatga qo'yib yuborilgan. Hammasi bo'lib Ugam-Chotqol milliy bog'ida 15 ta yosh qush uchirilgan. "Jayron" Ekomarkazida Prjevalskiy oti (30 dan ziyod) va qulon (50 ga yaqin) lar guruhi tuzilgan, uning asosida bu turlarni tabiiy sharoitga reintroduksiya qilish bo'yicha ishlarni boshlash mumkin. 1982-1995-yillarda bu ekomarkaz bazasida global zaif qush turi yo'rg'a tuvaloqni tutqinlik sharoitida muvafaqqiyatli ko'paytirish imkoniyati borligi isbotlangan. Lekin hozirgi vaqtda texnik va moliyaviy muammolar bu turni tabiiy populatsiyasi sonini ko'tarish maqsadida ko'plab ko'paytirishni yo'lga qo'yishga imkon bermay kelmoqda.

1995-yil O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning (BHK) asosiy maqsadlaridan biri, amaliyotda bu bioxilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishda ilmiy bilimlar va texnologik yutuqlarning o'rni ekanligini tan olishdir.

Mamlakatlar o'rtasida amalda ma'lumot va texnologiyalardan foydalanishda sezilarli far mavjud bo'lganligini hisobga olib, Konvensiya Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Vositachilik mexanizmini tashkil qildi. U barcha hukumatlarga, ularning bioxilma-xillik sohasidagi faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumot va texnologiyalarga kirishni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Vositachilik mexanizmi

Konvensiyaning bosh global ahborot resursi va shu bilan birga uni amalga oshirishda ilmiy-tehnikaviy hamkorlikni rivojlantirishning barqaror tizimi hisoblanadi.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Vositachilik mexanizmidagi barcha ishlarning asosiy jarayonlari, Konvensiyaga a'zo davlatlarning Vositachilik mexanizmini Milliy muvofiqlashtirish markazlariga yuklatilgan. Bunday markazlar bioxilma-xillik to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ularni almashishga mas'uldirlar. Hozirgi vaqtda 154 ta shunday markazlar mavjud bo'lib, ulardan 144 tasi biologik manziliga va 79 tasi o'z veb-saytiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi O'zbek vositachilik mexanizmining milliy muvofiqlashtirish markazi 2006-yilda tashkil etildi.

Vositachilik mexanizmining birinchi bosqichidagi vazifalari O'zbekistondagi BMTning Rivojlanish dasturining texnik ko'magi bilan amalga oshirilayotgan Global Ekologik Jamg'arma (GEJ) va O'zbekiston hukumatining "Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakat rejasini amalga oshirish uchun milliy salohiyatni rivojlantirishda ustuvor ehtiyojlarni baholash va vositachilik mexanizmi tuzilmalarini yaratish" dasturiga yuklatilgan.

O'zbekistonda Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Milliy muvofiqlashtiruvchi markazi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi dasturini ijro etuvchi agentlikdir.

1995-yil O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan Biologik Xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning asosiy maqsadlaridan biri, amaliyotda bu bioxilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishda ilmiy bilimlar va texnologik yutuqlarning o'rni katta ekanligini tan olishdir.

O'zbekiston Respublikasida ekologik chora-tadbirlar va huquqiy rag'batlantirishning qonuniy bazasini rivojlantirish jarayoni, davlat va tabiatdan foydalanuvchilar orasidagi munosabatlar boshqarish mexanizmi va tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan, hamda milliy huquqiy-qonunchilik bazasini xalqaro ekologik konvensiyalar va bitimlar talabiga moslashtirish doimiy ravishda davom etmoqda. Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini rivojlanishida atrof-muhitga

ta'sir etishni baholashga alohida e'tibor beriladi. Hozirgi vaqtda O'z R Oliy Majlisi tomonidan 50 dan ziyod qabul qilingan qonunlar O'zbekistonda Biologik xilma-hillik to'g'risidagi Konvensiya qoidalarini tatbiq etishga imkon beradi va shulardan 30 tasi to'g'ridan-to'g'ri ularni realizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Xususan, O'zR Konstitutsiyasi, Yer, Fuqarolik, Jinoyat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (9.12.1992 y.), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (yangi tahriri), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (6.05.1993 y.), "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" (3.07.1992 y.), "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" (2.09.1993 y.), "Naslchilik to'g'risida" (21.12.1995 y.), "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida" (22.12.1995 y.), "Urug'chilik to'g'risida" (29.08.1996 y.), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (27.12.1996 y.), "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" (29.08.1996 y.), "Geodeziya va kartografiya to'g'risida" (25.04.1997 y.), "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida" (25.04.1997 y.), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (26.12.1997 y.), "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (26.12.1997 y.), "Davlat yer kadastr to'g'risida" (28.08.1998 y.), "O'rmon to'g'risida" (15.04.1999 y.), "Aholini va hududlarni tabiiy texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" (20.08.1999 y.), "Ekologik ekspertiza to'g'risida" (25.05.2000 y.), "Davlat kadastrlari to'g'risida" (15.12.2000 y.), "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi (3.12.2004 y.) qonunlar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biologik xilma-xillik Yer yuzidagi barcha ekotizimlarda mavjud. Biron bir turning yo'qolishi yoki kamayib ketishi har xil tur populatsiyasi uchun noqulaylik keltirib chiharadi. Chunki turlar doimo bir-biri bilan turlicha o'zaro bog'langan. Suv ekotizimi va quruqlik ekotizimlarida turlar xilma-xilligini saqlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan bir bo'lib qolmoqda. Tabiatdagi jamiki resurslardan oqilona foydalanmasligimiz oqibatida qanchadan-qancha turlar va notirik komponentlar xavf ostida qolayapti. Tabiatning chiroyli manzarasi, ko'rkam go'shalari, o'zining hayvonot va o'simlik olamining g'aroyibotligi bilan ajralib turuvchi biosferani

saqlash har birimizning burchimizdir. Maxsus muhofaza etiladigan hududlar yaratish; tabiat yodgorliklari yoki o'rmon rezervatlarini saqlash; qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, milliy bog'lar barpo etish; noyob biologik va reliktlarni "Qizil kitob"ga kiritish; Botanika bog'larida sun'iy ekotizim yaratish, pitomniklar qurish, genofondni yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, biologik xilma-xillik, hayvon va o'simliklarning biologik resurslari maxsus muhofaza qilinadigan hududlarda samarali saqlanayapti, biroq ular qiyosiy darajada faol bo'lmagan maydonlarni tashkil etadi. Shunday qilib, O'zbekistonda maxsus muhofaza qilinadigan hududlar O'zR Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra (2018), respublika maydonining 5,5 % qismini tashkil etadi. Demak, maxsus muhofaza choralari talab qiluvchi turlarni saqlash, tiklashga doir, vaholanki biologik xilma-xillikni asrash bo'yicha mukammal dasturlarni ishlab chiqish kerak.

### **Nazorat savollari**

1. YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Iqtisodiy rivojlanish va tabiatni qo'riqlash" bo'yicha rezolutsiya qanday maqsadlarni ko'zlagan?
2. Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaning Vosita-chilik mexanizmi nimalardan iborat?
3. Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini rivojlanishida ko'proq nimalarga e'tibor beriladi?
4. Nima uchun populyatsiyalarni saqlab qolishimiz kerak?
5. O'zbekistonda maxsus muhofaza qilinadigan hududlar respublika maydonining necha foizini tashkil etadi?

## TEST SAVOLLARI

**1.O'simlik dunyosi obyektlari to'liq ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?**

A. Yovvoyi holda o'suvchi organizmlar, yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o'simlik guruhлари yoki ularning har qanday majmui hamda kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlari.

B. Yovvoyi o'simliklarning mevalari, urug'lari va boshqa qismlari yoki ularning o'sish davridagi mahsullari.

\*C. A va B javoblar to'g'ri.

D. To'g'ri javob yo'q.

**2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga binoan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar .....dir", deb qayd etilgan.**

A. Umumdavlat mulki.

\*B. Umummilliy boylik.

C. Xalq mulki.

D. To'g'ri javob yo'q.

**3.Ovchilik va baliq ovlash joylariga qo'yib yuborilgan hayvonlar ... mulki hisoblanadi**

\*A. Davlat.

B. Jismoniy shaxslar.

C. Yuridik shaxslar.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

**4.Pitomniklarda, inkubatorlarda, fermalarda, hovuz xo'jaliklarida o'stirilgan va shu xo'jaliklarning chegaralarida joylashgan yovvoyi hayvonlar ..... mulki hisoblanadi.**

A. Davlatning.

\*B. Ular tegishli bo'lgan shaxslarning.

C. Ularni ovlash huquqi taqdim etilgan shaxslarning.

D. To'g'ri javob yo'q.

**5.Davlat o'rmon fondini tasarruf etish qaysi davlat organining vakolati?**

\*A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

B. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

D. To'g'ri javob yo'q.

**6. Alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlar deganda nimani tushunasiz?**

\*A. Ilmiy va o'quv poligonlari, geologik qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari, g'orlar hamda ilmiy, tarixiy, madaniy, estetik va o'zga ahamiyatga molik boshqa yer osti bo'shliqlari.

B. Yer qobig'ining tuproq qatlamidan quyida joylashgan, tuproq qatlami bo'lmaganda esa yer yuzasidan yoki suv obyektlari tubidan quyida joylashgan, geologik jihatdan o'rganish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan chuqurlikkacha yastangan qismi.

C. Tabiiy holicha yoki bir oz ishlov berib va tozalab ishlatiladigan foydali qazilmalar.

D. To'g'ri javob yo'q.

**7. O'simlik dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish turlarini ko'rsating?**

A. Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'suvchi ozuqa mahsulotlarini jamlash va chorva mollarini o'tlatish.

\*B. Yovvoyi o'simliklarning texnik xomashyosini jamlash.

C. O'simlik dunyosi obyektlaridan ovchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish.

D. Daraxt va butalarni kesish.

**8. Markaziy Osiyoda zoologik kuzatishlar metodikasini bergan olim kim?**

A. Kashkarov D.N.\*

B. To'laganov A.T.

C. Zoxidov T.Z.

D. Gurvich V.F.

**9. O'simlik dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish normasi va tartibi belgilanadimi?**

A. Yo'q belgilanmaydi.

B. Ha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadi.

\*C. Ha, davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

D. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish tekinga amalga oshiriladi.

**10. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga ruxsatnoma kim tomonidan beriladi?**

A. Oliy Majlis tomonidan.

\*B. Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan.

D. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan.

**11. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar O'zR si Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga maxsus ruxsatnoma olish uchun qaysi organga murojaat qiladilar?**

A. Oliy Majlisga.

B. Vazirlar Mahkamasiga.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlariga.

\*D. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga.

**12. O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanishga ruxsatnoma yoki uni asosli rad etish hujjati ariza beruvchilarga ariza olingan kundan boshlab necha kun mobaynida taqdim etiladi?**

A. 5 kun.

B. 10 kun.

\*C. 15 kun.

D. 20 kun.

**13. O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanishga ruxsatnoma berish qaysi hollarda rad etilishi mumkin?**

A. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishga kvota mavjud bo'lmaganda va taqiqlangan hududda yoki taqiqlangan usul bilan o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish uchun buyurtmanomalar berilganda.

B. Hujjatlar to'liq bo'lmagan hajmda yoki zarur tartibda rasmiylashtirilmagan holda taqdim etilganda.

C. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lov to'lanmaganda.

\*D. Barcha javoblar to'g'ri.

**14. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchi tomonidan tabiatni muhofaza qilish haqidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish uchun berilgan ruxsatnomani olib qo'yishga kimlar vakolatlidir?**

\*A. Faqat tabiatni muhofaza qilish bo'yicha davlat inspektorlari va o'rmon idoraviy qo'riqchiligi davlat o'rmon fondi hududida vakolatlidir.

B. Faqat ichki ishlar xodimlar.

C. Faqat prokuratura xodimlari.

D. Faqat sud.

**15. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?**

\*A. 1999-yil 15-aprel.

B. 1996-yil 29-avgust.

C. 2000-yil 15-dekabr.

D. 1993-yil 6-may.

**16. O'rmonlar asosan qanday vazifalarni bajaradi ?**

A. O'rmonlar asosan suvni muhofaza qilish, qo'riqlash vazifalarini bajaradi.

B. O'rmonlar asosan sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish vazifalarini bajaradi.

C. O'rmonlar asosan rekreatsion, estetik va boshqa vazifalarni bajaradi.

\*D. Barcha javoblar to'g'ri.

**17. Hamma o'rmonlar davlat o'rmon fondini tashkil etadimi ?**

\*A. Ha.

B. Yo'q.

C. Faqat davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'rmonlar davlat o'rmon fondini tashkil etadi.

D. Faqat yuridik shaxslar foydalanishidagi o'rmonlar davlat o'rmon fondini tashkil etadi.

**18. Davlat o'rmon fondi to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating ?**

A. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'rmonlar.

B. Davlat o'rmon xo'jaligi organlari qaramog'idagi o'rmonlar.

\*C. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'rmonlar, idoralar va yuridik shaxslar foydalanishidagi o'rmonlar.

D. Yuridik shaxslar foydalanishidagi o'rmonlar davlat o'rmon fondini tashkil etadi.

**19. Quyidagilardan qaysi biri davlat o'rmon fondiga kirmaydi ?**

A. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi daraxtlar hamda idoralar foydalanishidagi o'rmonlar.

\*B. To'p-to'p daraxtlar, ekinzorlarning ixota daraxtzorlari.

C. Kanallar va boshqa suv obyektlarining ajratilgan mintaqalaridagi ixota daraxtzorlari hamda yuridik shaxslar foydalanishidagi o'rmonlar.

D. To'g'ri javob yo'q.

**20. Ko'klamzorlashtirish uchun ekilgan o'simliklar davlat o'rmon fondiga kiradimi ?**

A. Ha kiradi.

\*B. Yo'q kirmaydi.

C. Qisman kiradi.

D. Ayrim o'simlik turlari kiradi.

**21. Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtzorlar va butazorlarni barpo etish, parvarish qilish, qo'riqlash hamda ulardan foydalanish qaysi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi ?**

\*A. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari.

B. O'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlari.

C. Fuqarolik qonun hujjatlari.

D. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari.

**22. O'rmon fondi yerlari qishloq xo'jalik maqsadlariga beriladimi?**

A. Yo'q berilmaydi.

B. Beriladi, bu masalani o'rmon xo'jaligi rahbari hal etadi.

\*C. Ha, tuman hokimi o'rmon xo'jaligi davlat organlari bilan kelishib, berishi mumkin.

D. Ha, viloyat hokimining qarori asosida.

**23. O'rmondan vaqtinchalik foydalanish muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

\*A. Qisqa muddatli - 3-yilgacha va uzoq muddatli - 10-yilgacha.

B. Qisqa muddatli - 3-yilgacha uzoq muddatli - 20-yilgacha.

C. Qisqa muddatli - 5-yilgacha uzoq muddatli - 15-yilgacha.

D. Qisqa muddatli - 7-yilgacha uzoq muddatli - 15-yilgacha.

**24. Chegara mintaqalarida o'rmondan foydalanish tartibi kim tomonidan belgilanadi ?**

\*A. O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita bilan kelishilgan holda davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan belgilanadi.

B. O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralanishi himoya qiluvchi qo'mita bilan kelishilgan holda Geologiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

C. Tabiatni muhofaza qilish organi tomonidan belgilanadi.

D. To'g'ri javob yo'q.

**25. Hayvonot dunyosi obyektlarini ko'rsating ?**

A. Kelib chiqishi hayvotlarga mansub bo'lgan organizmlar - sutemizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, ham quruqlikda,

ham suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyatsiyalari.

B. Yovvoyi hayvonlardan tashkil topadigan tabiiy hayvon galalari yoki ularning har qanday toʻdalari, yovvoyi hayvonlarning kamyob yoki yoʻqolib ketish xavfi ostidagi turlari, yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining mahsulotlari.

\*C. A va B javoblar toʻgʻri.

D. Toʻgʻri javob yoʻq.

**26. Ov qilish va baliq ovlash mahsulotlariga nimalar kiradi ?**

A. Moʻyna va teri, hayvonning shoxi, shuningdek, ulardan tayyorlangan buyumlar.

B. Yovvoyi hayvonlar hayot faoliyati mahsulotlari va ulardan hosil boʻlgan mahsulotlar, ularning goʻshti, qismlari, parrandalar va sudralib yuruvchi hayvonlarning tuxumlari, baliqlarning uvuldirigʻi, ovchilik oʻljalari hamda belgilangan tartibda tutilgan hayvonlarning oʻzi.

\*C. A va B javoblar toʻgʻri.

D. Toʻgʻri javob yoʻq.

**27. Baliq xoʻjaliklari hududida ov qilishga ruxsat beriladimi ?**

A. Ha ruxsat beriladi.

B. Yoʻq ruxsat berilmaydi.

\*C. Faqat maʼmuriyatning roziligi bilan.

D. Qisman ruxsat beriladi.

**28. Chet el fuqarolari tomonidan hayvonot dunyosining Oʻzbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan ayrim turlarini ovlashni tashkil etish va ovlash tartibi qaysi organ qarori bilan belgilanadi?**

\*A. Vazirlar Mahkamasining alohida qarori bilan belgilanadi

B. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasining alohida qarori bilan belgilanadi.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining alohida qarori bilan belgilanadi.

D. Qizil kitobga kiritilgan hayvonot dunyosi turlarini ovlash taqiqlangan.

**29. Oʻzbekiston Respublikasining barcha hududida hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanishga ruxsatnomalar qaysi organ tomonidan beriladi?**

A. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

B.O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi organlari tomonidan ajratiladigan kvotalar asosida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan.

\*C. O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan.

D. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan.

### **30.Hayvonot dunyosidan foydalanish turlarini ko'rsating ?**

A. Ov qilish va baliq ovlash.

B. Hayvonot dunyosidan ilmiy, tibbiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda hamda hayvonlar faoliyatining foydali xususiyatlaridan, ularning faoliyati mahsulotlarini olish maqsadida foydalanish.

C. Ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, namoyish qilish hamda tijorat maqsadlarida tutqunlikda saqlash, zoologiya kolleksiyalari tashkil etish.

\*D. Barcha javoblar to'g'ri.

**31.Ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklariga ro'yxatdan o'tkazilgan tabiiy suv havzalarida necha kilogrammgacha miqdorda baliqlarni sport va havaskorlik tarzida ovlash uchun umumiy foydalanishga ruxsat berilgan?**

A. 3

B. 5

C. 7

\*D. 10

**32.O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlarni tabiiy yashash muhitidan ajratib olish uchun maxsus foydalanishga ruxsatnomalar qaysi organ tomonidan beriladi ?**

\*A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

B. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan.

D. Fanlar akademiyasi tomonidan.

**33.Qizil kitobga kiritilgan hayvonot dunyosi turlaridan foydalanish taqiqlangan qanday holatlarda hayvonot dunyosidan foydalanishga ruxsatnoma berish rad etilishi mumkin ?**

A. Buyurtmanomada ko'rsatilgan hayvonlarning turlarini tutishga kvota mavjud bo'lmaganda va hayvonlarni taqiqlangan joylarda, taqiqlangan vaqtda yoki taqiqlangan usulda tutishga buyurtmanoma taqdim etilganda.

B. Tabiatni muhofaza qilish organlariga tutish so'ralayotgan hayvonlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar va ilgari berilgan ruxsatnoma kvota bo'yicha tutilgan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilmaganda.

C. Tutilishi mo'ljallanayotgan hayvonlar soni qiymati to'lanmaganda va tutilgan hayvonlarni uzoq vaqt tutib turish uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lmaganda.

\*D. Barcha javoblar to'g'ri.

**34. Yovvoyi hayvonlar, ularning qismlari, zoologiya kolleksiyalari, hayot faoliyati mahsulotlari, o'ljalari, tulumlar respublikaga olib kiritilganligi uchun qancha miqdorda to'lov undiriladi?**

A. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bitta yovvoyi hayvon, uning qismlari, tulum, o'lja, hayvonning terisi, bir juft shox, bitta shoh uchun – mazkur yovvoyi hayvonni tutishga ruxsatnoma qiymatining 5 foizi miqdorida to'lov undiriladi.

B. Yovvoyi hayvonlar uchun – yovvoyi hayvonning mazkur turini tutishga ruxsatnoma qiymatining 2 foizi miqdorida to'lov undiriladi.

\*C. To'lov undirilmaydi.

D. To'g'ri javob yo'q.

**35. Baliq xo'jaligi zonalari qaysi organ qarori bilan tashkil etiladi?**

\*A. Vazirlar Mahkamasi.

B. Fanlar Akademiyasi.

C. Sog'liqni saqlash vazirligi.

D. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

**36. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar pasportini yuritish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?**

A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

\*B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

D. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

**37. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?**

A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

B.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

C. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

\*D. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

**38.Davlat qo'riqxonalarining hududida qanday faoliyat olib borish mumkin?**

A. Monitoring yuritish.

B. Ilmiy tadqiqot olib borish.

C. Yong'inga qarshi tadbirlar.

\*D. Barcha javob to'g'ri.

**39.Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari nima ?**

\*A. Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

B. Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

C. Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualar hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

D. Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

**40.Tabiat bog'lari nima ?**

A. Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

\*B. Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

C. Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualar hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

D. Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

#### **41. Davlat tabiat yodgorliklari nima ?**

A. Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

B. Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

C. Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualar hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

\*D. Noyob, o'rinni to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

#### **42. Tabiiy obyektlarni davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilish qaysi organ qarori bilan amalga oshiriladi?**

A. Fanlar Akademiyasi.

B. Sog'liqni saqlash organlari.

C. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

\*D. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

#### **43. VM sining 139-sonli qarori bilan «O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» qabul qilindi:**

A. 1998-yil 1-aprelda\*.

B. 1999-yil 5-iyunda.

C. 2002-yil 22-martda.

D. 2003-yil 14-iyunda.

#### **44. O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari Dasturi tasdiqlandi:**

a) 1999-2005-yillarda\*.

B. 1988-1998-yillarda.

C. 1995-1997-yillarda.

D. 1992-1994-yillarda.

#### **45. O'zbekistonda Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qonun qachon qabul qilingan?**

A) 1992-yil 9- dekabr\*.

B. 1991-yil 12-noyabr.

C) 1990-yil 2-avgust.

D) 1993-yil 12-dekabr.

**46. Hayot muhitlarini ajrating?**

A. Organizm, yer usti-havo muhiti, tuproq, suv\*.

B. Yer osti muhiti, yer usti muhiti, tuproq, havo-suv muhiti.

C) Gidrosfera, atmosfera, litosfera, biosfera.

D) G'orlar, vodiylar, tog'lar.

**47. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?**

A. Tabiat va jamiyat orasidagi qonuniyatlarni to'g'ri tushunish, tabiatni muhofaza qilish va uni ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik\*.

B. Tabiatni muhofaza qilish.

C. Suvlarni tozaligini asrash.

D. Tabiatga zarar keltirmaslik.

**48. Tabiiy populyatsiyalardan foydalanganda qanday yoshdagi organizmlarni olish mumkin?**

A. Katta yoshdagi organizmlarni\*.

B. Yosh organizmlarni.

C) O'rta yoshdagi organizmlarni.

D) Turli yoshdagi organizmlarni.

**49. O'zbekiston Qizil kitobiga nechta tur hayvon kiritilgan?**

A. 184\*

B. 50

C. 80

D. 100

**50. O'zbekiston Qizil kitobiga nechta tur o'simlik kiritilgan?**

A. 313\*

B. 105

C. 100

D. 90

**51. Barqaror taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?**

A. Tabiatdan kelajak avlod talabiga zarar keltirmasdan foydalanish\*.

B. Turlarni muhofaza qilish.

C. Antropogen omillarning ta'sirini kamaytirish.

D. Tabiatdan normal foydalanish.

**52. Iqlim o'zgarishi bo'yicha Xalqaro konvensiyaning imzolanishi qachondan boshlangan?**

A. 1992-yildan\*.

B. 1993-yildan.

C. 1985-yildan.

D. 1990-yildan.

**53. Dunyo o'simlik va hayvon turlari xilma-xilligi?**

- A. O'simliklar 500 ming, hayvonlar 1,5 mln\*.
- B. O'simliklar 350 ming, hayvonlar 800 ming.
- C. O'simliklar 400 ming, hayvonlar 1 mln.
- D. O'simliklar 250 ming, hayvonlar 600 ming.

**54. Qo'riqxonalarda:**

- A. Har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlanadi\*.
- B. Noyob turlar muhofaza qilinadi va iqlimlashtiriladi.
- C. Noyob turlar muhofaza qilinadi va cheklangan foydalaniladi.
- D. O'simlik va hayvonlar muhofaza qilinadi va dam olish mumkin.

**55. Xalqaro bioxilma-xillikni asrash kuni qachon nishonlanadi?**

- A. 22-may \*
- B. 9-may
- C. 10-sentabr
- D. 18-noyabr

**56. "Tabiatni muhofaza qilish" deganda nima tushuniladi?**

- A. Ma'lum maqsadga qaratilgan maxsus tadbirlar yig'indisi\*.
- B. O'simlik va hayvonlarni saqlash.
- C. Tirik organizmlardan oqilona foydalanish.
- D. Noyob hududlarni asrash.

**57. O'zbekiston "Qizil kitobi" necha jilddan iborat?**

- A. 2 jild\*
- B. 4 jild
- C. 6 jild
- D. 8 jild

**58. O'zbekiston Respublikasida "Ekologik ta'lim to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?**

- \*A. Qabul qilinmagan.
- B. 1993-yil 15-iyunda.
- C. 1998-yil 10-sentabrda.
- D. 2002-yil 25-mayda.

**59. O'zbekistonda Tabiatni muhofaza qilish siyosatini kim amalga oshiradi?**

- A. Prezident.
- B. Oliy majlis.
- \*C. Vazirlar Mahkamasi.
- D. Senat.

**60. Antropogen omillar nima?**

\*A. Inson faoliyati ta'siri.

B. Qadimgi qoldiqlar.

C. Tashqi muhit omillari.

D. Hayvonot dunyosi ta'siri.

**61. BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi qachon va qayerda bo'lib o'tgan?**

A. Bern, 1990-yil.

B. Rio-de-Janeyro, 1992-yil\*.

C. London, 1995-yil.

D. Nyu-york, 2001-yil.

**62. Sho'r yerlarda o'suvchi o'simliklar nima deyiladi?**

\*A. Galofit.

B. Glikofit.

C. Psammofit.

D. Kserofit.

**63. O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish turlarini ko'rsating?**

A. O'simlik dunyosi obyektlaridan ilmiy tadqiqot maqsadlarida foydalanish.

B. O'simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma'rifiy, tarbiya, sog'lomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadlarda foydalanish.

\*C. O'simlik dunyosi obyektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish.

D. O'simlik dunyosi obyektlaridan kolleksiyalash maqsadlarida foydalanish.

**64. Ekotizim masshtabida monitoring kuzatishlar... darajada olib boriladi:**

A. Global\*.

B. Lokal.

C. Mahalliy, regional, butun yer yuzini qamrab olgan.

D. Mahalliy, regional.

**65. Tugaydigan resurslarga nimalar kiradi?**

A. Quyosh energiyasi.

B. Okean suvlari.

C. Havo.

\*D. O'simlik, hayvon, qazilma boyliklar.

**66. Biosferada tirik moddaning asosiy funksiyasi nima?**

A. Nafas olish.

\*B. Moddalarning aylanma harakati.

C. Konsentratsiyalashtirish.

D. Organik moddani anorganik moddalardan sintez qilish.

**67. Insonning boshqa mavjudotlardan asosiy farqi nima?**

A. Muhit bilan o'zlanishi, nafas olishi va modda almashinuvi orqali bog'lanishi.

B. Muhitning fizik omillar bilan bog'liqligi.

\*C. Tabiiy muhit bilan madaniyati orqali.

D. Biologik evolutsiya jarayonida moslashish imkoniyatlarining kelib chiqishi.

**68. Inson tomonidan o'zlashtirilgan yerlar:**

A. Quruqlikning 60 %

B. Quruqlikning 50 %

C. Quruqlikning 40 %

D. Quruqlikning 70 %

**69. O'simlik va hayvon turlarining hozirgi vaqtda yo'qolib borayotganining asosiy sababi:**

\*A. Inson tomonidan yashash joylarining yo'q qilinishi.

B. Inson tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilinishi.

C. Biosferada zaharli moddalarning ko'payishi.

D. Muhitning radiatsion ifloslanishi.

**70. Biologik monitoring nima?**

A. Obyektlar va hodisalarni kuzatish bioindikatorlarni qo'llash.

B. O'simliklar jamoasini o'rganish.

C. Hayvonlar jamoasini o'rganish.

D. Mikroorganizmlarni o'rganish.

## GLOSSARIY

**Aborigen** – mazkur hududda evolutsiya jarayonida vujudga kelgan yoki hududga boshqa yerdan ma'lum tarixiy davrda kirib kelgan va mahalliy sharoitga moslashgan, mahalliy flora yoki faunaga mansub biologik tur.

**Avtoxton** – mazkur geografik hududda vujudga kelib shu yerda dastlab evolutsiya jarayonini o'tagan tur yoki boshqa sistematik guruh.

**Agrobioxilma-xillik** – antropogen landshafga xos, ammo o'zaro biosenotik aloqalarga bog'liq bo'lmagan madaniy o'simliklar, uy hayvonlari va ular bilan birga uchraydigan begona o'tlar, antropofil va sinantrop hayvonlar tarkibi.

**Iqlimlashtirish** – 1) turni yangi geografik hududga tabiiy yoki sun'iy hamjamoalarni boyitish maqsadida ko'chirish jarayonida amalga oshiriladigan tadbirlar. Ko'chirilgan turning keskin ko'payib ketishi yoki mazkur tur va mahalliy flora hamda fauna vakillari o'rtasida antagonistik munosabatlarning vujudga kelishi oqibatida salbiy natijaga yer ishish hollari ham uchrab turadi. 2) organizmining yangi sharoitga moslashish jarayoni.

**Antropogen omillar** – inson faoliyatining tirik tabiatga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi barcha turlari.

**Antropogen landshaft** – insonning xo'jalik faoliyati tufayli tubdan o'zgargan va boshqariladigan landshaft. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, shaharlar va boshqa aholi yashash joylari, ishlab chiqarish majmualari, o'rmonzorlar va h.k. sh. ar jumlasidandir.

**Areal** – tirik organizmlarning sistematik guruhi (tur, avlod va h.k.) yoki ma'lum hamjamoalar (ekotizmlar tarqalgan hudud).

**Biogeosenoz (gidrobiosenoz)** – ekologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. O'zaro bog'liq biotope (abiotik qism va biosenozdan (biologik hamjamoalar tashkil topgan aniq tabiiy ekotizim).

**Vedlend** – tabiiy sabablar yoki antropogen degradatsiya (qo'zgaluvchan qumliklar, o'ta sho'rlik yerlar va h.k.) natijasida yaroqsiz holatga kelgan yerlar (hududlar).

**Bioindikator** – holati va xatti-harakatiga qarab atrof-muhitdagi o'zgarishlarga baho berish mumkin bo'lgan ma'lum ekotizimga xos biologik tur yoki hamjamoalar.

**Biologik resurslar** – ekotizimlarning insoniyatiga amaliy foyda keltiruvchi yoki uning potensial ahamiyatga ega bo'lmish har qanday biotik komponentlari (sh.j. genetik fond, turlar, populyatsiyalar va h.k.).

**Biousul** – zararkunanda va kasallik tarqatuvchilarning sonini kamaytirish maqsadida yirtqich, o'simlikxo'r va parazit turlardan (ko'pincha bo'g'imoyoqlilardan) hamda patogen mikroorganizmlardan foydalanishga asoslangan usullar turkumi.

**Bioxilma-xillik** – ma'lum hududda o'ziga xos ekotizimlar tarkibida va o'zaro funksional aloqadorlikda yashovchi (o'suvchi) yovvoyi hayvonlar, o'simliklar zamburug'lar va mikroorganizmlar (sh.j.ko'chmanchilar ham) turlarining to'liq tarkibi.

**Biosfera** – tirik moddalarning yashash makoni (V.I.Vyer natskiy). Yerning tirik organizmlar faoliyati muhit vujudga kelishida eng muhim omil sifatida namoyon bo'ladigan tashqi qobig'i. Unga sayyoramiz atmosferasining pastki qatlamlari, gidrosfera, litosferaning yuqori qatlamlari kiradi.

**Biota** – o'zaro tarixiy yoki funkisional jihatdan bog'likligidan qa'ti nazar ma'lum geografik hududini egallagan o'simliklar va mikroorganizmlar majmua.

**Biotexnika** – ovshunoslikda ov qilinadigan yerlarning biologik mahsuldorligi va xo'jalik unumdorlikni oshirish usullar tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan bo'limi.

**Biotexnologiya** – ishlab chiqarish yoki tadqiqot jarayonning bioloik tizimlar, tirik organizmlar, xususiyatlariga ega mavjudotlardan foydalanadigan turar.

**Biotop** – bir biosenoz egallagan abiotik omillari bo'yicha nisbatan bir xil bo'lgan zamin (hudud, akvatoriya. Biogeosenozning (gidrobiosenozning, anirganik qismi.

**Bioformasevtika** – o'simlik va jonzotlardan olinadigan biologik aktiv moddalarga ega dori-darmonlarni kashf etish, ishlab chiqarish, ular ustidan masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy-amaliy soha.

**Biosenoz** – bir turdagi hududda (biotopda. yashovchi va bir ozuqa zanjiriga mansub zamburug'lar va mikroorganizmlar hamjamoasi.

**Brakonerlik** – yovvoyi hayvonlarni va baliqchilik qoidalariga zid ravishda ovlash va kirib tashlash, shuningdek, o'rmonlarni buzish va noyob yoki qimmatbaho o'simlikni noquniniy ravishda yig'ish Ijtimoiy xavflilik qoidabuzarlik yoki jinoyat deb hisoblanadi.

**Bufyer zona** – qo'riqxonalar chegaradosh hamda xo'jalik faoliyatining qo'rixonaga zarar yetkazishi mumkin maxsus tartibda boshqariladigan hudud.

**Vagillik** – turning ekologik moslanuvchanligi va harakatlanishga bo‘lgan tug‘ma layoqatligi tufayli o‘z arellni kengaytirish qobiliyati.

**Vetlandlar** – ko‘chmanchi suv – botqoq qushlarining to‘xtash va ko‘payish joylari sifatida hamda baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan suvli hududlar (ko‘llar, suv omborlari, daryolar havzalari va daltalari, botqoqlashgan yerlar).

**WWF** – Umumjahon yovoyi tabiat fondi – dunyodagi eng yirik tabiatni nuhofaza qilish xalqaro nohukumat tashkiloti bo‘lib, maxsus qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar tizimini yaratish, noyob hayvon va o‘simliklarni muhofaza qilish tabiatdan barqaror foydalanish, tabiatparvar dastur va loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

**Genezis** – flora yoki fauna shakllanishning tarixiy jarayoni. Ba‘zan, tor ma’noda o‘simlik qoplami yoki hayvonot dunyosi shakllanishining kuzatilishi mumkin bo‘lgan jarayoni sifatida ham izohlaydi.

**Genyer asiya** – populatsiyaning bir-birini muntazam almashtirib turuvchi qismlari yoki biror bir individning bevosita nasli (sinonimi avlod).

**Genifond** – tabiatni muhofaza qilish sohasida – barcha tirik organizmlarning ularning yuzaga chiqqan va potensial irsiy xususiyatlarini ham o‘z ichiga qamragan yig‘indisi.

**Genetik material** – irsiy xususiyat va belgilarga ega o‘simliklar, hayvonlar, zamburug‘lar va mikroorganizmlar indvidlari yoki ularning qismlari (bo‘laklari).

**Genetik resuslar** – turlarni o‘zidan ko‘paytirish, seleksiya yoki boshqa biotexnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun amaliy yoki potensial istiqbolga ega genetik material.

**GAT** – geografik axborot tizimi (IDRISI) – tabiiy resurslar va obyektlarning xilma-xilligi, holati va geografik taqsimlanishi haqidagi ma’lumotlar bankining kompyutyerda ishlash tizimi.

O‘z Davlatbiatning Davlat bionazorat boshqarmasi qoshidagi bioxilma-xillikni saqlash strategiyasini, amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasini muvofiqlashtiruvchi guruh –TRMG.

**GEF (GEF)** – global ekologik fond – xalqaro nohukumat tashkilot, vazifasiga oid loyihalarni tashabbuslash va moliyaviy ko‘maklanish kiradi.

**Atrof-muhitni tanazzuli** – tabiat sharoitlarining global fizik –geografik jarayonlar yoki insonning xo‘jalik faoliyati ta’sirida yomonlashuvi (digressiya., sh.j.bioxilma - xillikning kamayishi va ekotizimlar barqarorligining buzilishi.

**Destruksiya** – biologik aylanishga ko‘shilishi (dissimilatsiya jarayonida murakkab kimyoviy birikmalrnh (sh.j. pestisidlarning) parchalanishi (yemirilishi).

**Antropogen ifloslanish** – insonning xo‘jalik faoliyati natijasida vujudga keladigan ifloslanishlarining turlari shakllari (asosan kimyoviy moddalar va chiqindilar).

**Biologik ifloslanish** – atrof-muhitga inson uchun kerakli bo‘lmagan yoki mazkur ekotizimga yod bo‘lgan turlarning olib kiritilishi va ko‘payishi.

**Byurtmaxona** – xo‘jalik faoliyatining ma‘lum tarmoqlari biologik turlar, ekotizimlar yoki landshaftlarni saqlab qolish maqsadida doimiy yoki vaqtincha taqiqlanib qo‘yilgan alohida muhofazalanadigan tabiiy hudud.

**O‘zbekiston Respublikasining Yer to‘g‘risidagi qonuni** –1990-yilda qabul qilingan, 1991, 1993, 1994-yillarda to‘ldirilgan va aniqliklar kiritilgan Yerlardan oqilona foydalanishni muhofaza qilish, borasidagi yer munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat.

**O‘zbekiston Respublikasining Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun**-1992-yilda qabul qilingan, atrof tabiiy muhitni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining Hayvonot dunyosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun** – 1998-yilda qabul qilingan, hayvonot dunyosi resurslarini muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish va qayta tiklash borasidagi munosabatlar va mulkchilik huquqlarini tartiblaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonun** – 1993-yilda qabul qilingan, ko‘rikxonalar, milliy bog‘lar, buyurtmaxonalar va boshqa alohida muhofaza qilinadigan hududlarini yaratish va ularni boshqarishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy tamoillarini belgilaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonun** – 1993-yilda qabul qilingan xalq xo‘jaligining suvga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash maqsadida suvlarni ifloslanish va kamayishidan saqlash choralari hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

**Qo‘riqxona** – muhim ahamiyatga ega obyektlarni (tabiat andozalari) va ekotizimlarining holati va tabiiy jarayonlarning kechishi monitoringidan boshqa barcha xo‘jalik faoliyati taqiqlangan alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hudud. Bunday hududlarda istisno tariqasida tabiiy ofatlarni oldini olish uchun chora-tadbirlar ko‘rishga ruxsat etiladi.

**Zootexniya** – hayvonlarni ko‘paytirish, saqlash oziqlantirish va ulardan foydalanish haqidagi fan. Chorvachilikning, hayvonlarni hayvonot bog‘larda, parvarishxonalarda, vivariylar va h.k.da saqlashning nazariy asosi.

**Muhojir** – mazkur hududga biogeografik mintaqadan o‘tgan tarixiy davrda yoki yaqin o‘tmishda arealining tabiiy kengayishi jarayonida kirib kelgan biologik tur.

**Invaziya** – biron bir yerga u joyga xos bo‘lmagan hayvon yoki o‘simlik turning kirib kelib ommaviy tarzda ko‘payishi; hamjamoaga uning uchun yangi bo‘lgan turlarning qo‘shilishi.

**Introduksiya** – insonning ongli yoki beixtiyor faoliyati tufayli mahalliy tabiiy majmualarga biron bir begona turning kirib kelishi.

**Kadastr** – obyektlar va hodisalarning (sh.j. biologik xususiyatli) sifatini va miqdoriy tavsiflarini tizimlashtirgan ma‘lumotlar to‘plami O‘z ichida resurslarning xilma-xilligi, tasnifi, miqdori dinamikasi, o‘rganilganlik darajasi, ulardan barqaror foydalanish muhofazasi choralari tashkil qilish uchun kerak bo‘ladigan barcha ma‘lumotlarni mujassamlashtirgan.

**Kamyob va yo‘qolib borayotgan turlar kategoriyalari (O‘zbekiston SSR Qizil kitobi, 1983-1984):**

I kategoriya – ehtimol yo‘qolib ketgan turlar. Tabiatda ko‘p yillar davomida uchramagan, lekin ayrim yetib borish qiyin bo‘lgan yerlarni yoki madaniy holda saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin.

II kategoriya – kamayib borayotgan turlar. Soni va areali uzluksiz qisqarib borayotgan va bu hol ularni yaqin kelajakda butunlay yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostiga olib keladigan turlar.

III kategoriya – kamyob turlar. Tabiatdan tor areal va kam songa ega turlar. Ularning yo‘qolib ketish jarayoni yashash muhitining o‘zgarishi, ovlash va h.k. natijasida boshlanish mumkin.

IV kategoriya – kamayib borayotgan turlar. Soni va areali uzluksiz qisqarib borayotgan va bu hol ularni yaqin kelajakda butunlay yo‘q bo‘lib ketishi xavfi ostida olib keladigan turlar.

V kategoriya – tiklangan turlar. Ilgari yuqoridagi biriga kiritilgan bo‘lib, ko‘rilgan muhofaza choralari tufayli soni va areali tiklanib barqarorlashgan va xavotir tug‘dirmaydigan turlar.

**TMXI kategoriyalari (1994) biologik turlarni Qizil kitobga kiritishda qo‘llaniladi:**

– Qirilib ketgan – oxirgi namoyondasi nobud bo‘lganligi haqida hech qanday shubha yo‘q.

– Yovvoyi holatdagilari qirilib ketgan – taksonning faqat xonaki, tutqinlik sharoitida yoki avvalgi arealidan tashqarida sun‘iy yaratilgan populyatsiya shaklida yashashi ma‘lum.

Yuqori xavf ostidagi taksonlar:

– keskin xatarga uchragan;

– yaqin kelajakda yovvoyi holatda qirilib ketishi xavfi juda katta;

– xatarga uchraydigan–kelajakda taksonning yovvoyi holatda kirilib ketishi ehtimoli katta;

– zaif – yashash sharaiti o‘zgarsa yoki ta‘qib qilinsa tabiatda qirilib ketish xavfi mavjud.

Kuchsiz xavf ostidagi taksonlar:

– saqlanishiga bog‘liq – 5 yil davomida muhofaza qilinmaslik xatar holatiga olib kelib qo‘yishi mumkin.

– xavfli holatga yaqin turganlar – zaif kategoriyasiga yaqin holatdagilar;

– eng kam xavotir tug‘dirayotganlar – holati nisbatan barqaror.

**Kvota** – tabiatni hayvonot va o‘simliklar dunyosi resurslarining o‘rnatilgan va ruxsat etilgan tartibda olinishi mumkin bo‘lgan eng yuqiri miqdori. Har yili qayta ko‘rilib chiqilib Hayvonot hamda o‘simlik dunyosini muhofaza qilish davlat nazorati (Davbionazorat) tomonidan tasdiqlanadi.

**Xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoq yerlar va ayniqsa suzuvchi qushlar yashaydigan joylar haqidagi Konvensiya** –1971y.Ramsarda (Eron) imzolangan, shtab-kvartiasi Shveytsariyada; O‘zbekiston 2001y. qo‘shilgan, milliy muvofiqlashtiruvchi – O‘zDav-tabiat.

**Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi flora va fauna turlari bilan xalqaro savdo-sodiq qilish haqidagi Konvensiya (CITES, Vashington konversensiya** – 1973 y alohida muhofaza qilinadigan o‘simlik va hayvon turlaridan xalqaro savdo-sotiq maqsadlarida foydalanishning qoidalari va xalqaro nazoratni ishlab chiqish uchun tashkil etilgan.O‘zbekiston 1997 y qo‘shilgan, milliy muvofiqlashtiruvchi O‘zDavtabiat.

**Qochib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlarini muhofaza qilish bo‘yicha Konvensiya** – 1979 y. Bonnda tuzilgan. Ko‘chib yuruvchi hayvon turlarini va ularning yashash joylarini muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro tadbirlarni nazarda tutadi.O‘zbekiston 1998y qo‘shilgan, milliy muvofiqlashtiruvchi- O‘zDavtabiat.

**Biologik xilma- xillik haqidagi Konvensiya** – BMT homiyligida ishlab chiqilgan imzolash uchun Rio-de-Janeyroda 1992y ochilgan. Maqsadi – biologik xilma- xillikni insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim resurs sifatida saqlab qolish. O‘zbekiston 1995y qo‘shilgan, milliy muvofiqlashtiruvchi- O‘zDavtabiat.

**Cho‘llanish yoki jiddiy qurg‘oqchilikka duchor bo‘layotgan davlatlarda cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha Konvensiya** – BMT homiyligida tashkil etilgan bo‘lib, 1994-yilda Parijda imzolash uchun ochilgan. Maqsadi – cho‘llanish bilan kurashish, qurg‘oqchilik oqibatlarini yengillashtirish, barqaror rivojlanish. Ko‘riladigan chora - tadbirlar bioxilma-xillikni saqlashga ham ko‘maklashishi lozim. O‘zbekiston tomonidan 1995y ratifikatsiya qilingan, milliy muvofiqlashtiruvchi – O‘zBoshgidromet.

**Landshaft** – fizik geografiyaning asosiy tushunchalardan biri. Relyefi, iqlimi, tuprog‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘ziga xos xususiyatlari hamda kelib chiqishi bilan farqlanadigan tabiiy – hududiy majmua (hudud, akvatoriyA.. Landshaftlar ma‘lum kengliklarda landshaft zonolari va Yerning landshaft qobig‘ini hosil qiladilar.

**Lisenziya** – O‘zDavtabiat qoshidagi, Hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish davlat nazorati (Davbionazorat) tomonidan berilib yovvoyi hayvonlarni ovlash, o‘simliklarni yig‘ish, ko‘paytirish yoki yovvoyi flora va fauna qilish huquqini taqdim etuvchi hujjat.

**MAB (MAC.** – Inson va biosfera xalqaro ilmiy tadqiqot dasturi. Asosan inson faoliyatining tabiiy ekotizimlarga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Yo‘nalishlaridan biri – biosfera qo‘riqxonalarining umumjaxon tarmog‘ini yaratish.

**HBD** – Xalqaro biologik dastur. YUNESKOning sayoramizning asosiy biomlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot dasturi.1964-1977yy o‘tkazilgan.

**Yashash joylari (TMHI tahririda.)** – tarqalish hududining (arealning). hayvon yoki o‘simlik poplatsiyasi yashashi uchun kerakli sharoitlar mavjud bo‘lgan qismi.

**Yashash joyi** – 1) umumiy ekologiyada – organism yoki poplatsiya yashaydigan joy turi yoki tabiiy sharoitlar majmui; 2) TMHI tahririda butun qismi poplatsiya yoki uning bir qismi (subpoplatsiya. yashaydigan umumiy arealning kichik bir qismi.

**Monitoring** – biror obyektlar yoki hodisalar (sh.k. biologik xususiyatli) ustidan kuzatuv olib borish.

TMHI (IUCN) – Tabiani muhofaza qilish xalqaro ittifoqi. 1948y tashkil topgan, shtab – kvartirasi Glandda (Shveysariya.) Xalqaro mustaqil, nohukumat tashkilot. Maqsad va vazifalari: tabiiy muhofazasini (ayniqsa bioxilma - xillikni), tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni va jamiyat bilan biosferaning boshqa tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlash.

**Hayvonot olami ahli** – ma'lum hududda yashovchi barcha turlar individlarining yig'indisi. Turlar xilma- xilligi, Yoshi va jisiiy tarkibi, maydon birligidagi soni, maydon birligidagi soni, trofik (ozuqaviy) guruhlar nisbati va boshqa statistik ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

**Milliy bog'** – o'z tarkibida qo'riqxonaga maqomidagi markaziy hududni, rekreatsiya zonasini va tabiatdan nazoratli faol foydalanish zonasini mujassamlashtirgan alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hudud.

**BMQ** – Bioxilma- xillik bo'yicha milliy komissiya.

**BRMK** – O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish bo'yicha milliy komissiyasi.

**AMMTMP** – O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish ekologik jihatdan ta'minlash tadbirlarining milliy rejasi.

**(ekologik) HXT** – atrof-muhit muhofaza qilish va sog'liqni saqlash, ekologik ta'lim, tabiat muhofazasi targ'iboti bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlar.

**Xonakilashtirilgan hayvonlar (yoki madaniy o'simliklar)** – evolutsiya jarayoni va xususiyatlari inson faoliyatlari tufayli o'zgartirilib shu tarzda tutib turiladigan biologik turlar.

**AMTH** – alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, milliy bog'lar, tabiat yodgorliklar.

**Cho'llanish** – yerning biologik potensialini ( imkoniyatining kamyib ketishi yoki barbod bo'lishi va oxir oqibatda u cho'l va sahrolardagi kabi sharoitga tushib qolishi. Cho'llanish tabiiy yoki antropogen sabablar ta'sirida sodir bo'ladi.

**Atrof-muhitning muhofaza qilish** – ekotizimlar barqarorligi va inson salomatligi uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash uchun kerak bo'lgan xalqaro, davlat, mahalliy va ijtimoiy chora – tadbirlar majmui.

**Muhofaza qilinadigan hudud** – tabiatni muhofaza qilish borasida ma'lum maqsadga yer ishish uchun maxsus ajratilgan va boshqariladigan geografik hudud.

**Pestisid** – o‘simliklar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, tabiiy materiallar va hayvonlarni kasallik keltirib chiqaruvchilar, zararkunandalar, begona o‘tlar va ektoparazitlardan himoya qilish va h.k. da qo‘llaniladigan kimyoviy birikma.

**Populatsiya** – 1) ekologiyada sharoiti nisbatan bir xil hudduda yashovchi umumiy fenotipga ega, tashqi muhitga nisbatan o‘xshash ta’sirlanuvchi changligi va oson barqaror o‘zidan qayta ko‘payishi uchun yetarli bo‘lgan bir turga mansub yaqin qarindosh individlar guruhi; 2) TMHI tahririda arealning ma’lum qismida mazkur taksonlar (turga, kenja turga) mansub voyaga yetgan individlarining umumiy soni.

**BMTRD (UNDP)** – BMT tomonidan amalga oshirilayotgan rivojlanish dasturi.

**O‘zbekiston Respublikasining ov va ovchilik xo‘jaligini yurish haqidagi nizomi** – 1991 y tasdiqlangan, yovvoyi hayvonlarni ovlash hamda baliqchilikni yuritish tartiblarini belgilaydi.

**O‘simlik qoplami** – ma’lum hudud yoki geografik mintaqadagi o‘simlik hamjamoalari (fitosenozlar) yig‘indisi. Turlar xilma - xilligi, qoplash maydoni, hayotiy shakllar nisbati, mahsuldorligi va h.k. bilan tavsiflanadi (sin.o‘simliklar.).

**Ex - situ ko‘paytirish va muhofaza qilish** – noyob hamda yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlarni keyinchalik tabiatga reintroduksiya qilish maqsadida, hayvonot bog‘lar parvarishxonalar va maxsus markazlarda saqlash va ko‘paytirish

**Qayta iqlimlashtrish** – biologik turni avval yashagan, keyinchalik inson aybi bilan yo‘q ketgan hududga qayta ko‘chirish (sin. ReintroduksiyA..

**Rezyer vat** – maxsus muhofaza ostidagi tur yoki turlar guruhi yashayotgan hudud, yoki butun tabiiy majmua (q. MMTX).

**Reintroduksiya** – biologik turlar populatsiyalarni avval yashagan hududlariga qayta ko‘chirish va u yerda qo‘llab- quvvatlash yo‘li bilan tiklash

**Relikt** – o‘tmishdagi geologik davrlarga xos bo‘lgan yaqin turlarining katta qismi qirilib ketgandan keyin saqlanib qolgan juda qadimiy shakl (tur yoki b. sistemtik birlik). Masalan, tiyonshon qayini, archa, yumronqoziq, kurakburun va b.

**Sinanroplar** – inson yonida yashaydigan va u bilan ozuqa topish, yashirinish, himoyalaniish va h. k. jarayonlarida yaqindan bog‘liq turlar.

**SITES (CITS)** – Qirilib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish haqidagi Konvensiya (1975y.).

**In - situ saqlab qolish** – yashash joylari va tabiiy ekotizimlarini muhofaza qilish va tiklash yo‘li bilan biologik xilma- xillikni va xavf ostidagi turlar populatsiyalarini saqlab qolish.

**Stasiya – ekologik adabiyotlarda** – turning yashash joyi. Ekologik moslanuvchanligiga qarab o‘z ichiga bir biotop qismini yoki bir nechta biotop elementlarini olishi mumkin.

**Subpopulatsiya (TMHI) tahririda** – populatsiyaning boshqa vakillaridan masofalashgan ravishda ajralgan individlar guruhi.

**Takson** – 1) sistematikada qarindoshlik asosida birlashgan, boshqa orgazimlardan birmuncha ayiriq holda turuvchi va ma‘lum taksonomik kategoriya (kenja tur, tur, avlod va undan yuqorilari ) sifatida ajratilgan organizmlar guruhi, 2) MMTH (IUCN) kategoriyalariga nisbatan qo‘llanganda – tur yoki undan ham kichik birlik sifatida tushuniladi.

**TASIS (TACIS)** (loyihalaridan biri) G‘arbiy Tiyonshon bioxilma - xilligini saqlab qolish davlataro loyiha. Maqsadi – qo‘riqxonalariga tutash hududlarda yashovchi aholini barqaror ijtimoiy - iqtisodiy rovojlantirishga ko‘maklashish.

**Tarqalish hududi (TMHI tahririda).** – tur yoki kenja turning eng chekka topilish (tasodifan uchrab qolish hollari bundan mustasno) joylari chegaralari bilan cheklangan hudud (areal sinonimi).

**Yashash sharoitlari** – tirik organism yoki biologik hamjamoaning yashash muhitini belgilovchi abiotik, biotik hamda antropogen omillar yig‘indisi.

**Barqaror foydalanish** – hozirgi va kelajak avlodlar manfaatini ko‘zlagan holda biologik resurslardan ularning tabiiy imkoniyatlarini uzoq muddatga saqlab qolishga asoslanib iqtisodiy, ilmiy, ma‘rifiy, madaniy maqsadlarda boshqariladigan ravishda foydalanish.

**Barqaror rivojlanish** – ekologik cheklanishlarni, sh.k.biologik resurslardan tugallanmaydigan qilib foydalanishni hisobga olgan holda jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish shakli.

**Fauna** – mazkur hududda hozirda yashayotgan yoki o‘tgan davrlarda yashagan barcha hayvon turlarining tarixan shakllangan yig‘indisi.

**Fitosenoz** – ma‘lum biotopga xos, o‘zaro va atrof-muhit sharoitlari bilan marakkab funksional aloqadorlikdagi tabiiy guruhi. Biosenoz va biogeosenozning bir qismi (sin. O‘simliklar hamjamoasi).

**Flora** – mazkur hududda hozirda o'sayotgan yoki o'tgan davrlarda o'sgan va tarixan shakllangan o'simlik turlarining yig'indisi. Atama geografik mintaqa, cheklangan hudud yoki ma'lum yerga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

**Fasiya** – biotopning (yoki o'simlik assotsiatsiyasining boshqalardan tuprog'i, mikroiklimi, o'simlik va hayvonot dunyosining ayrim xususiyatlari bilan faralanib turadigan qismi (turli) (masalan, qumli cho'llarning mustahkamlangan va mustahkamlanmagan maydonlari).

**Edifikatlovchi** – biogeotsenozda asosiy muhit hosil qiluvchi rolni bajaruvchi tur. Bular, asosan, o'simliklardir (masalan: archa, saksovul, yong'och), lekin hayvonlar ham agar katta miqdorda bo'lsalar, bo'lishlari mumkin (katta qumsichqon, ko'rsichqon va b.).

**Ekotizim** – energiyadan foydalanish va moddalar aylanish jarayonida o'zaro va atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan tirik organizmlarning ma'lum darajadagi murakkab hamjamoalari (konsorsiya, biosenoz, biogeotsenoz, biosferani ifodalovchi umumlashtirilgan atama).

**Ekoturizm** – dam olish va mamlakatdagi tabiiy hodisalar, landshaftlar, hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishish maqsadidagi safarlar. Rekreatsiyaning shakllaridan biri.

**Endemik** – faqat mazkur hududda va boshqa yerda mutlaqo uchramaydigan mahalliy biologik tur. Kelib chiqishi bo'yicha avtohton yoki allohton (agar tur kelib chiqqan joyida tarixiy yo'q bo'lib ketgan bo'lsa bo'lishi mumkin).

**YUNEP (UNEP)** – BMTning atrof-muhit muhofazasi dasturi (1972), shtab – kvartirasi Nayrobida (Keniya, maqsadi – jamiyatning salomatligi va barqaror rivojlanishi ta'minlash uchun atrof muhitning tabiiy geografik va biologik xususiyatlarini saqlab qolish).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" 1992-yil 9-dekabrda qonuni// O'zbekistonning yangi Qonunlari. – T.: «Adolat», 1993.

2. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" (03.12.2004 y.).

3. O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (26.12.1997y.).

4. O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (26.12.1997y.).

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmon (07.02.2017 y.).

6. «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon (03.02.2018y.).

7. Vazirlar Mahkamasining "Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i va uning tarkibiga kiruvchi Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi, Burchmulla va Ohangaron davlat o'rmon xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori (14.08.2018 y.)

### **III. Kitoblar, darsliklar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari**

8. Алибеков Л. А., Исмаатов Н. И., Ғўдалов М. Р. Зомин миллий боғи ва геоэкологик муаммолар ечимининг географик асослари. –Т.: «Fan va texnologiya», 2013.

9. Алимов А.К. Қорақалпоғистон Республикасида экотуризмни ривожлантиришда Қуйи Амударё биосфера резерватининг роли. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2016 йил.

10. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. – T.: "O'qituvchi, 1991.

11. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasiga oid O'zbekiston Respublikasining Birinchi Milliy axboroti. – T., 1999.

12. Доклад по целям развития тысячелетия – Узбекистан - 2015/под общ. ред. Г. Саидовой. – Т: Центр экономических исследований, 2015.

13.Национальный доклад. О состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов в Республики Узбекистан(2008-2011 год). –Т.: “Chinor ENK”, 2013.

14.Ergashev A.E. va boshqalar. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. – Т.: Baktaria press, 2016.

15.Nigmatov A. Ekologiya nima? – Т, 2002.

16.Nigmatov A., Shivaldova N. Iqlim va biz. –Т.: “Chinor ENK”, 2011.

17.Пятый Национальный доклад Республики Узбекистан о сохранении биологического разнообразия. ПРООН/ГЭФ/. – Госкомприроды. – Ташкент, 2014. 66 с.

18.Реймерс Н.Ф. Природопользование. – М.: «Мысль», 1990.

19.Состояние окружающей среды в Центральной Азии: иллюстрации к избранным экологическим темам и показателям. Региональный экологический центр Центральной Азии, Австрийское федеральное агенство по окружающей среде. Экологическая сеть «Зои», 2015.

20.Сохранение биологического разнообразия. Национальная стратегия и план действий. – Т., 1998.

21.Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. – Т.: Chinor ENK, 2006.

22.Шестой Национальный доклад Республики Узбекистан о сохранении биологического разнообразия Под общей ред. Б.Т.Кучкарова. Госкомэкологии РУз, -- Ташкент, 2018, 240 с.

23.Экологический атлас Узбекистана, Министерство высшего и среднего специального образования РУз, Представительство ЮЭСКО в Узбекистане. –Ташкент, 2007.

24.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.

25.Ўзбекистон Республикасининг кўриқхоналари ва табиат боғлари: маълумотнома нашри. – Т.: Chinor ENK, 2010.

26.O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Tom I O‘simliklar. – Т.: “Chinor ENK”, 2009.

27.O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi . Tom II Hayvonot olami, – Т.: “Chinor ENK”, 2010.

28.O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Tom I. O‘simliklar. “Chinor ENK”, 2016.

29. Hamidov O.H. O'zbekistonning ekoturistik salohiyati. Monografiya. – T.: Fan, 2016.

30. Qayumov A.A., Rahmonov R.N., Egamberdiyeva L.Sh., Hamroqulov J.H. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014.

#### **Internet manbalar:**

[www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)

[www.meteo.uz](http://www.meteo.uz)

<http://aralbasin.net/>

[www.sreda.uz](http://www.sreda.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.eso.uz](http://www.eso.uz)

[www.carec.kz](http://www.carec.kz)

[www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

<http://geografiya.uz>

<http://uzgeolcom.uz>

<http://kitob-dgq.uz>

[http://www.wzd.cz/zoo/AS/UZ/uz\\_kogon.htm](http://www.wzd.cz/zoo/AS/UZ/uz_kogon.htm)

<http://lex.uz>

[www.un.org/esa/sustdev/](http://www.un.org/esa/sustdev/)

[www.unesco.org](http://www.unesco.org)

[www.unep.org](http://www.unep.org)

[www.undp.org](http://www.undp.org)

[www.unese.org/env/esd/](http://www.unese.org/env/esd/)

[www.worldresources.org](http://www.worldresources.org)

[www.unfra.org](http://www.unfra.org)

[www.who.org](http://www.who.org)

## ILOVA: BU QIZIQ

– O‘zbekistonda birinchi hayvonlar Qizil kitobi 1983-yil chiqdi, 113 tur kiritilgan ikkinchisi 1994-yili, 184 tur kiritilgan, ya’ni 71 turga ko‘p bo‘lgan keyingi kitob esa 2006-yili chop etildi. Birinchi o‘simliklar qizil kitobi ilk nashri 1979-yil, ikkinchisi 1984-yil, 301 o‘simliklar turi kiritilgan, ya’ni 138 turga ko‘p bo‘lgan uchinchisi esa 1998-yili chop etildi.

– “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yili 9-mart kuni 109-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi 2006-yili 18-fevraldagi 14-sonli buyrug‘i bilan qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar ro‘yxati tasdiqlangan. Ro‘yxatga 184 hayvonlar turi, ulardan 47 turi butunlay yo‘q bo‘lish arafasidagi va 5 tur yo‘q bo‘lib ketgan turlar va 305 o‘simliklar turlari kiritilgan.

– O‘zbekistonda dorivor va ozuqa yovvoyi xomashyo bo‘lmish o‘simliklarga ehtiyoj katta. Ayrim o‘simlik turlari yovvoyi o‘simliklar xomashyo sifatida yoki manzarali gullari uchun terilganligi tufayli (lolalar, pion, yer resuruslar va boshqalar) qizil kitobga kiritildi.

– Endemik bo‘lmish turangali teraklardan iborat oldingi yillarda odam qadami yetmas to‘qaylar bo‘lgan qayir o‘rmonlarning hozirgi kunda antropogen bosimi tufayli atigi bir foizi saqlanib qolgan qishloq xo‘jaligida ishlatish uchun yerlar sifatida qayirdagi o‘rmonlar yo‘q qilinardi.

– Davlat o‘rmon fondining umumiy maydoni respublikaning umumiy maydonidan 18,4 foizni tashkil qiladi. Respublikamizning geografik joylashishiga asosan o‘rmon kam rivojlangan - 6,4 foizga yaqin. Ularning oqilona ishlatilmaydigan yer maydonlari kamayishi o‘rmonlik darajasining pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, o‘rmon fondiga sezilarli zararni muntazam ravishda mollarini ortig‘i bilan o‘tlatish, daraxt va butalarni noqonuniy kesish yetkazadi.

*Sayyoramizning xronologik Yilnomasidan.*

## DUNYO MILLIY BOG'LARI VA QO'RIQXONALAR:

### AFRIKA MILLIY BOG' VA QO'RIQXONALARI

| N  | Milliy bog'lar    | Qo'riqxonalar |
|----|-------------------|---------------|
| 1  | Dubl-V            | Asongo-Menako |
| 2  | Komoe             | Rungva        |
| 3  | Bamingi-Bangoram  | Nyasa         |
| 4  | Janubiy           | Selus         |
| 5  | Salonga           |               |
| 6  | Upemba            |               |
| 7  | Kameya            |               |
| 8  | Kafue             |               |
| 9  | Etosha            |               |
| 10 | Chobe             |               |
| 11 | Kryugyer          |               |
| 12 | Gemsbok           |               |
| 13 | Iona              |               |
| 14 | Byer eg Skeletov  |               |
| 15 | Namib-Naukluft    |               |
| 16 | Savo              |               |
| 17 | Syer engeti       |               |
| 18 | Sentral Kalaxari* |               |

### AVSTRALIYA MILLIY BOG' VA QO'RIQXONALARI

| N | Milliy bog'lar      | Qo'riqxonalar          |
|---|---------------------|------------------------|
| 1 | Kokadu              | Braun Reynj            |
| 2 | Rudal-Rivyer        | Viktoriya katta cho'li |
| 3 | Simpson Dezyer t    | Tanami-Dezyer t        |
| 4 | Staten-Rivyer       |                        |
| 5 | Xamyer stli-Renjyer |                        |
| 6 | Fordlend            |                        |
| 7 | Draysled-Rivyer     |                        |

## JANUBIY AMERIKA MILLIY BOG' VA QO'RIQXONALARI

| N  | Milliy bog'lar         | Qo'riqxonalar   |
|----|------------------------|-----------------|
| 1  | Makarena               | Islas-Guaytekas |
| 2  | Piku-de-Neblina        |                 |
| 3  | Syer raniya-La-Nablina |                 |
| 4  | Jau                    |                 |
| 5  | Shingu                 |                 |
| 6  | Araguaya               |                 |
| 7  | Pakaas-Novus           |                 |
| 8  | Iguasu                 |                 |
| 9  | Nauei-Uapi             |                 |
| 10 | Laguna-San-Rafael      |                 |
| 11 | Los-Glasyaros          |                 |
| 12 | Kanyama                |                 |
| 13 | Riu-Negru              |                 |
| 14 | Amazoniya              |                 |
| 15 | Manu                   |                 |
| 16 | Lanin                  |                 |
| 17 | Albyer to-Agostini     |                 |

## SHIMOLIY AMERIKA MILLIY BOG' VA QO'RIQXONALARI

| N  | Milliy bog'lar              | Qo'riqxonalar      |
|----|-----------------------------|--------------------|
| 1  | Shimoli-g'arbiy Grenlandiya | Noatak             |
| 2  | Auyuituk                    | Natur              |
| 3  | Klueyn                      | Yukon Charli       |
| 4  | Vud-Baffalo                 | Byer ing-Lend-Brij |
| 5  | Jaspyer                     | Ajal vodiysi       |
| 6  | Gleyshyer                   | Yel-Viskayno       |
| 7  | Kononlends                  | Sian-Kaan          |
| 8  | Buyuk Kanyon                | Buyuk Kanyon       |
| 9  | Shimoliy Yukon              |                    |
| 10 | Geyts-of-te-Arttik          |                    |
| 11 | Kobuk-Valli                 |                    |

|    |                        |  |
|----|------------------------|--|
| 12 | Denali                 |  |
| 13 | Leyk-Klark             |  |
| 14 | Katmay                 |  |
| 15 | Rangel-Sent-Elayas     |  |
| 16 | Gleyshyer -Bey         |  |
| 17 | Naxanni                |  |
| 18 | Shahzoda-Albyer t      |  |
| 19 | Yellouston             |  |
| 20 | Kumbres-de-Montyer rey |  |

### YEVROSIYO MILLIY BOG‘ VA QO‘RIQXONALARI

| N  | Milliy bog‘lar     | Qo‘riqxonalar  |
|----|--------------------|----------------|
| 1  | Taman Negara       | Kronotskiy     |
| 2  | Kirtxar            | Olekmin        |
| 3  | Gauya              | Kutai          |
| 4  | Leyk-Diskrit       | Taymir         |
| 5  | Belovejskaya Pusha | Markaziy Sibir |
| 6  | Yekren             | Yugan          |
| 7  | Kasorea            | Issiqko‘l      |
| 8  |                    | Pinega         |
| 9  |                    | Qora dengiz    |
| 10 |                    | Kxaukxiau      |
| 11 |                    | Polsha         |

### ANTARKTIDADAGI ILMIY STANSIYALAR VA QAYSI MAMALAKATGA TEGISHLI EKANLIGI


| N | Ilmiy stansiyalar | Mamlakati |
|---|-------------------|-----------|
| 1 | Palmyer           | AQSH      |
| 2 | Amundsen Skott    | AQSH      |
| 3 | Mak-Myer do       | AQSH      |
| 4 | Bellinsgauzen     | Rossiya   |
| 5 | Vostok            | Rossiya   |
| 6 | Mirniy            | Rossiya   |

|    |                    |                  |
|----|--------------------|------------------|
| 7  | Molodyojnaya       | Rossiya          |
| 8  | Novolazyer evskaya | Rossiya          |
| 9  | Signyu             | Buyuk Britaniya  |
| 10 | Rotyer a           | Buyuk Britaniya  |
| 11 | Xalli              | •Buyuk Britaniya |
| 12 | Belgrano II        | Argentina        |
| 13 | Dyumon-d'Yurvil    | Fransiya         |
| 14 | Keysi              | Avstraliya       |
| 15 | Mouson             | Avstraliya       |
| 16 | Syova              | Yaponiya         |
| 17 | Maytri             | Hindiston        |
| 18 | SANAE              | JAR              |


*Hozirda yo'qolib ketgan ba'zi bir qush va hayvonlar  
Dodo Raphus cucullatus. Mavrikiya oroli endemigi bo'lgan.*



*Haltali bo'ri: Thylacinus cynocephalus. Avstraliya endemigi*



*Katta moa - Dinornis novaezealandiae.*  
*Bo'yi 3-3,5 metr, og'irligi-250 kg bo'lgan.*



*Steller (dengiz) sigiri Hydrodamalis gigas. 1741-yil Vitus Bering*  
*ekspeditsiyasi paytida topilgan.*



## MUNDARIJA

|                                                                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kirish soʻzi.....                                                                                            | 3   |
| 1-§. Bioxilma - xillik tushunchasi va uning atrof - muhit muhofazasidagi oʻrni.....                          | 5   |
| 2-§. Oʻzbekistonning geografik va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari..                                     | 13  |
| 3-§. Oʻzbekiston ekotizimlari. ....                                                                          | 18  |
| 3.1. Daryo va qirgʻ oqboʻyi ekotizimlari .....                                                               | 23  |
| 3.2. Ichki suv-botqoqlik ekotizimlari .....                                                                  | 24  |
| 3.3. Togʻ ekotizimlari .....                                                                                 | 26  |
| 4-§. Bioxilma - xillikka boʻlgan xavflar .....                                                               | 30  |
| 5-§. Qizil kitob.....                                                                                        | 33  |
| 6-§. Agrobioxilma - xillik.....                                                                              | 38  |
| 7-§. Bioxilma - xillikdan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish.....                                             | 41  |
| 8-§. Bioxilma - xillikni saqlash va barqaror foydalanishning mavjud shart-sharoitlari.....                   | 46  |
| 9-§. Davlat qoʻriqxonalari.....                                                                              | 54  |
| 9.1. Chotqol davlat biosfera qoʻriqxonasi.....                                                               | 59  |
| 9.2. Hisor davlat qoʻriqxonasi.....                                                                          | 62  |
| 9.3. Zomin davlat qoʻriqxonasi.....                                                                          | 63  |
| 9.4. Nurota davlat qoʻriqxonasi.....                                                                         | 64  |
| 9.5. Surxon davlat qoʻriqxonasi.....                                                                         | 66  |
| 9.6. Qizilqum davlat qoʻriqxonasi.....                                                                       | 68  |
| 9.7. Zarafshon davlat qoʻriqxonasi.....                                                                      | 69  |
| 9.8. Kitob davlat biologik qoʻriqxonasi.....                                                                 | 70  |
| 10-§. Quyi Amudaryo biorezervati.....                                                                        | 72  |
| 11-§. Milliy bogʻlar.....                                                                                    | 76  |
| 11.1. Ugom-Chotqol davlat tabiiy milliy bogʻi.....                                                           | 78  |
| 11.2. Zomin milliy abiat bogʻi.....                                                                          | 84  |
| 12-§. Davlat buyurtmaxonalari.....                                                                           | 95  |
| 13-§. «Jayron» ekomarkazi.....                                                                               | 104 |
| 14-§. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati..                                       | 109 |
| 15-§. Iqlim oʻzgarishi va biologik xilma-xillik masalalari.....                                              | 134 |
| 16-§. Biologik xilma-xillikning tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. Barqaror rivojlanish ..... | 142 |
| Glossariy.....                                                                                               | 171 |
| Foydalanilgan adabiyotlar .....                                                                              | 182 |
| Illova.....                                                                                                  | 185 |

## **BIOXILMA-XILLIK VA UNING MUHOFAZASI**

**Toshkent – «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» – 2020**

|                              |                |
|------------------------------|----------------|
| Muharrir:                    | M. Hayitova    |
| Tex. muharrir:               | A.Moydinov     |
| Musavvir:                    | A.Shushunov    |
| Musahhih:                    | Sh.Mirqosimova |
| Kompyuterda<br>sahifalovchi: | M.Zoyirova     |

**E-mail: [nashr2019@inbox.ru](mailto:nashr2019@inbox.ru)**

**Nashr.lits. AL№009, 20.07.2018. Bosishga ruxsat etildi 13.10.2020.  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 12.5. Nashriyot bosma tabog'i 12.0  
Tiraji 100 . Buyurtma № 132.**

**«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»  
bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

ISBN 978-9943-6600-5-2



9 789943 660052